

M. BEKMURODOV, A. UMAROV,
U. QORABOYEV, Z. HAYDAROV

**IJTIMOIY-MADANIY
FAOLIYAT TARIXI,
NAZARIYASI VA
USLUBIYATI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

M. BEKMURODOV, A. UMAROV,
U. QORABOYEV, Z. HAYDAROV

IJTIMOIY-MADANIY
FAOLIYAT TARIXI,
NAZARIYASI VA USLUBIYATI

(«5610400 – Ijtimoiy-madaniy faoliyat» ta'lif
yo 'nalishi bo 'yicha darslik)

UO'K: 316.61

KBK: 71.04

U-26

U-26 Bekmurodov M., Umarov A. va boshq. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi, nazariyasi va uslubiyati. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – «Ma'naviyat», 2016 – 336 b.

ISBN 978-9943-04-301-5

Mazkur darslikda xalq madaniyati, ma'rifati va ma'naviyatini shakllantirish hamda yuksaltirishda muhim omil hisoblangan ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasining asosiy yo'nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan talqin etiladi. Jumladan, qadim moziyga ega yurtimizda kechgan ijtimoiy-madaniy faoliyatning tarixiy bosqichlari, faoliyatning nazariy asoslari, amalga oshiriladigan ko'plab sohalari mamlakatimizdagi mavjud holat misolida keng va atroficha yoritiladi.

Darslik respublikamiz oliy o'quv yurtlarining tegishli yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya beruvchi fakultetlari talabalariga, malaka oshirish kurslari ting-lovchilariga, shuningdek, pedagog murabbiylar, ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan shug'ullanuvchi amaliyotchi mutaxassislarga mo'ljallangan.

UO'K: 316.61

KBK: 71.04

M a s ' u l m u h a r r i r:
O'zDSMI dotsenti A. Haydarov

T a q r i z c h i l a r:
O'zMU «Sotsiologiya» kafedrasи prof. N. Aliqoriyev
NamDU professori A. Rasulov

*O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar qo'mitasining
A-1-37 raqamli «Madaniyat va aholi dam olish markazlarining
zamonaviy funksiyalarini ilmiy-amaliy tadqiq etish» mavzuidagi
loyihasi doirasida tayyorlandi.*

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2015-yil 21-avgustdagи 303-sон buyrug'iiga asosan nashr
qilishga ruxsat berilgan.**

ISBN 978-9943-04-301-5 © «Ma'naviyat», 2016



SO‘ZBOSHI

Mamlakatimizda aholi turli tabaqalari vakillarini badiiy, estetik, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlarda tarbiyalash, odamlarning ma’naviy, ijodiy faolligini oshirish, barkamol insonni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasining o‘rni va roli kattadir. Ijtimoiy-madaniy faoliyat madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va san’at saroylari, muzeylar, madaniyat va istirohat bog‘lari, mahalla guzarlari, axborot-resurs markazlari, kutubxonalar, rassomlik galereyalari orqali amalga oshiriladi. Sobiq sho‘rolar davrida bu faoliyat madaniy-oqartuv ishi nomi bilan yuritilar, ularning asosiy ish mazmuni totalitar tuzum mafkurasi badiiy vositalar orqali aholining eng quyi qatlamlariga qadar yetib borishi uchun xizmat qilar edi. O‘sha davrdagi klub muassasalariga odamlar deyarli kirishmas, badiiy havaskorlik ijodiyoti nomiga tashkil etilardi. Qishloq joylaridagi kutubxonalarning eshiklari aksariyat holda yopiq bo‘lib, ulardagи kitoblar soni 3–5 mingdan oshmas, bori ham asosan siyosiy adabiyotlardan iborat bo‘lardi.

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng madaniy-ma’rifiy ishlar tubdan isloh etilib, ijtimoiy-madaniy faoliyat deb nomlandi. Odamlar kirmaydigan xarob holdagi kutubxonalar o‘rniga axborot-resurs markazlari barpo etildi. Klub muassasalari esa «Madaniyat va aholi dam olish markazi» sifatida qayta tashkil qilindi. «Ijtimoiy-madaniy faoliyat» tom ma’noda yangi inson ma’naviyatini shakllantirish sohasiga aylandi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat rivojida davlatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ma’naviyat va ma’rifat sohasiga bo‘lgan doimiy e’tibori beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan,

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006-yil 3-apreldagi «Aholi o‘rtasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot-tashviqot ishlarining ta’sirchanligi va samarasini oshirishga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi PQ-317-son Qarorida xalqimizni dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy, mafkuraviy kurashlardan muntazam xabardor qilish, jahonda va yon atrofimizda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarga nisbatan fuqarolarimizda ongли munosabatni shakllantirish, ularda milliy manfaatlarimizni chuqr anglash va himoya qilish, Vatanimizning bugungi va ertasi uchun daxldorlik va mas’ullik hissini yanada kuchaytirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish yo’llari aniq ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari Birinchi Prezidentimizning «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi 2006-yil 25-avgustdagи PQ-451-son Qarorida ham mustaqilligimizning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarmizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talabari darajasida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy hujrlardan himoya qilish, atrofimizdagи voqealarga nisbatan daxldorlik hissini oshirish, hayotga ongli munosabatni shakllantirish, turli mafkuraviy, ma’naviy tajovuzlar va tahdidlarga qarshi kurash olib borish vazifalari aniq belgilab berilgan.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasi taraqqiyotining izchillashuvida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2013–2018-yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2013-yil 25-iyundagi 178-sон Qarori ham muhim qadam bo‘ldi.

Bugungi kunda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini va ta’sirchanligini oshirish uchun mavjud zamonaviy usullar, vositalar va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu muammoga ilmiy-amaliy yondashuv asosida tadbirlar qatnashchilari ruhiy olamini chuqr o‘rganish, ma’naviy-

ma'rifiy tadbirlarning usullari, shakllari, vositalarini ijtimoiy psixologiya va pedagogika, sotsiologiyaning zamonaviy ilg'or yutuqlariga tayangan holda tanlash, tashkil etish va amalga oshirish g'oyat muhimdir.

Mazkur darslik «Ijtimoiy-madaniy faoliyat» ta'lim yo'naliшining dolzarb ilmiy-amaliy muammolariga bag'ishlangan bo'lib, u mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ayni sohada ta'lim-tarbiya olayotgan talabalarga, ularning ustozlari hamda amaliyotchi mutaxassislarga mo'ljallangan.

I. IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATNING TARIXIY BOSQICHLARI

1.1. Tosh davridagi qadimgi madaniyat izlari (miloddan avvalgi 100–3-mingyilliklar)

Markaziy Osiyoning mo‘tadil iqlimi va atrof-muhit sharoitlari bu yerda juda qadimdan inson manzilgohlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Mamlakatimizning janubiy Hisor tog‘ tizmasi turkumiga kirgan Boysuntog‘ va Ko‘hitang tog‘larida mavjud g‘or va o‘ngurlar ibridoiy davr odamlari uchun makon bo‘lib xizmat qilgan. Mamlakatimiz hududidagi eng qadimgi neandertal odamning manzilgohi Boysuntog‘dagi Teshiktosh g‘ori bo‘lib, o‘rta tosh davriga, ya’ni miloddan avvalgi 100–40-ming yilliklarga oid. Bu g‘ordan ibridoiy odamlar yasagan 3000 donaga yaqin keskich, taroshlagich va chopqi kabi tosh o‘zaklar topilgan. Teshiktosh g‘oridan ibridoiy davr odamining tashqi ko‘rinishini tiklashda ashyoviy manba hisoblangan odam tana suyagi topilishi ham juda muhimdir. Boysundagi Amir Temur g‘ori ham hududning eng qadimgi g‘or makonlari turkumiga kirdi. Tosh asrining yuqori bosqichiga kelib (miloddan avvalgi 40–12-mingyilliklar) janubiy Hisor tog‘ tizmalaridan boshlangan daryo va soy bo‘ylari (To‘palang daryosi havzasi) odamlar tomonidan jadal o‘zlashtirilgan.

Mezolit davriga kelib insonlar nafaqat g‘orlarda, balki pasttekisliklarda va daryo bo‘ylarida ham makon qurib istiqomat qila boshlaganlar. Birgina Farg‘ona vodiysining tog‘ va tog‘ oldilarida 100 dan ortiq mezolit davri yodgorliklari qayd etilib o‘rganilgan. O‘zbekistonda Obishir g‘orlari (So‘x daryosi o‘zanida) xilma-xil mayda tosh qurollari bilan ajralib turadi. Bu davrga mansub bir qancha yodgorliklar – Toshkent atrofida Qo‘shilish (Bo‘zsuv yoqasida), Surxondaryoda Ko‘hna Termiz, Ayritom kabi yodgorliklarda ko‘plab tosh

qurollar uchragan. Bu davrga kelib o‘q-yoy ixtiro qilingan, suyakdan bigiz va boshqa qurollar yasalgan, mayda tosh qurollar ko‘paygan va yovvoyi hayvonlar xonakilashtirila boshlangan.

O‘rta tosh davri odamlar tasavvuri va e’tiqodlarida keskin o‘zgarish yuz bergan davr hisoblanadi. Bu jarayonni Markaziy Osiyoning eng qadimgi rang tasvirlaridan bo‘lmish Ko‘hitangdagi Zarautsoy suratlarida kuzatish mumkin. Zarautsoydagi tosh ayvon yuza qismida va shipida qizil bo‘yoqlarda bitilgan 200 ga yaqin suratlar saqlanib qolgan. Bu lavhalarda ov marosimi, hayvonot olami va o‘rta tosh davri odamlari tasvirlari o‘z aksini topgan. Ba’zi bir olimlarning ta’kidlashicha, Zarautsoy suratlarida sehrli ov marosimi aks ettirilgan.

Zarautsoy suratlari Markaziy Osiyoda san’atning, shu jumladan, tasviriy san’atning ilk namunasi hisoblanadi. Hozirgi Surxondaryo viloyati hududida neolit (yangi tosh), eneolit (mis-tosh) davrlari manzilgohlari Ko‘hitang va Bobotog‘ bag‘irlarida qayd etilgan bo‘lib, bu makon va manzilgohlar ham jez (bronza) asrida vohada dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Ma’lumki, «Tosh davri»ga xos bo‘lgan madaniy obidalar bundan 100–3 ming yildan avvalgi davrni o‘zida aks ettiradi. Ayni davrga oid Boysun tumanidagi Teshiktosh g‘oridan topilgan neandertal bolaning bosh qismi maketi, qabrining ko‘rinishi, Zarautsoyda topilgan ov marosimi aks ettirilgan qoyatosh surat namunasi hamda Teshiktosh va Machay g‘orlaridan topilgan tosh va suyakdan yasalgan mehnat va ov qurollari, eneolit davriga oid toshdan yasalgan omoch tig‘lari, bronza davriga oid ayol qabrini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, yurtimizda tosh davriga oid Sopolitepa, Kasbi, Rishton, Angren va Jarqo‘tondan topilgan ilk kulolchilik namunalari ham mavjuddir.

1.2. Bronza davrida ilk madaniyat namunaları (miloddan avvalgi 3–2-mingyillik boshlari)

Miloddan avvalgi 3–2-mingyilliklarni qamrab olgan bronza (jez asri) davri Markaziy Osiyoda tub o'zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Bu, avvalambor, qalayi, mis va qo'rg'oshin qorishmasidan tarkib topgan jez (bronza) qurollarining ixtiro qilinishi bilan bog'liq bo'lган. Bronzaning kashf etilishi tufayli mehnat va ov qurollari takomillashgan. Kulolchilik charxining ixtiro qilinishi hunarmandchilikning dehqonchilikdan alohida xo'jalik sifatida ajralib chiqishiga olib kelgan. Jez davriga kelib, me'morchilik rivojlangan, sug'orma dehqonchilikka asos solingan va mintaqalararo mol ayriboshlash yuzaga kela boshlagan. Bronza davri mamlaka-timizning turli hududlarida turlicha kechgan, xususan, Surxon vohasida jez asri uning so'nggi bosqichida, ya'ni, miloddan avvalgi 2-ming yillikning birinchi choragida boshlanib, miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlarigacha davom etgan. So'nggi jez davriga oid eng dastlabki o'rganilgan yodgorlik O'lanbuloqsoy etagida joylashgan Sopollitepa yodgorligi hisoblanadi. Shu bois, so'nggi jez asriga mansub madaniyat Sopelli madaniyati, deb nomlangan. Sopollitepa qal'asi tarxi 82x82 m., ichki yo'lakli uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Qal'ada aholi jamoa-jamoa bo'lib yashab, ular 8 mahallani tashkil etgan.

Miloddan avvalgi XV-asrda Sopollida hayot izlari so'nadi va bu joyda istiqomat etgan aholi Sheroboddaryo havzasiga, uning qadimiy irmoqlaridan biri – Bo'stonsoy qirg'oqlariga ko'chadi. Bu obida Jarqo'ton nomi ostida ma'lum bo'lib, 100 gektardan ortiq maydonni tashkil etadi. Jarqo'ton yodgorligi alohida muhofazalangan qal'a – Saroy va unga tutash qismdan, shu jumladan, voha uchun diniy markaz vazifasini o'tagan ibodatxona, alohida-alohida tepaliklar shaklidagi turarjoy binolaridan iborat mahallalar, kulollar ustaxonalar va xumdonlar, shuningdek, mozor-qabristondan iborat. Jarqo'ton yodgorliklarining umumiyligi maydoni, unda mahobatli inshootlarning mavjudligi, hunarmandchilikning taraq-

qiy etgani bu joyda shahar turkumidagi madaniyat mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Jarqo‘ton yodgorligi Vatanimiz hududidagi eng qadimiy shaharning ilk timsolidir. Jarqo‘ton olov ibodatxonasi bu turdagи inshootlarning eng qadimiysi bo‘lib, keyinchalik Ko‘hna Sharqning ba’zi bir markazlarida keng tarqalgan olov ibodatxonalarining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bu davrda xo‘jalikning, asosan, yaylov chorvachiligi va dehqonchilikka asoslangan ishlab chiqarish shakli qaror topdi. Amudaryo va Zarafshonning quyi qismi, Farg‘ona vodiysining shimoliy-sharqiy qismi va Janubiy Surxon vohasi tabiiy geografik jihatdan qadimgi dehqonchilikning kelib chiqishi va rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan. Atrofdagi cho‘l va dashtlarda, asosan, chorvador qabilalar yashagan.

Miloddan avvalgi XV–X-asrlar oralig‘ida mamlakatimizning ba’zi bir hududlarida, xususan, Mirshodi vohasi-da jez davrining yangi qishloq va qal’alari vujudga kelgan. Sopolli madaniyati sohiblari Vatanimiz hududida dastlabki sug‘orma dehqonchilikka asos solgan qabilalar hisoblanadi. Sopollitepa, Jarqo‘ton, Molali kabi obidalarni qazish jarayonida topilgan don qoldiqlari, toshdan yasalgan mehnat qurollari, ipakdan to‘qilgan mato va boshqa ashyoviy manbalar buning isbotidir.

Sopolli madaniyatiga xos hunarmandchilik namunalari turli-tuman bo‘lib, jezdan quyma usulda yasalgan ko‘zgular, o’smadon va ko‘zachalar, tepa qismida hayvon bosh qismi tasvirlangan jez bigizlar, ilon va xochsimon shaklda muhrlar, turli tog‘ jinslaridan yasalgan munchoqlardan iborat. Bu davrda hunarmandchilikning ommaviy turlaridan biri – kulolchilik ham jadal taraqqiy topgan. Sarg‘ish va qizg‘ish loydan charxda yasalib, maxsus xumdonlarda pishirilgan vaza va kosalar, ko‘za va jo‘mrakli idishlar, turli hajmdagi xurmacha va xumlar o‘zining sifatliligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Sopolli va ayniqsa, Jarqo‘ton yodgorliklarida loydan yasalgan but haykal, hayvonlar tasviri aks ettirilgan obrazlarning mavjudligi mamlakatimizda jez davrining so‘nggi bosqichlarida badiiy san’atning ilk kurtaklari ham shakllanganidan

dalolat beradi. So'nggi jez davrida istiqomat qilgan aholi Ko'hna Sharqning qadimiy sivilizatsiyalari, shu jumladan, Shumer, Akkad, Elam, Shimoliy Hindistonning Xarappa, Sibir va Qozog'iston hududlarida istiqomat qilgan elat va qabilalar bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganlar.

Xorazmda so'nggi jez – ilk temir davriga Suvyorgan madaniyati va Amirobod madaniyati mansub. Suvyorgan madaniyati qabilalari yog'och ustunli to'g'ri burchakli chaylarda yashagan. O'choq atrofidan sirti qizilga bo'yalgan sopol idishlar topilgan. Topilmalar ichida mikrolitlar ko'p uchraydi. Bu madaniyat 3 bosqichni o'tgan. Urug' jamoalarini ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ijtimoiy hayotda dastlab ona urug'i an'analari kuchli bo'lgan, lekin keyingi 2-bosqichda erkaklarning jamoadagi mavqeい ortgan. Ayollar erlarga iqtisodiy jihatdan qaram bo'la borgan. Katta oila jamoalarida ota huquqi qaror topib mustahkamlangan. Endi qarindoshlik otaga qarab belgilandi, urug'lar ichidagi munosabatlar otaning iqtisodiy va huquqiy hukmronligi asosiga qurilib, bolalar ota mulkiga merosxo'r bo'la boshladi. Amirobod madaniyati odamlari yarim yerto'la uylarda yashagan, uylarning markazida katta o'choq bo'lgan. Sopol idishlari tagi yassi, dag'al ishlanib, boshoqsimon naqsh berilgan. Aholi urug' jamoalariga birlashib dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Sug'orish tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

1.3. Qadimgi Baqtriya madaniyati (miloddan avvalgi 1-mingyillik boshlari – miloddan avvalgi IV-asr)

Miloddan avvalgi ming yillikning birinchi choragida o'z tasarrufiga Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlarini birlashtirgan Baqtriya o'lkasi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida chuqur o'zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Bu jarayon bevosita temirdan metall qurollari yasashning ixtiro qilinishi bilan bog'liq bo'lgan. Mamlakatimizda temirga ishlov berish so'nggi jez

davridayoq, ya’ni miloddan avvalgi XIII–XII asrlar oralig‘ida Ko‘hna Sharqning madaniy xalqlaridan biri xettliklar bilan qariyb bir davrda kashf etilgan. O‘lkada temirdan ommaviy tarzda mehnat va harbiy qurollar yasash miloddan avvalgi VII–VI asrlarga to‘g‘ri keladi.

Temirdan mehnat va harbiy qurol-yarog‘lar yasashning ixtiro qilinishi dehqonchilik, harbiy bilimlar va hunarmandchilik rivojiga katta ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu jarayon, ayniqsa, ilk temir asri obidalari tuzilishida va qishloq xo‘jaligida yaqqol seziladi. Ilk temir asriga kelib, dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan hududlar jadal o‘zlashtirilgan (Bandixon, Mirshodi vohalari va Surxondaryoning quyi havzasi) va Muzrabod, Sherobod vohalari hududlarida yangidan bunyod etilgan shaharlar va qal’alar hisobiga mavjud ekinzor yerlar kengaytirilgan. So‘nggi jez davrida dehqonchilik asosan soy va daryolar havzalarida olib borilgan bo‘lsa, ilk temir asrida sun‘iy kanallar qazilib, yerlar o‘zlashtirilgan. Bandixon vohasidagi O‘rgulsoydan qazib chiqarilgan qadimgi Zang kanaли (quyi Surxondaryo vohasi) shular jumlasidandir.

Ilk temir asri Baqtriya zaminida ikki qisqli shaharlarning to‘liq shakllangan davri hisoblanadi. Voha markazlari vazifasini o‘tagan Jondavlattepa (Sherobod vohasi), Hayitobod (quyi Surxon havzasi), Qiziltepa (Mirshodi vohasi) ikki qismidan, ya’ni arki-a’lo va ichki shahar kabi tarkibiy qismlardan iborat. Arki-a’loda voha hukmdorlarining ma’muriy inshootlari va turarjoy binolari joylashgan. Har ikki qism o‘z navbatida mustahkam mudofaa inshootlari bilan o‘rab olingan. Bu davrda doirasimon (Tallahshon–2) yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi (Bandixon tepa) mustahkam harbiy qal’alar ham barpo etilgan. Mirshodi, Qizilcha va Muzrabotdagi Kuchuktepa vohaning ilk temir asriga mansub qishloqlari turkumidandir.

Vohada qadimgi Baqtriya podsholigi davrida shaharsozlik va me’morchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham taraqqiy topgan. Mirshodi vohasidan topilgan toshdan yasalgan odam bosh qismi tasviri, Kuchuktepa, Qiziltepa, Tallashqon kabi obidalardagi uch qirrali paykonlar, temir o‘roqlar, keli va kelisoplar shular jumlasiga kiradi va bu kabi

noyob ashyoviy manbalar Termizdagi Arxeologiya muzeining «Qadimgi Baqtriya madaniyati» ko‘rgazma zalida namoyish etilmoqda.

Miloddan avvalgi VI–IV asrlar kulolchiligining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, don va suv saqlashga mo‘ljallangan ulkan xumlardan tortib mo‘jaz sopol idishlarning aksariyati charxda yasalgan va bankasimon ko‘rinishga ega bo‘lgan.

Qadimgi Baqtriya davlati (Baqtriya, Baqtriana – bu yunoncha nom, Baxdi – Eronga nisbatan sharqda joylashgan o‘lka degani) miloddan avvalgi VI asr o‘rtalaridan Eron ahmoniyalariga qaramlikka tushib qolgan. Bu voqeа miloddan avvalgi 545–539 yillar oralig‘ida Kir podsholik qilgan Eron qo‘sishinlarining Markaziy Osiyoning katta qismini bosib olishi oqibatida ro‘y bergen. Shu sanalardan tortib makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) qo‘sishinlari tomonidan qadimgi Eron davlatining tor-mor etilishiga qadar Baqtriya ahmoniyalar Eronining katta viloyatlaridan biri hisoblangan. Vohaning qadimgi Baqtriya davriga mansub 42 ta yodgorligining aksariyat qismi makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi qo‘sishlar hujumi tufayli vayronaga aylangan.

1.4. Baqtrianing makedoniyalik Iskandar va ellistik davlatlar davri madaniyati (miloddan avvalgi 329-yil – miloddan avvalgi II-asr o‘rtalari)

Miloddan avvalgi 329-yilda makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi Yunon-makedon qo‘sishinlarining Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) oralig‘idagi hududni egallash uchun yurishi boshlandi. Bu harbiy muhoraba sug‘dliklar, baqtriyaliklar va saklarning qattiq qarshilik ko‘rsatishlariga qaramasdan miloddan avvalgi 327-yilda Oks va Yaksart oralig‘idagi kattagina hududni egallash bilan tugaydi. Shu sanadan boshlab Markaziy Osiyoning ba’zi bir viloyatlari kabi Baqtriya o‘lkasi, shu jumladan, Surxon vohasi ham makedoniyalik Iskandar davlati tarkibiga kiritiladi. Makedoniyalik Iskandar vafotidan so‘ng (miloddan avvalgi 323-yil)

Surxon vohasi Salavkiylar davlati tasarrufida bo'ladi. Miloddan avvalgi III asrning 50-yillarida Baqtriyada Diodot asos solgan Yunon-Baqtriya shohligi vujudga kelib, bu davlat miloddan avvalgi II asrning o'rtalarigacha hukmronlik qiladi. Miloddan avvalgi II asrning 40–30-yillari oralig'ida Yunon-Baqtriya davlati sak, yuechji (yovchi) va toxar kabi elat va qabilalarning yurishi tufayli inqirozga uchraydi. Makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi Yunon-makedon qo'shinlarining istibdodi qo'shni o'lklalar singari Baqtriyada ham tushkunlik va vayronagarchilikka olib kelgan. Vohaning harbiy jihatdan muhim bo'lgan va suv manbalariga boy bir necha shahar va qishloqlarida hayot davom etgan.

Vohada madaniy hayotning qaytadan tiklanishi Salavkiylar va ayniqsa Yunon-Baqtriya shohligi davrida yuz bergan. Yunon-Baqtriya podsholigi davriga kelib Oks (Amudaryo) bo'ylarida joylashgan Ko'hna Termiz shahar sifatida shakllangan, kechuv joyida qal'a vazifasini o'tagan Kampirtepa, Hayitobodtepa, Jondavlattepa kabi shaharchalar kengaytirilgan va Dalvarzintepa kabi shahar, qishloq va qal'alarga asos solingan.

Miloddan avvalgi III–II-asrlar Baqtriyada, butun Yaqin Sharq hududida bo'lgani kabi, qadimgi Sharq an'analari va Yunon madaniyatining birikuvi va hamkorligi jarayoni kuchayib ellistik madaniyatni yuzaga keltirgan. Bu jarayon shaharsozlik va me'morchilikda, tangalar zarb qilishda, ya'ni tovar pul munosabatlarining tarkib topishida, badiiy san'at va hunarmandchilikda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shimoliy Baqtriya (Surxon vohasi)ning Yunon-Baqtriya davri badiiy san'ati turlaridan biri terrakota haykalchalar, ya'ni mo'jaz san'at namunalaridir. Bular yalang'och qiyofada yoki tovonlariga tushgan kiyimlari hilpirab turgan haykalchalar yoxud ayol ma'budaning taxtda o'tirgan holatdagi tasvirlaridir. Bir qism haykalchalar fil suyagi yoki marmar toshdan yo'nilgan bo'lib, o'zining nafisligi va yuksak badiyiliqi bilan ajralib turadi. Yunon-Baqtriya shohlari nomidan zarb etilgan tangalarning yuza qismida Diodot, Demetriy va boshqa hukmdorlarning ko'kravigacha tasviri tushirilgan

bo'lib, aynan portret shaklidadir. Yunon-Baqtriya shohligi davri o'ymakorlik, shishasozlik, sangtaroshlik kabi hunarmandchilik turlarining ham taraqqiy etgan davridir.

Xullas, miloddan avvalgi III-II-asrlarda O'rta Osiyoda Yunon-Baqtriya podsholigi tashkil topishi oqibatida mahalliy madaniyat hamda yunon, hind va Eron madaniyatlarining ilg'or an'analari omuxtalaniib, o'ziga xos qadimgi yuksak madaniyat shakllandı. Bunday madaniyatning o'chog'i bo'lgan Baqtriya qo'shni mamlakatlar davlatchiligi va xo'jaligining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi. Bunday ta'sirning izlari Parfiya, Qora dengiz bo'yi davlatlari, Hindiston va boshqa mamlakatlarning tarixiy obidalarida o'z aksini topdi.

1.5. O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlardagi davlatlari madaniyati

Qadimgi Xorazm. Miloddan avvalgi IV-asrda Xorazm Axamoniylar davlatidan ajralib, o'z mustaqilligini tiklab ola-di. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari, so'ngra Salavkiylar hukmronligi davrida ham o'z erkini saqlab qol-gan Xorazm bu yangi fotihlar bilan mustaqil davlat sifatida aloqada bo'ladi.

Ma'lumki, miloddan avvalgi IV–V-asrlardayoq uzil-kesil shakllangan Xorazm vohasining o'troq xo'jaligini, asosan, dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Bunday ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning kengayishi esa, o'z navbatida vo-hada ko'plab shahar, qishloq va qal'alarning qad ko'tarishiga, hunarmandchilikning kulolchilik, temirchilik, to'qimachilik, zargarlik va qurolsozlik kabi turli sohalari yuksak darajada rivoj topishiga olib kelgan.

Bu davrda Qadimgi Xorazmda ayniqsa, dehqonchilik vohalari, aholi turarjoylari muhofazasiga katta ahamiyat beriladi. Shahar, qishloq va qal'a darvozalari g'ulomgardish, burj va nishon tuynuklari bilan mustahkamlanadi. Ulkan va o'ta mustahkam qal'alari tufayli bu qadimgi diyor Xo-razm («Xu-var-zm»), ya'ni «yaxshi yoki ajoyib qal'ali o'lka»

ma’nosini anglatuvchi nom bilan shuhrat topgan. Bunday qal’alar Avesto kitobida «var» atamasi bilan tilga olinadi. Varlar girdining tomonlari bir ot chopimi (taxminan 3 km) uzunlikda bo’lgan. Qo’rg’on shaklidagi var ichkarisiga 9 ta darvoza orqali kirilgan. Tashqi devor bo’ylab qo’rg’on ichida turarjollar barpo etilgan. Qal’aning ichki sahni bo‘m-bo‘sh maydondan iborat bo’lgan. U qo’ton vazifasini o’tagan. Chunki chorva va dehqonchilik bilan kun kechirgan Xorazmning o’troq jamoalari uchun chorva asosiy mulk – boylik hisoblanib, yov bosqinlari davrida ko‘plab qo‘y otarlari, qoramol podalari va yilqi uyurlari varlarga kiritilib, talonchilikdan muhofaza etilgan. Varlar, shubhasiz, urug’ yoki qabilaning mudofaa istehkomi va mavsumiy qishlov joyi bo’lgan.

Qadimgi Farg’ona davlati. Farg’ona vodiysi soy havzalarida shakllangan katta-kichik o’troq dehqonchilik vohalari kengayib, miloddan avvalgi IV–I asrlarda ishlab chiqaruvchi xo’jalikning turli sohalari rivoj topadi. Bir nechta qishloq va shaharlar qad ko’taradi. Qadimda bu obod tarixiy o’lka va bosh shahri tabiatiga monand mazmunni anglatuvchi «Parkana», ya’ni «suv bo‘yi» yoki oddiygina «vodiy» deb yuritilgan. Qadimgi Xitoy yozma manbalarida u Dayyuan (Davan) nomi bilan tilga olinadi.

Miloddan avvalgi II asrda Davanda 300 ming nafar aholi yashagan. Unda 70 ga yaqin katta-kichik shahar bo’lgan. Quva shahri (Qayqubat) uning poytaxti bo‘lib, 60 ming nafarli qo’shini bo’lgan.

Davanliklar g‘arbda qang‘liklar, shimolda usunlar, sharqda esa uyg‘urlar bilan yaqin aloqada bo‘lishgan. Dehqonchilikda ular tengi yo‘q mirishkor bo‘lib, arpa, bug’doy, sholi va beda kabi ekinlarni yetishtirishgan. Bog‘dorchilik, ayniqsa, uzumchilik keng yoyilgan. Davanda o’troq ziroatkor aholi bilan bir qatorda tog‘ oldi va dashtlik hududlarda chorvador qabilalar ham yashagan. Chorvachilikka, ayniqsa, yilqichilikka e’tibor kuchli bo’lgan. Davan qadimda o’zining zotli «samoviy» arg‘umoqlari bilan shuhrat qozongan. Davan tulporlari, ayniqsa, Xitoyda juda qadrlangan.

Miloddan avvalgi II-asrda Davanda qaviylik darajasida-gi hokimlik hukm surgan. Davlat boshqaruvida oqsoqollar kengashi muhim o'ringa ega bo'lgan. Davlat va jamoalarga tegishli hayotiy masalalar oqsoqollar kengashida hal etilgan. Davanda pul zarb etish bu vaqtida hali yuzaga kelmagan edi. Tashqi va ichki savdo pulsiz – mol ayirboshlash vositasida amalga oshirilgan.

Farg'ona tulporlarini qo'lga kiritish bahonasi bilan Xitoy hukmdorlari Davan davlatini bo'ysundirish uchun bir necha bor harakat qiladi. Chunki ko'chmanchi jangovar hunnu qabilalarining chopqunlariga qarshi kurashishda Xitoy suvoriylari uchun ko'plab chopqir otlar yetishmas edi. Miloddan avvalgi 104- va 101-yillarda Xitoyning ko'p ming kishilik qo'shini ikki marta Farg'ona vodiysiga bostirib kiradi. Davan poytaxti qamalga olinib, hatto shaharning suv tarmoqlari to'sib qo'yilsa-da, ammo xitoyliklar o'z maqsadlariga erisha olmaydilar.

Miloddan avvalgi III-asr boshlarida Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi chorvador sak qabilalarining Qang' davlati tashkil topadi. Bu davlatning hududi qadimgi Choch (Toshkent) vohasi, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimini egallagan. Qang' yurtlari sharqda Davan, shimali-sharqda usun va yuechji qabilalarining yerlari, shimali-g'arbda Sarisu daryosi, g'arbda Yaksart (Sirdaryo)ning quyi oqimi bilan chegaralangan.

Miloddan avvalgi II–I-asrlarda Qang' davlati nihoyatda kengayib, o'ziga 5 ta o'troq viloyat: Choch, Kesh, Sug'd, Buxoro va Xorazm hokimliklarini bo'ysundiradi va yirik davlat birlashmasiga aylanadi. Qang' davlatida chorvadorlar bilan bir qatorda o'troq va yarim o'troq aholi ham yashagan. O'troq voha jamoasi sug'orma dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan.

Qang' davlatiga tobe o'troq viloyatlarda hunarmandchilik va savdo shaharlari, mustahkam yirik qal'a va ibodatxonalar ko'p bo'lgan. Shaharlar turarjoyolarining aksariyati paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Shaharning tashqi devori, qal'asi, darvozalari, burj va nishon tuynuklari kabi mudofaa inshoot-


larining mustahkamligiga alohida ahamiyat berilgan. Sharlarda hunarmandchilikning turli sohalari, xususan, kulolchilik va temirchilik ancha rivoj topgan.

Qang‘ davlati Xitoy, Kushon, Parfiya, Rim va Kavkazorti mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo‘lgan. Uning hududidan Buyuk ipak yo‘li kesib o‘tganligi tufayli tashqi savdo aloqalarda sarbonlikni qo‘lda saqlab turishga intilgan.

Miloddan avvalgi I-milodiy III-asrlarda hukmronlik qilgan Kushon podsholigi nafaqat Vatanimiz tarixida, balki butun Markaziy Osiyo tarixiy o‘lkalari xalqlari iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan davlatlardan biri sanaladi. Kushon podsholigiga asos solgan qabilalar tarixiy manbalarda yuechji (yovchi) va toxarlar deb nomlangan. Miloddan avvalgi II-asrning to‘rtinchı choragida asosan Baqtriyada hukmron bo‘lgan Yunon-Baqtriya podshohligi Markaziy Osiyoning shimoliy hududlarida istiqomat qilgan yuechji qabilalarining yurishi tufayli inqirozga uchragan. Milodiy I-asrga kelib Baqtriyada besh katta urug‘ga bo‘linib yashagan yuechji qabilalari Kujula Kadfiz tomonidan Guyshuan-Kushon urug‘i qo‘l ostida yagona davlatga birlashtirilgan.

Kushon davlatining shimoliy chegarasi Janubiy Hisor tog‘ tizmasiga kirgan Boysuntog‘ hisoblanib, Kushon hukmdorlari o‘z davlatining shimoliy chegaralarini mustahkamlash borasida ham tinimsiz faoliyat ko‘rsatganlar. Boysuntog‘dagi «Temir darvoza» va uning bilan bog‘liq mudofaa istehkomlari ana shunday inshootlardan biri hisoblanadi. Vima Kadfiz va, ayniqsa, Kanishka I hukmronligida bu davlat tarkibiga Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlari ham kiritilgan va natijada Kushon davlati Ko‘hna dunyoning Rim imperiyasi, Parfiya va Xan Xitoyi bilan bir qatorda turgan buyuk davlatga aylangan. Milodiy III asr oxirida ichki ziddiyatlar va ayniqsa sosoniylar Eroni qo‘sishlarining Kushonshahr, ya’ni Baqtriyanı egallashlari oqibatida Kushon davlati inqirozga yuz tutgan.

To‘rt asr davomida markazlashgan davlatning umumiy juddigi Baqtriyada, shu jumladan, uning tarkibary qismi bo‘lgan



Surxon vohasida ham iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida yuksalishga olib kelgan. Miloddan avvalgi I – milodiy I asrlarda Surxon vohasi jadal o'zlashtirilgan, yirik kanallar qazilgan (Kattanaxar), mavjud sug'orish inshootlari kengaygan (Zang kanali), yangi shaharlarga asos solingan (Zartepa) yoki Tarmita (Termiz) va Dalvarzintepa singari shahlar hududiy jihatdan kengaygan. Kushon davri shaharlari loyiha asosida bunyod etilgan ikki qism, ya'ni arki va unga tutash asosiy shahar qismlaridan iborat bo'lgan. Bu davr shahsozligi Dalvarzintepa, Zartepa, Ko'hna Termiz va uning tarkibiy qismlari hisoblangan Qoratepa, Fayoztepa o'rnidagi diniy inshootlar misolida yaxshi o'rganilgan.

Kushon davri shaharlari ma'muriy, iqtisodiy markaz bo'lish bilan bir qatorda diniy markazlar vazifasini ham o'tagan. Kushon hukmronligining ilk bosqichidayoq ko'hna dunyo davlat va xalqlarini iqtisodiy va madaniy jihatdan bog'lab turgan qit'alararo savdo yo'li, ya'ni «Buyuk ipak yo'li» to'liq shakllangan.

Shunisi e'tiborliki, Ipak yo'li bo'y lab ustunlik qilish uchun Eron, Parfiya, O'rta Osiyo hukmdorlari va Xitoy o'rtasida hamma vaqt kurash borgan. Ayniqsa bunday raqobatli kurash millodiy III asrdan boshlab Eron va O'rta Osiyo davlatlari hamda Eron bilan Parfiya o'rtasida keskin tus olgan.

O'rta Osiyo orqali Xitoydan G'arbga o'tgan savdo karvon yo'llari doimo sug'dlar nazoratida bo'lган. Sug'd savdogarlar savdo yo'lidagi ustunlikni saqlab qolish uchun Sharqiy Turkistonda, Yettisuvda, Oltoydan to Enasoy (Yenisey) sohiliga qadar hududlarda. Shimoliy Xitoyning Shansi viloyatida, Dunxuan kabi karvon yo'li yoqalarida joylashgan qator shaharlarda o'z karvonsaroylari va qishloqlarini barpo etganchalar. Masalan, Dunxuan shahrida III–IV asrlarda ming xo'jalik (5 ming aholi)ga ega Sug'd qishlog'i qad ko'targan.

Ipak yo'li orqali Xitoydan O'rta Osiyo va G'arb mam-lakatlariga, asosan, ipak va shoyi matolar, ilk o'rta asrlardan boshlab qog'oz olib chiqilgan bo'lsa, G'arb davlatlaridan Xitoga shisha, jun matolar, gilam, palos, oyna, metall, zeb-ziyat buyumlari, qimmatbaho toshlar: qizil yoqut, feruza,

serdolik, shuningdek, dorivorlar, tulpor otlar olib borilgan. Savdo yo'li orqali Xitoyning jez ko'zgulari va o'rtasi kvadrat teshikli tangalari Farg'ona vodiysi va Choch (Toshkent) viloyatida keng tarqalgan. Shunday qilib, Ipak yo'li O'rta Osiyo valqlarining iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Kushon davriga oid noyob arxeologik yodgorliklar: Xolchayon, Darvarzintepa, Ko'hna Termiz, Zartepa, Qoratepa, Bayoztepa, Ayrитom, Kampirtepa singari obidalardan qazib ochilgan dunyoviy va diniy yo'nalishlarda yaratilgan haykallar, xilma-xil mo'jaz san'at turlari, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari jahon ahamiyatiga ega bo'lib, o'zining takrorlanmasligi bilan ajralib turadi.

Xullas, olib borilgan tadqiqotlar natijalari o'lkamiz madaniy taraqqiyotida, xususan, shahar madaniyatining shakllanishida dastlab Shimoliy Baqtriyaning o'rni katta bo'lib, keyinchalik bu jarayon Sug'diyona (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro vohasi). Xorazm va Farg'ona hududlariga tarqalganini ko'rsatadi.

IV-asr o'rtalarida O'rta Osiyoga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan kelgan ko'chmanchi chorvador xioniyarlarning hujumi boshlanadi. Xioniylar qadimgi turkiy hunnu qabilaliga qon-qarindosh bo'lgan, shu boisdan G'arb muarrixlari ularni eftaliylar («oq hunnlar») deb ataydi. IV-asrning 70-yillarida xioniylar O'rta Osiyoda uzil-kesil hukmronlikni o'rnatishga muvaffaq bo'ladilar. Sirdaryo bo'yalaridan to Amudaryoga qadar cho'zilgan keng maydonda xioniyarlarning kuchli davlati qaror topadi. Bu davlat 120 yildan ortiq mavjud bo'ldi.

V-asrning 2-yarmi va VI-asr boshlarida O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlarini yagona hududga birlashtirgan qudratli Eftaliylar davlati tashkil topadi. Garchi bu davlat siyosiy jihatdan Kushon podsholigi kabi mustahkam bo'lmasa-da, ammo maydoni jihatidan undan ulkanroq edi. Bu buyuk davlat Sharq mamlakatlari, xususan O'rta Osiyo xalqlari tarixida ayniqsa muhim rol o'ynadi.

Bu davrda dehqonchilik vohalaridagi katta-kichik shaharlarda kulolchilik, shishagarlik, chilangularlik, bo'z to'qish, sarrojlik, zargarlik va qurolozlik kasb-hunarlari ravnaq topadi. Ilk o'rta asrlarda Chochda yasalgan o'q va yoy («kamoni chochiy») butun Sharqda mashhur bo'lgan. Bu davrda birgina Zarafshon vodiysida Samarqand va Buxorodan tashqari, Rivdad, Kushoniya, Dabusiya, Xariman, Arqud, Romitan, Varaxsha va Poykand kabi hunarmandchilik va savdo shaharlari mavjud edi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Poykand shahri Eftaliylar davlatining poytaxti bo'lgan. Xitoy manbalarida u «Bi» nomi bilan tilga olinadi. Arablar uni «Madina ut-tujjor», ya'ni «Savdogarlar shahri» deb yuritar edi.

VI-asr Vizantiya tarixchisi Prokopiyning yozishicha, eftaliylarning qonuniy davlati podshohi mutlaq tomonidan boshqarilgan. Xioniy va kidariylarning O'rta Osiyoga kirib kelishi hamda Eftaliylar davlatining tashkil topishi mahalliy aholining madaniy hayotiga ham ma'lum darajada ta'sir etdi. Asriy madaniy an'analari kuchli bo'lgan Toxariston va Sug'dda ko'chmanchilar tez orada o'troqlashib, mahalliy aholi bilan qorishdi va uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etdi. Ko'chmanchilarning tazyiqi ostida o'troq hayotning madaniy an'analari dasht udumlari bilan omuxtalashib, ilk o'rta asrlarning o'ziga xos madaniyati shakllana boshladи. Bunday o'zgarishlar ayniqsa binokorlik, me'morlik va tasviriy san'atning ayrim jahbalarida ko'proq namoyon bo'ldi.

IV-asrning 2-yarmi – V-asrda mamlakatning ichki va tashqi hayotida sodir bo'lgan keskinlik, ayniqsa, mudofaa inshootlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Samarqand, Buxoro, Naxshab va Choch kabi dehqonchilik vohalarida baland tagkursi ustiga bino qilingan ko'plab istehkomli qasrlar va dehqon qo'rg'onlari qad ko'tardi. Naxshab vohasidagi Zahhoki Moron qal'asi, Buxorodagi Shahri Vayron va Xorazmning Kat shahridagi Fil (Fir) qal'alari shular jumlasidandir.

Bu davr binokorligi va me'morchiligida, ayniqsa, qasrlar alohida o'rin tutgan. Ularning ayrimlari ikki qavatli bo'lib, yuqorisiga maxsus qiya ko'tarma (pandus) orqali chiqilgan.

Qasr ichida shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir qancha xonalar bo'lgan. Ko'pincha uning markaziy qismida girdi yo'laksimon uzun xonalar bilan o'rالgan miyon-siroy – mehmonxona yoki ibodatxona bo'lib, xona sahnida devor bo'ylab kenggina supalar, markazida esa otashgoh bino qilingan. V asr oxiridan binokorlikda pishiq g'isht ham ishlatila boshlagan.

Ma'lumki, eftaliylar siyosiy jihatdan juda ko'p qabilalarni burlashtirgani sababli turli diniy e'tiqoddagi aholi yonma-yon vashagan. Sug'dda otashparastlik dini keng yoyilgan bo'lsa, Toxariston va Sharqiy Turkistonda budda diniga e'tiqod qilinigan. Shaharlarda nestorian-xristian va yahudiy jamoalari ham mayjud bo'lgan. Ayrim viloyatlarda esa, hatto Moniy va Mazzak ta'limotlari tarqala boshlagan edi. O'rta Osiyo zardushtlari Nohid, Mitra va Siyovush kabi mahalliy ma'budalarga ham sig'ingan. Navro'z kuni Buxoro otashparastlari Siyovush qabri ustida xo'roz so'yib qurbanlik qilardilar.

Geografik jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan viloyatlarning aholisi, turli tillarda so'zlashgan. Chorvador aholi o'rtaasida, shubhasiz, turkiy til ustuvor bo'lgan. O'troq aholining kattagina qismi sug'diycha so'zlashgan. Arablar istilosiga qadar sug'd tili va yozuvi Yettisuv va Farg'ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoygacha yetib boradi.

Bu davrda qo'shni mamlakatlar – Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib boradi. V asrda o'rta osiyolik shishagarlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o'rgatadilar. O'rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o'z saroylarini bezashda O'rta Osiyodan olib ketilgan rangli shishadan foydalanganlar. Shunday qilib, eftaliylar davrida O'rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar, xususan, Hindiston va Eron sosoniyalarining tasviriy uslublari bilan omuxtalashib, ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevor bo'ldi.

Milodiy IV-asr oxiridan boshlab Baqtriya o'lkasi tarixiy manbalarda Toxariston deb yuritila boshlagan. Toxariston o'z

tarkibiga Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlarini qamrab olgan bo'lib, hududiy jihatdan Kushon davri Baqtriya o'lkasiga teng bo'lgan.

Milodiy III-asr oxiri – IV-asr davomida Toxariston sosoniylar Eroni davlatiga qaram viloyatga aylangan. V-asrda o'lka Xioniylar va Eftaliylar davlati tasarrufida bo'lgan. VI-asrning 60-yillariga kelib Eftaliylar davlatining Turk xoqonligi va sosoniylar Eroni qo'shinlari tomonidan tor-mor etilishi tufayli Toxariston Turk xoqonligi davlati qo'l ostiga o'tgan. VII-asrning 70-yillaridan Toxariston arab qo'shinlari tomonidan bosib oliga boshlagan. Bu jarayon VIII-asrning 40-yillariga kelib o'lkaning batamom Arab xalifaligi tarkibiga qo'shib olinishi bilan yakunlangan.

V–VIII-asrlar davomida Toxariston markaziy hokimiyatga rasman qaram ko'plab kichik mulkliklarga bo'lingan. Chag'oniyon, Termizshohlar, Kuftan kabi mulkliklar Shimoli-G'arbiy Toxariston, ya'ni Surxon vohasida joylashgan. Termizshohlar poytaxt nomi bilan atalib, Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarni va hozirgi Angor, Termiz va Jarqo'rg'on tumanlarini o'z ichiga oladi. Bu mulklik Termizshoh tomonidan idora etilgan. Chag'oniyon Chag'onrud (Surxondaryo) daryosining yuqori havzasidagi yerlarni, Hisor va Bobotog'tog' oldi maydonlarini o'z tarkibiga olgan. Chag'oniyon mulkligining markaziy shahri Qizilsuvning Surxondaryoga quyilishida joylashgan Budrach hisoblanadi.

IV-asrning oxirida, ayniqsa, sosoniylar Eroni qo'shinlarining Shimoliy Toxariston yerlariga yurishi oqibatida dastavval markaziy shaharlar (Tarmita – Termiz, Dalvarzintepa) inqirozga yuz tutadi. VI asr boshlariga kelib Shimoliy Toxaristonning markaziy shaharlari qayta tiklanib, kengaya boshlaydi va yana bir qancha shaharlarga asos solinadi. VII–VIII-asrlarga oid xitoy yozma manbalariga ko'ra, Termiz mudofaa devorining uzunligi 10 kilometr, Chag'oniyonning markaziy shahri devori 5 kilometrga teng bo'lgan. Toxaristonning V–VIII-asrlar davri shaharlari asosan ikki, ya'ni arki a'lo va shahriston kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan. Zangtepa (Qulog'litepa), Hayitobodtepa, Chag'oniyon (Budrach)larning

urki a'losida asosan hukmdor saroyi bilan bog'liq inshootlar joylashgan. Markaziy Osiyoning V–VIII-asrlardagi tarixiy va madaniy o'lkalari (Sug'd, Xorazm) shaharlari Toxariston shaharsozligida ham juda murakkab me'morchilik uslublari qo'llanilgan. Bular turkumiga gumbazli xonalar, tomonlarni e'shtilar yordamida ravoqsimon uslubda yopib, tepasidan ik-kinehi va uchinchi qavatni qurish, xom g'ishtlar yordamida arksimon eshiklar qurish va boshqalar kiradi. Toxaristonlik me'mor ustalar shaharlardagi qabul marosimlari o'tadigan zallarni, mehmonxonalarini, kundalik hayotga mo'ljallangan xonalarni bezashda somon suvoq, devoriy tasvir, mahobatli haykaltaroshlik va o'yma ganchdan juda mohirona foydalanishgan.

Shimoliy Toxariston shaharlari Kushon davri shaharlari singari diniy markazlar vazifasini o'tagan. Ko'hna Termizda qazib ochilgan g'orsimon binolar, Chordingak o'rnidagi bud-daviylik inshooti, Zangtepadan topilgan qayin po'stlog'iga bitilgan matnlar V–VIII-asrlar davomida Toxaristonda bud-daviylik dini katta mavqega ega bo'lganidan dalolat beradi. Vohaning V–VIII asrlar davri yodgorliklari turkumiga, shuningdek, ko'shk va hovlilar, savdo yo'llari yoqasida joylashgan bojxonalar ham kiradi. Angor vohasidagi Kuyovoq'rg'on, Bolaliktepa, Yumaloqtepa kabi ko'shklardagi muhtasham qabulxona va mehmonxonalar dunyoviy mazmunda ishlangan devoriy rangtasvirlarga, rang-barang haykallarga, loy yoki yog'ochga o'yib ishlangan naqshin lavhalar-la bezalgan.

Ilk o'rta asrlar Shimoliy Toxaristonda badiiy san'atning, avniqsa, haykaltaroshlik va devoriy rangtasvir san'atining yuksaklikka erishgan davridir. Toxaristonning V–VII-asrlar davri rangtasvir san'ati Zartepa, Nondaha qoyalaridan birida barpo etilgan Tavka qo'rg'oni va Bolaliktepa devoriy suratlari orqali yetib kelgan. Tavka qo'rg'oni dagi muhtasham bino xonasidagi devoriy suratlarda ov marosimi aks ettirilgan bo'lsa, Bolaliktepa ko'shkidagi zalda bazim marosimi tasvirlangan.

Vohaning Kattatepa (Xosiyattepa), Zangtepa, Bolaliktepa, Hayitobodtepa, Kuchuktepa kabi obidalari. Bittepa singari dafinalarini o'rganish jarayonida topilgan turli-tuman shisha

idishlar, metalldan yasalgan o'smadon va mehnat qurollari, tog' minerallaridan yasalgan shoda munchoqlar, qo'shbaldoqli krujka va metall buyumlarga taqlid etib yasalgan sopol idishlar ilk o'rta asrlar davrida Shimoli-G'arbiy Toxaristonda hunarmandchilikning ham jadal rivoj topganini ko'rsatadi.

V-VII-asrlarda O'rta Osiyoda yuzaga kelgan o'ta murakkab ham siyosiy, ham ijtimoiy vaziyat mamlakat obodonchiligi, xo'jaligining ravnaqi, shahar va qishloqlarining qiyofasi va aholisining turmush tarzi-yu ahvoliga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'chmanchilar bosqinlari davrida Xorazm, Toshkent, Buxoro va Qashqadaryo kabi vohalarning dehqonchilik maydonlari oyoqosti qilinib, ko'pgina shahar va qishloqlar vayron etildi. Xo'jalik rivojiga zarba berilib, savdo-sotiq ishlari tanazzulga yuz tutdi. Biroq avval Eftaliylar davlati, so'ngra Turk xoqonligi kabi yirik davlatlar hukmronligida yuzaga kelgan ma'lum darajadagi osoyishtalik davlarda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti yana tadrijiy taraqqiyot yo'liga tushib oldi.

Ko'chmanchi qabilalar o'troqlashuvining kuchayishi bilan ekin maydonlariga ehtiyoj ortib, ziroatkor yerlar kengaydi va dehqonchilik yanada rivojlandi. Kanallar barpo etilib, dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Tog' oldilarida yangi yerlar o'zlashtirildi. Shaharlar gavjumlashdi.

Yozma manbalarda qayd etilishicha, Buxoro shahrining faqat uchta sug'orish tarmoqlari bo'ylab to'rt mingga yaqin qasr qad ko'targan edi. Ko'shk va qasrli qo'rg'onlarda zodagon dehqonlar, qo'rg'onchalarda esa ziroatkor mehnatkash aholi istiqomat qilgan va dushmanidan o'zini mudofaa etgan.

VI-VIII-asrlarda dehqonchilik maydonlarining kengayib, mahsulotlarining ortib borishi, hunarmandchilik buyum-ujihozlariga bo'lgan ehtiyoj, savdo-sotiqning avj olishi, o'z navbatida, shaharlarning ravnaqiga, ayniqsa, ulardagi hunarmandchilik mahallalarining kengayishiga ta'sir etdi. Ayrim yirik shaharlar aholisining ortib borishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi bilan shaharlar atrofi o'zlashtirilib, ularning tashqi devori yonida yangi hunarmandchilik ma-

hallalari (rabodi xorij) paydo bo'ldi. Keyinchalik bunday rabodlar ham alohida devor bilan o'rab olinadi. Ularda avval daxmalar joylashgan bo'lsa, so'ngra esa karvonsaroy, bozor va ibodatxonalar qad ko'taradi.

Ilk o'rta asrlarda Sug'dda shahar va qishloq aholisi «naf» deyilgan. Ijtimoiy jihatdan u bir necha tabaqaga bo'lingan. Zodagonlar «ozod»; shahar hunarmandlari «ozodkor»; savdogarlar «g'uvokor»; ziroatkorlar «kashovarz»; xizmatkorlar «korikor»; mute qo'shchilar «kadivar»; qul va cho'rilar «bantak» va «doya» deb yuritilgan.

Ozodlar tabaqasiga podshoh, mahalliy hukmdorlar va zodagon dehqonlar kirgan. Bu ijtimoiy zinapoyaning tepasi-da podshoh turgan. Uning tasarrufida umum davlat mulkidan tushqari o'z shaxsiy mulki ham bo'lgan. Dehqonchilik maydonlarining kattagina qismi mahalliy hokimlar va zodagon dehqonlarning mulki hisoblangan. Ularning yerlarida kadivarlar chorakor sifatida qo'shchilik qilgan. Kadivarlarning veri mutlaqo bo'limgan, ekin yerlarining bir qismi erkin kashovarzlarning mulki bo'lib, ular davlatga soliq to'lab turgan. Sug'dda ibodatxonalar va ularning tasarrufida mulk va yerlar ham bo'lgan. Ibodatxonalar «vag'n» deyilgan, uning bosh ruhoniylu mulozimi, ya'ni kohini «vag'npat» deb yuritilgan. Kohinlar tasarrufidagi yerlar esa «vag'nze» deb atalgan. Bunday yerlardan olinadigan daromad ibodatxona ehtiyojiga shakllangan. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda hukm surgan mayda davlatlarda va ularning viloyat hokimliklarida ma'lum taribdagi boshqaruv ma'muriyati shakllangan edi. Uning pozonalarida saroy xo'jaligining boshqaruvchisi – farmon-dor va bosh kotib – dapirpatdan tortib soliq yig'uvchi – voz-turom, miroxo'r, jallof, bosh novvoy, bosh soqiy va sarkarda-nacha munosib o'rinnegallagan edi.

Ilk o'rta asr boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi tugarolardan boj, soliq va boshqa to'lovlarini o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan iborat bo'lgan. Hujum-chiqimlar aniq va ravshan qayd etilib, hujjatlash-turilgan. Ularga barmoq bosilib, hatto muhr bilan tasdiqlab qo'shilgan. Narshaxiyning yozishicha, birgina buxorxudotlar

viloyat hokimligi boshqaruvida 18 ming mulozim navbat bilan xizmat qilgan.

Ilk o'rta asrlarda «Buyuk ipak yo'li» orqali olib borilgan keng ko'lAMDAGI xalqaro savdo Turk xoqonligi, Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya o'rtaSida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni kengaytirdi. O'troq dehqonchilik vohalari aholisi bilan dasht xalqlari madaniyatlarining o'zaro ta'sirini kuchaytirdi. O'rta Osiyo xalqlari jahon tarixi jarayoniga tortilib, bu yerda ilk o'rta asrning o'ziga xos va nihoyatda boy madaniyati shakllandi va rivoj topdi. Bu yuksak madaniyat, ayniqsa, VI-VIII-asrlarning moddiy madaniyat obidaları, diniy e'ti-qodi va tasviriy san'at namunalarida o'z aksini topdi.

Bu davr me'morligining g'oyalari, muhandislik yechimlari va me'moriy uslubi naqshlari Xorazm, Sug'd, Toxariston. Farg'ona va Chochning shahar va qal'alari, qo'rg'onlari-yu ibodatxonalar, ko'shklari-yu mudofaa inshootlarining tarhistehkomlari, toq-ravoqlari, ichki naqshlari-yu tasviriy san'at obidalarida namoyon bo'lgan.

VI-VIII-asrlarda Markaziy Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va me'morchilik bilan birga tasviriy san'atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi tarmoqlari ravnaq topadi. Ularning ayrim namunalari Surxon vohasida Bolalikte-padan, Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'ona vodiysida Quva xarobalaridan hamda boshqa yodgorliklardan topib o'rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkor naqshlarda o'z aksini topgan.

Bu davr tasviriy san'atida haykaltaroshlik muhim o'rin tutgan. Uning rivojiga, ayniqsa, budda dini kuchli ta'sir ko'rsatgan. Haykallar, asosan, diniy mavzularda bo'lib, ibodatxonalarda saqlangan. Farg'ona vodiysida Quvadan hamda Qo'rg'ontepa yaqinida Ajinatepadan buddanining bahaybat haykallari topilib o'rganildi. Bu vaqtda badiiy yog'och o'ymakorligi san'ati ham yuqori darajada bo'lgan. Afrosiyob va Panjikentdan yog'ochdan yo'nilgan sanam, o'ymakor naqshlar (tabiat manzaralari, hayvonlar, afsonaviy jonzotlar, taxtda o'tirgan hukmdor, raqqosa va h.k.)ning kuygan qoldiqlari topilgan. Ilk o'rta asr ganchkorlik san'atining nodir

Yodgorligi namunalarini Varaxsha topilmalari orqali tadqiq etildi VII–VIII-asrlarda O'rta Osiyoda san'atning musiqa, raqs, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi turlari ham kamol topganligi Xitoy manbalaridan ma'lum. Bu davrda san'at sohasida Buxoro tomosha ijrochilari, Samarqand nay-chilari, Choch o'yini yigit va raqqosa qizlari, Xo'jand surnay-chilari va Kucha bastakorlari bilan shuhrat topgan edi. VIII-asr boshlarida Choch, Samarqand, Kesh va Maymurg'dan raqqosa qizlar va o'yinchi yigitlar, Xuttaddan maqomchi ay-llar Xitoy imperatori saroyiga yuborilib turilar edi.

O'rta Osiyo kuylari, maqom va vaznlarining dirlaboli, raqslarining bosiq va o'ynoqiligi o'sha zamonlardayoq haj qanday tomoshabinni maftun etardi. Ayniqsa, ud va nay jadosida juft bo'lib Choch o'yinchi yigitlari ijro etgan mash-hur «Choch raqsi» yoki ikki raqqosaning «doira raqsi» Xitoy ayonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Imperator saroyida o'tkazilgan bunday tantanali izdihomlarda Turkistondan borgan dorboz, muallaqchi, ko'zboylog'ich, olovvutgich afsungarlar va qiziqchilar ham o'z mahoratlarini namoyish qilganlar. Hatto Xitoyning Chan'an shahri aholisi qo'sirchoq o'yinini ilk bor VII asrda Turkistondan borgan san'atkorlar ijrosida tomosha qilishga muyassar bo'lgan. Manbalarda birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan 14 turdag'i cholg'u asboblari yasalganligi qayd etilgan.

VII-asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning arablar tomonidan fath etilishi boshlandi. VIII-asrning 40-yillariga teli esa, Shimoliy Toxariston, xususan, uning markaziy shaharlari batamom Arab xalifaligi tarkibiga kiritildi. Bu davrda to IX-asr oxiriga qadar, ya'ni Shimoliy Toxaristonning somoniylar davlati tasarrufiga o'tkazilishiga qadar bu o'lkada odu bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayon musulmon diniyosi mamlakatlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi. IX-asr oxiridan to XIII-asrning 20-yillariga qadar Termiz va Chag'oniyon somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiy-han qarluqlar, g'uriylar va Xorazmshohlar davlatlari hukmoni ostida bo'lib keldi.

VIII-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Mavarounnahrda, xususan, Termiz va Chag'oniyon yurtlarida musulmon madaniyatining shakllanish jarayoni yuz berdi. Bu jarayon ushbu yurtlarda islom dini, arab tili va yozuvining keng tarqalishi, musulmon dunyosi mamlakatlariga xos me'moriy inshootlarning, jumladan, madrasa, masjid, karvonsaroy, minor, maqbara va boshqa turdag'i madaniyat namunalarining yuzaga kelishi bilan ajralib turadi.

IX asrdan boshlab Shimoliy Toxaristonda shaharsozlik jadal taraqqiy etgan. Bu davrda o'lkada uch qismli shaharlar to'liq shakllangan. Termiz, Chag'oniyon kabi shaharlar tuzilishini o'rghanishda yozma manbalar bilan bir qatorda bu shaharlar hududida keng ko'lamma amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ham juda muhimdir. Termizning 500 hektarlik shahar tusini olishi X asr oxirlarida sodir bo'lib, XI–XII-asrlar davomida ravnaq topgan. Chag'oniyonning markaziy shahri Chag'oniyon (Qizilsuvning Surxondaryoga quyilish joyidagi Budrach yodgorligi) 6 kvadrat kilometrga teng maydonga joylashgan. Bu shahar o'zining yuksaklikka erishgan davrida, ya'ni X–XI-asrning birinchi yarmida Qizilsuvning har ikkala qirg'og'ini egallagan.

IX-asrdan boshlab shaharsozlikda pishirilgan g'ishtlar ommaviy ravishda ishlatilgan, uylar, saroylar, qabul zallari va masjidlarni bezashda murakkab islimiy va girih naqshlar keng qo'llanilgan. Zal peshtoqidan joy olgan Termizshohlar saroyini bezab turgan naqshin lavhalar o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi.

Shishasozlik XI–XIII-asrlarda kulolchilikdan keyingi o'ringa chiqib oldi. Shisha buyumlar, idish-tovoq, atir shishalar, kimyoviy idishlar, zeb-ziynat buyumlari va deraza oyinalari an'anaviy erkin puflash hamda qolipga solib puflash yo'li bilan yasalgan. Buyum tayyorlashda ko'proq och yashil, feruza, och zangori, to'q binafsha ranglardan foydalanilgan. Qadimgi Turon diyorida zamonasining buyuk davlatlaridan Qang' davlati va uning janubida Kushon podsholigi ravnaq topgan davrida boshlangan yuksalish mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim

o'zgarishlarga olib keldi. Dehqonchilik vohalarida shahar-tuning soni ko'paydi. Ular kengayib, hunarmandchilik, maydo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi. Vohalari bo'ylab, ayniqsa sersuv azim daryo adoqlarida bir qancha yirik sug'orish tarmoqlari qazib chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig'ir va charxpalak-lari kabi o'z davri uchun anchagini murakkab gidrotexnika qurilmalaridan foydalanila boshladi.

IX–XII-asrlarda Mavarounnahr, Xuroson va Eronda ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergen, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faoliy gurkiragan. Ekvinchalik dunyo ilmida «Musulmon Renessansi» yoki «Sharq Uyg'onishi» nomi bilan atalgan bu davr ulug' aljomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliy, Aziziddin Nasafiyarning falsafiy tarhlari tafakkur xazinasini boyitdi, ularda olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqildi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hafiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Misfer Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezguilikni kuyladilar.

Markaziy Osiyoda IX–XIII-asrlarda o'z xalqining qadimiyatiga qaytish, «Avesto» falsafasini «Qur'on» ma'rifati bilan uyg'unlashtirib, qayta tiklashga intilish tasavvuf ta'limoti, «ishroq» falsafasida namoyon bo'ldi. Shu asosda turli nazariyalar, ta'limotlar yuzaga kelib, fikriy xilma-xillik rivojlandi. Tasavvufiy-orifona ta'limotning qaror topishi, tariqatlar ham, mazlida, hurfikrlik va inson kamolotiga bo'lgan ishonchning moshonasi edi. Uyg'onish davri vakillari dinga emas, balki

dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirgan kishilarga qarshi kurashganlar.

Sharq Uyg'onish davrida keng ko'lamli ta'lim va tahlil, madrasa-maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig'ilgan, «xazinat ul-hikma», «dor ul-ulum»larda tolibi ilmlar, ustoz-shogirdlar suhbati bardavom edi, olimning obro'-e'tibori yuksak qadrlangan. Sharq Uyg'onish davri yutuqlari G'arbiy Yevropadagi Uyg'onish davriga bevosita ta'sir etgan. Chunki XII–XIV-asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari orasida aloqa kuchaygan edi. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida o'qib o'rganganlar. Ibn Sinoning «Tib qonunlari», «Ash-Shifo», Forobiyning «Ilmlar tasnifi», Ahmad Farg'oniyning «Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi», Muhammad Muso Xorazmiyning «Aljabr val muqobala» asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Algebra, algoritm fanlari Xorazmiy asarlari tufayli shakllangan. «Tib qonunlari» 7 asr mobaynidagi Yevropa universitetlarida tibbiyot darsligi sifatida xizmat qilgan.

Dunyoviy fan olimlari bilan birga bu davrda Islom ta'limoti va mafkurasining takomili yo'lida movarounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo'ldi. Bu borada, ayniqsa, Imom Buxoriy va Imom Termiziylarning hissasi ni-hoyatda buyukdir.

Birgina Imom Buxoriy islom ta'limotiga oid yigirmadan ortiq asar yozdi. Uning «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonchli to'plam») asari musulmon Sharqida qariyb o'n ikki asr davomida katta obro'-e'tibor qozonib, Islom ta'limotida Qur'onidan keyingi asosiy manba sifatida soydalananib kelinmoqda.

Musiqada ham Uyg'onish davri jarayoniga xos yuksalish dastlab Sharqda yuz berdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy an'analari arab, hind va fors musiqiy meros asarlari, cholg'ulari bilan o'zaro ta'sir jarayonlari natijasida yanada boyib qaytadan jonlandi. Zero, Forobiy va uning izdoshi Ibn Sino musiqaning nazariy, falsafiy va estetik masalalarini atroficha tadqiq etib, umumsharqiylardan yaratishgan.

Xususan, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa amaliyotiga tayangan holda, kuy va usullar, qo'llaniladigan sozlar, muayyan shakl va janrlar doirasida mushtaraklik mavjudligini isbotlashgan. Forobiyning «Kitob ul musiqa al-kabir» («Musiqa doir katta kitob») va, ayniqsa, Ibn Sinoning «Javome' ilm ul-musiqi» («Musiqa oид ilmlar to'plami») kabi asarlarda yunon olimlari (Pifagor, Aristoksen va boshqalar)ning qarashlari boyitilib, tovushlar baland-pastligi munosabatlari matematik uslubda ifodalangan. Shuningdek, sof tovushqator tizimi, undan o'rin olgan bo'dlarning muloyimat va munofirat tafsoti, iyqo nazariyasi ilk bor asoslab berilgan. XII–XIII asrlarda ijodiy va aqliy kuchlar rivojini namoyish etgan O'n ikki maqom tizimi yuzaga keldi.

Shunday qilib, Movarounnahr shaharlari IX–XII-asrlar mobaynidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning barochi jahbalarida muayyan taraqqiyotga erishgan. Bu ildam taraqqiyot jarayoni XIII-asrning 20-yillarida, Chingizzon qoshinlari tomonidan o'lkaning egallanishi bilan to'xtaydi.

1.6. Amir Temur va temuriylar davrida madaniy taraqqiyot

Dunyoga Sohibqiron Amir Temur (1336-yil 9-aprel – 1405-yil 18-fevral) nomi bilan shuhrat taratgan buyuk bobomiz yurtimizni mo'g'ul bosqinchilaridan batamom xalos qilib, qidratli sultanat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Me'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qancha mamlakatlari kirgan. Poytaxti Samarqand shahri bo'lgan bu ulkan sultanatda adolat qaror topib, fan, madaniyat, shaharsozlik rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishga erishildi.

O'zining ko'p yillik harbiy yurishlari davomida Amir Temur sultanating shon-shuhrati uchun kurashdi, uning markaziy qismi bo'lgan Movarounnahr, ayniqsa, poytaxt Samarqandning obodonligiga alohida ahamiyat berdi. Buning uchun u zabit etilgan mamlakatlardan moddiy boyliklar bilan

birga juda ko'p hunarmandlar, san'at ahillari va olimlarni Mavarounnahrga olib keldi va ularni mamlakatni obod qilishga safarbar etdi. Sohibqironning har bir zafarli voqeя va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odati bo'lgan. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino qurdirsa-da, lekin o'zining saxovat va himmatini Kesh (Shahrisabz) va Samarqandda oliy imoratlar qurdirishda ko'rsatdi. O'zining ona Vatanı Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o'g'li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonligiga katta ahamiyat berdi. Keshda dunyoga dong'i ketgan mashhur Oqsaroy qad ko'tardi.

Samarqand saltanat poytaxti qilib olingach, u alohida imtiyozga ega bo'lgan shaharga aylanadi. Samarqandda Isfahan, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlaring me'moru binokorlari qo'li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. 1403–04-yillarda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixo Amir Temurning olib borayotgan binokorlik ishlaridan hayratda qolgan edi. Xuddi shu davrda Shohizinda me'moriy yodgorliklari guruhining Shodimulk og'o, Amir Husayn, Shirinbeka og'o kabi ajoyib maqbaralari, hozirgi vaqtida Bibixonim nomi bilan mashhur bo'lgan Jome masjidi, Go'ri Amir daxmasi va boshqalar bino qilinadi.

Amir Temur shaharlardagi qurilishlardan tashqari Samarqand atrofida Bog'idilkusho, Bog'ichinor, Bog'ibehisht, Bog'ibaland, Davlatobod, Bog'inav, Bog'ishamol kabi go'zal bog'lar bunyod etdi.

Bu paytlarda Samarqandda savdo va hunarmandchilik juda ham rivoj topganligi Klavixoni hayratda qoldirgan edi. Klavixo Samarqand bozorlarida bug'doy va guruchning mo'lligi va arzonligi haqida gapirib, shahar hunarmandchiligi mahsulotlarini – atlas, kimxob, har xil ip va jun to'qima mollari, mo'ynali va ipakli po'stinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning

zrobilagini ham ta'kidlaydi. Bu davrda Amir Temur va uning joylardagi noiblari «Buyuk ipak yo'li»ni nazorat qilib, savdo turvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlashda muhim chora-tubirlar ko'rdilar va Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat latta e'tibor berdilar.

XV-asrda metalldan qurol-yarog' va ro'zg'or buyumlari uchash takomillashdi. Samarqand sultanat poytaxti sifatida avvalgidek qurol-yarog' yasaladigan markaz bo'lib qoladi. Shaharda hatto maxsussovutsozlar mahallasi qaror topgan edi. Qurolsozlikda qilich, qalqon, o'q-yoy, dubulg'a va so-vutlar hamda jibalar yasalardi. Hokimlar, sarkarda-amirlar uchun yasalgan maxsus qurol-yarog'lar oltin va kumush qop-lumali, qimmatbaho toshlar qadalgan, naqshinkor bo'lardi. Shaharlarda misgarlik ham ancha rivoj topgan edi. Mis va jordan turli xil uy-ro'zg'or buyumlari yasalar va mayda mis chaqalar zarb qilinardi. Yassaviy maqbarasi uchun quyilgan ulkan qozon ham shu davr mahsuli edi.

Bu davrda kulolchilik ham rivoj topib, hunarmandchilikning ko'p tarmoqli sohasiga aylanadi. Kulolchilikda kosa, sum va xumchalar, tandir kabi buyumlar tayyorlanardi. XIV XV asrlarga mansub sirlangan sopol buyumlar badiiy jihatdan rango-rangligi, shakli va turining xilma-xilligi hamda sifatliligi bilan ajralib turadi. Bulardan tashqari kulollar tuy quvurlari (g'ulbalar), chig'ir va charxpalak ko'zachalari (digar) va boshqa ko'pgina sopol buyumlar pishirganlar. Ayni vaqtida binokorlik ashyolari ishlab chiqaradigan koshinpazlik, parchinsozlik, g'isht va g'isht taxtalar pishiradigan kirpich-pazlik ham rivojlandi.

Bu davrda tosh yo'nish (sangtarosh) va unga sayqal berib, o'ymakor naqshlar va xushxat yozuvlar bitish san'ati kamolotga yetadi. Samarqandda Bibixonim jome masjidi hovlisida Qur'onni qo'yish uchun marmardan ishlangan ulkan lavh (kursi), Ulug'bekning Amir Temur qabriga qo'ydirgan nefrit toshi, Shohizinda va boshqa joylardagi XV asrga mansub ag'analarining marmar toshlari va ularga ishlangan jimjimador naqshlar, o'ymakorlik bilan bitilgan oyat, marsiya va tarix-

lar xalq hunarmandchiligining yuksak badiiy namunalaridan bo'lib, ularda tosh yo'nuvchilarning mehnati va san'ati bilan xattotlarning zo'r mahorati uyg'unlashib ketgan.

Mamlakatning yirik shaharlari va viloyatlarida, xususan, Samarqand va Hirotda qurilish ishlari avj olib, binokor ustalarga talab ortdi. Binokorlar orasida me'mor muhandis, g'isht teruvchi banno, suvoqchi ganchkor, naqqosh, tosh yo'nuvchi (sangtarosh) va duradgor (najjor)larning mavqeい ortdi.

XV asrda shishasozlik ham ancha taraqqiy qilgan. Samargandda hatto shishasozlar mahallasi bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, shishadan turli shakldagi idishlar: ko'zacha, qadah, siyohdon (dovot), doridon, surmadon, tuvak va sumaklar hamda boshqa turli xil ro'zg'or buyumlari yasalgan. Muhtasham binolar va davlatmand shaharlik zodagonlarning uy-joylari qurilishida rangli oynalardan foydalaniлgan. Masa-лан, Ishratxona maqbarasining deraza-panjaralariga havorang, gunafsha, sariq, yashil va qizil rangli oynalar o'rnatilgan.

Bu davrda yog'ochsozlik muhim ahamiyat kasb etgan. Yog'ochdan xilma-xil asbob-uskunalar hamda buyumlar yasalgan. Mohir yog'ochsoz ustalar yog'och o'ymakorligini takomillashtirib, naqshinkor eshik, panjara, ustun, toqiravoq, xontaxta, kursi singari ashyo va jihozlar yasaganlar. Amir Temur maqbarasi va Shohizindaning oyatlar bitilgan naqshinkor eshiklari XV-asr xalq ustalarining yog'och o'ymakorligi san'atidagi eng nodir namunalardan hisoblanadi. Ulug'bek zamonida Registon maydonida qad ko'targan Muqatta' masjidining devoridan tortib, toqu ravoqlari-gacha, ustunlaridan to eshik va panjaralarigacha naqshinkor yog'ochdan ishlangan edi.

Shu tarzda XV-asrda Movarounnahr va Xurosonning deyarli hamma yirik shaharlarida o'rta asr hunarmandchiligining barcha tarmoq va sohalari bo'yicha ixtisoslashgan korxona, do'kon, ustaxona va rastalar bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samargandda ham, Hirotda ham Amir Temur an'anaları davom ettirilib, poytaxt shaharlarda olimu fuzalolar, shoimu bastakorlar, me'moru binokorlar va naqqoshu mohir hunarmandlarning

Lattagina guruhlari to'plangan edi. Mavarounnahrda, xususan, Samarqandda ilm-fan va san'atning taraqqiyotida Mirzo Ulugbekning roli va hissasi nihoyatda buyuk bo'ldi. Ulugbek mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan birga, ilmiy ishlar bilan ham shugullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi. Ulugbek Mavarounnahr shaharlarini, xususan, Samarqand va Buxoroni ilmu ma'rifat dargohiga aylantirishga intiladi. Uning farmoni bilan 1417-yilda Buxoroda, 1417–1420-yillarda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar bino qilinadi. Hatto Buxorodagi madrasaning darvozasiga: «Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir», degan hadisi sharif vozib qo'yiladi.

Mavarounnahrning bu uchta qadimiy shaharlarida barpo etilgan ilmgohlar, xususan, Samarqand madrasasasi zamonasining dorilfununi edi. Ushbu madrasalarda ilohiyot ilmlari: Qur'on, hadis, tafsir, fiqh bilan birga riyoziyot (matematika), hundasa (geometriya), ilmi hay'at (astronomiya), tibbiyat, ta'rix, geografiya, ilmi aruz (poetika), arab tili va morfologiyasi (qofiya) kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitilardi. Ulugbekning Samarqanddagi madrasasida bir paytning o'zida 100 dan ortiq talaba istiqomat qilgan va ta'lif olgan. Madrasada zamonasining iqtidorli olimlaridan Mavlono Shamsuddin Muhammad Havofiy yetakchi mudarris bo'lgan. Mashhur olimlardan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy hamda Mirzo Ulugbekning o'zi va uning shogirdi Alouddin Ali Qushchilar turli fanlardan dars bergenlar. Ayrim ma'lumotlarga qaranganda, madrasada ilmi hay'at (astronomiya) darsini Qozizoda Rumiy o'tgan. Hatto Abdurahmon Jomiy yoshlik chog'ida Samarqandga kelib, Qozizoda Rumiydan bir necha marta astronomiya fanidan saboq olganligi ma'lum.

Mirzo Ulugbek 1425–1428-yillarda Samarqandda o'z atrofisida to'plangan olimlarning bevosita ishtiroki bilan shahar vaqnidagi Obirahmat anhori bo'yida rasadxona qurdirgan. Ulugbek o'zi rahbarligida barpo etilgan bu ilmiy dargohda matematika, ayniqsa, astronomiya sohasida butun dunyoda olamshumul ahamiyat kasb etgan natijalarga erishadi. Ra-

sadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 sobita (qo'zg'almas) yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'y lab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqiladi.

Mirzo Ulugbek maktabi erishgan eng muhim va ajoyib muvaffaqiyatlar, rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijasida matematika va astronomiyaga oid bir qancha nodir asarlar yaratildi. Garchi bu asarlarning ko'pi bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, ammo saqlanib qolgan qo'lyozmalarining o'ziyoq o'sha davrda Samarqand astronomiya va matematika maktabi erishgan yutuqlardan va bu ilmgoh namoyandalari jahon fani rivojiga qo'shgan ulkan hissadan guvohlik beradi.

XV-asrda Mavarounnahr va Xurosonda tarix fani ham keng rivoj topdi. Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Isfizoriy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqa ko'pgina tarixchilar Samarqand va Hirotda yashab ijod qildilar. Ularning asarlari Temuriylar tarixiga doir juda qimmatli va nodir manbadir.

Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand hamda Hirotda me'morlik, naqqoshlik, tasviriy san'at, adabiyot ni-hoyat darajada taraqqiy etadi. Bu ikki poytaxt shaharlarida ko'plab hashamatli jamoat binolari qad ko'taradi. Temuriy hukmdorlar orasida, ayniqsa, Mirzo Ulug'bek bobosi Amir Temur kabi mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat beradi. Ulug'bek, ayniqsa, Samarqandni obod qilishga alohida e'tibor qaratadi. Uning davrida Samarqand shahrining Registon maydoni shakllandi. U qaytadan rejalashtirilib, maydonda Ulug'bek madrasasidan tashqari peshtoqli va ulkan gumbazli xonaqoh, karvonsaroy, o'ymakor yog'ochlardan ishlangan Masjidi Muqatta' bino qilindi. 210 gumbazli Ko'kaldosh jome masjidi qad ko'tardi. Bu oliy imoratlardan faqat Ulug'bek madrasasigina bizning davrimizgacha saqlangan.

XIV–XV-asrlar me'morchiligida imoratlarni o'ziga xos yangi, ma'lum maqsadga qaratilgan yechimlar asosida qurish bilan birga, ularni bezashda ham yangi usullar qo'llangan.

Binolarning peshtoqlari va xonalarning ichki devorlari qabartma rango-rang parchinlar, zangori yoki oq rang ustiga zarhal berilgan «islimi» naqshlar, ba’zan esa kitobalar bilan pardozlangan.

XV-asrning madaniy hayotida istirohat bog’lari tashkil etish san’ati ham diqqatga sazovordir. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Marv, Hirot kabi yirik shaharlar atrofida go’zal oromshohlar barpo etilgan. Bu davrda ham sayrgoh-bog’lar asriy suanalarga asosan 3 xil usulda: «chorbog’» va «bo’ston»lar hamda «qo’riqxona» tarzida tashkil etilgan. «Chorbog’» va «bo’ston»lar tarhi mutanosiblik (simmetriya) asosida to’g’ri geometrik shakllardan tuzilgan gulzor va mevazorlardan iborat bo’lib, qo’riqxonalar tabiatning xushmanzara joylarida barpo etilgan.

Istirohat bog’lari gulzorlar bilan o’talgan baland saroy va naqshinkor shiyponlar, ularga eltuvchi sersoya so‘lim xiyobonlari, zilol suvli ariqlar, markazida girdi va ichi toshtaxtalar bilan tush etilgan hamda atrofiga g’ujum va majnuntollar o’tqazilgan to’rt yoki sakkiz burchakli hovuzlardan iborat bo’lgan.

Xullas, Amir Temur tomonidan barpo etilgan qudratli davlat nafaqt harbiy, ijtimoiy-siyosiy jabhada, shu bilan birga ilm-fan va madaniyat sohasida ham tarixiy yutuqlarni qo’lga kiritishga zamin yaratgan bo’lsa, temuriylar, ayniqsa, Mirzo Ulug’bek zamonida bu jabhadagi taraqqiyot o’zining yuksak mavqeiga ko’tarildi.

1.7. Uch xonlik davrida ijtimoiy-madaniy rivojlanishning orqaga ketishi, sabab va oqibatlari

Keyinchalik yurtimizda vujudga kelgan uch xonlik (Qo’qon xonligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi) o’zaro til topishga olmaydi, yurt boshiga yov bostirib kelganda ham dushmaniga zarba bo’lib tushadigan mushtga aylana olishmaydi. Natijada, rus istilosini iskanjasiga tushib qoladi, moddiy va avosiy qaramlik, ma’naviy zulm sirtmog’iga ilinadi.

Chor istilochilar mahalliy xalqning ma’naviyati, qadriyatli, diniy e’tiqodlarini oyoq osti qila boshlaydilar. Xalqning

ma'naviy merosga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga, uning ongiga o'z manfaatiga mos keluvchi mafkurani tirishtirishga intiladilar. Xalqni ichdan yemiruvchi barcha vositalarni ishga soladilar hamda moddiy va ma'naviy boyliklar talon-taroj qilinganadi.

Yerli xalq orasidan yoshlarni zamonaviy fan va texnikadan voqif bo'lishga chorlovchi ma'rifatparvarlar yetishib chiqadi. Xalqning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy zulmdan ozod bo'lishining birdan-bir yo'li – yangicha ta'limni joriy qilishda, deb hisoblovchi «jadidlar» harakati vujudga keladi.

Milliy madaniyatda yangi yo'naliш – teatr san'ati paydo bo'ladi. Xalqni mustamlakachilik istibdodiga qarshi kurashga chorlovchi vaqtli matbuot shakllanadi.

Albatta, istilochilik zulmiga qarshi ongli kurash olib borish tarafdarlarining sa'y-harakatlari zoye ketmadi. Milliy g'urur, milliy ruh va milliy o'zlikni anglash qaytadan uyg'ona boshladи. Osiyo xalqlarining nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi, balki madaniy va ma'naviy hayotda ham ayrim o'zgarishlar bo'y ko'rsata bordi. Markaziy Osiyo hududida Yevropa va azaliy an'analarga asoslangan madaniyatning, diniy e'tiqodlarning o'zaro to'qnashushi sodir bo'ldi. Yevropa madaniyatining ayrim jihatlari mahalliy aholi an'anaviy madaniyatiga zid kelib qolgan bo'lsa, ayrim tomonlaridan, masalan, ma'rifat tarqatish, ilm olishga bo'lgan intilish, dunyoviy fanlarni, texnik taraqqiyotni rivojlantirishga bo'lgan intilishlar iliq kutib olindi. Chor Rossiysi ma'murlari yerli xalq manfaatlariga zid kelgan jihatlarni yanada tirishtirishga intilgan bo'lsalar, mahalliy xalq qabul qilinadigan jihatlarning yoyilishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsata boshladilar. Buning oqibatida ma'naviyatda o'ta ziddiyatli jarayon vujudga keldi.

Chorizmning Markaziy Osiyoga bostirib kirishining salbiy ta'siri shunda ediki, rus bosqinchilari birinchi navbatda xalq ma'naviy madaniyatining rivojiga to'sqinlik qildi. Milliy merosga bo'lgan munosabatni o'zgartira boshladи. Milliy iftixor va milliy g'urur tuyg'ulariga raxna sola borib, yerli xalq ongiga Yevropa va rus ma'naviyatini singdirishga harakat

qilindi. Yerli xalqning boy-badavlat kishilari va din peshvolarini qo'lga olinib, ularning yordamida rus hukmronligiga, rus bosqiniga bo'lgan munosabatni o'zgartirishga, «sovuj» munosabatlarni «iliq»lashtirishga, «bosqinch» tushunchasining o'rniغا «yordamga kelgan», «madaniyat olib kelgan» kabi tushunchalarning kirib kelishini xohlashdi. Hatto xutbalarga rus podshosining nomini qo'shib o'qittirishga harakat qildilar.

Yevropa fani va texnikasini o'zlashtirayotgan ruslar, o'zlari bosib olgan hududlarda ham fan va texnika taraqqiyotiga erishishga (albatta, o'z manfaatlarini ko'zlagan holda) harakat qiladilar. Natijada, rus olimlari jamiyatları, turli xil ilmiy nashrlar vujudga kelib, Markaziy Osiyoning tabiiy, iqtisodiy xaritalari tuzila boradi, fauna va florasi tadqiq etilib, toydali qazilma konlarining joylari aniqlanadi. Rossiya sañoati uchun xomashyo sifatida tabiiy boyliklar qazib olna boshlanadi. Paxta yakkahokimligiga erishish uchun turli xil sug'orish shaxobchalari va inshootlari quriladi. Dehqonchilikda bir muncha siljishlar ro'y beradi.

Albatta, o'lkada rus ma'naviy bosqinchiligiga qarshi turli xil harakatlar vujudga keladi. Bu harakatlardan biri ma'rifatparvarlik harakati bo'lsa, ikkinchisi, uning zamona-viy va bir muncha ijobiliy, ommaning, ayniqsa, yoshlarning o'tmaslashib va so'nib borayotgan milliy g'ururi va milliy tuhini o'tkirlashtirishga, onglilagini oshirishga qaratilgan «jadidchilik» harakati edi.

Rus istilochilarining Markaziy Osiyonini zabit etishi milliy ziyorilarning dunyoqarashida bir qator o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldi. Rus madaniyati, u orqali Yevropaning ilg'or madaniyati bilan tanishish ijtimoiy taraqqiyotga boshqacha nazar tashlashga turtki berdi. Mahalliy ziyorilar ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilish valqni ma'rifatli qilishi, unga ta'lim berish, ilm-fanni egalashiga yordam berish orqali amalga oshishi mumkin, deb hisobladilar. Ma'rifatparvarlikning Muqimiyy, Zavqiy, Anbar Otin, Dilshod Barno singari vakillari nafaqat xonliklarning boshqaruvi tartibini tanqid qildilar, balki ilm orqali adolatsiz-

lik, jaholat va zulmga barham berish mumkinligi g'oyasini ilgari surdilar. Muqimiy riyokor ruhoniyalar, boylar va amal-dorlarning xalq boshiga bitgan balo ekanligini, jabr-zulm ularning kundalik yumushiga aylangani, shaxsiy manfaat oldida bir-birining ko'zini cho'qishgacha borishi mumkinligini fosh qilishga intildi.

Zavqiy esa, xonlik idora usulini dastlab qo'llab-quvvatlasada, so'ngra uni qattiq tanqid qiladi. O'z manfaati yo'lida xalqni talaydigan beklarni fosh qilishga intiladi. Xalq boshiga balolar toshini yog'dirayotganlarni qop-qora bulutga o'xshatadi. Xalqning ozodlikka, ana shu qora bulutlar soyasidan chiqib oftob va yorug'lik sari yuz tutishishini orzu qiladi.

Ma'rifatparvarlikni va ilm olishni targ'ib qilgan shoira Anbar Otin ruslar tomonidan o'rnatilgan mustabid tuzumni qoralaydi (Shoiraning, ayniqsa, «Qoralar falsafasi» asari bu jihatdan ibratlidir!). Zulmdan qutulishning birdan-bir yo'li – bilim olish orqali nodonlikni tark etish, aql-idrokka amal qiliш bilan xalqning birligiga erishish mumkinligi g'oyalarini ilgari suradi.

Ma'rifatparvarlikning ko'zga ko'ringan vakillari Furqat va Sattorxonlar Markaziy Osiyoda hukmronlik qilayotgan xonlik boshqaruv tizimi jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy tanazzulining birdan-bir sababi, deb biladilar. Ular ilm-fanni egallash orqaligina o'lkani tanazzul botqog'idan olib chiqish mumkin, deb hisoblaydilar. Ularning fikriga ko'ra, ilm-fan jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi qadratli kuchdir.

Ma'rifatparvarlik harakati vakillari Markaziy Osiyoga mustamlakachilik siyosati orqali kirib kelayotgan yevropacha madaniyatni chuqur tahlil qiladilar. Bir-biridan tubdan farq qiluvchi ijtimoiy tuzumlarning mohiyatini chuqurroq anglay boradilar. Yevropaga xos bo'lgan davlat tuzilmalari, uni boshqarishning ijobiy tomonlaridan foydalanish zarurligini ta'kidlay boshlaydilar. Masalan, Ahmad Donish istibdodga asoslangan tuzumning iqtisodiy-siyosiy mohiyatini chuqur tahlil qilib, davlat tuzimini ijobiy siyosiy tashkilot boshqaruvi bilan almashtirilishi kerakligini ta'kidlaydi. U o'zining mashhur «Navodir ul voqoye» asarida aql dav-

latning mohiyatini belgilab berishini ta'kidlab, «Kimki aql-siz bo'lsa, u odil emas, zero aql va davlatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Aqlsiz odamlar davlatni boshqara olmaydi», deb yozadi. Uningcha, odil podshoh davlatni boshqarish va biron farmon chiqarishda aqli odamlar bilan bamaslahat ish qiladi.

Millatning shakllanishi, milliy qadriyatlarni saqlab qolishda jadidchilik harakati vakillari jonbozlik ko'rsatadilar. Xalqning, ayniqsa, yoshlarning milliy ruhiyati va tuyg'usini saqlab qolish, milliy o'zligini anglab yetishlari uchun rus-tuzem mакtablariga qarama-qarshi «yangi usul» maktablariga asos soladilar. Natijada, 1910-yilga kelib, jadidchilik harakatining markazlari hisoblangan Toshkentda 20 ta, Qo'qonda 16 ta «yangi usul» maktablari faoliyat ko'rsatadi. Bu maktablarda asosan turkiy til va islom ilohiyoti o'qitiladi.

XX-asr boshlariga kelib ma'naviy tanazzul chuqurlashib borayotgan Buxoroda yangi oqim – «Jadidchilik yoki fikrliar» oqimi vujudga keladi. Bu oqim tarafdorlari Buxoroning iqtisodiy-siyosiy jihatdan kuchli davlatlar qatoriga chiqishi uchun kurasha boshlaydilar. Bu oqimning faol ishtirokchilardan bo'lgan Sadriddin Ayniy o'zining «Jadidlar yoki yosh buxoroliklar partiyasi tarkibi yoki yozilmay qolgan rejalar» nomli asarida jadidchilik harakatining maqsad va vazifalarini bayon qiladi. Jadidlar o'z oldilariga savodsizlikni tugatish, xalq tafakkurini yuksaltirish, yangi maktablar tashkil etish, jadidchilik adabiyotini tarqatish, diniy mutaassiblikka qarshi kurash, davlat arboblarining qabihligi, zulmkorligini, qonunchilikning buzilishi,adolatsizlikning avj olganligini tosh qilish, axloqsizlik va bid'atga, eskilik sarqitlariga chek qo'yish kabi maqsadlarni qo'yadilar. (*Qarang: O'zbekiston tarixi. –T.: «O'qituvchi». 1994, 229–230-betlar*).

Jadidchilik harakatining «g'oyaviy rahnamosi» Ismoil Gaspirinskiyning Turkistonga qilgan safari (1893-yil)dan so'ng Turkistonda jadidchilik harakati avj oladi. Mazkur harakatga qo'shilgan taraqqiyatparvar kuchlar Turkistonning eng yirik shaharlarida bu harakatning asl maqsadi va vazifalarini targ'ib qila boshlaydilar. Lekin bu harakat osonlik

bilan yoyilmaydi. Unga birinchi navbatda xalqning milliy uyg'onishidan cho'chiydigan rus mustamlakachilari, ikkinchi tomondan esa ularni qo'llab-quvvatlovchi millatfurush guruhlar, uchinchi tomondan mutaassib va johil ruhoniylar qarshilik ko'rsatadilar.

«Jadidchilik» harakati vakillarining sa'y-harakatlari tufayli savod o'rgatishning yangi usul mакtablari tashkil qilina boshlaydi. Birinchi jadid mакtabi Buxoroda 1893 yilda Ismoil Gaspirinskiy va Amir Abdulahadxonning kelishuvi asosida tashkil etiladi. Keyinchalik Qo'qonda, Andijonda, Toshkent va boshqa shaharlarda ular katta qiyinchilik bilan tashkil etila boradi. 1903-yilga kelib Turkiston o'lkasida 102 ta jadidchilik mакtabi faoliyat ko'rsatgan edi.

Jadidlar o'z maslaklarini xalq o'rтasida yoyishda vaqtli matbuotdan ham foydalanishga intiladilar. Natijada, 1906-yilda «Taraqqiy», «Xurshid» nomli gazetalar chiqqa boshlaydi. Lekin ularning chiqishi rus senzurasi tomonidan to'xtatib qo'yiladi. 1907-yildan boshlab Abdulla Avloniy «Shuhrat» nomli gazeta chiqaradi.

Shuningdek, jadidlar yerli xalqning milliy ongini uyg'otish uchun, yoshlarning chet elda, ayniqsa, Yevropada o'qib kelishlariga erishishga harakat qiladilar. Bu maqsadni amalga oshirish uchun o'qishga boradiganlarga moddiy yordam beruvchi turli xil xayriya jamiyatlarini tashkil etadilar. Masalan, Toshkentda «Jamiyati xayriya», Buxoroda «Bolalar tarbiyasi» (Tarbiya atfol) tashkil etiladi. Turkistonning ayrim millatparvar boy-badavlat kishilari bu jamiyatlarni mablag' bilan ta'minlab turadilar.

XX-asr boshlariga kelib Turkistonda jadidchilik harakati va uning maqsad hamda vazifalarini keng yoyishda «Sadoi Turkiston» gazetasi muhim rol o'ynaydi. Bu gazetada jadidchilik harakatining Ubaydullahojja Asadullaho'jayev (birinchi oliy ma'lumotli o'zbek yuristi), Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Hamza, Tavallo, Abdulla Qodiriy, Mahmudho'ja Behbudiy, Lutfilla Olimov, Abdurauf Muzaffarzoda, Mirmuhsin Shermuhamedov, Shokirjon Rahimiyl kabi taraqqiyatparvarlari xalq tarixi va madaniyati, jadid-

chilikning mohiyati, o'sha davr siyosiy voqealari va boshqa dolzarb muammolarga bag'ishlangan maqolalar bilan chiqish qildilar.

Turkistonga litografiyaning kirib kelishi Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, To'raqo'rg'on, Kogon va Xorazmda bosmaxonalarning tashkil etilishiga olib keladi. Natijada, turli xil she'riy to'plamlar, bayozlar, tazkiralar, devonlar, kulliyotlar, tarixiy, ilmiy va falsafiy asarlar chop etila boshlanadi. XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Lutfiy, Navoiy, Tomiy, Ogahiy, Fuzuliy, Tabibiy va boshqalarning devonlari chop etiladi.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uchmosiy yo'nalishdan iborat edi:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish;
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish;
3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish, gazetalar chop etish.

Shu yillari jadidlarning «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuxrat», «Osiyo», «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Buxoroi Sharif», «Turon», «Kengash», «Xurriyat», «Ulug' Turkiston» ro'znomalari, «Oyina» jurnali chop etildi. Lekin tez orada chor ma'muriyati tomonidan lo'plab gazetalar nashri man etildi. Shuningdek, o'zbek milliy madaniyati, chunonchi, urf-odatlar va bayramlarni «qayta yanglash», o'zgartirish jarayoni shakllana boshladi. Bu borada turli fikrlar vujudga keldi. Bu davrning ma'rifatparvar ziyolilari, Furqat, Behbudiy, So'fizoda, Avloniy, Cho'lpon, Fitrat, Munavvar Qori, Hamza kabilar hayotni yangilash, boyitish tarasfdorlari edi. Ular maktablarda o'qish, o'qitish ishlarni yangilashga, xalqni ma'rifatli qilishga xizmat qildilar. Barcha baxtsizlikning asosida ma'rifatsizlik yotadi, deb yoshlarni ma'rifatga chorladilar.

Bu davrda milliy uyg'onish ruhi, ayniqsa, Vatanga, milkatga sodiq farzandlar tayyorlash masalasi jiddiy qo'yilgan. «Amerikaliklar bir dona bug'doy ekib, 20 qadoq bug'doy olurlar. Ovrupoliklar o'zimizdan 5 tiyinga olgan paxtamizni keltirib 25 tiyinga soturlar! Ammo biz turkistonliklar dumba sotib, chandir chaynaymiz, qaymoq berib sut oshaymiz, non

o'rniiga kesak tishlaymiz!» degan fikrlari A.Avloniyning asr boshidayoq bu masala xususida nechog'lik chuqur va teran mushohada yuritganini ko'rsatadi.

Turkistonidagi 1917-yilgi oktabr voqealari va bolsheviklarning zo'ravonlik bilan hokimiyatni egallashi jadid-larga o'z maqsadini oxirigacha amalga oshirishga imkon bermadi. Shunga qaramay ular Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hukumati chiqargan hujjatlarda ko'rsatilgan millatlarning taqdirini o'zi belgilashi to'g'risidagi huquqlardan foydalanib, Turkiston muxtoriyati hukumatini e'lon qildilar. Uch oygina yashagan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta'qibga uchradir. Keyinchalik – 1929, 1937–1938-yillarda ular ommaviy qirg'in qurboni bo'lishdi.

Jadidchilik harakatidagi faolligi va ma'rifiy-madaniy ishlarda millatparvarligi uchun A.Avloniy, Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, A.Qodiriy va boshqa ko'plab jadidchilik harakati namoyandalari nohaq ravishda kamsitilib, hayoti va ijodlari o'r ganilmay, mutaxassislar tomonidan fikr bildirilganda yuzaki, biryoqlama baho berildi.

1.8. Chor Rossiyasi va sho'rolar mustamlakasi davrida yevropacha madaniyatning kirib kelishi va ruslashtirish siyosatining oqibatlari

1917-yil 25–26-oktabr kuni ro'y bergan, sho'rocha tarixda «Ulug' Oktabr sotsialistik revolyutsiyasi» deb nom olgan to'ntarishdan so'ng madaniy revolyutsiya qilish, sotsialistik madaniyatni yaratish ishiga jadal kirishiladi.

Proletar madaniyatini yaratish zarur degan g'oyani ilgari surgan proletkultchilar qadimdan qolgan barcha moddiy va ma'naviy madaniyatni yo'q qilib tashlashga kirishadilar. Qadimiy kitoblar, arxitektura yodgorliklari, masjidu madrasalarga hujum boshlanadi. Kitoblar yondiriladi, qadimiy binolar buzib tashlanadi, ayrim qolganlari esa omborxonalar, otxonalarga aylantiriladi.

Kishilar ongidagi diniy qadriyatlarni yo'q qilish, barcha jamoat tashkilotlari a'zolarida kommunistik onglilikni va

loqni tarbiyalash, ishchi va dehqonlarning madaniy hamda tafsikaviy saviyasini ziyolilar saviyasi darajasiga ko'tarish, Kommunizmning moddiy-texnika bazasini yaratish va komunistik ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirish, diniy urfadatlarni, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtasidagi tilovutlarni tugatish kabilar sho'ro mafkurachilarining vazifalarini qatoriga kirar edi.

1918-yilning martida maorif xalq komissarligi huzurda barcha madaniy-oqartuv ishlari rahbarlik qiluvchi maktabdan tashqari bo'lim tashkil etiladi. «Savodsizlikni tugatish» shiori ostida respublikamizning 8 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan barcha aholisi yangicha siyosatdagi sovetli mafkurasini o'rganishga majbur etiladi. Shu davrlarda 1000 ga yaqin savodsizlikni tugatish maktablari, ko'plab futubxona, qiroatxona, klub, qizil choyxona, xotin-qizlar klublari ham ish olib bordi. Bu muassasalarda olib borilgan amaldagi faoliyatning maqsadi odamlar ongiga soxta sovetli mafkurasini singdirishdan iborat edi. Bu mafkuraning tasirchanligini yanada oshirish uchun teatr san'ati rivojiga etibor berilib, 1918-yilda o'lka sayyor dramatik truppassi tashkil etildi.

O'zbekiston kompartiyasining 1925-yildagi I-syezdida qabul qilingan madaniy-oqartuv ishlari haqidagi rezolyutsiya vada savodsizlikni tugatish maktablarini ko'paytirish, «bitsin savodsizlik» degan jamoat tashkilotining qishloq yacheyleklarini mustahkamlash, bu ishlarga o'qituvchilarni jalb qilish, qishloqlarga madaniy yordam ko'rsatuvchi otryadlar tuzish lozimligi ko'rsatiladi.

O'zbekiston kompartiyasining II-syezdida esa «Klub ishi» haqida alohida rezolyutsiya qabul qilindi. Unda klub ishchilar ommasi madaniy saviyasini oshirishning eng sinalgan, ommani sovet hokimiyati va partiya vazifalarini bajarishga, sotsialistik qurilish masallalarini muhokama qilishga jalb etishning muhim vositalaridan biri ekanligi hamda ushbu vazifalarni ishchilar ommasi faolligi va havaskorligini oshirish asosida olib borish lozimligi ko'rsatiladi.

Kadrlar tayyorlashni yaxshilash maqsadida ishchilar fakulteti va kechki kurslar tashkil etiladi. Shunday qilib, sho'rolar davrida ijtimoiy-madaniy faoliyat davlat tizimiga aylantirilib, sovet mafkurasining bir qismi bo'lib qoldi. Bu davrdagi ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy maqsadi bitta – aholini kommunistik ruhda tarbiyalashdan iborat edi.

Mamlakatda sotsializmning uzil-kesil g'alaba qozonishi bilan madaniy revolyutsiyaning birinchi davri tugallandi, deb hisoblandi. Bu davrda savodsizlikni tugatish, yangi sovet ziyorolarini yetishtirish, umumiy majburiy ta'limni joriy etish, madaniyat tarkibidan milliy qadriyatlarni siqib chiqarish, marksizm-leninizm ideologiyasini butun jamiyat ideologiyasiga aylantirish, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtaсидаги qarama-qarshilikni tugatish, «shaklan milliy va mazmunan sotsialistik» madaniyatni shakllantirish kabi masalalar dolzarb qilib qo'yildi.

Mana shu mafkuraviy rejalashtirilgan siyosat natijasida sho'rolar davrida ijtimoiy-madaniy muassasalar xalqqa xizmat qilish o'rniliga, butunlay kommunistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi maskanlarga aylantirildi. Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik asarlar yaratish talabi esa bir-biriga o'xshash, mazmunan sayoz, bir xil qolipga solingan zo'rma-zo'raki yozilgan asarlar yaratilishiga zamin bo'ldi.

Sho'rolar davri ijtimoiy-madaniy faoliyatida mahalliy sharoitni hisobga olmaslik, Yevropa va Rossiyaga xos shakllarni zo'rma-zo'raki tiqishtirish, madaniy meros va milliy an'analarni inkor etish, buzib ko'rsatish, xalq ijodini mensimaslik kabi ko'plab xatoliklar mavjud edi.

Sho'rolar davrida ijtimoiy-madaniy faoliyatning quyidagi shakllaridan ko'proq foydalanilar edi: jonli gazeta, og'zaki jurnal, miting kechalari, portret kechalari, konsert, leksiyalar, agitsudlar, namoyish, tematik kechalar, agitbrigada tomoshalari va hokazolar.



1. Yurtimizdag'i eng qadimiy madaniyat o'choqlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyoga yurishlari va uning madaniy oqibatlari haqida gapirib bering.
3. Kushon davri madaniyati haqida nimalarni bilasiz?
4. «Buyuk ipak yo'li» atamasini keng izohlang.
5. VIII-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Mavarounnaharda musulmon madaniyatining shakllanish jarayoni haqida so'zlab bering.
6. Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ayting.
7. Tariximizning parokandalik va tanazzul davridagi ijtimoiy-madaniy hayoti haqida nimalarni bilasiz?
8. XVII–XIX-asrlarda Qo'qon, Xiva va Buxoroda madaniyat va san'atning holati haqidagi tasavvurlaringizni alohida referat tarzida tayyorlab keling.
9. XVII–XIX-asrdagi xalq madaniyati, ya'n'i masxarabozlik, qiziqchilik, dorboz, qo'g'irchoqboz san'ati, xalq pedagogikasi, o'yinlari, ijodi, odatlari, marosim-bayramlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
10. Chor Rossiyasining istilosi oqibatlari va Markaziy Osiyoga yevropacha madaniyatning kirib kelishi haqida gapirib bering.
11. Ma'rifatparvarlik va «jadidchilik» harakatlarining vujudga kelishi borasida mulohaza yuriting.
12. Jadidlarning «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Buxoroi Sharif», «Turon», «Kengash», «Hurriyat», «Ulug' Turkiston» ro'znomalari, «Oyina» jurnali haqida ma'lumotlar to'plab, ularning xalqimiz madaniy-siyosiy ongi o'sishiga qo'shgan hissasiga ko'ra tartiblab chiqing.
13. Sho'rolar davrida milliy madaniyatni yo'q qilib, sotsialistik madaniyatni yaratish ishlari qay tarzda amalga oshirildi?
14. «Klub ishi» haqidagi rezolyutsiya qachon va nima maqsadda qabul qilindi?
15. Sho'rolar davrida madaniy meros va milliy an'analarga munosabat haqida gapirib bering.

16. Sho'rolar davrida ijtimoiy-madaniy faoliyatning qanday shakllaridan foydalanilgan?



Tayanch so'z va iboralar:

Tosh davri, neolit, eneolit, bronza davrlari manzilgohlari, xalq madaniyati, masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik san'ati, xalq pedagogikasi, o'yinlar, odalgar, marosim-bayramlar, Amir Temur va temuriylar davri madaniyati, Yevropa madaniyati, rus-tuzem maktablari, ma'rifatparvarlar, jadidlar, teatr san'ati, yangi usul maktablari, «qadimchilar», «yangichilar», madaniy revolyutsiya, savodsizlikni tugatish, proletar madaniyati, proletkultchilar, madaniy-oqartuv ishlari, jonli gazeta, og'zaki jurnal, tematik kechalar, agithbrigada tomoshalari.



I-bo'lim uchun uslubiy ko'rsatma

Ijtimoiy-madaniy faoliyat amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan asosiy tushunchalar ro'yxatini tuzing. Mazkur atama va tushunchalarning mohiyati va o'ziga xos farqli jihatlarini menejer, pedagog, psixolog, madaniyatshunos, sotsiolog (o'zingiz tanlang) nuqtai nazaridan aniqlab bering.

Markaziy Osiyoning qadimgi madaniyat o'choqlarida ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning asta-sekin o'sib borishiga oid keys tayyorlang. Uni kursdoshlaringiz bilan «Munozara» usulida muhokama qiling.

II. IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Ijtimoiy-madaniy faoliyat evolyutsiyasi

Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi qadimiydir. Uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Ilk uyushuv shakllari esa ilmiy adabiyotlarda tosh, bronza, temir davrlarida tarkib topganligi talqin etiladi. Bu davrda odamlarning madaniy ijtimoiylashuvi hayotni ta'minlash, uning barqaror davomiyligini belgilash zaruratidan yuzaga kelgan. Hayotning moddiy tomonlarini ta'minlash uchun odamlar bir-birlariga ov qilish, baliq tutish, ekin ekish, boshqa jinsni o'ziga jalb etishga erishishni turli o'yinlar, mashqlar tarzida o'rgatib borganlar. O'rgatish uzlucksiz, doimiy davom etgan. O'rgatish uzlucksizligi va doimiyligi esa ta'limning alohida soha sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan. Demak, ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'limning asosi bo'lgan deyish ham mumkin.

Odamlar tashqi tabiiy kuchlar (olov, suv, shamol, yer qimirlashi) ta'siridan doimiy qo'rqib yashaganlar. Shu boisdan ular ta'limni, ya'ni ilk o'rgatish shakllarini olov, suv, shamol, alzila «xudolari»ga va boshqa turli ilohiy ma'budalarga ehtirom ko'rsatish bilan uyg'unlashtirib o'rgatishga intilganlar. Bu intilish esa folklor o'yinlari shaklida bizgacha yetib kelgan.

Binobarin, odamlarning bu shakllardagi o'zaro uyushuvini ilk ijtimoiylashuv ko'rinishi, deb ham hisoblash mumkin. Shu tariqa odamlarning bir-birlari bilan hamkorlik qilishlariga hayotni ta'minlash hamda tabiat kuchlaridan qo'rqish omillari asos bo'lgan. Shuningdek, odamlarning o'zaro uyushuviga naslni saqlash, ko'paytirish, boshqa jinsdan rohatlanishdan iborat tabiiy instinctiv tuyg'u ham kuchli ta'sir ko'rsatgan, deyish mumkin. Shuningdek, muayyan guruh,

qabila, urug'ning biologik saqlanishi uchun boshqa urug', qabila tahdidi, ya'ni tashqi kuchlardan himoyalanish zarurati ham ularni o'zaro ittifoqlashuviga turtki bergen.

Insoniyat ongi, tafakkur tarzining rivojlanishi natijasida odamlararo uyushuvning murakkab strukturasi tarkib topa bordi. Qabilaviy uyushuvdan davlatlar darajasidagi uyushuvlar, millat darajasidagi birlashuvlar tarkib topdi. O'troq turmush tarzi ko'chmanchilikdan iborat hayotga barham berdi. Odamlar o'z millatiga, davlatiga, diniga aloqadorlik, shuningdek, o'z qiziqishlari, ideallariga mansublik asosida birlasha boshladilar. Shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyatning evolyutsion jihatdan yuqori bosqichi shakllana boshladi. Jumladan bizning yurtimizda ijtimoiy-madaniy faoliyat o'z shakllanish tarixida quyidagi muhim bosqichlarni bosib o'tdi:

1. Zardushtiylik davrida olovga, quyoshga, nurga sig'inish orqali odamlarni ezgulik, issiqlik, nur atrofida birlashtirish kuchaygan. Buning uchun odamlarni yaxshilik, ezgulik xudosi Mitra obrazi orqali birlashtirish harakati amal qilgan;

2. Islom dinini yoyish uchun aholi ommaviy tarzda yakka Xudoga itoatga undalgan. Bu davrda odamlarni guruhiy ma'rifatga chorlash harakati bo'lган. Shu tariqa:

a) ilk ma'rifiy-maishiy muassasalar tashkil etilgan (xona-qohlar);

b) hordiqiy muassasalar shakllanib, rivojlangan (choyxonalar, guzarlar, musofirxonalar);

v) tijorat bilan uyg'unlashgan muassasalar faoliyat yuritgan (karvonsaroylar, rabotlar);

g) diniy-ma'rifiy muassasalar ochilgan (masjidlar, maktablar);

d) oliy diniy va dunyoviy muassasalar rivoj topgan (madrasalar).

3. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning yuqori bosqichi odamlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qo'shimcha kasblar, hunarlarni o'rganish, qiziqishlar asosidagi klublar, to'garaklarda faoliyat yuritish singari mashg'ulliklar tarzida amal qila boshladi.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyat turmush tarzini bezash, an'ana va urf-odatlarni o'tkazish, diniy marosimlarni, tabiiy va rasmiy bayramlarni nishonlash shaklida ham namoyon bo'la bordi. Shu tarzda ijtimoiy-madaniy faoliyatning odamlar hayotidan mustahkam joy egallashining asosiy omillari oydinlashadi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tabiat kuchlaridan qo'rquv asosidagi uyushuv ehtiyoji;
2. Uyushuvning doimiyligini ta'minlash uchun intilish, va ni guruh, qabila, urug' liderlari tomonidan muayyan diniy marosimlarni so'zsiz bajarilishining talab etilganligi;
3. Boshqa qabila, urug'lar tahdididan himoyalanishdan iborat ijtimoiy ehtiyoj;
4. Qabila, urug' doirasida amal qilib kelinayotgan hayot tarzini, uning davomiyligini ta'minlash maqsadida turli hunarlar (ov qilish, jang qilish, ekin ekish va h.k.) ni yosh avlodga o'rgatib borish zarurati;
5. Naslni davom ettirish zaruratidan kelib chiquvchi ijtimoiy-maishiy ehtiyoj;
6. Bo'sh vaqtini qiziqarli o'tkazish xohishidan iborat madaniy ehtiyoj;
7. Odamlarni favqulodda vaziyatlarda yalpi safarbar qila olishga erishish zarurati;
8. Odamlarning o'zaro ahilligi, totuv turmush tarzini ta'minlash uchun ularni biror bir mashg'ulot turi bilan band etib turishdan iborat ijtimoiy ehtiyoj;
9. San'at turlaridan zavq olish, go'zallikka intilish, nafis narsalarni yaratishdan iborat ma'naviy ehtiyoj;
10. Yoshlarni maqsadli tarbiyalash uchun muayyan ideal-larga yo'naltiruvchi sog'lom raqobat ruhini yaratishdan iborat jamiyat ehtiyoji;
11. Yoshlarni keng dunyoqarash va chuqur bilimli qilib hayotga tayyorlash uchun ularga qo'shimcha bilim berish va hunarlar o'rgatish zarurati;
12. Jamiyatdagi an'ana, marosim, bayram, urf-odatlarning o'tkazilishini ma'lum tartibotlar asosida muvofiqlashtirish borishdan iborat ijtimoiy ehtiyojlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat shu omillar asosida o'zining asosiy funksiyalariga ega bo'ldi. Bu funksiya, ya'ni vazifalar quyidagilardir:

- uzlusizlik;
- davomiylik;
- foydalilik;
- me'yoriylik;
- xavfsizlik;
- go'zallikka oshuftalik;
- ma'naviy o'zlikni saqlab turuvchilik;
- shaxsni va jamoani rivojlantiruvchilik;
- estetik saviya, didni tarbiyalovchilik;
- ta'lif, san'at, fan, ishlab chiqarish va boshqa turli xizmat sohalari oldidagi faoliyatlar hamda vazifalarni ixtiyoriy tarzda jamoaviy yoki individual shakllarda rivojlantiruvchilik.

Sho'rolar davrida ijtimoiy-madaniy faoliyat funksiyalari muayyan darajada o'zgartirilib, kommunistik mafkuraga to'la moslashtirildi. Uning nomi madaniy-oqartuv ishi deb atala boshlandi. Madaniy-oqartuv ishi tarkibiga kutubxonalar, klublar, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari kiritildi. Xalqning ming yillar mobaynidagi an'anaviy ijtimoiy-madaniy muassasalari bo'lgan choyxonalar, guzarlar, bog'lar, nodavlat tashkilotlari, diniy muassasalar, shuningdek, milliy va ijtimoiy uyushganlik shakllari bo'lgan odamlarning ko'ngilli uyushmalari, to'ylar, marosim va an'analar, urf-odatlар bu tarkibdan chetda qoldi. Bir makon va zamon muhitida xalq turmush tarzi o'zgacha, sovetlarning madaniy-oqartuv ishi esa boshqacha tarzda amal qila boshladi. Madaniy-oqartuv ishida ommaviylik tamoyili ishlamadi. Shuningdek, bu faoliyat odamlarning milliy ruhiga begona ish va mashg'ulotlar tarzida amal qilib keldi. Shunga qaramay, sho'rolarning klub va kutubxona muassasalari partiya qarorlari hamda mustabid hokimiyat yo'riqnomalarini aholining eng quyi bo'g'inlarigacha yetkazish, ommani siyosiy-mafkuraviy ta'sir doirasida mustahkam ushlab turishda muayyan rol o'ynadi.

Birgina misol: 3–5 ming kishilik hududda faoliyat yurituvchi qishloq klubida agar 5-7 ta havaskorlik to'garagi faoliyat vuritsa, bu klub «yxashi» baholanar, agar 1-2 ta to'garagi bo'lsa, bu klubning ishi «qoniqarsiz» deb topilar edi. Klublar bu vilda 3-4 ta sho'ro bayramlarini hamda 3-4 ta to'garakda qatnashuvchi 20-25 kishi bilan mashg'ulotlar o'tkazib turiluvchi joy edi, xolos. Kutubxonalar esa sho'rolarning siyosiy ruhdagi kitob va gazetalari, sho'rolar hayotini badiiy ifoda etuvchi 3-5 ming kitob fondiga ega bo'lgan muassasalar edi. Sho'rolar davri madaniy-oqartuv ishining mazmuni quyidalaridan iborat bo'lgan:

1. Aholi dunyoqarashini uzliksiz boshqarib turish;
2. Ruxsat etilgan havaskorlik to'garaklariga aholini jalb etish;
3. Hukmron kommunistik partiya g'oyalarini targ'ib qilish;

Ayni davrga xos bo'lgan illatlar sifatida yana tubanda etlarni korsatish mumkin:

barcha sohalarda kompartiyaning yakka hukmronlik qilishi mavjud edi;

tadbirkorlik, tijorat ishlari siquvga olingandi;

ijtimoiy hayotda dinning roliga bepisand qaralardi;

jamoat tashkilotlarining faoliyati o'ta sust edi;

xalqaro hamjamiyat bilan aloqalar deyarli yo'q edi;

milliy madaniy-ma'naviy merosga hurmat sun'iy pasaytildi;

odamlar dunyoda nima bo'layotganini deyarli bilmas edilar;

ayollar ijtimoiy hayotda kam ishtirok etardi;

yoshlarning jamiyatdagi mavqeい nihoyatda past edi.

Bugungi kunda esa ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi:

1. Odamlarning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlari asosidagi takliflarni shakllantiruvchilik;

2. Aholini turli ijtimoiy jamoalarga uyushtiruvchilik;

3. Aholi dunyoqarashini maqsadli boyituvchilik;

4. Aholi o'rtasida iste'dodlarni aniqlovchilik va tarbiyalovchilik;

5. Milliy qadriyatlarni tiklashga xizmat qiluvchilik ma-qomlariga ega bo'ldi.

Istiqlolga erishganimizdan so'ng ijtimoiy-madaniy faoliyat tubdan o'zgardi. Bu sohadagi tub tarkibiy o'zgarishlar tadrijiy tarzda amalga oshirilmoqda. Mazkur o'zgarishlar natijasida ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy ish funksiyalari tarkib toptirildi. Ular quyidagilardir:

1. O'zbekistonning mustaqil rivojlanishini ta'minlovchi besh asosiy tamoyilning hayotdan mustahkam o'rinn olishiga ko'maklashish.

2. Aholi turli qatlamlarida mamlakatimizda yuz bera-yotgan o'zgarishlar jarayoniga bevosita daxldorlik hissini shakllantirish.

3. Hech kimdan kam bo'limgan shaxs, jamiyat va davlatni shakllantirishga faol ko'maklashish.

4. Jamiyatda xushyorlik, sezgirlik, ogohlikni ta'minlashda aholini faol qatnashtirish.

5. Odamlarning sho'rolar davridagi kabi, noiloj emas, balki, dildan xohlاب yakdil birlashuviga xizmat qilish.

6. Aholini bunyodkorlik faoliyatlariga yo'naltirish.

7. Aholini madaniyat, san'at, texnika, hunarmandchilik va sport mashg'ulotlari, klublari, to'garaklariga to'liq qamrov tamoyili asosida keng jalb etilishiga erishish.

8. Odamlarda milliy an'analar, urf-odatlar, qadimiy bayramlarimizga ehtirom fazilatini tarkib toptirish orqali milliy o'zlikni anglashga ko'maklashish.

9. Aholi turli tabaqalari vakillarida istiqlol ramzları, bayramlari, ideallariga sadoqat, fidoyilik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilish.

10. Odamlarda badiiy-estetik didning yuqori darajada shakllanishiga xizmat qilish.

11. Aholida oila muqaddasligi qadriyatining mustahkamlanishiga faol xizmat qilish.

13. «Maktab – oila – mahalla» hamkorligini ta'minlash orqali ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishga erishish.

12. Turli ijtimoiy harakatlar, nodavlat tashkilotlari, partiyalar, milliy-madaniy markazlar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish.

13. «Zamonamiz qahramoni» obrazini hududdagi real jaxslar timsolida yaratish orqali ibrat omilini keng targ'ib etish;

14. Har bir insonga xos bo'lgan iste'dodni aniqlash yo'lida domiy faoliyat olib borish va ularning hududiy intellektual alohiyat xaritasini ishlab chiqish;

15. Jamiyatdagi ijobjiy o'zgarishlarni reklama qilish orqali yoshlarda faol buniyodkorlik fazilatlarini shakllantirish;

16. Hududning ijtimoiy-madaniy rivojlanish imkoniyatlari bo'yicha asoslangan amaliy prognozlar yaratish ishlarini olib borish va h. k.

Istiqlol yillarida shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning uzviy bo'g'iniga aylandi. Bugungi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyat kasbining sohibi quyidagi sohalarda ishlashi mumkin:

1. Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi muassasalarda (madaniyat va aholi dam olish markazlari, klublar, muzeylar, parklar).

2. Turli ijtimoiy harakatlar, partiyalar, nodavlat tashkilotlarida, qo'shma korxonalarda.

3. Ijtimoiy va tijorat reklama muassasalarida.

4. Mahalliy hokimiyat tuzilmalarida, mahalla bo'g'inda.

5. Ommaviy axborot vositalarida, radio va televide-mveda.

6. Sotsiologik markazlar, ilmiy-tadqiqot institutlarida.

7. Milliy-madaniy markazlarda.

8. Konsert tashkilotlarida (san'at menejeri, prodyusser).

9. Milliy-madaniy merosni saqlash va uni targ'ib etuvchi muassasalarda.

10. Pedagogik faoliyatlarni tashkil etishda.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining kasbiy jihatdan tayyorlanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagi lardir:

1. Aholi ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini aniq belgilay olish malakasiga egalik (0–5 ball);

2. Aholining istiqboldagi madaniy ehtiyojlarini, ma'naviy-estetik takliflarini shakllantira olish salohiyatiga egalik (0–7 ball);
3. Aholining yosh, jins, moddiy holati va ijtimoiy maqomi asosida turli faoliyatlarni tashkil etish bo'yicha asosli takliflar tayyorlay olish malakasiga egalik (1–5 ball);
 1. Turli madaniy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha ssenariylar yoza olish malakasiga egalik (1–5 ball);
 2. Madaniyat muassasalari imkoniyati doirasida tadbirkorlik ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'z loyihalarini asoslab bera olish (0–7 ball);
 3. Hududdagi mavjud ish o'rirlari haqidagi ma'lumotlarni, aholining mehnatga bo'lgan ehtiyojlarini, kasblarning rivojlanish imkoniyatlarini o'rganib, shular bo'yicha mantiqli ma'lumotnomalar tayyorlay olish malakasiga egalik (0–7 ball);
 4. Hududdagi ijtimoiy-madaniy muhitni o'rganish bo'yicha sotsiologik tadqiqot tadbirlarini tayyorlay olish malakasiga egalik (0–7 ball);
 5. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning barcha sohalari bo'yicha ish hujjatlarini tayyorlay olish malakasiga egalik (0–5 ball);
 6. Aholining turli tabaqalari orasidagi iste'dodlar haqida mufassal ma'lumotnomalar tayyorlash va ular bo'yicha tegishli to'garaklar, uyushmalar, klublar tashkil etish takliflarini shakllantirish malakasiga egalik (0–7 ball);
 7. Hududda ogohlilik, sergaklik, hushyorlikni ta'minlash bo'yicha ma'lumotnomalar tayyorlay olish (0–5 ball);
 8. Hududda «maktab-oila-mahalla» hamkorligini ta'minlash bo'yicha takliflar tayyorlay olish (0–7 ball);
 9. Hududdagi milliy-ma'naviy merosga e'zozli munosabatni shakllantirish bo'yicha asosli takliflar tayyorlay olish (0–5 ball);
 10. Hududda «zamonamiz qahramonlari» maqomiga munosib insonlarning hayotiy tajribalaridan yoshlar tarbiyasidagi ibrat omili sifatida foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlay olish (0–5 ball);

11. Jamiyatdagi va hududdagi ijobiy o'zgarishlarni targ'ib etish bo'yicha takliflar tayyorlay olish (0–5 ball);
12. Odamlarni milliy an'analar, urf-odatlar doirasida bir-lashira olish malakasiga egalik (0–7 ball).

Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi yuqoridagi mezonlar bo'yicha 30 balldan yuqori natijaga erishgan bo'lsa, «faoliyat surʼata olishi mumkin», 50 balldan yuqori natijaga erishsa, «faoliyatni bemalol uddalay oladi», agar 70,5 balldan yuqori durajaga erishsa, «faoliyatni rivojlantira oladi», degan xulosa berishimiz mumkin.

Xullas, ijtimoiy-madaniy faoliyat kasbining imkoniyat doirasini keng bo'lib, bu soha vakillari bozor munosabatlarining talab va taklif tamoyili asosida erkin faoliyatni yo'lga qo'yishga yo'naltirilgandir.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Evolyutsiya» atamasiga ta'rif bering.
2. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning shakllanish bosqichlarini farqlab bering.
3. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning sobiq sho'rolar davridagi holatini izohlang.
4. Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining kasbiy yo'naliishlarini ayting.
5. Qiziqishlarni tarbiyalash metodikasini asoslang.
6. Badiiy havaskorlik ijodiyotiga bo'lgan ehtiyojlar tasnifini shakllantiring.
7. Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi faoliyat yurituvchi sohalar qaysilar?
8. Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining kasbiy malaka darajasini aniqlovchi mezonlarni izohlang.
9. Ijtimoiy-madaniy faoliyat evolyutsiyasiga doir keys tayyorlang.



Tayanch so'z va iboralar:

Evolyutsiya, ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar, diniy-ma'rifiy muassasalar, urf-odatlar, madaniy-oqartuv ishi.

2.2. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy tamoyillari, vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlari

Mustaqillik respublikamizda faoliyat olib borayotgan ijtimoiy-madaniy muassasalar zimmasidagi ijtimoiy-madaniy faoliyatning mohiyatini ifodalaydigan va uning yo‘nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilaydigan eng umumiy qoidalarni – tamoyillarni shakllantirish imkonini ham berdi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning o‘ziga xos tamoyillari ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil qilishda yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadigan asosiy manba hisoblanib, ular quyidagilardan iboratdir:

- hayotiylik;
- ommaviylik;
- ixtiyoriylik;
- ilmiylik.

Mustaqil davlatimizni har tomonlama rivojlantirish amaliyotining hayotiy talablar bilan hamohangligi, buning uchun kishilar oldida turgan vazifalarning mohiyatini tushuntirish, ularni mustaqillikni mustahkamlash va kelajagi buyuk davlat bunyod etishdagi tarixiy rolini anglash ruhida tarbiyalash ijtimoiy-madaniy faoliyatning hayotiyligidan darak beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning hayotiylik tamoyili aniqlik va maqsadga yo‘naltirilganlik xususiyatlarini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Bu shuni anglatadiki, madaniyat muassasidagi har bir tadbir muayyan xususiyatga ega bo‘lishi va mustaqillik davri talablari bilan bog‘liq holda aniq maqsadga ega bo‘lish kerak. Shuningdek, u o‘zining butun tabiatini va mazmuni bilan har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishni rag‘batlantiradi, insonga o‘z qobiliyati va iste‘dodini namoyon qilish imkoniyatini beradi va hayotiga rang-baranglik kiritadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning ommaviylik tamoyili bir qator ijtimoiy jihatdan ahamiyatli vazifalarni bajaradi. Ya’ni ommaning ijtimoiy-madaniy ijodiyotini hamda ijtimoiy faoligini rivojlantiradi, ommaviy muloqotda bo‘lishni tashkil etadi va shular asosida jamoatchilik fikrini shakllantiradi.

Shaxsga ta'sir etish nuqtai nazaridan ommaviylik tamoyili-
mire o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, har bir kishi ijtimoiy-madaniy tadbirdarda faqat tomoshabin yoki kuzatuvchi
statida emas, balki ro'y berayotgan hodisalarning faol qat-
nichisi, o'z qarashlarini ifoda qiluvchi shaxs sifatida ish-
tirok etishi mumkin. Shu bilan birga, ommaviylik tamoyili
mengongda ijtimoiy jihatdan o'z-o'zini namoyon qilish imkonini
ham beradi.

Ijtimoiy-madaniy muassasalar insonni ixtiyoriy asosda,
una doimiy hurmat va ishonch ruhida ijtimoiy-ijodiy faoliyatpa tortadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat hamma vaqt to'la
ixtivoriylik tamoyillari assosida ish yuritadi. Agar mehnat
pimoalarida insonning faoliyati ba'zan sof moddiy sabab-
luga ko'ra belgilansa, ijtimoiy-madaniy faoliyatda, birinchi
navbatda, faoliyatning mazmuniga qiziqish asosiy o'rinda
bo'ladi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy-madaniy muassasa ja-
moasi shaxsning ma'naviy-ijodiy qobiliyatini namoyon qilish
va tivojlantirish uchun erkinlik beradi. Ixtiyoriylik ijtimoiy-
madaniy muassasalar tomonidan taklif qilinadigan ko'plab
faoliyat turlaridan birini erkin tanlash imkonini aks ettiradi
va shaxsning bo'sh vaqtida o'z ijtimoiy-madaniy faoliyati
mazmunini o'zi belgilab olishini ifodalaydi.

Hozirgi zamон ijtimoiy-madaniy faoliyat ko'laming
muttasil oshib borishi va murakkablashuvi sohalarning
o'zaro aloqasini hamda ilmiy asosda markazlashgan, rejali
boshqaruvni talab etadi. Ilmiylik tamoyili ijtimoiy-madaniy
faoliyatning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. U ijti-
moiy-madaniy faoliyatda tarbiya jarayonining maqsadi, maz-
muni, shakli va uslublarini qo'llashni, bir-biriga yaqin fanlar
pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik, estetika, iqtisodiyot
va boshqaruv nazariyasining yutuqlaridan foydalanishni
talab etadi.

Ilmiylik tamoyili bir qator belgilarda namoyon bo'ladi.
Ular orasida obyektivlik belgisiga birinchi o'rinni ajratish
mumkin. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi
kerak. Bunday ta'sir ko'rsatishda real imkoniyatlarni hisobga

olgan holda, jamiyat va alohida shaxs rivojlanishining obyektiv qonuniyatlaridan oqilona foydalanish lozim.

Ilmiylik voqealar, faktlar va ularning mohiyatini ochishni, ijtimoiy hayotning real manzarasi va uning rivojlanish jarayonlarini, ijtimoiy taraqqiyot darajasini aniqlash imkonini beradi. Voqelikni qabul qilishning tasodifiy ta'sirining oldini olish va bizni o'rab turgan dunyo haqida chinakam ilmiy tasavvurni paydo qilish ijtimoiy-madaniy faoliyatning muhim vazifasi hisoblanadi. Ilmiylik tamoyili shaxs dunyo-qarashining shakllanishini kuchaytirishga hissa qo'shamdi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning tamoyillari bir-biridan alohida holda mavjud bo'lmaydi, aksincha, ular yaxlit tizimni tashkil etadi va ommaning ijtimoiy-madaniy faoliyatida yagona jarayonning ajralmas qismini ifodalaydi. Bu tamoyillardan biror-birining bo'lmasligi umumiy bir butunlikning buzilishiga olib keladi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlashda ijtimoiy-madaniy faoliyatning o'ziga xos tashkiliy xususiyatlariga murojaat etish muhim o'rinni tutadi. Chunki har qanday ijtimoiy-madaniy faoliyat shaklini tashkil qilishda bu vazifalardan birdek foydalanib bo'lmaydi. Ba'zi shakllarda ko'proq axborot beriladi, ba'zilari, asosan, dam olish uchun xizmat qiladi, boshqalari esa madaniy-ijodiy jarayonga qatnashishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatini bilish shu sohaga oid bilimlarni konkretlashtiradi, ularni egallahsga aniqlik kiritadi, tadbirlar mohiyati va xususiyatini to'laroq yoritib berishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatdagagi tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri u bir marta tashkil qilinib, asosan, bir marta namoyish qilinadi. Masalan, spektakl, kinofilmerni yuzlab marta namoyish qilish mumkin bo'lsa, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni takroran taqdim etib bo'lmaydi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tadbirlarining deyarli hammasi xuddi shu xususiyatga ega. Faqat badiiy targ'ibot-tashviqot jamoalari, ba'zi mavzuli konserz dasturlari bir marta tayyorlanib, har xil joylarda bir necha marotaba namoyish etilishi mumkin. Ular ma'lum

vagi mobaynida (masalan, ma'lum mavsumda, ish jarayonida, ya'mi paxta, g'alla yig'im-terimida...) bir necha marta namoyish qilinsa bo'ladi. Lekin ma'lum muddatdan so'ng, albatta boshqa yangi dastur tuzishga tayyorgarlik ko'riliishi kerak.

Teatrda bitta pyesani bir necha yildan keyin yana qaytadan ahalmashtirish mumkin bo'lsa, ijtimoiy-madaniy muassasa tadbirlarida bu holat takrorlanmaydi. Biror tadbir ssenariyini ikkinchisiga qo'llash mumkin emas. Har qanday yangi ssenariy yangi tuzilishni, yangi mehnatni ta'lab qiladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning yana bir xususiyati – ular, mosan, mahalliy aholi uchun, ularning real hayotidan olinjan materiallar asosida tuziladi. Tadbirning qahramoni mazlum hududda mehnat qilib, mahalliy aholi orasida namuna bo'layotgan kishilar orasidan tanlab olinadi. Masalan, «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan bayramni olaylik. Bunda mahalliy joyda yashaydigan urush qatnashchilari, mehnat taxtiylarining ko'rsatgan jasoratlariga asosiy urg'u berilishi kerak. Urush qahramonlarining so'zlarini o'zlaridan eshitish tadbirni jonlantiradi va ta'sirchanligini oshiradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning navbatdag'i xususiyati shundan iboratki, ularda juda keng ko'lamda ta'sirchan vositalari birlashtiriladi. Tadbirlar real hayotning o'zini tashkil qilishi bilan birga, undagi muhim voqealarni o'z mazmuniga singdiradi. Ularning mohiyatini ochish va ahamiyatini yoritish uchun ta'sirchan vositalarga murojaat qilinadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning navbatdag'i, ya'ni to'rtinchisi xususiyati bu – ommani tadbir ishtirokchisiga aylantirishdir. Ijtimoiy-madaniy muassasalarda uyushtiriladigan tadbirlarini ommaviy deb atashning boisi shundaki, u omma uchun uyushtiriladi va ommaning ishtirokida o'tadi. Agar teatr, kino hamda televizorda asar qatnashchilari va tomoshabinlar o'tasida ko'rinas «devor» mayjud bo'lib, omma faqat tomoshabin rolini bajaradigan bo'lsa, ijtimoiy-madaniy muassasa tadbirlarida ommaning faol ishtiroki ko'zda tutiladi.

Albatta, tadbirlarda hammani birday faol qatnashirish qivin. Uning asosiy qatnashchilari oldindan belgilab qo'yilgan badiiy havaskorlik jamoalarining a'zolari hamda so'zga chi-

qadigan kishilar bo‘lishi tabiiy. Lekin tadbir tashkilotchisi bu asosiy qatnashchilar bilan kifoyalanib qolmasdan, ommani ham faollashtirishi, tadbir ishtirokchisiga aylantirishi lozim. Buning uchun tadbir ishtirokchilari o‘rtasida ommaviy o‘yinlar, qo‘shiqlar, savol-javoblar kabi maxsus vositalardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Chunki san’at odamni tomoshabin yoki tinglovchi bo‘lganda emas, balki bu jarayonda faol ishtirok etganda o‘ziga ko‘proq qamrab oladi.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy vazifalarini aytib bering.
3. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tadbirlarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Ommani tadbir qatnashchisiga aylantirish uchun ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi qanday sifatlarga ega bo‘lishi darkor?



Tayanch so‘z va iboralar:

Hayotiylik, ommaviylik, ixtiyoriylik, ilmiylik, madaniy-omnaviy tadbirlar, dam olish tadbirlari, ommaviy o‘yinlar, qo‘shiqlar, savol-javob kechalari.

2.3. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning pedagogik asoslari

Tarbiya kishilik jamiyatni shakllanishi bilan birgalikda rivojlanib kelmoqda. Inson tug‘ilishi bilanoq ota-onaning parvarishi orqali atrof-muhit bilan tanishadi. U ulg‘ayishi mobaynida odamlar bilan til topa bilish, ishlab chiqarish tajribasi va malakalarini o‘zlashtiradi. Shu jarayonda unda aqliy va jismoniy kamolot, madaniyat, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi.

Insonning jamiyatda shakllanishi ijtimoiy hodisa ekanligi xususida fikr yuritganda, tarbiyaning aniq maqsadga yo‘naltirilgan hodisa ekanligini anglashimiz lozim. Zero,

inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillar orasida tarbiya va ta'llim hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu boisdan ham ijtimoiy-madaniy faoliyatda tarbiya bilan shug'ullanadigan har bu mas'ul shaxs, avvalo, o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadni aniq tasavvur eta olishi, bu maqsadning ijtimoiy muhimligini anglay bilishi lozim.

Tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirralidir. Ta'llimning siyosiy vazifasi o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni bilim, lo'nikma va malaka bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya funksiyasi yosh avlodning jamiyat tomonidan qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos tarzdagi e'tiqod, axloqiy talabatiga hamohang xulq-atvor, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishdan iborat.

Taniqli tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degan edi. «Haq Olib insonlarni asl hilqatda iste'dod ila qobiliyatni, yaxshi da yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib variatgan. Lekin insondagi bu xususiyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir».

Agar bola yaxshi tarbiya topib jamiyat tomonidan e'tirof etilgan xulqlarga odatlanib ulg'aysa, baxtiyor bir inson bo'lib yetishadi. Shu boisdan ham tarbiyani – insonning hayotda xashashi jarayonida orttirgan tajriba va intellektual faoliyatining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni, deb talqin etish mumkin.

Global axborot asrida butun planetamizdagi ma'naviy hamda ekotizimning izdan chiqishi, davlatlar va jamiyatlarning ijtimoiy-siyosiy tanazzuli, inson tarbiyasining muammo li holatga kelib qolgani hech kimga sir emas. Bu jarayonning nechog'lik tez kechayotgani matbuot, televideniye va Internet orqali ma'lum bo'lib turibdi va hammamizni jiddiy tashvish eti solmoqda. Dunyo va insoniyatga xavf tug'diradigan asosiy tahdid tashqi ta'sirlardan ham ko'ra insonning ichki muammolariga bog'liq ekanligi odamlar tomonidan endi-endi anglimmoqda. Shu boisdan ham, so'nggi yillarda tarbiya omiliga

dunyo, insoniyat va jamiyatlar halokatini saqlab qoluvchi so'nggi imkoniyat, yagona kuch sifatida qaralmoqda.

Tarbiya samaradorligi esa ko'p jihatdan tarbiya muhiti, tarbiya jarayoniga bog'liqdir. Tarbiya qanday tashkil etilgанилиги олинадиган педагогик самарада ро'yi rost ko'rindi.

Tarbiyaviy jarayon, «Avesto» kitobida ta'kidlanganidek, uch muqaddas birlikka tayanadi. Ya'ni, bu muqaddas uchlik – ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal, ish, faoliyat tarzida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy jarayon insonni jamiyatga moslashtirishni ifoda etadi. Shu boisdan ham tarbiya ijodiy jarayon bo'lib, unga obyektning mutlaqo yangi, ilgari ko'rilmagan holatini, yangi narsalar, hodisalar, jarayonlarni vujudga kelтирувчи, insonning atrof olam bilan o'zaro ta'sirga kirishish shakli, deb ta'rif berish mumkin.

Insonning ijodiy faoliyati uning hayotiy faoliyatining rang-barang, ba'zan kutilmagan, bir qarashda jumboqli sohalarida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishdagi ijodiy jarayon esa, o'z mehnati predmetiga yangicha innovatsion ta'sir ko'rsatish borasidagi mehnat faoliyati tarzida ko'rindi. Insonning faoliyati bir qolipga tushib qolgan, bir yoqlama xususiyat kasb etgan joyda ijodga o'rin bo'lmaydi.

Inson o'z ishiga, o'z kasbiga butun qalbini, is'tedodini, qobiliyatini baxsh etgan, odamlarga imkon qadar ko'proq foyda keltirishga intilgan joyda esa, aksincha, ijodiy ilhom bilan yondoshish hollariga duch kelamiz.

Tarbiya jarayonida ijodiy bahs-munozaralar tashkil etish, ashula va musiqadan foydalanishning samarasi kattadir. Musiqva ashula qatnashchilarining estetik qobiliyatini, musiqiy hotira va didini o'stiradi. Shu tariqa tarbiya jarayonida ilk ijodiy ko'nikmalar shakllantiriladi.

Tarbiya jarayonida adabiyotdan foydalanish katta imkoniyatlarga eshik ochadi. Zero, badiiy adabiyot qatnashchilarga hayotni chuqurroq anglashni o'rgatadi. Tarbiya berish jarayonida madaniyat xodimi adabiyotdan ibrat omili sifatida foydalanishi lozimdir. Sho'ir va yozuvchilarining hayoti, ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish, tahlil qilish madaniyat muassasalariga keluvchilarining bilim olishi va dunyoqa-

ishini kengaytiradi, his-tuyg'usi va til boyligini takomillash-madi. Shuningdek, tarbiya berishda adabiyot estetik idrok va estetik kechinmalarning yorqinligini, chuqurlashuvini ta'minlaydi.

Madaniyat muassasalarida amalga oshiriladigan pedagogik munosabat – to'garak rahbari va to'garak qatnashchilarining o'zaro bирgalikdagi harakati, faoliyat shakli va usullarining yaxlit sistemasidir. Bunda, avvalo, axborot ayirboshlash, to'garak rahbari tomonidan turli xildagi kommunikativ vositalar yordamida qatnashchi bilan o'zaro hamjihatlik va o'zaro hamfikr munosabatlar, yondashuvlar o'rnatilishi mazkur munosabatning mazmunini tashkil etadi.

Pedagogik munosabat deganda to'garak rahbari va qatnashchilar jamoasi o'rtasidagi o'zaro bирgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o'quv tarbiyaviy ta'sir to'satish va o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat sistemi, usullari va malakasi tushuniladi. To'garak rahbari ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi hamda unga boshchilik qiladi. Shu tariqa pedagogik munosabat, bir tomonidan, to'garakdagi o'quv tarbiya jarayonining hissiy holati bo'lib, ikkinchidan esa, uning bevosita mazmuniy ta'rifi sifatida namoyon bo'ladi.

Atoqli pedagog V.Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: «Inson o'zini, avvalo, insonda qoldiradi. Bizning umroqyligimiz ham ana shundadir. Hayot kechirishning oliy baxt-saodat ekanligi va mohiyati ham ana shundadir. Biz o'z nuslimizni davom ettirarkanmiz, unga o'z go'zalligimizni, ideallarimizni, yuksaklikka va oliyjanoblikka sodiqligimizni qoldiramiz. Siz o'zingizni odamlarda qanchalik chiqqur aks ettira va namoyon eta olsangiz, shunchalik boybadavlat erursiz va sizning shaxsiy hayotingiz shu qadar baxtlidir»(Сухомлинский В.А. «Мы продолжаем себя в детях». М.: Педагогика, 1981, 3 том, 517–518 с.).

Shunday ekan, ijtimoiy-madaniy faoliyatning pedagogik munosabatlari deganda biz ijodiy jarayonda odamlararo ta'sir, munosabat va tarbiyaviy natijalarni tushunishimiz lozim.



1. Tarbiya va ta'lim uyg'unligining mohiyatini izohlang.
2. Abdulla Avloniy tarbiya omilining ustuvorligini qanday asoslagan?
3. Global axborot asrida tarbiyaviy jarayonga ko'rsatiladiga tashqi va ichki ta'sirlar majmuini shakllantiring.
4. Tarbiyada anglanmagan taqlid qanday natijalarga olib keladi?
5. Tarbiyaviy jarayonda ota-onalar rolini ochib bering.
6. Tarbiyaviy jarayon samaradorligini ta'minlashda ijodkorlik omilining rolini izohlang.
7. Tarbiyaviy holatlarni tavsiflovchi bitta keys tayyorlang.



Tayanch so'z va iboralar:

Ta'lim, tarbiya, pedagogik munosabat, bilish, qobiliyat, ijodiy jarayon.

2.4. Davlat, jamoat va boshqa tashkilotlar ijtimoiy-madaniy faoliyat subyekti sifatida

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariiga o'tish bosqichida davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatini yanada takomillashtirish g'oyat muhim amaliy ahamiyatga molik bo'lib, uni mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalgaloshirilayotgan ulug'vor ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy islohotlar asosida amalga oshirish lozim. Zero, «Milliy davlatchiligidizni qayta tiklashda ko'p asrlik beqiyos ma'naviy merosimiz, tarixiy madaniyatimiz, dinu tilimiz, muqaddas urf-odatlarimizning yana qad rostlashida sezilarli qadamlar qo'yildi. Milliy g'ururimiz, oriyatimiz tiklanmoqda, qalbimizda asl vatanparvarlik tuyg'ulari uyg'onmoqda».¹

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy tiklanish jarayoni, xalqning madaniy hayotida kechayotgan islo-

¹ **Islam Karimov.** Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –Toshkent: «O'zbekiston», 1996. 265-bet.

bot rejalarini amalga oshirishda jamoat tashkilotlarining faol ihtiroi ki talab etilmoqda. «Biz, – deb ta’kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, – fuqarolik jamiyatini qurishiga mintilmoqdamiz. Buning ma’nosи, davlatimiz rivojlana bor-pam sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya’ni o’zini o’zi boshqarish organlarini yanada rivojlanтиrish demakdir»¹.

Milliy taraqqiyotimiz dadil odimlayotgan hozirgi davrida davlat, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy ongning barcha bo‘g‘inlari orasidagi o’zaro aloqadorlik va uzviy bog‘liqlikning amaliy ahamiyatini e’tiborga olib, ijtimoiy-madaniy faoliyatni kuchaytirishga katta c’tibor berilmоqda.

Zero, mamlakatimiz oldida turgan dolzarb ijtimoiy umumiy molarni hal qilishda jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining roli kattadir. Bu mayonda, ayniqsa, mahalla muhim ijtimoiy bo‘g‘in hisoblanadi. Shu bois mahallalar faoliyatini har jihatdan qo’llab-quvvatlash, ularning moddiy ta’minotini mustahkamlashga davlatimiz alohida e’tibor bermoqda. Mamlakatimizda Iechayotgan islohotlarning tayanchi sanalgan mahallaning ijtimoiy hayotdagи o’rni haqida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday yozgan edi: «Jamoatchilik g’oyalari, jamoa manfaatlarining birligi, ko’pchilik fikrining ustunligiga asoslanish – jamiyatimizning muhim xususiyatidir. Shu bois jamiyatni demokratiyalash tizimida, uning asosiy qoidalarini, eng avvalo, ijtimoiy adolatni ro‘yobga chiqarishda mahallaning roli g’oyat kattadir. Hozirgi vaqtda oilalarning haqiqiy moddiy ahvolini, ularning ma’naviy va madaniy qiziqishlari doirasini mahalladan ko’ra yaxshiroq biladigan boshqa tizim yo’q. Mahalla hozir xalq ishonchini qozonan adolat maskani hamda aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash mexanizmi bo’lib qoldi. U jamiyatimizda islohotlarni

Islom Karimov. O’zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqboliy asosiy tamoyillari. Toshkent: «O’zbekiston», 1996. 11-bet.

amalga oshirishning ishonchli tayanchi va ta'sirchan vositasiga aylanishi darkor».¹

Jamoat tashkilotlarining milliy mustaqillik sharoitida ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlarining asosiy maqsad va vazifalari Birinchi Prezidentimiz asarlarida² mukammal bayon etilgan bo'lib, bu fikrlar davlat va millat kelajagini belgilovchi ilg'or g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning rivojlanishida jamoat tashkilotlarining roli masalasi ko'pgina o'zbek olimlari tomonidan falsafa, sotsiologika, pedagogika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o'r ganilgan. Davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatları bevosita aholi ma'naviy chtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lib, turli-tuman shaklda voqe bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat quyidagi umumiy jihatlari bilan ajralib turadi:

a) u faqatgina ustun rivojlangan madaniy faoliyatga borib taqalishi mumkin emas;

b) faoliyat mazmuni va natijalari madaniy faoliyatning yetakchi tamoyili hisoblanadi;

v) madaniy qadriyatlar yaratish va ommalashtirish ijodiy jarayon bo'lib, unda sustlikka yo'l qo'yilmaydi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra kommunikativ faoliyat hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat jamoa miqyosidagi ijodiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsni madaniy faoliyatga jalb etishga yo'naltiruvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatga nisbatan bunday yondashuvning asosiy sababi shundaki, madaniy faoliyatda subyekt sifatida alohida shaxs emas, balki

¹ **Islom Karimov.** O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: «O'zbekiston», 1998. 400-bet.

² **Islom Karimov.** O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. –Toshkent: «O'zbekiston», 1996; O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'naliishlari. –Toshkent: «O'zbekiston», 1996; O'zbekiston – bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li. –Toshkent: «O'zbekiston», 1996; Halollik va fidoyilik – faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin. –Toshkent: «O'zbekiston», 1996;

jamoas, birlashma, madaniy uyushma yoki keng xalq ommasi o'ttasida ma'naviy faoliyat olib boruvchi jamoat tashkilotlari bely'ilanadi. Ayni paytda jamoat tashkilotlari faoliyatining sumaradorligi har bir fuqaro bilan individual ijodiy faoliyat yuritishga bog'liqligini ham hisobga olish zarur.

«Qishloq madaniyati turli shakl va ko'rinishlarga ega bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar subyekt–obyekt munosabatlарини faoliyat turlarini guruhlash uchun qabul qilsalar, buzi olimlar madaniy qadriyatlarni yaratish, taqsimlash va ommalashtirishni tasniflashadi. Ular belgilar miqdoriga ko'ra faoliyatni mahsuldor yoki nomahsul turlariga ajratadi. Guruhlashtirish mezoni sifatida esa madaniy qadriyatlarni targ'ib etish vositalari – nashriyot, radio, televideeniye yoki madaniy faoliyatni tashkil etuvchi institutlar belgilab olinadi».

Ijtimoiy-madaniy faoliyat tashkil etilishini shaklga ko'ra ham tasniflash mumkin: jamoa va individual madaniy faoliyat Madaniy faoliyat subyekt xususiyatlariga ko'ra individ, guruh, uyushma, jamoa tashkilotlari faoliyati kabi turlarga bo'linadi. Madaniy faoliyatni amalga oshiradigan guruhlu tabiatiga ko'ra oilaviy, xizmatdoshlar va boshqa turlarga bo'linadi.¹

Ijtimoiy-madaniy faoliyat turlari hamda ularni tashkil etish shakllari tasnifi xususida to'xtalganda ta'kidlash joizki, madaniy faoliyatning shaxsiy va institut shakllarida ijodiy alohiyat bir xil darajada amalga oshishi mumkin emas. Ijodiy reja mazmuniga muvofiq faoliyatning u yoki bu shakli belgilab olinadi. Jamiyatda demokratiyalash jarayoni kecha-votgan hozirgi bosqichda madaniy faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy (institutlar darajasida) hamda shaxsiy shakllari keng ommalashib bormoqda.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat, ishtirok etuvchi subyektlar tabiatiga ko'ra, individual, guruhli va ommaviy kabi shaklluga ajratiladi. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning har bir turiga muayyan shakl mos keladi. O'qish, amaliy san'at asarlari

М.С. Коган. Человеческая деятельность. –М.: 1974. 51-бет.

bilan tanishish san'at asarlarini ommalashtirishning individual shakli hisoblanadi. Badiiy ijrochilik, turizm va havas-korlik ijodiy birlashmalari badiiy qadriyatlarni ommalashtirishning guruhli shakli hisoblansa, spektakllar, filmlar, konsertlar tomosha qilish va bayramlarda ishtirot etish madaniy faoliyatning ommaviy shaklini vujudga keltiradi. Yuqorida bayon qilib o'tilgan individual, guruhli va ommaviy shakllar muayyan madaniy an'analarning uyg'unligini nazarda tutadi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining aholi ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tarbiyaviy ishlarni olib borish va dam olishni tashkil etish kabi vazifalarini alohida ajratib ko'rsatish zarur. Chunki madaniy faoliyatning mazkur yo'nalishlari kishilar ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoat tashkilotlari pedagogik tizim sifatida xalqqa eng yaqin turuvchi bo'g'in hisoblanadi. Ular faoliyati orqali aholining madaniy va ma'naviy saviyasi o'sib boradi. Natijada, aholi o'zining ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsalar-da, ular o'zaro aloqadorlikda ish olib boradilar. Ular faoliyatidagi mushtaraklik maqsadning umumiyligida (huquqiy demokratik davlat qurishda ishtirot etish, xalq madaniyatini rivojlantirish), vazifa va uni ado etishning o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi. Har bir tashkilotning o'ziga xos xususiyati esa estetik tarbiyaning muayyan shakli, uslub va vositasini qo'llashda ko'zga tashلاندی. Masalan, qishloqda aholi estetik ehtiyojini qondiruvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatning turli-tuman shakllaridan, xususan, radioeshittirish, teleko'rsatuv, kino, fan va madaniyat arboblari bilan uchrashuv, suhbat, maslahat va boshqalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi arafasida olib borilgan tadqiqotlar shundan darak beradiki, ko'p yillik mafkuraviy qullikda yashagan xalqimiz madaniy hayoti ham sho'rolar siyosati iskanjasida edi. Bunday inqirozli vaziyat qishloq aholisi madaniy faoliyatining turlari va man-

tulariga nisbatan bo'lgan munosabatlarda ham o'z ifodasini topgan. Davlat va jamoat tashkilotlarining diqqat markazida, asosan moddiy ishlab chiqarish masalalari ustuvor ahamiyat tush etgani holda qishloq madaniyatini rivojlantirish muammlariga (garchi qishloq aholisi uchun ularning zarurligi ta'kidlab turilsa-da) kam ahamiyat berilgan. Qishloq mehnat-tashqlarining e'tirof etishlaricha, madaniy faoliyatning, asosan salq ijodiyoti, professional hamda havaskor jamoalarning chiqishini tashkil etish kabi turlariga e'tibor berilib, madaniy faoliyatning boshqa shakl va uslublariga nisbatan befarq qaralgan.

Jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatlarini muammosiga bag'ishlangan nazariy manbalar hamda O'zbekiston Respublikasi hukumatining ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish borasidagi hujjatlari davlat va jamoat tashkilotlarida ijtimoiy-madaniy faoliyatining uslubiy tizimini ishlab chiqishda muhim nazariy ahamiyat kasb etdi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining aholi madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq faoliyatlarini tizimi – bu qishloqlarda madaniyatning shakllanishi, saqlanishi va mustahkamlanishiqa qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Shuningdek, aholi madaniyatini rivojlantirishda yuqori ijtimoiy faollikka erishish mazkur tizimning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifa tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasidan iborat jarayon bo'lib, davlat, xo'jalik va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarini orqali amalga oshitiladi.

Tizim tarkibiga quyidagi komponentlar kiradi:

1. Davlat va jamoat tashkilotlarining qishloq ma'naviy madaniyatini rivojlantirish borasidagi faoliyatları.

2. Davlat va jamoat tashkilotlarining moddiy o'zgaruvchanlik va yaratuvchanlik borasidagi madaniy faoliyati.

Aholi madaniyatini rivojlantirishning rejalashtirilayotgan darajasiga erishish butun aholi va har bir shaxs madaniy hujiyasining o'sishi bilan bevosita bog'liqdir. Tizimni ishlab chiqishda jamoat tashkilotlarining olib borayotgan madaniy faoliyatining hozirgi holatini tahlil etish, qishloqdagi

moddiy-madaniy va sport-sog'lomlashtirish muassasalarini miqdorini aniqlash hamda sotsiologik tadqiqotlar olib borish nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi paytda qishloq turmush tarzini rivojlantirishga yo'naltirilgan madaniy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamiat a'zolarining madaniy rivojlanishga bo'lgan talablari va shaxsning ma'naviy komilikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish mazkur tizimning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu orqali madaniy faoliyat tizimida ja-moat tashkilotlari faoliyatlarining samaradorligini oshirish, moddiy-madaniy yodgorliklar zaxirasini boyitish, madaniyat xodimlari va muassasalari faoliyatini tashkil etish mumkin bo'ladi. Tizimning maqsadi jamoat tashkilotlari, alohida shaxs va butun qishloq aholisining madaniy faoliyatini oshirishdan iboratdir. Jamoat tashkilotlarining madaniy faoliyati mazkur tizim predmeti hisoblangan madaniy qadriyatlar, ma'naviy boyliklarni bonyod etish, o'zlashtirish, saqlash va targ'ib etishni o'z ichiga oladi.

Bozor munosabatlariga o'tish bosqichi aholi madaniyatining rivojlanishini rejalashtirishda dasturlash hamda yangicha yondashuvni joriy qilishni talab etadi. Chunki busiz ijtimoiy va madaniy jarayonlarni boshqarish mumkin emas.

Jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirishdagi ishtiroki, tizimini ishlab chiqish tajribasi quyidagilarga asoslanadi:

a) O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi arafasida qishloqlarda mavjud bo'lgan madaniy faoliyatning holati;

b) O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, yangi sharoitda yuzaga kelgan madaniy faoliyat imkoniyatlari;

v) Qishloq aholisining madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirishning yangi usul va zaxiralari mavjudligi.

Davlat va jamoat tashkilotlarida ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etish uchun uning tizimi me'yorlari aniqlanadi:

I) qishloq aholisining u yoki bu madaniy tadbirlarga jalg' etilganligi;

2) u yoki bu turga mansub madaniy faoliyatning izchiligi;

3) bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishning miqdor va sifat ko'rsatkichlari.

Davlat va jamoat tashkilotlari madaniy faoliyatlarining mazmuni har bir kishi o'zining bo'sh vaqtida tadbir va mashulotlarning muayyan bir turini tanlashi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. U shaxs rivojida bir xillik va meyoriyligi nazarda tutmaydi. Faqatgina muayyan tadbirni tanlash ekinligi shaxs ma'naviyatining izchil rivojlanishini belgilab beradi. Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy faoliyatlar o'z mazmuniga ko'ra aholining umumiy madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni hisobga oladi:

a) umumiy madaniy ehtiyojlarning rivojlanish istiqbolari;

b) aholining madaniyat sohasidagi ijodiy faoliyati uchun yetarli sharoit yaratish.

Davlat va jamoat tashkilotlari ijtimoiy-madaniy faoliyatning turlarini yaxlitlashtirgan holda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Faoliyat vaqtini va shaklini shaxsning o'zi tanlaydigan madaniy faoliyatning uy turi.

2. Klub, kutubxona, muzey, ko'rgazma va boshqa ijtimoiy-madaniy muassasalarda amalga oshiriladigan uydan tashqaridagi faoliyat turi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining mazkur tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyati uning samaradorligini muntazam ravishda oshirishni nazarda tutib, hamkorlikda ishlashga qaratilgan.

Bugungi kunda respublikamizda davlat va jamoat tashkilotlari tarkibi to'la shakllanib, faoliyat ko'rsatmoqda. Uning asosiy turlari:

- davlat idoralari (vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar, hokimliklar, boshqarmalar, bo'limlar);

– jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmalari, partiyalar, yoshlari va xotin-qizlar harakatlari, ijodiy uyushmalar, jamg'armalar va boshqalar);

– xalq havaskorlik jamoalari, mahalla fuqarolik yig'inlari va b.

Davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy ishlarni rivojlantirish borasidagi madaniy faoliyati tizimining mazmunini ishlab chiqishda quyidagi omillar asos qilib olinadi:

a) respublikamiz aholisining barcha qatlamini ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirishga keng jalb etish; demokratik jarayonlarni jadallashtirish, turg'unlik davri qoldiqlarini bar-taraf etish; milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, o'zida Vatanga sodiqlik, el-yurtga muhabbat, yuksak ma'naviy sifatlarni shakllantirgan, o'z harakati va qarorlariga javob bera oladigan, faol fuqarolik pozitsiya-siga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazish.

Davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati shaxsda xuddi shu sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Bunday faoliyat samaradorligi nafaqat amalga oshirilgan tadbirlar miqdori va sifatiga ko'ra, balki ularni kim tashkil etgani hamda amalga oshirgani, shuningdek, ularda aholining ishtirok etish darajasiga ko'ra ham baholanadi.

b) umumahamiyatga molik vazifalarni hal etishga qaratilgan xalq ijodiyotini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi, davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatga to'g'ri pedagogik rahbarlik qila olishi buning asosiy omili hisoblanadi. Pedagogik rahbarlik esa vaziyatni, bilim va ko'nikmalarni oqilona uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Davlat va jamoat tashkilotlari xalq o'rtaida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy muloqotlarda shaxsning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshiruvchi vositaga aylanadi, shuningdek, jamiyat tafakkurining shakllanishida ham faol ishtirok etadi.

v) qahvaxonalar, videosalonlar, studiyalar, o'yin xonalari, musiqa va sport anjomlarini ijaraga berish. Ularda oilaviy tantanalarni o'tkazish bo'limlarini tashkil etish orqali aholining pullik xizmatga bo'lgan talabini qondirish mumkinligi.

g) bozor iqtisodiyoti sharoiti va munosabatlari madaniyat muassasalarining moddiy-texnik salohiyatini rivojlantirish hamda mustahkamlashda mahalliy korxonalar yordamidan va homiylar ko'magidan kengroq foydalanishni talab qilayotgani.

Davlat va jamoat tashkilotlari o'z madaniy-ijodiy faoliyatini fuqarolarning dam olish vaqtida amalga oshiradilar. Dam olish faoliyati, o'z navbatida, shaxsning mustaqil ijodiy salohiyati ro'yobga chiqishiga ko'mak beradi, shuning uchun ham u qiziqarli, aqliy va ruhiy jihatdan boy bo'lishi lozim.

Ijtimoiy-madaniy muassasalar qoshida va ulardan tashqarida badiiy uyushmalar, kolleksioner va texnik ijodkorlar umiyatlari, oilaviy hamda o'smirlar sport klublari va birlesimlari tashkil etilib, faoliyat ko'rsatadi. Ushbu ijodiy birlesimlar faoliyati xalqning tadbir hamda muloqotga bo'lgan shixyojlar asosida yuzaga keladi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining tarbiyaviy salohiyati yuq hayotini demokratiyalash vazifasini o'z zimmasiga olib-huda namoyon bo'ladi. Bu esa aholiga siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, huquqiy madaniyatni o'zlashtirish, ijtimoiy faollik samadorligini oshirish borasidagi bilim hamda ko'nikmalarni chequr egallash imkoniyatini beradi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy faoliyat tizimini tavsiflashda sotsiologik tadqiqot natijalariga tayangan muhim ahamiyatga ega. Ana shunday tadqiqotlardan biri qishloq hayotida mahalla instituti mavqeining oshib borayotganligini ko'rsatdi. Mahalla fuqarolar yig'ini aholi bo'sh vaqtining ko'ngilli o'tishiga muhim ta'sir ko'rsatadi (24,3 foiz); kishilar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga katta hissa qo'shadi (25,8 foiz); hasharlar, muhtojlarga yordam ko'rsatishni amalga oshirishda ko'makladi (39,6 foiz).

Kishilar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga MFYdan so'ng kasaba uyushmalari, fermer xo'jaliklari rahbarlari, qishloq kengashlari katta hissa qo'shishi ma'lum bo'ldi.

Urf-odat va an'analar hech kimni befarq qoldirmaydi. Yuq qadimgilarning tiklanishi, mustahkamlanishi va rivoj-

lanishi jamoat tashkilotlari faoliyatidagi katta ijtimoiy masha-sala hisoblanadi. Urum va an'analar muhim estetik tarbiya vositasi bo'lib, xalqimizning milliy qadriyatlarini ulug'lash g'oyasini mustahkamlaydi, kishilarda axloqiy sifatlarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytsak, madaniyat kishilarning ijtimoiy yaratuvchanlik jarayonidagi ishtirokining me'yori hamda shaxs ijodiy salohiyatini faollashtirish vositasi hisoblanadi. Madaniyat, ijodiy faoliyat sifatida, ko'pgina bilim va tajribalarni egallashni, ulardan faoliyatning turli shakllarida samarali foydalanishni nazarda tutadi.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangi sharoitida siyosiy madaniyat ijodiy faoliyat sifatida tushuniladi va bu faoliyat natijasi mintaqaviy barqarorlik va xalqaro hamkorlikni, respublikamizning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, huquqiy-demokratik davlatni barpo etishdan iborat.

Madaniyat tarkibini tahlil etish davlat va jamoat tashkilotlarining madaniyatni rivojlantirish borasidagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari hamda mazmunini aniqlash imkoniyatini beradi:

1. Madaniyat, inson ijodiy faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi sifatida, ijtimoiy uyushmalar, jamiyat, jamoa, shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

2. Madaniyat o'z tarkibiga kishilarning moddiy hamda ma'naviy faoliyati va uning natijalarini qamrab oladi. Bundan tashqari, u siyosiy, huquqiy, ekologik, mehnat, maishiy turmush va jismoniy tarbiya madaniyati kabi tarkibiy uzvlarga ajratiladi. Madaniyatning mazkur tur va tushunchalari birligi ularning jamiyat hamda shaxs umumiy madaniyatini tashkil etishida, shu bilan birga, har biri alohida tarzda ijodiy faoliyatni va uning natijalarini ifodalashda namoyon bo'ladi.

3. Madaniyatning ko'rib o'tilgan har bir turidagi ijodiy faoliyatda quyidagilar farq qiladi: ma'lum ijtimoiy va siyosiy hodisa yuzasidan bilimlarni egallash, ularni mushohada etish hamda qayta ishlash jarayoni va nihoyat, mazkur madaniyatni rivojlantirishda faol ishtirok etish.

Madaniyatning mohiyati, tarkibi hamda turlarini tadqiq etishga bunday yondashuv jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirishdagi ishtirokining o'ziga xos uslubi va me'yorlarini ochib berish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, siyosiy partiylar, birlashmalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, turli xil xayriya va ijodiy jum'armalar hamda uyushmalardagi ishtirokini yanada buechaytirish, ularning davlat oldidagi mavqeini mustahkamlish vazifasi qo'yilmoqda.

Jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyat xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) ushbu faoliyatning maqsadi shaxsda muayyan xususiyat hamda sifatlarni tarbiyalashdan iborat;

b) kishilar o'rtasidagi muloqot jarayonida g'oyalar, mala va bilimlar almashinushi mazkur faoliyat vositasi hisoblanadi;

v) jamoat tashkilotlari faoliyati yoki individual faoliyat madaniy faoliyatni amalga oshirish usulidir.

Qishloqda madaniy faoliyat o'zining turlari va shaklliga ko'ra farqlanadi. Madaniy faoliyat shakllarini ularning tashkil etilish tavsifiga ko'ra jamoaviy va individual; madaniy faoliyat subyekti tavsifiga ko'ra individ, guruh, uyushma, jamoat tashkilotlari; madaniy faoliyat olib borilayotgan guruh turiga ko'ra esa oilaviy, xizmatdagi do'stlar va boshqa turliga bo'lib tasniflash mumkin.

Jamiyatni demokratiyalashning hozirgi bosqichida madaniy faoliyat taraqqiyoti uyushgan (tashkilotlar darajasi-da) hamda shaxsiy shakllarda amalga oshiriladi.

Aholi madaniyatini rivojlantirishda yuqori ko'rsatkichliga erishish jamoat tashkilotlari, ijtimoiy-madaniy muassasalar va boshqa tashkilotlarning eng oliv vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani hal etish yo'llaridan biri jamoat tashkilotlarning madaniyatni rivojlantirish borasidagi faoliyatini boshqarishni takomillashtirish va ilmiy yondashishdan iborat bo'lishi mumkin.

Davlat va jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatining eng samarali vositalaridan biri – muloqotdir. Zero, muloqot uslubiy tizimning muhim komponenti, milliy madaniyatni rivojlantirishning qadimiy vositasi, o'zbek xalq pedagogikasining yetakchi unsurlaridan biri hisoblanadi.

Davlat va jamoat tashkilotlari o'z faoliyatida muloqotning, mashhur kishilar bilan uchrashuv, oila kunlari, qiziquvchilar birlashmalari kabi shakllaridan foydalanadi.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida davlat va jamoat tashkilotlarining roli qanday?
2. Birinchi Prezidentimizning qaysi asarlarida jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatining asosiy maqsadi va vazifalari bayon etilgan?
3. Jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirishdagi ishtiroki tizimini ishlab chiqish nimalarga asoslanadi?
4. Jamoat tashkilotlari ijtimoiy-madaniy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?



Tayanch so'z va iboralar:

Havaskorlik jamoalari, xalq ijodiyoti, jamoat tashkilotlari, madaniy ijodiyot, uchrashuv, oila kunlari, qiziquvchilar birlashmalari.

2.5. Ijtimoiy-madaniy faoliyat vositalari

Ijtimoiy-madaniy faoliyatni g'oyaviy, emotsiyonal vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Maxsus qurilish ashyolarisiz uy qurib bo'lмаганидек, madaniy faoliyat vositalarisiz madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish mushkul. Vositalar tadbirning tarkibiy qismi, asosiy mexanizmlari hisoblanadi.

Vosita deganda, kishilarning hissiyotiga, psixologiyasiga va ongiga ta'sir etuvchi hamda bilim olish samaradorligini oshiruvchi g'oyaviy-hissiy qurollarni tushunamiz. Ijtimoiy-

madaniy faoliyatda qo'llanadigan vositalarning diapozoni juda keng va ularning soni ham ko'pdir. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda jonli so'z, matbuot, ko'rgazmali qurollar, adabiyot va san'at, har xil texnik apparatlar kabi vositalardan keng foydalanamiz.

Jonli so'z. Asosiy ta'sirchan vositalardan biri – bu jonli so'zdir (ba'zi hollarda «og'zaki so'z» deb ham yuritiladi). Jonli so'z madaniy-ma'rifiy tadbirlarning hammasida eng asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarda jonli so'z faqatgina mazmunni yoritishga xizmat qilmasdan, balki, tadbir syujeti bilan ommaviy holatlarni ham bu biriga uyg'unlashtirib boradi. Aynan jonli so'z voqeа yoki tadbirning ma'nosini tomoshabinga yetkazadi, bir epizodni ikkinchisiga bog'laydi, boshlovchining auditoriya bilan mu'lqdota bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Jonli so'zning yana bu afzallik tomoni shundaki, ba'zan fikrni hech qanday boshqa ta'sirchan vosita tomoshabinga yetkazib bera olmaydigan vaziyatlarda jonli so'z yordamga keladi.

Ommaviy tadbirlarda boshlovchi so'zi asosiy o'rinni egalivdi, ba'zi hollarda esa u kechaning boshidan to oxirigacha yetakchi vosita sifatida qo'llaniladi. U kirish so'zi (monolog) shaklida yoki muqaddima sifatida yaxshi xizmat qilishi mumkin. Tadbir davomida esa boshlovchi, sharhlovchi, hikoyachi yoki intervyu beruvchi shaxslar aynan jonli so'zdan foydalanadi. Ommaviy tadbirlarda jonli so'z vositasidan foydalanish imkoniyatlari juda ko'p.

Jonli so'z boshlovchining gapidan tashqari, tadbir qahromonining nutqi yoki undagi ishtirokchining so'zi, kecha qahramoniga atalgan tabrik, mehnat faxriylari, urush qatnashchilarining so'zi bo'lishi mumkin.

Badiy so'z – aytilmoqchi bo'lgan fikrni badiiy-emotsional tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat shakllarida badiiy so'zning she'r o'qish, prozaik va she'riy monologlar, yakka holda yoki ko'pchilik tomonidan o'qiladigan she'rlar kabi turlaridan keng foydalaniladi.

Badiiy so'z boshqa qo'shimcha vositalar bilan bir vaqtida ijro etilishi mumkin. Masalan, she'r o'qilayotgan bir vaqtda

she'rning mazmuniga hamohang video tasvirlar ko'rsatilishi mumkin.

Badiiy so'zni vujudga keltirish uchun badiiy asarlardan parcha yoki namuna keltirishning o'zi kamlik qiladi. Unda ijro etuvchidan she'r yoki badiiy asar parchasidagi fikrga munosabat, ijrochining ruhiy kechinmasi, his-hayajoni talab etiladi. Aks holda she'r yoki adabiy parchaning oddiy, jonli so'zdan farqi qolmaydi. Yana shuni ham unutmaslik kerakki, chuqur anglash, fikrning tub mazmuniga yetib, his-hayajon bilan aytilgan har bir jonli so'z badiiy so'zga aylanib ketishi mumkin. Agar «1941» yoki «1991» degan iborani shunday aytib o'tsak, u quruq raqamning o'zi bo'lib qoladi. Lekin ko'z oldimizga urushning boshlanishini keltirib, dahshatli voqealarni his qilib, shu voqealarga mos kayfiyatda, ma'noli ohangda «ming... to'qqiz yuz.... qirq bir...» desak bu so'z badiiy-emotsional ta'sir etadi. Shunday qilib, oddiy so'z badiiy so'zga aylanib ketishi uchun undagi fikriy mantiq his qilinib, ijro etilishi kerak.

Matbuot vositalari. Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy tadbirlarga aholi yangi, ularga hali ma'lum bo'lмаган va qizi-qarli voqealardan xabardor bo'lish uchun keladi. Bu ishda targ'ibotchi uchun matbuot vositalari, ya'ni gazeta, jurnal, ayniqsa, kitoblar bitmas-tuganmas manba bo'lishi mumkin.

Matbuot eng asosiy axborot tarqatuvchi va saqlovchi vositadir. Shunday ekan, tadbirni tayyorlovchilar tadbirning mazmunini boyitish uchun ularga har doim murojaat qilmog'i lozim. Tadbirlarda ko'proq tomoshabinlarning nazariga tushmagan materiallardan foydalanishga harakat qilish kerak.

Musiqa. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarda musiqa yetakchi o'rirlardan birini egallaydi. Tadbirlarda musiqadan ikki xil variantda foydalanish mumkin.

1. Tadbirning alohida nomeri sifatida.

2. Tadbirda aks ettirilayotgan voqealarning ta'sirini oshirish uchun qo'shimcha vosita (musiqiy fon) sifatida. Birinchi variantda badiiy havaskorlik jamoalarining tayyor yoki maxsus tayyorlangan nomeridan foydalaniladi. Masalan, xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tadbirlarda onalarga bag'ishlangan

«Onajonlar, assalom» qo'shig'i ijro etiladi. Bu qo'shiq alohida nomer sifatida beriladi. Musiqadan foydalanishning ikkinchi varianti tadbirdarda juda keng qo'llanilib, she'r o'qilayotganda, kino lavhalar ko'rsatilayotganda yoki dramatik parchalar taqdim etilayotganda bu vositalarning ta'sirchanligini oshirish uchun ishlataladi.

Dramatik parchalar. San'atning bu turi boshqa vositalardan farq qilib, unda g'oyalilar kurashi, qarama-qarshi kuchli to'qnashuvi, konfliktlar va badiiy to'qimalar yordamida hayotni obrazli aks ettirish yetakchilik qiladi. Shuning uchun teatrlashtirilgan tadbirdarda uning mazmunidan kelib chiqib, dramatik parchalardan ham keng foydalaniladi.

Tadbirdarda dramatik parchalardan foydalanishning ikki xil usuli bor:

1. Tayyor asarlardan olingen parchalardan foydalanish;
2. Ssenariy yozuvchi tomonidan tadbir uchun maxsus vozilgan dramatik parchalar.

Dramatik parchalardan foydalanishning ikki usuli ham keyingi paytda keng qo'llanilmoqda. Tadbirning asosiy vazifalaridan biri mahalliy voqealarni aks ettirish bo'lgani uchun, ssenariy mualliflari joylarda bo'lgan voqealarni kichik dramatik lavha shakliga keltirib, undan samarali foydalanishi mumkin.

Fajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy-madaniy tadbirdarga bo'lgan qiziqishning sabablaridan biri bu mahalliy faktlarni, voqealarni inssenirovka shaklida ko'rsatishdir. Ayniqsan, mahalliy voqealar asosida yaratilgan sahna ko'rinishlari aholiga ko'proq manzur bo'lmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, dramatik parchalar vositasidan foydalanish tadbir mazmunining boyishiga yordam bermog'i kerak.

Kinolavha – badiiy yoki hujatli filmlardan olinib, bu vosita ham tadbir tashkilotchilariga keng imkoniyatlar yaratadi.

Kinoning sehrli kuchi shundan iboratki, u bo'lib o'tgan voqealarni haqqoniy tasvirlaydi va jonli aks ettiradi. Bu vosita voqealarning tarixiy guvohi sifatida xizmat qiladi. Ulardan foydalanish tadbirning mazmunini boyitadi, voqelikning

haqqoniy obrazini ko'rgazmali gavdalantiradi. Kinolavhalardan foydalanish tadbir ssenariysi yozilayotgan jarayonda rejalahtiriladi va tanlanadi. Ko'pgina tadbirlarda filmdan olingan lavhalarning o'zi yaxlit bir epizodni tashkil qilishi mumkin. Ba'zida kinolavhalar boshqa vositalar, ya'ni jonli va badiiy so'z, qo'shiqlar bilan parallel aks ettiriladi.

Texnik vositalar. Hozirgi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyatni, jumladan, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni texnik vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki tadbir maxsus texnik effektlar bilan boyitilmasa, tashkil qilinayotgan tadbir shakli ko'rimsiz va mazmuni ta'sirsiz bo'lib qoladi.

Texnik vositalarning yana bir vazifasi sahnaga har xil ranglar berish, proyekcion tasvirlar tushirish orqali tadbirni go'zallashtirish va badiiy-g'oyaviy bezashdan iboratdir. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarda foydalaniladigan texnik vositalar, asosan, ikki guruhga bo'linadi:

1. Nurli-proyekcion apparatlar.
2. Ovozli texnik vositalar.

Nurli-proyekcion appartlar tomoshabinlarning kayfiyatini ko'tarishda, ularning diqqatini tadbir voqealarining kerakli tomoniga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Proyekcion apparatlar yordamida sahnaning to'riga, ya'ni ekranga xohlagan kattalikda tasvir tushirish mumkin. Ovozli texnik vositalarga ovozlarni yozadigan va tarqatadigan apparatlar, ya'ni magnitafon, diktafon, radio, audio, video apparaturalar, mikrafon va ovoz kuchaytirgichlar kiradi. Ular kerakli ovozni, shov-qin-suron effektlarini, musiqa, ashula va nutqlarni oldindan yozib olib, tadbir davomida eshittirish uchun yaxshi imkoniyat yaratib beradi.

Ko'rgazmali vositalar. Tadbirlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. U tadbir mazmunining yaxshiroq yoritilishiga yordam beradi, tomoshabinning kayfiyatini ko'taradi va taassurotlarini boyitadi. Ko'rgazmali vositalardan ijtimoiy-madaniy tadbirlarning barchasida foydalanish mumkin.

Tomoshabinni bo'lajak tadbir haqidagi ma'lumot bilan tanishtiruvchi dastlabki ko'rgazmali vosita – bu afisha va

o'qitishnomalardir. Ko'rgazmali vositalarda tadbir bo'lishi hamda xabarning o'zinigina yozib qo'yish kifoya qilmaydi, balki uning tuzilishiga qarab, tasviriy effektlar bilan bezash, she'rlar yoki shior yozish, shuningdek, tadbir mazmunini to'g'risida ommani qiziqtiradigan anotatsiya kiritish mumkin. Bu tomoshabinning tadbirga qiziqishini oshirishga xosmat qiladi. Ko'rgazmali vositalar tadbir mazmuniga mos bo'lishi kerak.

Yuqoridagilardan tashqari ijtimoiy-madaniy faoliyat tadbirlarida yana xalq ijodidan ham foydalaniladi.

Xalq ijodi mehnatkash xalq ommasi tomonidan yaratilib, o'rnidan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib tobora takomillashib, sayqal topib, taraqqiy etib kelayotgan ijod mahsulidir. Unda xalqning mehnat faoliyati, ijtimoiy va maishiy hayoti, turmushi, tabiat haqidagi tushunchalar, madaniyati, e'tiqodi, orzu-istiklari, his-tuyg'ulari va tulakkurining boy olami, baxtli va adolatli zamon haqidagi o'vlari o'z ifodasini topadi.

O'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan xalq ijodini mutaxassislar shartli ravishda quyidagi turlarga bo'ladilar:

- 1) Xalq og'zaki ijodi;
- 2) Xalq musiqasi, folklor musiqasi;
- 3) Xalq raqs san'ati;
- 4) Xalq teatri.

Ijtimoiy-madaniy tadbirlarda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ssenariylarda so'z ko'rki – maqoldan, xalq donishmandligi hisoblangan afsona va rivoyatlardan foydalanish tadbir «tili»ni boyitadi, ta'sirchanligini oshiradi.

Latifa, lof, askiya tadbirlarning qiziqlarliligin oshiradi, mazmunini boyitadi, tomoshabinlarni faollashtiradi. Topishmoqlar tadbir ijrochilari bilan auditoriya o'rtasida «jonli» aloqa o'rnatishga yaxshi imkon beradi. Ayniqsa, bolalar uchun tayyorlangan tadbirlarda ertak va doston qahramonlarining g'oyaviy-estetik jihatdan tarbiyaviy ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Alpomish, Go'ro'g'li, Zumrad, Kenja botir...

Inson hayotining boshlanishidan to so'nggi xotimasi-gacha bo'ladigan har bir marosim, to'y, bayram va boshqa anjumanlarda ijro etiladigan qo'shiqlar mavjud. Jumladan, bola tug'ilishi, tarbiyalanishi, ilk bor sochini oldirishi, tishi chiqishi, birinchi mustaqil qadam tashlashiga bag'ishlangan qo'shiqlar, nikoh to'ylarida aytildigan yor-yor, lapar, o'lanlar, motam marosimlaridagi marsiya, yig'iyoqlov kabi aza qo'shiqlari oilaviy tadbirlarning muhim elementi hisoblanadi. Xalqining tabiat va mehnat bayramlari ham maxsus ijro etiladigan qo'shiqlarsiz o'tmagan. Ijtimoiy-madaniy faoliyat shakllarini tayyorlashda har bir tadbirga mos xalq qo'shiqlarini izlab topish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq raqs san'ati voqelikni harakatlar orqali tasvir etadigan ijod turidir. O'zbek xalqida raqs san'ati ashula va musiqa bilan chambarchas bog'lanib ketgan va shu an'ana hozirgacha davom etmoqda. Hozirgi kunda respublikamiz badiiy havaskorlik ijodining eng rivojlangan janri – bu ashula va raqs ansamblaridir. Xalq raqs san'atidan vosita sifatida ijtimoiy-madaniy tadbirlarda foydalanish katta ahamiyatga ega.

Xalq teatr san'ati, asosan, so'z va harakat san'atidan tashkil topgan. U qadimdan o'zida qo'shiq, musiqa, qiziqchilik, akrobatika, nayrangbozlik, ko'zboylag'ichlik kabi elementlarni birlashtirgan. Dastlab u ovchilik, dehqonchilik voqealarini obrazli harakatlar (o'yinlar) orqali tasvirlash asnosida vujudga kelgan va xalq bayramlari, marosimlarida rivojlanib, xalq teatr san'ati darajasiga ko'tarilgan. Jamiyat taraqqiyoti davomida xalq teatr san'ati ijrochilari bir necha sohalar bo'yicha mutaxassislasha borishgan. O'zbek an'anaviy xalq teatrining quyidagi asosiy turlari shakllangan:

1. Masxarabozlik va qiziqchilik.
2. Dorbozlik, nayrangbozlik (sirk san'ati).
3. Qo'g'irchoqbozlik.

Keyingi vaqtarda darbozlik va masxarabozlik san'atiga qiziqish ortib bormoqda. Ko'proq unga yoshlar qiziqishyapti. Tomosha repertuarlarining rang-barangligi, ijrochilarning mahorati ortayotgani quvonarli holdir.



1. Ijtimoiy-madaniy faoliyat vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Ijtimoiy-madaniy faoliyat vositalari turlari qaysilardan iborat?
3. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning g'oyaviy-emotsional vositalariga kamida o'nta misol topib yozing.
4. Hozirgi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyatda yana qanday yangi vositalardan foydalilanildi?



Tayanch so'z va iboralar:

Jonliso'z, badiiyso'z, matbuot vositalari, musiqa, dramatik parchalar, kinolavhalar, texnik vositalar, ko'rgazmali vositalar, xalq og'zaki ijodi janrlari, ovozli texnik vositalar.

2.6. Ijtimoiy-madaniy faoliyat usullari

Ijtimoiy-madaniy faoliyat ko'p qirrali faoliyat bo'lgani uchun unda juda ko'p usullardan foydalilanildi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat – bu tarbiyaviy, ma'rifiy, ijodiy va dam olish ishlarining o'ziga xos birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy faoliyatda foydalilaniladigan usullar quyidagilardir:

1. Tarbiyaviy usullar.
2. Ma'rifiy usullar.
3. Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonni tashkil qilish usullari (buni faollashtirish usuli deyish ham mumkin).
4. Tashkiliy usullar.

1. **Tarbiyaviy usullar.** Ijtimoiy-madaniy faoliyat, eng avvalo, tarbiyaviy jarayon bo'lgani uchun ularda pedagogika ga oid tarbiyaviy usullardan foydalinish qonuniydir. Lekin bu ularni to'g'ridan-to'g'ri, ko'r-ko'rona qo'llash, degan nafis ham emas. Tarbiyaviy usul quyidagi turlarga bo'linadi: ishontirish usuli, namuna ko'rsatish, taqdirlash, tandiq qilish usullari.

Ishontirish usulining asosiy vazifasi auditoriyaga ta'sir ko'rsatishdir. Buning uchun tadbirning mazmunini ishonarli, haqqoniy qilib tuzish kerak. Omma tashkilotchilarning fikriga qo'shilmasa, berilgan ma'lumotlarga ishonmasa, u holda tadbirning maqsadi amalga oshmaydi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun tadbirda haqqoniy, mantiqli, ishonarli va qiziqarli hujjatlardan, manbalardan foydalanish kerak. Tadbir mazmuni ishonarli bo'lishi uchun uni umumiylash-tirilgan badiiy to'qima vositasida emas, balki real hayotda bo'lib o'tgan haqqoniy voqealar va hujjatli materiallar asosida tuzish lozim.

Namuna usuli orqali yurtimiz kishilarining eng yaxshi fazilatlari tarannum etiladi. Yaxshi o'qiyotgan, yaxshi ishlayotgan, namuna ko'rsatayotganlardan o'rnak olishga da'vat qilinadi.

Taqdirlash usuli. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarning asosiy maqsadlaridan biri shundaki, ular kishilarni ma'naviy taqdirlaydi. Masalan, tadbirlarda g'oliblarga faxriy yorliqlar, maqtov qog'ozlari, kitoblar va boshqa qimmatbaho buyumlar tuhfa etish bilan boshqalarni ham o'z mehnatidan manfaatdor bo'lishga, yaxshiroq ishlashga, xalqqa halol xizmat qilishga undaladi.

Tanqid qilish usuli. Pedagogikada bu usul jazolash deb ham yuritiladi. Jazolash usuli muntazam ishlaydigan ja-moalarda: ishlab chiqarishda, o'quv yurtlarida qo'llaniladi. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar vaqtincha yig'ilgan auditoriya bo'lgani uchun unda tanqid qilish usulidan o'ziga xos yo'l bilan foydalaniladi. Tanqid obyektiga hayotning rivojiga halaqit beruvchi barcha «salbiy qahramonlar» kirishi mumkin. Tadbirlarda ularning satira va humor orqali tanqid qilinishi, omma orasida fosh etilishi, birinchidan, ularni o'zi haqida chuqur o'ylashga olib keladi, ikkinchidan, kishilarni bunday-larga qarshi kurashishga undaydi.

2. Ma'rifiy usullar. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarning asosiy vazifalaridan biri ommaga yangi axborot va bilim berishdan iboratdir. Tadbirlarda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'rifiy usullar – bu bayon etish va namoyish qilishdir.

Bayon etish usulining asosiy maqsadi shundan iboratki, o'ndibirning g'oyasi, mazmuni, axborot va faktlarni auditovara jonli so'z orqali bayon qilish shaklida yetkazib beradi. Ommaviy tadbirlar tarkibida ko'pincha shunday faktlar va ma'lumotlar bo'ladiki, ular batafsil tushuntirishni talab qila-di. Xuddi shunday daqiqalarda bayon etish katta yordam beradi. Bu usul yordamida ma'lumotlarning mohiyati ochitildi xususiyatlari yoritiladi va to'liq bilim beriladi. Bu usul to'proq mavzuli kechalarda qo'llaniladi.

Namoyish qilish usuli tadbir mazmunidagi voqealarning obrazli tasvirini ko'rgazmali shaklda auditoriyaga yetkazishga yordam beradi. Namoyish qilish usuli, asosan, ta'sirchan vositalari orqali bajarilib, unda voqealar yoki kecha qahramonlarning hayotiga oid ma'lumotlar hujjatli, real aks ettiriladi.

3. Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish va ni faollashtirish usullari. Ma'lumki, ijtimoiy-madaniy tadbirlar ommaning ishdan bo'sh, dam olish vaqtida ijodiy jarayonga qo'shilishi natijasida vujudga keladi.

Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish usulida ommani faollashtirish muhim o'rinni egallaydi. Buning uchun tadbir qatnashchilaridan intervyu olish, ular bilan savol-javob uyushtirish, ba'zilarni so'zga chiqarib, fikrini bilish, viktorina uyushtirish kabilarni bajarish mumkin.

Ba'zan sahnnaviy harakatlarni zal, omma ichiga ko'chirish ham auditoriyani faollashtirishga ko'maklashadi. Ommani tadbir qatnashchisiga aylantirish uchun boshqa barcha usullar bilan birga maxsus holatlardan ham samarali foydalanish ko'zda tutiladi. Masalan, auditoriya ichida ashula aytish, omnaviy raqlar tashkil qilish, xalq o'yinlaridan foydalansh, umumiy qarorlar qabul qilish va boshqa holatlar, so'zsiz auditoriyani tadbir qatnashchisiga aylantirib yuboradi.

4. Tashkiliy usul illyustratsiyalashtirish va teatrlashtirish usullari orqali amalga oshiriladi.

Ilyustratsiyalashtirish usuli – bu boshlovchining so'z mazmuniga va maqsadiga mos keladigan turli-tuman badiiy va san'at vositalaridan foydalanishidir. Bu usulda asosiy

urg'u jonli so'zga qaratilib, uni kuchaytirish va to'ldirish uchun xizmat qiladi. Musiqa, qo'shiq, raqs, she'r, monolog, kinolavhalardan illyustratsiya sifatida foydalaniladi. Bu usul asosida tayyorlangan tadbirlarda ko'pincha yagona syujet liniyasi bo'lishi shart emas. Chunki tadbirdagi qismlar bir-birlari bilan mexanik birlashib ketadi.

Illyustratsiyalashtirish usulida boshlovchi ma'lum mavzular haqida so'z yuritadi, nutqining mazmuni ko'rgazmali va jonli bo'lgani uchun bayon etilgan voqealarga oid kinolavhalar ko'rsatiladi. Nutq mazmuni tasviriylavhalar bilan boyitiladi. Bu usul ijtimoiy-madaniy tadbirlardan mavzuli kechalarda, badiiy kompozitsiyalarda keng qo'llaniladi. Illyustratsiyalashtirish usuli orqali sof targ'ibot-tashviqot faoliyat shakllari badiylashtirilgan tadbirga aylanib ketadi.

Teatrlashtirish usuli – alohida maqsadga qaratilgan, badiiy obrazli tarzda tashkil etilgan, teatr qonunlari asosida, dramaturgiya talablariga javob bera oladigan tadbirlarda o'z ifodasini topadi. Bunda tadbir jarayonida qo'llaniladigan barsha g'oyaviy-emotsional vositalar hamda og'zaki chiqishlar kompleks tarzda birlashadi va yagona syujet tizimini vujudga keltiradi.

Teatrlashtirish usulida quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

1. Teatrlashtirilgan tadbirlarda, eng avvalo, yagona g'oyaviy-badiiy syujet va kompozitsion tuzilish bo'lishi lozim. Bu kompozitsion tuzilish – muqaddima, asosiy voqe, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va final kabi qismlardan iborat bo'lishi kerak.

2. Teatrlashtirilgan tadbirda foydalanadigan vositalar alohida ajralib qolmasdan syujetga singib ketishi, uning rivojlanishiga yordam berishi lozim. Shuning uchun unda syujet mazmuniga qarab kerakli ta'sirli vositalar mantiqan tanlanadi.

3. Teatrlashtirilgan tadbirlarga real qahramon obrazi yoki badiiy asarlardan olingan obrazlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

4. Teatrlashtirilgan shakllarda omma oddiy tomoshabin emas, balki tadbir qatnashchisiga aylanib ketishi kerak.

Shuni ta'kidlash o'rinligi, illyustratsiyalashtirish usulining ham, teatrlashtirish usulining ham o'zi talab qiladigan tadbirlari bor. Masalan, illyustratsiyalashtirish usulini ommaviy bayramlarga qo'llash yaxshi natija bermaydi, lekin yoki suhbatni esa teatrlashtirishning hojati bo'lmasa kerak. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, illyustratsiyalashtirish usulidan tashkil qilinishi oson tadbirlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Teatrlashtirish usulini esa buyuk shaxslar tavalludiga bog'ishlangan bayramlarga va alohida sanalar uchun tashkil etilgan tadbirlarda qo'llash lozim.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarbiyaviy, ma'rifiy, ijodiy va dam olish ishlarining o'ziga xos birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shunday ekan, ijtimoiy-madaniy faoliyat usullarini mazkur yo'nalishlar bo'yicha tasniflab bering.
2. Ommaga yangi axborot va bilim berishdan iborat usul qanday ataladi?
3. Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish usulida ommani faollashtirish yo'llarini aytинг.
4. Teatrlashtirish usulida qanday talablarga rioya qilish kerak?
5. Teatrlashtirish usulini qanday tadbirlarda qo'llash ko'proq samara beradi?
6. Ijtimoiy-madaniy faoliyat usullarining o'zaro bir-biri bilan bog'liqligini izohlab bering.

Tayanch so'z va iboralar:

Tarbiyaviy usullar, ma'rifiy usullar, hordiq chiqarish, ijodiy jarayonni tashkil qilish usuli, faollashtirish usuli, tashkiliy usullar, namuna usuli, taqdirlash usuli, ishontirish usuli, tanqid qilish usuli, namoyish qilish usuli, bayon etish usuli, illyustratsiyalashtirish usuli, teatrlashtirish usuli.

2.7. Ijtimoiy-madaniy soha xodimining faoliyat bilan bog'liq fazilatlari

O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash siyosati madaniy soha rivojida muhim tayanch hisoblanadi. Respublikamizda ma'nnaviy hayotni yangilash masalalari bilan bog'liq bo'lib, milliy madaniyatni rivojlantirish va tiklas sohasi xodimlarini tayyorlashni taqozo etadi.

Respublikamiz madaniy hayotida iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, ma'nnaviy, huquqiy o'zgarishlar yuz berayotganligijtimoiy-madaniy faoliyatga bo'lgan talab va ehtiyojni yana da oshirdi. Ijtimoiy-madaniy soha xodimining faoliyati in son faoliyatining barcha sohalari singari o'z xususiyatiga ega. Uning eng birinchi xususiyati ijtimoiy-madaniy faoliyatning hayot bilan, mustaqillik davri vazifalari bilan uzbunj bog'langanidir.

Ijtimoiy-madaniy soha xodimi faoliyatining hayotdan uning muammolaridan, kishilarning ehtiyojlaridan ajralib qolishi, ularni muhim ma'rifatchilardan quruq safsatabozlarga aylantirib qo'yadi. Ijtimoiy-madaniy soha xodimi faoliyatining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u muntazam izlanishni, ishga hamma vaqt ijodiy yondashishni talab qiladi.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan respublikamiz jahon ham-jamiyatida o'z o'rnini egallab, tobora rivojlanib bormoqda Respublikamizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar natijasida kishilarimizning ma'nnaviy-madaniy ehtiyojlari kundan kunga o'sib, o'zgarib bormoqda, axloqiy qiyofasi va fe'l-atvorida ham o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday sharoitda ijtimoiy madaniy ishlarning sho'rolar davrida maqbul bo'lган shak va usullari talabga javob bermayapti. Mustaqillik sharoit kishilarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, unga g'oyaviy ta'sir etishning yanada yangi, samarali usul va vostalarini qo'llashni talab qilmoqda. Bu esa ijtimoiy-madaniy ishlarning mazmunini takomillashtirib, yangilab borishni taqozo etadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat pedagogik faoliyatning boshqa turlaridan o'zining mazmunan murakkabligi, ko'p qirraliligi

shakllan xilma-xilligi, ish shakllarining o'ziga xos tarzda bir-biriga chatishib ketgani bilan farq qiladi.

Ijtimoiy-madaniy soha xodimining faoliyatini tarbiyaviy mohiyat ham hisoblanadi. Lekin u tarbiyaviy ishlarni maktab va o'quv yurtlari pedagogik jamoalarida bo'lganidek bir xil yoshdag'i, bir xil tayyorgarlikka ega bo'lgan qatnashchilar yoki talabalar bilan emas, balki yoshi, kasbi, bilim daramasi, qiziqish va ehtiyojlari turlicha bo'lgan kishilar orasida olib boradi. O'quv yurtlarida tarbiya jarayoni majburiy mashg'ulotlar orqali amalga oshirilsa, ijtimoiy-madaniy soha xodimlari kishilarning bo'sh vaqtini mazmunli uyshtirish, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, qobiliyat va iste'dodlarini foyqlantirishni ijtimoiy-madaniy muassasalarda xilma-xil ommaviy tadbirlar tashkil etish yo'li bilan hal qiladilar.

Ijtimoiy-madaniy soha xodimi faoliyatining yana bir xusnisiyati – ijtimoiy-madaniy tadbirlarda kishilarning aql-idroti bilan birga ularning hissiyotiga ham ta'sir ko'rsatishdir. Ijtimoiy-madaniy muassasalarda o'tkaziladigan har bir tadbir chiqur mazmunli, g'oyaviy yuksak darajada bo'libgina qolmay, qiziqarli, jozibali, odamlarga estetik zavq bag'ishlaydigan va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi ham kerak. Jonsiz, quruq o'qilgan ma'ruza, puxta tayyorlanmay ko'rsatilgan konser, bahs-munozara kechasi yoki boshqa tadbirlar qatnashchilarni qiziqtirmaydi, bekor o'tkazgan vaqt uchun achinish hussini uyg'otadi.

Ijtimoiy-madaniy soha xodimining kasbiy (professional) faoliyati o'z mohiyati bilan tarbiyaviy ish ekanini biz yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Uning asosiy vazifasi har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. U kishilarning madaniy dam olish, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, iste'dod va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan ijtimoiy-foydali faoliyatni uyshtiruvchidir. Ijtimoiy-madaniy soha xodimi ommaning pedagog-tarbiyachisi, ular orasida o'tkaziladigan ijtimoiy-foydali ishlarning tashabbuskori, havaskorlik jamoalarining rahbaridir. Ijtimoiy-madaniy soha xodimi faoliyatining bunday ko'p qirraliligi uning shaxsiyatiga, axloqiy qiyo fasiga yuksak talablar qo'yadi.

Ijtimoiy-madaniy soha xodimi chuqur g'oyaviy-nazar va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, o'z kasbiga mehr-muhabbatli, sadoqatli bo'lishi lozim. Ishda qat'iyatli va o'ziga nisbatan talabchanlik ham mazkur soha xodimining asos xislatlari idandir. Shuningdek, bu sohada faoliyat yurituvchi larga ishga ijodiy yondashish, tashabbuskorlik, yangilik intilish xislatlari ham xos bo'lishi talab etiladi. Bularsiz ijtimoiy-madaniy ishlarning mazmuni, shakl va usullari to'xtovsiz takomillashtirib borishdek muhim vazifani muva faqiyatli bajara olmaydi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining qiyofasini vatan parvarlik, insonparvarlik kabi yuksak axloqiy sifatlari tasavvur qilish mumkin emas. Chunki madaniyat muassasasida o'tkaziladigan har bir ommaviy tadbir, to'gara mashg'ulotlari kishilar yuragida Vataniga, xalqiga nisbatan chuqur mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirishga, vatan parvarlik hissini mustahkamlashga yordam berishi kerak. Besa, eng avvalo, ijtimoiy-madaniy soha xodimining surasi siyratida vatanparvarlik tuyg'ulari qanchalik chuqur va mustahkam o'rin olganiga, o'tkaziladigan tadbirlar mazmunir yagona maqsadga yo'naltira bilishiga bog'liq.

Hayot sinovidan o'tgan bir naql bor: «Boshqalarni tarbiyalaydigan kishining avvalo o'zi yaxshi tarbiyalangan bo'lishi kerak». Ijtimoiy-madaniy soha xodimi faoliyatiga bo'lgar talablar ana shu hayotiy haqiqatdan kelib chiqadi.

Bu soha xodimi yuksak darajadagi dunyoqarash, madaniyat, go'zal axloqiy fazilatlarga ega va qomusiy bilimlar majmuini egallagan bo'lishi lozim. Chunki uning darajasi u ish olib borayotgan kishilar bilim darajasi va saviyasidan ancha yuqori bo'lishi kerak. Ijtimoiy-madaniy soha xodimi uchun eng zaruri bilim tarmoqlaridan biri – bu pedagogik bilimlar hisoblanadi. Pedagogika ijtimoiy-madaniy soha xodimiga faoliyatining mazmun-mohiyatini chuqur tushunib olishda, kishilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning yangi usullarini o'zlashtirishda va ularidan oqilona foydalanishda yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy soha xodimi kasbiy madaniyatining yana bir muhim ko'rsatkichi – bu psixologik (ruhiyatshunos-

lik bilimlardir. Ruhiyatshunoslik qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olish ijtimoiy-madaniy muassasalardagi tarbiyaliv jarayonni to'g'ri uyshtirish va uning samarali bo'lishini to'minlashda katta yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining tashkilotchilik qobiliyati esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

komunikativ xususiyatlarni, ya'ni kishilar bilan tezda tili topishishni, bir-birini tezda tushunishni, jamoaning har bir o'zosi imkoniyatini, uning ijtimoiy layoqatini to'g'ri baholay nishni;

vujudga kelgan vaziyatni tez va to'g'ri baholashni, muayyan holatda to'g'ri yo'l topib, uni zudlik bilan ishga sola bilishni;

ishga ijodiy yondashishni, ishning samarali shakllari va usullarini tezda topib, ijtimoiy-madaniy faoliyat amaliyotiga joriy qila bilishni;

ishni amalda tashkil etishni, maqsadga intilgan holda tez harakat qilishni, topshirilgan ishning ijrosini nazorat qila bilishni.

Ko'rsatib o'tilgan fazilatlarning ko'pchiligi kishida bolalik chog'idan boshlab o'qish, ayniqsa, jamoat ishlarida qattashish jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanib boradi. Maxsus o'quv yurtlari – kollej va institutlardagi ta'lim buylatlarning yanada rivoj topishiga yordam beradi. Lekin ijtimoiy-madaniy soha xodimining tashkilotchilik qobiliyatini o'stirish va shakllantirishda uning ommaviy faoliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ijtimoiy-madaniy soha xodimi doimo kishilar bilan aloqa da bo'ladi, ijtimoiy-madaniy muassasaga keluvchilarining, birga ishlaydigan hamkasblarining «diqqat markazida» turadi. Shuning uchun ham u har bir ishda ibrat bo'lishga intilishi, odamlarni o'z shaxsiy namunasi, yuksak odobi, xulqi bilan ishontirishi va tarbiyalashi kerak.

Ijtimoiy-madaniy soha xodimi faoliyatining ta'sirchanligini oshiradigan omillardan yana biri bu madaniyat xodimining pedagogik odobidir.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining pedagogik odu – bu uning muayyan vaziyatda shaxsga yoki jamoaga tar yaviy ta'sir etishning maqsadga muvofiq usullari va yo'llari tanlay va qo'llay bilishidir. Pedagogik odobi amaliy faolyatda, kishilar bilan muloqotda bo'lish jarayonida namoyon bo'ladi va mustahkamlanadi. Pedagogik odob avvalo kishilar bilan muomalada, insonlar bilan muloqotda samimiyoq, rostgo bo'lishda namoyon bo'ladi.

Ishdan bo'sh vaqtida o'z bilimini boyitish, qobiliyat o'stirish, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun madaniy ma'rifiy muassasaga keluvchilarga mehr-muhabbat va g'amxo'rlik ko'rsatish ijtimoiy-madaniy soha xodimidan lab etiladigan pedagogik odobning muhim xususiyatidir.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy-madaniy soha xodimi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Mustaqillik sharoitida ijtimoiy-madaniy soha xodimi qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy-madaniy muassasa xodimining pedagogik odu va tashkilotchilik qobiliyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
4. Ijtimoiy-madaniy faoliyat vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
5. Ijtimoiy-madaniy faoliyat vositalarining turlari nimalardan iborat?
6. Hozirgi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyatda yana qanda vositalardan foydalanish mumkin?



Tayanch so'z va iboralar

Ijtimoiy-madaniy soha xodimi, tarbiyaviy ishlar, tarbiyaviy ta'sir etish, tarbiyaviy faoliyat, pedagogik odob, adolatlilik, talabchanlik, kommunikativ xususiyatlar, ishga ijodiy yondashish, suhbatdoshga, tinglovchilarga emotsiyonal ta'sir etish.

2.8. Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining maqomi va kasb axloqi

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning maqomi o'tgan davrlar mobaynida doimiy evolyutsiyada bo'lib keldi. Sho'rolar davrida mazkur kasb xodimining professional fazilatlari komunistik mafkuraga sadoqat negizida shakllantirib kelingan bo'lsa, istiqlolga erishilgandan so'ng ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining maqomi va uning kasbiy fazilatlari tubdan o'zgardi. Yangi mohiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining maqomi va uning kasbiy fazilatlari mamlakatimizda qabul qilingan milliy istiqlol g'oyasi hamda Vatanimizda demokratik, fuqarolik jamiyatni qurish maqsadlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, komil insonni tarbiyalash nuqtai nazaridan shakllantirilmoqda. Anbu ezgu maqsadlar asosida ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining maqomi va uning kasbiy fazilatlari quyidagi jihatlarni o'zida namoyon etishi ko'zda tutiladi:

- ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi ma'naviy yuksak fazilatlarga ega bo'lishi, o'zining har bir xatti-harakatiga axloq nuqtai nazaridan e'tibor berishi;

- ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi o'z ehtiyojini qondirishda boshqalarning manfaatlariga zarar yetkazmasdan hukkat qilishi va jamiyat farovonligini oshirishga o'z hissasini qo'shishi;

- ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya qilishi;

- ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi o'zining bilimi, ko'mikma va malakasini alohida odamlar, guruhlar, jamoa va jamiyatlarning taraqqiy etishi uchun yo'naltirishi;

- ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi milliy, irqiy-mulkiy va boshqa diskriminatsiyani rad etishi, madaniyat muassasasiga keluvchilarning jinsi, yoshi, millati, tili, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, ularni badiiy, estetik ijodga jalb etishi;

- ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi har bir odam, ijtimoiy guruh huquqlari, ma'naviyati va sha'nini hurmat qilar ekan, BMning «Inson huquqlari xartiyasi» va boshqa xalqaro hujjalarning axloqiy andozalariga asoslanishi;

*Ijtimoiy-madaniy faoliyatning axloqiy andozalari bera
guruhgaga bo'linadi:*

- axloqiy xulq-atvor andozalari;
- madaniyat muassasasiga keluvchilar bilan o'zaro samimiy munosabatlar;
- boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar;
- hamkasblar bilan o'zaro munosabatlar;
- kasbga munosabat.

Axloqiy xulq-atvor andozalari

1. Har bir inson unikal ekanii, inson xulq-atvorini va uning ko'rsatiladigan ma'naviy yordam xarakterini belgilaydigan sharoitlar unikal ekanini tushunishga intilish.
2. Kasbiy qadriyatlarni tatbiq qilish, bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish; kasb obro'sini tushiradigan xatt harakatlar qilmaslik.
3. Shaxsiy va kasbiy imkoniyatlarga ortiqcha baho berish.
4. Har doim paydo bo'layotgan muammolarni hal qilish.
5. Ijtimoiy ehtiyojlar, shaxsiy, guruhi va jamoa, milliy va xalqaro ijtimoiy muammolarning mohiyati va xarakterini aniqlash va ularni tushuntirish.
6. O'z shaxsini namoyon qilish sifatida ham, kasbiy, uyushtirish, tashkilot vakili sifatida ham bajarayotgan harakat va yondashuvlarni tushunarli shaklda aniq va ravon izohlash.

Madaniyat muassasalariga keluvchilar bilan o'zaro munosabatlar

1. Madaniyat muassasalariga keluvchilarga nisbatan hurmat va majburiyatni birinchi o'ringa qo'yish, boshqa odamlarning axloqiy yondashuvlarini hurmat qilish.
2. Madaniyat muassasalariga keluvchilarning o'zaro ishonch, sir va konfidensiallikka, axborotdan mas'uliyatlardan foydalanishga bo'lgan huquqlarini himoya qilish.

3. Madaniyat muassasalariga keluvchilarining shaxsiy inhlisilari, tashabbuslari va xususiyatlarini qadrlash va hurmat qilish, ijtimoiy-madaniy faoliyat doirasida badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilarga ko'maklashish, biror sababga ko'ra mana shu darajada kasbiy yordam ko'rsatishning imkonini bo'lmasa, bu haqda shug'ullanuvchilarga xabar berish.

Davlat va nodavlat tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar

1. Ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar madaniyat muassasalariga keluvchilarga yordam ko'rsatish maqsadida ijtimoiy-madaniy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga mas'ul bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlar bilan mustuhkam hamkorlikda ishlashi.

2. Ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etishda davlat va nodavlat tashkilotlarning nizomidagi maqsad va vazifalariga to'la mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish; faoliyatni amalga oshirishning uslubiyoti va amaliyotini ishlab chiqish.

3. Madaniyat muassasalariga keluvchilar taqdiriga to'la mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish; ijtimoiy-madaniy faoliyat uslubiyoti va amaliyotiga zarur o'zgarishlarni tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar orqali kiritish.

4. Madaniyat muassasalariga keluvchilar haqida yoki ijtimoiy-madaniy faoliyat samaradorligi to'g'risida tegishli davlat va nodavlat tashkilotlariga hisobot berish, madaniyat muassasalariga keluvchilar bilan vujudga keladigan muammolarni birgalikda tahlil qilish.

5. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning axloqiy tamoyillari, protsedurasi va amaliyotiga zid bo'lgan harakatlarni qilmaslik.

Hamkasblar bilan o'zaro munosabatlar

1. Hamkasblar va boshqa mutaxassislarning kasbiy tay-yorgarligi va amaliy faoliyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularga ijtimoiy-madaniy faoliyat samaradorligiga erishshda yordam ko'rsatish.

2. Hamkasblar va boshqa mutaxassislarning fikrlari va amaliy yondashuvlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish zarur bo‘lgan hollarda tanqidiy mulohazalarni to‘la mas’uliyet bilan bayon qilish.

3. Hamkasblar, boshqa mutaxassislar bir-birlarini o‘zaro qo‘llab-quvvatlashi, kasbiy mahoratini namoyon qilishiga va bilim hamda ko‘nikmalarini oshirishiga ko‘maklashish.

4. Hamkasblarni tashqi va ichki nohaqliklar,adolatsizliklardan himoya qilish.

Kasbga munosabat

1. Kasbning qadrini, obro‘sini himoya qilish, uni omma lashtirish va takomillashtirish.

2. Ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi professionalizmni hamonlama takomillashtirishga harakat qilish.

3. Kasbni o‘rinsiz tanqiddan himoya qilish, uning ijtimoiy zarur ekani to‘g‘risidagi ishonchni mustahkamlash.

4. Kasbni, uning nazariyalari, usullari va amaliyotin konstruktiv takomillashtirib borish.

5. Yangi va mavjud bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish, ijtimoiy-madaniy faoliyatning yangicha yondashuvlari va usul-larini ishlab chiqish va har tomonlama rag‘batlantirish.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining majburiyatları

1) Badiiy ijod bilan shug‘ullanuvchilarining sha’ni va unikalligini hurmat qilish, ularni harakatga, tashabbusga, ijodga undash.

2) Muloqotda ochiq bo‘lish, badiiy ijod bilan shug‘ullanuvchilarining iste’dodini ro‘yobga chiqarishda duch kelingan muammolarga birgalikda yechim topish, atrofdagilar uchun kerakli va qiziqarli bo‘lish.

3) Madaniyat muassasalariga keluvchilar bilan ishlashda norasmiy bo‘lish, ularning muammolarini hal qilishda maslahatchi, ko‘makchi vazifasini bajarish.

4) Xulq-atvorining yuksak axloqiy andozalarga mosligini saqlash.

5) Faqatgina o'zi vakolatli bo'lgan doirada ish yuritish, ishning sifati uchun shaxsan mas'ul bo'lish, tashqi ta'sir bosimlarga berilmaslik.

6) O'zining kasbiy munosabatlaridan shaxsiy maqsadli yo'lida foydalanmaslik, vaziyatlarni muhokama qilish baholashda faqat kasbiy maqsadlar bilan ishtirok etish, ko'rsatilgan xizmatlar haqini qonuniy asosda olish, bajarilgan ish uchun qimmatbaho sovg'alar olmaslik.

Malaka tavsifi bilan belgilangan majburiyatlarni bajarish uchun ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi o'zining quyidagi huquqlaridan keng foydalanishi mumkin:

- badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilar manfaatlarini qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarida ifodalash va himoyalash;
- maxsus oliy ma'lumot to'g'risidagi va litsenziyaga mos bo'lgan diplom yoki sertifikat bo'lgan taqdirda davlat yoki xususiy ijtimoiy-madaniy faoliyatni yuritish;
- aholining madaniy ehtiyojlari bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, aholi orasida sotsiologik so'rovlar, diagnostik tadqiqotlar o'tkazish;
- madaniyat muassasalariga keluvchilarning ijtimoiy va shaxsiy muammolarini hal qilish to'g'risidagi rasmiy so'rovlar va iltimoslar bilan jamoat tashkilotlariga, davlat muassasalariга murojaat qilish;
- o'z faoliyati doirasidagi u yoki bu muammoning holati to'g'risida davlat idoralariga axborot berish;
- madaniyat muassasasidagi tajribani ommaviy axborot vositalari yordamida targ'ib qilish;
- muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan jamoat tashabbuskorlik harakatlariga boshchilik qilish.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining maqomi va uning kasbiy fazilatlari qanday ma'naviy-huquqiy asoslarga ko'ra belgilanadi?

2. Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi ijtimoiy adolat tamoyiliga rioya qilishi shart deganda nimani tushunasiz?
3. BMTning «Inson huquqlari xartiyasi» ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining xatti-harakatlari va axloqiga taalluksi? Bo'lsa, qay darajada?
4. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning axloqiy andozalarini sanabering.
5. Aholining madaniy ehtiyojlari bilan bog'liq ma'lumotlarni qanday to'planadi?
6. Qanday ma'lumot va malaka asosida ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan shug'ullanish mumkin?
7. Badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilarining rasmiy so'rov va iltimoslariga qanday yondashiladi?
8. Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining kasb axloqiga doimiy bitta keys tayyorlang.



Tayanch so'z va iboralar

Axloqiy xulq-atvor andozalari, madaniyat muassasasi bilan keluvchilar bilan o'zaro samimiy munosabatlar, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar, hamkasblar bilan o'zaro munosabatlar, kasbga munosabat.



II-bo'limga oid uslubiy ko'rsatmalar

«Xonaqoh», «guzar», «musofirxonalar», «karvonsaroy», «robot», «masjid», «madrasa», «madaniy-oqartuv ishi» kabi tushunchalarga keng ijtimoiy-madaniy tavsif berishga harakat qiling. Ularning har biri uchun muayyan tarixiy va ijtimoiy kontekst yaratilgan keys tuzing.

Televide niyening biror ommaviy-publisistik ko'rsatuvini kuzatib tahlil qilgan holda, unda qaysi madaniy guruhning (masalan, yoshi, ijtimoiy holati, kasb-kori jihatidan) an'analari: a) atroficha o'z aksini topgani; b) qisman, yuzaki o'z aksini topgani; v) umuman o'z aksini topmaganini aniqlang. Mazkur ko'rsatuvning sifatini oshirish, kam aks ettirilgan guruhlarning madaniy ehtiyojlarini qondiradigan darajaga yetkazish uchun bir nechta takliflar ishlab chiqishga harakat qiling.

III. IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH SOHALARI

3.1. Xalq badiiy madaniyatni va ijodiyoti

Mustaqillik yillarida madaniyat va san'at sohasiga davlatimiz tomonidan juda katta e'tibor berilmoqda. Chunki turmush madaniyatini rivojlantirishni madaniy faoliyatdan ayrotarda amalga oshirib bo'lmaydi. Ijtimoiy madaniy faoliyatni amalga oshirishda badiiy madaniyat va san'at muhim ahamiyat kasb etadi. San'at va uning turlari: musiqa, raqs, teatr, tasviriy san'at, sirk kabilalar insonning qalbini quvvatlantirib, ruhini tetiklashtiradigan sehrli kuchdir. O'zbek san'ati nichoyatda boy va rang-baranglikka ega bo'lib, u tarixning eng qadimgi davrlaridan to hanuzgacha jahon madaniyati rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Amaliy san'at. O'zbekiston amaliy san'atining ildizlari qadim o'tmishga borib taqaladi. Amaliy san'atga oid bo'lgan dastlabki buyumlar kundalik ro'zg'orda ishlatilgan bo'lib, ular mil. av. 5–2 ming yilliklarda yuzaga kelgan. O'zbekiston amaliy san'atining asosiy manbalari arxeologik topilmalar, bizgacha saqlanib qolgan amaliy san'at asarlari va devoriy rasmlar, tarixiy haykaltaroshlik va miniatyura san'atidan olingan ma'lumotlardir.¹

Neolit davrida amaliy san'atning dastlabki namunalari vujudga kelgan. Bu buyumlar turli vazifalarni bajargan: ehtiyojni qoniqtirish bilan birgalikda, kulfatlardan asrash va bezash kabilar. O'zbekiston amaliy san'atining qadimgi turilaridan biri bo'lmish kulolchilik san'ati qozon, xum, tovoq, piyola shakllari o'sha davrlardayoq amaliy san'at ancha rivoj-

¹ Qarang: U.X. Qoraboyev. Madaniyat masalalari. 2009-y. 266–268-betlar.

langanidan dalolat beradi. Mil. av. 2–1-ming yilliklarda kulolchilik charxi paydo bo'lib, bиринчи naqshlar va uslublari yaratilgan. Archa, taroqsimon, uchburchak, romb, to'rsimon nuqtali naqshlar, ilon izi, bo'yoq dog'lari kabi naqshlar bo'lishi, chizma, bo'yama usullarda ifodalanilgan. Ibtidoiy jamo davrida har bir naqsh ramziy ma'noga ega bo'lib, o'ziga ilohi mazmunni qamrab olgan. Neolit davriga oid zargarlik buyumlari ham bizgacha yetib kelgan. Ular bilakuzuk, uzuk, munchoqlar, pardoz buyumlarini tashkil qiladi. Mil. av. 3-ming yillikda taqinchoqlarda chig'anoq, tosh va feruza, lojuvard aqiq, nefrit kabi qimmatbaho toshlar ishlatilgan. Ana shu davrning zargarlik san'atida «hayvonsimon tasvirlash uslubi» ustun turadi.

Badiiy to'qimachilik anjomlari ham ana shu davr mahsuli bo'lib, unda yaratilgan buyumlar bizgacha yetib kelmagan.

Ahamoniylar davri (mil. av. VI–IV-asrlar) O'zbekiston amaliy san'ati tarixida ikkinchi katta bosqich hisoblanadi. Bu davr san'ati haqida bizga Amudaryo xazinasiga mansub buyumlar ma'lumot beradi. Xazina buyumlarini uch turga bo'lish mumkin. Birinchisi, bu ahamoniylar usulida ishlangan buyumlar, ikkinchisi mahalliy xususiyatlarni o'zida qamrab olgan buyumlar va uchinchisi, «hayvonsimon tasvirlash uslubi»da yaratilgan buyumlar. Ko'pchilik asarlarda shartlilik saqlanib qoltingan.

Keyingi tarixiy davr – antik davr (mil. av. III-asr – mil. III-asr) bo'lib, bu davr amaliy san'at sohasiga keskin o'zgarishlarni kiritadi. Bu davr san'ati ellinizm, Rim va Hind badiiy an'analarini o'zlashtirgan san'atdir. Shunisi qiziqliki, bu davr amaliy san'ati o'zida tasviriy san'at poetikasini ham qamrab olgan. Masalan, muhr va tangalarda portret janri unsurlarini ko'rish mumkin. Ularda tasvirlangan rasmlarda yunon-baqtriya shohlarining ruhiy olamini ochishga harakat qilingan. Bu davrda kulolchilik san'ati ham keng rivojlangan va mukammalikka erishgan. An'anaviy shakllar bilan birgalikda nozik ishlangan qadahlar, kosa, piyola, ko'za va boshqa idishlar tayyorlash ham qo'shilgan. Badiiy shishasoz-

Ilk suyakdan buyumlar yasash ham rivojlangan. Ana shu davrga oid zargarlik san'ati haqida Dalvarzintepa xazinasi katta ma'lumot beradi. Umuman olganda, bu davrning amaliy san'atida gandhar, ellinizm va sak an'analariga xos xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Unda real mavzular bilan birgalikda mitologiya syujetlari ham o'z aksini topgan.

Ilk o'rta asrlarda (V–VIII-asr) amaliy san'at sohasiga yangi g'oyalar va yo'nalishlar kirib keldi. Bu davrda amaliy san'at buyumlarini yasashda turli metallardan foydalanish katta yutuqlarga erishdi. Oltin, kumush, jezdan turli shakldagi buyumlar tayyorlandi. Metalldan tashqari amaliy san'at turlaridan kulolchilik, zargarlik, to'qimachilik, mayda shakllar haykaltaroshligi shakllandi. Masalan, o'sha davrdagi Ozbekiston to'qimachilik san'ati namunalari xorijiy mamlatlarda ham keng tarqalgan va unga yuqori baho berilgan. Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan Zandonachi matolari mutakkab gulli, rangdor, nafis mato sifatida mashhur bo'lgan.

Mayda shakllar haykaltaroshligi diniy tushunchalar bilan birgalikda, jonli, hayotiy kuzatishlarni ham aks ettirgan.

Kulolchilik san'ati bu davrda yanada rivojlandi. An'anaviy shakllar bilan birga yangi nozik hajmli idishlar tayyorlana boshlangan. V–VIII-asrlarda kulolchilik buyumlari asosan sirlanmagan, bezaksiz bo'lgan, VIII-asrdan keyin ularni bezash uslubi o'zgarib, sir keng ishlataligan.

VIII–XIII-asrlarda amaliy bezak san'atiga islom estetikasi juda katta ta'sir qilgan. Lekin shu bilan birga unda islom davridan oldin paydo bo'lgan mavzular, yo'nalishlar, uslublar ham saqlanib qolingan. Buyumlar bezagida naqsh mujassamoti o'simliksimon, geometrik, handasiy, hayvon shakllari va yozuvli naqshlar bilan to'ldirilgan. Yog'och va ganch o'ymakorligi, badiiy metall, kulolchilik sohalarida yangi, islom estetikasi hukmronlik qilsa, amaliy san'atning kashtachilik, gilamdo'zlik turlarida xalq hunarmandchiligi ning badiiy an'analarini o'z aksini topgan.¹

¹ Qarang: U.X. Qoraboyev. Madaniyat masalalari. 2009-y. 266–268-betlar.

XIV–XV-asrlarda amaliy bezak san'atining yuksak taraq qiyotini ko'rishimiz mumkin. Temuriylar davrida mahalliy an'analar bilan bir qatorda O'rta Sharq mamlakatlarinin badiiy uslublari ham o'zlashtirilgan. Buyumlar bezagida o'simliksimon, «girih» ko'rinishidagi geometrik naqshlar arab hattotligi hukmronlik qilgan. Shu bilan birga hayvon va osmon jismlari mavzui uyg'unlashgan. Temuriylar davrida amaliy san'at tarixida bu mavzu juda katta o'rin egallaydi. Ushbu davrdagi me'moriy bezaklar, kulolchilik san'ati, badiiy shishasozlik, naqqoshlik san'ati yutuqlari butun O'rta Sharqda tan olingan. Masalan, kulolchilikda XV asrdan boshlab «kobalt» uslubidagi xitoy chinnisi ta'sirida yangi usul shakllangan. Kulolchilikda ko'proq yangi usuldagagi oq-ko'k sir ishlatalilgan.

XVI-asr oxiri – XVIII-asrda amaliy san'at rivoji sustlashgan va unda asosan o'tgan davrlar badiiy an'analarini saqlanishi qoltingan. Ularning bezagida geometrik naqshlar, osmon jismlari, buyumlar, yozuvlar va hayvon shakllari uyg'unlashgan. Bu davr amaliy bezak san'atining barcha sohalari shakl, rasm va o'ziga xoslikni XIX asr ikkinchi yarmiga qadar saqlab qolgan.

XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida amaliy san'atning taraqqiyoti murakkab kechgan. Buning asosiy sababi yangi uslublar, yangi siymolar, yangi yechimlar paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Chor imperiyasi istilosidan so'ng, mahalliy an'anaviy san'atning badiiy to'qimachilik sohasida Rossiya dan keltirilgan ko'pdan-ko'p anilin bo'yoqlar ishlatilgan, kulolchilikda ruhli sirlar qo'llanilgan va hokazo. Bu esa astasekin badiiy an'anani o'zgarishiga olib kelgan.

XIX-asr zargarlik san'ati usullarning xilma-xilligi, shakllarga boyligi bilan ajralib turadi. Bosh, soch, peshona, chakka, bo'yin, ko'krak, qo'ltiq, yelka, bel, qulqoq, bilak, burun taqinchoqlari shabaka, qoplama, qadama, zig'irak, bosma, sovotkori, chizma, kandakori, sirlash, o'yma, quyma ijro usullari bilan ishlangan. XIX-asr yog'och o'ymakorligida ro'zg'or buyumlari, uy jihozlari, musiqa asboblarini bezashda ustalar o'yma, bo'yama va qadama usullaridan unumli foydalanish-

O'ymaning ikki turi – zaminsiz va zaminli turida yaratilgan naqshlar badiiy ifodaliligi bilan ajralib turgan. Naqqoshlik san'ati ham keng tarqalgan holda rivojlanib borgan.

XX-asrda O'zbekiston amaliy san'atining taqdiri bir qadur mashaqqatli kechdi. Badiiy jihatdan bu davr tushkunlik an'analarini yengib o'tish, o'tmisning yaxshi an'analariga tuyungan holda yangi taraqqiyot yo'llarini izlash davri bo'ldi. Umuman XX-asr amaliy san'atining rivojlanishi yirik namoyondalar izlanishi bilan bog'liq. Masalan, abrli matolarda A.Ahmedova izlanishlari, an'anaviy matoga gul bosishda A.Abdug'ofurov, G.Qo'ziyev, K.Qo'ziboyev, kashtachilikda R.Rajabova, gilamdo'zlikda G.Abdullayev, zargarlikda A.Abdurasulov, S.Pochchayev, K.Miroqovlar, kandakorlikda A.Hamidov, kulolchilikda T.Miraliyev, M.Ismoilov, U.Shermatov va boshqalarning hissasi katta.

XX-asrda amaliy san'atning ayrim turlari notekis rivojlindi. To'qimachilik, gilamchilik, do'ppido'zlik, kulollik tadbiqiy etdi. Kandakorlik, yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik o'zining ahamiyatini yo'qota bordi. Zardo'zlik, mag'zi puxtadan qilingan buyumlarni bezash kabi sohalar yo'qolib ketdi. Mahalliy maktablar yo'nalishlari asosida umummilliy ususiyatlar ortib bordi.

Mustaqillik yillarda amaliy san'atga e'tibor kuchayib, Birinchi Prezidentimiz farmoni bilan bir qator yangi korxonalar vujudga keldi. 1997-yil «Musavvir» ilmiy-tekshirish markazi qoshida «Hunarmand» uyushmasi tashkil qilinib, respublikamizning turli hududlarida hunarmandchilik bilan ijod qilib kelayotgan ustalarni qamrab oldi. Bugungi kunda an'anaviy hunarmandchilikning yo'q bo'lib ketgan turlarini, mahalliy markazlarini tiklash jarayoni ketyapti. Hozirgi kunda badiiy kulollik, kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik, an'anaviy to'qimachilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, do'ppido'zlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik turlari yaxshi rivojlanmoqda.

Tasviriy san'at. Tasviriy san'atning rivojlanishi mil. av. IV-asr – milodiy IV-asrlarda namoyon bo'ldi. Bu davrda nafaqat rangtasvir yoki haykaltaroshlik rivoji, eng muhim

– bu tasviriy san’at turlarining me’morchilik bilan uyg’u¹ lashganligini ko’ramiz. Ushbu davr haykaltaroshligi le gips, tosh kabi materiallarni o’zlashtirib, inson qiyofal (shohlar, ma’budlar, jangchilar, sozandalar, masxarabozl bolalar)ni gavdalantirgan. Dalvarzintepa devoriy rasmlari mavzularning xilma-xilligi va ularning mahorat bilan islanganiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Devoriy rasmlar haykaltaroshlikning bu davrdagi rivojlanishida diniy tushuchalar, turli etnomadaniy oqimlar katta ta’sir qilgan. Masalan, O’zbekistonning janubiy hududi haykaltaroshligi (Ayrитом frizi, Dalvarzintepadagi budda ibodatxonasi, Faytепа, Qoratepa) budda dini bilan bog’liq bo’lgan Gandhi haykaltaroshligi maktabi bilan aloqalar bor¹.

V–VI-asrlarda diniy e’tiqod va tasavvurlar bilan uzb bog’liq bo’lgan tasviriy san’atda ma’bularning haykalchilarini yasash keng tarqalgan. Bu haykalchalar O’zbekistonning turli hududlarida yashagan qadimgi odamlarning antropologik ko’rinishi, kiyim-boshlari, qurol-yarog’lari va boshqalar to‘g’risida tasavvur beradi.

VI–VIII-asrlar tasviriy san’atning taraqqiy etgan davrsifatida ajralib turadi. Bu davr tasviriy san’atida turli dinli bilan bog’liq mavzular o’z ifodasini topgan. Budrach, Afros yob devoriy suratlarida o’sha davr ruhi katta mahorat bila aks ettirilganini ko’rish mumkin. Islom dinining kirib kelish sekin-asta devoriy rasmlarni chekladi. Lekin tasviriy san’umuman yo’q bo’lib ketmadi. U o’zining aksini mayda plastikada, bezak san’atining tasvirlarida topdi.

XIV–XV-asrlar tasviriy san’atimiz tarixida Uyg’oni davri deb ataladi. Bu davr san’atining baravj rivoji Ami Temur va ma’rifatparvar temuriy hukmdorlar g‘amxo’rlig hamda rahnamoligi bilan izohlanadi. Temuғiylar davrida ayniqsa, miniatyura san’ati gullab-yashnadi. Miniatyurachi rassomlarning ijodida chuqur diniy falsafa, tasavvuf tushunchalari va g‘oyalari o’z aksini topdi. Bu jarayonda Behzod

¹ *Qarang:* U.X. Qoraboyev. Madaniyat masalalari. 2009, 256–260 betlar.

ijodi va u asos solgan maktab alohida o'rinni tutadi. Uning shogirdlari qatorida Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib kabilarni qayd etishimiz mumkin. Behzod va shogirdlari noyob san'at asarlari yaratib, o'z ijodi bilan butun dunyo tasviriy san'at madaniyatini boyitdi. Temuriylar davrida tasviriy san'atning faqatgina miniyatyura janri emas, mahobatli suratlarni bezatish san'ati, hukmdorlar, ularning oila a'zolari va safidoshlari suratlari, jang lavhalari, turli bazmlar tasviridan iborat boshqa yo'nalishlarning rivojlangani haqida ham ma'lumotlar mavjud.

XVI–XVII-asrlarda Buxoro, Samarqand, Shohruhiya shaharlarda kitobat san'atida ancha muvaffaqiyatlarga erishilgani. Bunga Mahmud Muzahhib, Chag'ri Muxassin, Muhammad Murod Samarqandiy ijodlari namuna bo'lishi mumkin.

XVIII–XIX-asrlarda madaniy hayotning keskin pasayishi kuzatiladi. Bu davrda yaratilgan qo'lyozmalar va ularga ishlangan suratlarda avvalgi badiiy nafosat ko'rinxaydi. Aksinchu, hind, qoshg'ar, eron tasviriy san'at maktablariga taqlid ortgani seziladi.

XX-asr boshida O'zbekistonda ilk dastgohli rangtasvir san'ati paydo bo'ladi. Uni rus rassomlari, Badiiy akademika filababari V.Vereshchagin, N.Karamzin, M.Zommer, S.Yudin, I.Bure, I.Kazakov va boshqalar olib kirishadi. Ularning surarlarda mahalliy mavzular, xarakterli etnik tipajlar, tarixiy obidalarni aks ettirgan manzaralar o'z ifodasini topgan edi.

Dastgohli rangtasvirdan tashqari kitob grafikasi, dastgohli grafika, haykaltaroshlik sohalari ham rivoj topdi. Masalan, dastgohli grafikada asosan portret va manzara janrlari rivojlandi. Mahobatli bezak haykaltaroshlik asarlari me'moriy majmualar tarkibiga kirib bordi. Bu davrda teatr rassomligi ham rivojlandi. 50-yillarda o'zbek tasviriy san'ati sohasida Ch. Ahmarov, O'. Tansiqboyev, N. Karaxan, R. Temurov kabilalar samarali ijod qilgan. Ular qatoriga R. Ahmedov, M. Saidov, N. Qo'ziboyev, T. Oganesov, Z. Inog'omov va boshqalar qo'shilgan. Ular maishiy va portret janrining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Bu davrda grafika san'ati va haykaltaroshlik ham rivojlandi.

XX-asrning 70–80-yillarida O‘zbekiston tasviriy san’yanada yuqori pog‘onalarga erishdi. Rassomlar ijodida milliylikka xos bo‘lgan ifoda vositalariga e’tibor, an’analav qadriyatlarga intilish kuchayadi. Milliylik bilan bir qator avangard yo‘nalishlari (simvolizm, abstrakt san’ati, eksprissionizm va boshqalar)ga qiziqish kuchayib bordi. Bu jaray o‘zbek rassomlari J. Umarbekov, M. To‘xtayev, B. Jalol A. Mirzayev, V. Oxunov kabilar ijodida o‘z aksini topdi.

Mustaqillik yillarida ijodiy izlanishlar yanada yusaldi, ravnaq topdi. Bu davr rangtasvir san’ati turli uslubli va yo‘nalishlari ko‘laming kengligi bilan ajralib turadi. Akademik realizm, dekorativizm, milliy romantizm, abstractionizm, instalyatsiya ko‘rinishlari ijodiy dunyoqarashni kengayganidan dalolat beradi. Mustaqillik yillarida uslubijihatdan o‘ziga xos rassomlar guruhi ham shakllandi. Ushbu davrda serqirra ijodkor rangtasvirchilardan R. Ahmedov N. Qo‘ziboyev, R. Choriyev, M. Nabihev, A. Ikromjonov B. Jalolov, S. Rahmetov, A. Mirzayev, N. Shin, V. Oxunov J. Umarbekov, S. Alibekov, A. Isayev, J. Usmonov, N. Shoail durahimovlarni aytishimiz mumkin.

1997-yilda O‘zbekiston Badiiy akademiyasining tashkiloti etilishi tasviriy san’atning rivojlanishida katta ahamiyat qoldi. Ega voqealardan biri bo‘ldi.

Ushbu yillardagi mahobatlari san’at rivoji ijodiy erkinlik badiiy merosimizning boy an’analariga murojaat qilish bilan bevosita bog‘liq. Bu davrda yangi ma’muriy-ijtimoiy insho’olar qurish, ko‘hna binolarni qayta ta’mirlash hamda yangi shahar ansamblarini barpo etish ishlarining jadallahish ketish mahobatlari rangtasvirchilar ijodida yangi vosita va imkoniyatlarni qidirib topishga bo‘lgan urinishlarni sezilarli darajad faollashtirdi. Mahobatlari san’at sohasida ijodiy izlanishlar oli borgan rassomlardan A. Aliqulov, O. Habibulin, «Sanoyi nafisa» guruhi, A. Buxorboyev, A. Ahmedshin kabi rassomlarni aytishimiz mumkin¹.

¹ Qarang: **U.X. Qoraboyev.** Madaniyat masalalari. 2009, 261–262betlar.

Shuningdek, mustaqillik yillarida ko‘plab tadbirlar, qalqaro ko‘rgazmalar, ko‘rik-tanlov, festivallar hamda anjumanlarning o‘tkazilayotgani tasviriy san’atimiz rivojida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Xorijlik ijodkorlar, san’atshunos olimlar va tanqidchilar ishtirokida Toshkent xalqaro badiiy ko‘rgazmasi doirasida, «Zamonaviy badiiy jarayon: dolzarb muammolar va yo‘nalishlar» mavzuida o‘tkazilgan ilmiyamaliy anjuman, Toshkent «Biyennale»si, «Shu aziz Vatan barchamizniki» mavzuida bo‘lib o‘tadigan an’anaviy respublika festivali tasviriy san’at muammolarini hal qilishga va ilvojlantirishga xizmat qilmoqda.

Musiqa san’ati. Musiqa san’ati ham o‘zbek xalqining eng qadimgi san’at turlaridan biridir. Asrlar mobaynida og‘zaki surzda avloddan-avlodga o‘tib kelgan musiqiy merosimiz ilovrlar osha saralanib, sayqallanib kelmoqda. O‘zbek musiqa merosi deganda biz mehnat va marosim qo‘shiqlaridan tortib doston, ashula, katta ashula va maqom kabi san’at namuna-larini nazarda tutamiz. Tarixiy manbalar qadimgi musiqa san’atimiz juda boy va katta tarixga ega ekanidan dalolat beradi.

O‘zbek xalqining turmush tarzi musiqa san’ati bilan bevonita bo‘g‘liqdir. «Alla», «Yor-yor», «O‘lan», «To‘ylar muborak», «Kelin salom», «Yig‘i» (marsiya) kabi qo‘shiqlar xalqimizning qadriyatlari sanalgan urf-odat va marosimlar bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.

Mehnat folklori o‘zbek xalqi musiqiy merosining beqiyos xuzinasini tashkil qiladi. Undan «Boychechak», «Sustxotin», «Xo‘sh-xo‘sh», «Laylak keldi», «Choy momo», «Mayda», «Charx», «Cho‘poncha», «Lola», «Navro‘z», «Qovun sayli» va boshqalar o‘rin olgan.

Mumtoz janrlarning eng qadimgilaridan biri dostonlardir. Ularning ijro etish usuliga ko‘ra ikki turi mavjud: Surxon-daryo, Qashqadaryo, Samarqand (ba’zan Toshkent, Naman-gan va boshqa) viloyatlarida do‘mbira, Xorazmda esa turli sozlar jo‘rligida ijro etiladigan turlaridir¹.

¹ *Qarang: U.X. Qoraboyev. Madaniyat masalalari. 2009, 266–268-betlar.*

Musiqa san'atimizning katta ashula yo'nalishi Farg'on vodiysi ahli tomonidan yaratilgan. Mazkur janr faqat muqiy bilimga ega hofizlar tomonidan ijro etilib, unda falsa yondashuvlar keng o'rinni olgan. Katta ashulalar orasida din kitoblardan olingan matnlar bo'yicha va erkin mavzuda ay luvchi, Sharq shoirlari g'azallariga (Navoiy, Fuzuliy, Bob Huvaydo, Mashrab, Muqumiy, Furqat) kuylanuvchi katta ashulalar keng tarqalgan.

Musiqiy janrlar orasida eng mukammal janr – bu maqolalardir. Hozirgi kunda o'zbek musiqa san'atida Buxoro shah maqomi, Xorazm maqomi, Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari hamda cholg'u maqomlari amaliyotda saqlanib keta moqda.

Maqom, katta ashula, ashula, doston kabi mumtoz muqiy janrlarning yuzaga kelishi, umuman, musiqa san'atini barcha yo'nalishlari doimo folklorغا tayanib kelgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, XVI-asr oxiri – XVIII-asda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining yuzaga kelishi musiqa san'atida mahalliy (lokal) xususiyatlar ustuvorlashishi olib keladi. Natijada, Buxoroda mukammal «Shashmaqom» (1. Buzruk; 2. Rost; 3. Navo; 4. Dugoh; 5. Segoh; 6. Iroq) Xivada Xorazm maqomlari (1. Rost; 2. Buzruk; 3. Navo; 4. Dugoh; 5. Segoh; 6. Iroq, ayrim manbalarda o'zgarishli kiritilgan), Qo'qon xonligi doirasida (Chorgoh, Bayot, Shalnoz-Gulyor, Dugoh Husayniy) ashula yo'llari shakllangan.

Turkistonning Rossiya tomonidan istilo qilinishi natijasida musiqa san'atimizning ayrim an'analarini katta yo'qotishlarga yuz tutdi. Buning oqibatida milliy san'atimiz yevropachi musiqa janrlari, ijrochiligi va uslublari bilan «boyidi».

XX-asrda o'zbek musiqa va qo'shiqchilik san'atida individuallik emas, balki «hammaboplilik» alomatlariga urg'u berila boshlandi. Bu nuqson keyinchalik mualliflik qo'shiqlari dan kantata, opera, oratoriya, musiqali drama, komediyalari ga ko'chib o'tadi.

Turkiston xalq konservatoriysi (1918-yil), musiqa texnikumi (1924-yil), davlat konservatoriysi (1936-yil) va boshqa musiqa san'atiga ixtisoslashgan ta'limga muassasalarining

ishkil etilishi musiqa san'atining rivojida turtki bo'ldi. 50-yillarda T. Jalilov, Y. Rajabiy, F. Sodiqov, K. Jabborov, N. Hasanov, I. Ikromov, S. Kalonov, G'. Toshmatov, T. Sodiqov, D. Zokirov, S. Yudakov, M. Leviyev, A. Muhammedov singari o'zbek musiqa san'atini dunyoga tanitgan bastakorlar yetishib chiqdi.

Bu davrda o'zbek musiqali dramasida ham e'tiborga ozovor asarlar paydo bo'ldi. T. Jalilovning «Muqimiy», «Tohir va Zuhra», «Surmaxon», M. Leviyevning «Oltinko'l», «Toshibolta oshiq», S. Boboyevning «Vatan ishqisi», A. Muhammedovning «Jon qizlar», I. Akbarovning «Momo yer» asarlari ana shu davr mahsulidir.

50-yillar va keyingi davrlarda opera janri ham rivojlandi. Bu jarayonda S. Yudakovning «Maysaraning ishi», T. Sodiqov, Y. Rajabiy va B. Zeydmanlarning «Zaynab va Omon», T. Jalilov va B. Brovsinlarning «Tohir va Zuhra», I. Akbarovning «So'g'd elining qoploni», S. Boboyevning «Hamza», M. Burxonovning «Alisher Navoiy» operalari yaratildi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'zbek an'anaviy musiqa singari e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, urfadatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ham ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qadimiy milliy musiqaning boy badiiy-tasviriy vositalari bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. O'zbek musiqa san'ati shu kunga qadar ikki asosiy qatlama rivojlanib kelgan bo'lib, biri «xalq musiqasi» yoki «musiqiy folklor», ikkinchisi «mumtoz-kasbiy» yoki «ustozona» musiqa deb yuritiladi.

Zamonaviy o'zbek musiqa san'ati o'ziga xos izlanishlar, yutuqlar va ijodiy muvaffaqiyatlarni vujudga keltirgani bilan ahamiyatli. Bu davrda an'anaviy uslubda M. Uzoqov, I. Sultonov, K. Otaniyozov, O. Alimaxsumov, O. Otaxonov, D. Imomxo'jayev, F. Mamadaliyev, B. Davidova; zamonaviy milliy yo'nalishda K. Rahimov, Sh. Jo'rayev, G'. Yoqubov; milliy estrada xonandalari B. Zokirov, F. Zokirov, N. Abdullaeva; sozandalar T. Alimatov, G'. Hojiqulov, A. Ismoilov; musiqali drama, opera va balet janrida L. Sarimsoqova,

H. Nosirova, S. Qobulova, K. Zokirov, G'. Abdurahmon N. Ahmedova, S. Yarashev, E. Yo'ldoshev, N. Hoshimov; riyorlar M. Ashrafiy, F. Shamsiddinov, D. Abdurahmon. Z. Haqnazarov kabi san'at darg'alari o'zbek musiqa san'at rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

Musiqa san'atimizning rivojida o'tkazilayotgan tajanjuman, ko'rik-tanlov, festival va tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. «O'zbekiston – Vatanim manzil» qo'shiqlar ko'rik-tanlovi, «Yangi avlod» bolalar festivali, «Nihol», «E'tirof» ko'rik-tanlovlari, «Sharq taronalari» musiqa festivali va boshqa ko'pgina tadbirlarning tashkil etili. Musiqa san'atimizni yanada ravnaq toptirishdan iborat. Ayniqsa, har ikki yilda bir marotaba o'tkazilayotgan «Sharq taronalari» xalqaro festivali musiqa san'atimiz tarixida ullavoqeaga aylanib bormoqda desak, xato bo'lmaydi. Mazluman'anaviy musiqa festivali o'zbek mumtoz musiqa madaniy tini jahonga kengroq tanitishda, ayni paytda dunyo musiqa madaniyati yangiliklarini yurtimizda namoyish etishga kamissa qo'shmoqda. Festival xalqlar o'rtasida madaniy xalqaro xillikni targ'ib etish vositasiga aylanib, Sharq va G'arbiy dunyosi san'at namoyandalari va ixlosmandlarini o'ziga jamiyat etayotgani, uning xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lib borayotganidan dalolat beradi.

Bu festival jahon ahlining o'zaro madaniy muloqoti bo'lgan hayotiy ehtiyojini, har bir xalq, har bir millat ruhini azaldan yashab kelayotgan yaxshilik, go'zallik va nafosatini intilish hissini ro'yobga chiqarishda beqiyos vosita bo'lib xalqaro qilmoqda.

Teatr san'ati. O'zbek an'anaviy teatr san'atining dastlabki shakllari ibtidoiy jamoa davridayoq taqlidiy raqslar, tabii kuchlariga topinish natijasida yuzaga kelgan marosimlari doirasida paydo bo'lgan. Birinchi teatr shakllari tabiatga, qurilishga va hayvonlarga, ruhlarga bo'lgan e'tiqodlar, zardo'shtiylik bilan bog'liq urf-odatlar, marosimlar bilan chatishib ketgan.

Mutaxassislar fikricha, mil. av. VII–VI-asrlarda Turan zaminda zardo'shtiylik bilan aloqador ikki toifa – kulgili va qayg'uli tomoshalar shakllangan.

Keyinchalik makedoniyalik Iskandar tomonidan istilo qilishi natijasida, bu hududlarga yunon madaniyati kirib kelgan va teatr san'atiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Shuni aytish lozimki, yunon madaniyati asosan Baqtriya shaharlari madaniyati bo'lib qolgan. Xorazm, Sug'diyona, Farg'ona yerlarida teatr san'ati an'anaviy shaklda rivojlangan. Uning shakllanishida Eron, Hindiston, Xitoy san'ati bilan o'zaro aloqalar katta o'rinnegallagan. Manbalarga ko'ra, mil. av. I-asr III. IV-asrlarda Kushon davlatida budda dini bilan bog'liq turli teatrlashgan tomoshalar mavjud bo'lgan.

Turon zaminiga arab-islom madaniyatining kirib kelishi qohining nafaqat ijtimoiy, balki madaniy hayotiga, xususan, teatr san'atiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Shaharlarda qadimgi tomoshagohlar buzib tashlandi, teatr ko'proq og'zaki jondga, badihago'ylikka asoslandi.

Temuriylar davriga kelib teatr san'ati yaxshi rivojlanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, turli shaharlarda maxsus tomoshagohlar, tarabxonalar, sayilgohlar bo'lib, bu erda turli teatrlashtirilgan tomoshalar uyuştirilib turilgan. Tomosha san'ati temuriyzoda hukmdorlar Mirzo Ulug'bek va Husayn Boyqaro davrida, ayniqsa, taraqqiy topadi. Bu davrda G'iyos masxara, Abdullo Devona, Abulvose' Munshi, atoqli voiz Husayn Koshify kabi teatr san'ati ustalari ijod qilib, tomosha san'ati rivojiga o'z hissalarini qo'shgan.

XIV–XV-asrlarda va XVI-asrning boshida teatr san'ati quyidagi yo'naliishlarda shakllandi:

masxara (xalq komediyalari ijrochiligi);

taqlid (hayotiy voqealarni kulgili qilib ko'chirish);

zarofat (badiha yo'li bilan so'z va bayt to'qib aytishdagi bellashuvlar);

qissago'ylik, maddohlik (yakka ijrochilarining chiqishlari);

qo'g'irchoq o'yin.

An'anaviy teatr tomoshabinlarga turlicha ta'sir qilgan: kulgi uyg'otgan, hayotga tanqidiy munosabatda bo'lishga o'rnatgan, nozik his-tuyg'ular paydo qilgan.

Shayboniylar davrida teatr san'ati, umuman san'atni barcha yo'nalishlari inqirozga uchraydi.

XVIII-asr oxiri – XIX-asr boshiga kelibgina an'anav teatr sohasida o'ziga xos ko'rinishlar paydo bo'la boshlaydi. Masalan, Buxoro amirligida masxaraboz, qo'g'irchoqboraqqos va boshqa o'yinchilarning uyushmalari vujudga kelgan bo'lsa, Xorazm an'anaviy teatridda to'kma va xatarli o'y shakllangan. Farg'ona vodiysi va Toshkentda qiziqchilik va skiyi san'ati taraqqiy etgan. Ma'lumki, XIX-asrning ikinci yarmida Qo'qonda Zokir eshon (30 ga yaqin qiziqchi) Buxoroda To'la masxara (20 ga yaqin masxaraboz uyushga kabi to'dalar shuhrat qozongan.

Rossiya mustamlakachiligi davrida Turkiston o'lkasi rus, keyinroq tatar, ozarbayjon teatr madaniyati kirib keldi. Yangi kirib kelgan teatr madaniyatini o'zlashtirish uning asosida yangi ko'rinishdagi milliy teatrni yaratish harakatini jadidlar, ya'ni Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy Hamza kabi marifatparvarlar boshqaradi. Bu jarayonga, ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiyning qo'shgan hissasi juddikatta. 1914-yil Samarqandda Behbudiy boshchiligidida tashketilgan birinchi o'zbek havaskorlik teatr guruhi uning «Pandarkush» dramasini sahnalashtirish bilan ish boshladi. Bopyesa Toshkentda Abdulla Avloniy teatridda ham sahnalash tirilgan.

Shu tariqa O'zbekistonning boshqa shaharlarida hasokin-asta teatrlar tashkil qilina boshlangan. Bu teatrlardendi havaskor yoshlari emas, Moskva, Boku kabi shaharlardashkil etilgan teatr studiyalarida ta'lim olib qaytishgan professional o'zbek aktyorlari ijod qilishni boshlagan.

30-yillarda Toshkentda M.Gorkiy nomidagi rus drama teatri (1934-y.), Respublika Qo'g'irchoq teatri (1939-y.), O'zbek davlat opera va balet teatri (1939-y.), Davlat komediya teatri esa Muqimiy nomidagi respublika musiqali drama va komediya teatriga aylantirilgan (1939-y.) holda faoliyat yurita boshladi.

50–60-yillarda Abdulla Qahhorning «Shohi so'zana», Maqsud Shayxzodanining «Mirzo Ulug'bek», U. Shekspirning

«Yuliy Sezar» va «Qirol Lir» asarlari sahnalashtirildi va yirik ijodiy yutuqlar sifatida baholandi.

1976-yil «Ilhom» yoshlar tajriba teatr studiyasi tashkil qilindi. 1986-yil Respublika satira teatri vujudga keldi va unga Abdulla Qahhor nomi berildi.

Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlar, jamiyat tarixiyati haqidagi yangilangan tushunchalar, tarix va zamonaviylik muammolari bugun ushbu teatrlar e'tiborida turibdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998-yildagi «O'zbek teatr san'atini rivojlantirish to'g'risidagi» Farmoni milliy teatr san'atining istiqbolini belgilab bergen muhim hujjat bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Qaroriga (1998-yil, 22-may) asosan respublikadagi mavjud 37 ta teatrni birlashtiradigan yagona tizim vujudga keldi. «O'zbekteatr» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi o'z faoliyatini milliy tomosha va teatr san'atining eng yaxshi an'analarini asrab-avaylashga hamda boyitishga xizmat qilmoqda.

O'zbek teatr san'ati ayni damda tomoshabinlarga sidqididan xizmat qilish yo'lida tinimsiz izlanishda. O'zining shonli tarixiga va albatta, ertasiga ega o'zbek milliy teatr san'ati bugungi kunda taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'turilish yo'lida dadil odimlamoqda.

Raqs san'ati. O'zbek raqs san'ati ham qadim va boy tarixga ega. Samarqand, Buxoro, Toshkent raqqosalari IV VIII-asrlardayoq butun Sharq mamlakatlariда mashhur bo'lgan. Zamonaviy o'zbek raqsining tipologiyasini gavdamning nafis harakatlari, qo'l, barmoq, yelka, bel harakatlari ning uyg'unligi tashkil qiladi.

O'zbek raqsi ikki turga bo'linadi: an'anaviy mumtoz raqs va xalq raqsi. An'anaviy mumtoz raqs Farg'ona («Katta o'yin»), Buxoro («Maqom raqsi»), Xorazm («Maqom ufori») maktablaridan iborat. O'zbek an'anaviy raqsida lirika, osmon va tabiat hodisalari, mehnat mavzulari, o'lim qayg'usi, baxt va baxtsizlik ifodalari aks ettiriladi.

Xalq raqsı o‘z rang-barangligi bilan ajralib turadi. U turjanr va mavzularga boy. Uning mazmunini inson va tabiatning o‘zaro munosabatlari, mehnat va turmush mavzular tashkil qiladi. Xalq raqsi ikki turga bo‘linadi: yilning ma’lum davrida ijro etiladigan raqslar (bahorni qarshilash, hodig‘ish, birinchi egatni olish va h.k.) va bo‘sh vaqtarda ijro etiladigan raqslar. Xalq raqslarida musiqa asboblari o‘rniga yog‘och qoshiq, qayroq toshlardan foydalaniladi, imo-ishon mimika qo‘llaniladi.

Birinchi o‘zbek davlat konsert-etnografik ansambl 1924-yilda tuzildi. Uning asoschilari Yusufjon qiziq Shakarjonov doirachi usta Olim Komilov va uning shogirdi Tamaraxonim bo‘lishgan. 1936-yilda esa birinchi o‘zbek ashula va raqs ansambl tuzildi. U keyinchalik «Shodlik» nomi bilan atalgan. Bu ansamblning rivojlanishida xoreograflar Usta Olim Komilov, I.Oqilov, L.Petrosova, Ye.Baranovskiy, M.Turg‘unboyeva, keyinchalik A.Mo‘minov, Q.Mo‘minovlar katta hissa qo‘shishgan.

1957-yilda mashhur raqqosa M. Turg‘unboyeva tomonidan «Bahor» o‘zbek xalq raqs ansambl tashkil qilindi. Unin baletmesterlari: M. Turg‘unboyeva (1957–1978), Q. Mirkarmova (1979–1988), R. Sharipova (1988–1990), M. Ergasheva (1990-yildan) bo‘ldi. 1958-yilda esa «Lazgi» Xorazm ashula va raqs ansambl tuzildi. Bu raqs ansamblari o‘z ijodi bilan zamonaviy o‘zbek raqs san’atining ravnaqiga katta hissa qo‘shishdi.

XX-asrda o‘zbek madaniyatiga balet san’ati ham kirib keldi. 1929-yildan O‘zbek Davlat musiqali teatri, uning qoshida tashkil qilingan raqs studiyasida o‘zbek raqqoslari Yevropa klassik baleti bilan tanishdi. 1933-yilda respublika balet maktabi ishga tushdi. 1933-yilda birinchi milliy balet-pantomimasi «Paxta» baleti sahnalashtirildi. 1939-yilda Davlat musiqali teatri O‘zbek Davlat opera va balet teatriga aylantirildi. (1947-yildan Alisher Navoiy nomida).

O‘zbek baleti tarixida «Shohida» baleti (baletmeyster A. Tomskiy, Usta Olim Komilov, M. Turg‘unboyeva), «Gulandom» (baletmeyster I. Arbatov, Tamaraxonim, Usta Olim

Komilov, V. Gubskaya), «Oqbilak» (baletmeyster Usta Olim Komilov, M. Turg'unboyeva) spektakllari ilk qadamlar sifatida tanildi.

O'zbek balet san'atini rivojlantirishda B. Qoriyeva, B. Zav'yaylov, V. Proskurina, K. Soatov, I. Yusupov. R. Sultonov, A. Abdurahmonov kabi san'atkorlar katta hissa qo'shishdi.

Kino san'ati. O'zbek kino san'atining yuzaga kelishida birinchi o'zbek kinooperatori Xudoybergan Devonovning hissasi katta. U milliy urf-odatlar, xalq turmushi, mehnat yunushlari, quvonch-tashvishlarini jonli lavhalarda muhrlagan kino san'atimizning asoschilaridan biri hisoblanadi.

Kino san'atimizning faoliyati 1919-yilda Respublika xalq maorifi komissarligi qoshida tashkil etilgan kinobo'limida boshlanadi. 1923-yilda bo'lim o'rniqa Turkiston Davlat kino tashkiloti («Turkgoskino») yuzaga keldi. 1924-yilda esa O'rta Osiyoda birinchi kino tashkiloti «Buxkino» tashkil bo'ldi. 1925-yilda bu ikki tashkilot, «Buxkino» va «Turkgoskino» birlashtirilib, «O'zbekdavlatkino» tresti («O'zbekgoskino»), uning qoshida esa «Sharq yulduzi» kino fabrikasi oehildi.

Dastlab «Mirzacho'ldagi paxta», «Moy ishlab chiqarish nanoati», «Tabiat va sog'liq», «O'zbekiston ayoli», «Eski shaharlar», «O'zbekistonda xalq sayli» kabi o'zbek xalqi hayoti tasvirlangan xronikal kino rivoj topdi.

XX-asrning 30-yillari kino san'atida ovozsiz kino davri hisoblanib, bu davr o'zbek kinosining shakllanish va rivojalish davri bo'ldi. Kino san'atimiz rivojiga rus rejissyor va aktyorlari bilan birga N. G'aniyev, K. Yormatov, R. Pirmuhamedov, S. Xo'jayev, E. Hamroyev, Y. A'zamov, M. Qayumov kabi o'zbek ijodkorlari ham salmoqli hissa qo'shishdi. 1937-yilda yaratilgan birinchi o'zbek ovozli «Qasam» (rej. A. Usolsev) badiiy filmi madaniy hayotda muhim voqeа bo'ldi. «Qasam» filmida ilk bor chuqur va hayotiy yoritilgan ayol obrazi berilgan. Birinchi ovozli filmlar qatorida «Azamat» (rej. A. Kordyum), «Asal» (rej. M. Yegorov, B. Kazachkov) singari filmlarni ham keltirish mumkin.

1941–1945-yillarda rus kinematograflari bilan hamkorlikda o'zbek rejissyorlari bir qator filmlar suratga olishdi.

Ular tomonidan suratga olingan «Tohir va Zuhra», «Nasrid dinning sarguzashtlari» (1945, 1946, rej. N. G'aniyev), «Alisher Navoiy» (1947, rej. K. Yormatov) kabi filmlar o'zbek kinematografiyasining oltin fondidan o'rinni oldi.

50-yillarda o'zbek kinematograflari safiga yangi avlodni vakillari kelib qo'shildi (rejissyorlar U. Nazarov, Sh. Abbosov, A. Hamroyev, D. Salimov, E. Eshmuhamedov, Q. Kamolova; operatorlar H. Fayziyev, D. Fathulin, L. Travitskiy, G. Eftimovskiy; rassomlar E. Kalantarov, Ye. Puigin, N. Rakhimboev). Ularning mehnati samarasini sifatida «Boy ila xizmatchi», «Qutlug' qon», «Maftuningman», «Furqat», «Fazandalar» kabi filmlar yuzaga keldi.

60-yillarda o'zbek kinosi yanada yuqori pog'onaga ko'tarilib, filmlarning janr va mavzusi sezilarli darajada kerishdi. Tarixiy va sarguzasht, film-spektakllar, zamonaviy mavzudagi filmlar kinostudiya repertuarini boyitdi.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, inson ichki dunyosini ochish beruvchi filmlar kino rivojining asosiy tendensiyasiga aylanadi. Zamonaviy filmlarda qahramonlarning kundalik hayoti, orzu-umidlari, muhabbat, odob-axloq muammolari ko'tarildi. «Mahallada duv-duv gap» (1960, rej. Sh. Abbosov), «O'tgan kunlar» (1969 y., rej. Y. A'zamov), «Osiyo ustida bo'ron» (1969), «Inqilob chavandozlari» (1964, 1968, rej. K. Yormatov), «Ulug'bek yulduzi», «Natashaxonim» (1965, 1966, rej. L. Fayziyev) kabi ko'pdan-ko'p filmlar o'zbek kinosi fondidan joy oldi.

70-yillar kinosi janr va mavzular ko'laming kengligi bilan ajralib turadi. Bu davrda ishlangan «Qora kon'sulning halokati» (1970, rej. K. Yormatov), «Yoz yomg'iri» (1970, rej. A. Kabulov), «Sevgi fojiasi», «Abu Rayhon Beruniy», «Olovli yo'llar» (1971, 1974, 1975–1984, rej. Sh. Abbosov) ana shunday filmlar jumlasidandir.

80-yillar o'zbek kinosiga yangi aktyorlar avlodni qo'shildi. Bu avlod safida O'. Alixo'jayev, M. Rajabov, Sh. Ergashev, P. Saidqosimov, R. Sa'dullayev, R. Zokirova, T. Shokirova, B. Zokirov, D. Qambarova, O. Bakirova, D. Egamberdiyeva bor edi. Ular ishtirokida «Alibobo va qirq qaroqchi» (1980

(rej. I. Fayziyev), «Parol'» «Regina» mehmonxonasi» (1984, rej. Y. A'zamov), «Kelinlar qo'zg'oloni» (1984, rej. M. Abzalov), «Bo'ysunmas» (1983, rej. A. Kabulov) kabi turli mavjudagi filmlar suratga olindi.

Mustaqillik yillarda ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar tufayli o'zbek kinosida ham keskin burilishlar yuz berdi. Shu davrda «Inson», «Yulduz», «Ilymon», «Vatan», «5-studiya» kabi mustaqil studiyalar yuzaga keldi. Natijada, kino sohasi yana ham kengaydi. Uzbek kinematografiyasida bolalar kinosi, ilmiy ommabop va hujjatli filmlar, multiplikatsion kino ham muhim o'rinnegallay boshladi.

Shuni e'tirof etishimiz lozimki, kino san'atimiz o'zining milliy qiyofasi bilan dunyoga chiqa oldi. Sh. Abbosov, R. Muhammadjonov, Y. Roziqov, Z. Musoqov, J. Qosimov va boshqa mahoratli rejissyorlarimiz kinofilmlari ko'pgina xorij festivallarida ishtirok etib, mukofot va sovirlnlarga sazovor bo'ldi.

Sirk san'ati. Arxeologik topilmalar, qadimgi devoriy rasmilar yurtimizda sirk san'ati ham juda qadimdan rivojlanganini ko'rsatadi. Tuproqqa'l'a, Bolaliktepa, Xolchayon, Dalvarzintepa, Afrosiyobdan topilgan masxarabozlarning haykalchalari qadimgi sirk san'atining noyob namunalaridir. «Avesto»da bayramlar, sayillarda chavandoz, masxaraboz, polvonlar ham ishtirok etishib, chavandozlik mashqlari, tuyani boshqarish san'ati va turli o'yinlar orqali tomoshalar ko'rsatishgani haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida o'tkazilgan katta tantanalarda dorbozlik o'yinlari namoyish qilinib, chavandozlar mashqlar bajargan, muallaqchi, nayrangbozlar o'z hunarini ko'rsatgan. Shu davrga oid qo'lyozmalarda, masalan, Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida, Vosifiy asarlarida shunday ma'lumotlar uchraydi.

XVII–XVIII-asrlarda turkistonlik sirk ustalari hatto Rossiya shaharlarida o'z tomoshalarini ko'rsatishgan. XX-asr boshigacha Xorazm, Buxoro saroylarida hayvonlar ishtirok idagi sirk tomoshalari ham keng tarqalgan.

O'zbek sirkining rivojiga dorboz Toshkenboyevlar, chavandoz Zaripovlar, ot ustida turli murakkab mashqlar bajar-

ruvchi Xo‘jayevlar, muallaqchi Madaliyev-Ro‘zixo‘jayevlar qiziqchi, masxaraboz Yusupov va boshqalar katta his qo‘shtganlar. O‘zbekistonda sirk san’ati avloddan-avlodi o‘tib, saqlanib kelmoqda. O‘zbek sirk ustalari turli mamlakat larga ijodiy safarlarga chiqib, o‘zbek sirk san’atini jahon-namoyish etmoqda.

Mustaqillik davrida zamonaviy o‘zbek sirk san’ati il kita yo‘nalishda rivojlandi: professional va an’anaviy sirk Professional sirk namunalari Toshkent sirk maydonida va «Sahnadagi sirk» ko‘chma jamoalari tomonidan namoyis etilsa, an’anaviy sirk respublikamizda keng tarqalgan bo‘lib asosan, oilaviy guruhlar va boy an’analar bilan shakllari moqda. Milliy o‘zbek sirk san’ati qisqa vaqt ichida ravna topdi va xalqaro sirk maydonida munosib o‘rin egalladi.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Badiiy madaniyat nima?
2. Ijtimoiy-madaniy faoliyat va xalqning badiiy madaniyat o‘rtasidagi aloqadorlikni izohlab bering.
3. Xalq badiiy madaniyatining evolyutsiyasi haqida nima larni bilasiz?
4. Mustaqillik davrida madaniyat va san’atning rivojlanishi ga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, qabul qilingan qarorla to‘g‘risida yozma referat tayyorlang.



Tayanch so‘z va iboralar

San’at turlari, musiqa san’ati, amaliy san’at, raqs, teatr, tasviriy ijod, sirk, doston, katta ashula, murakkab shakllar, ashula, cholg‘u kuylar, maqomlar, badiiy san’at.

3.2. Madaniy hordiq faoliyati.

Xalqimizda «Vaqting ketdi – naqding ketdi», degan gap bor. Darhaqiqat, vaqtdan oqilona foydalana olgan kishilar gina hayotda ko‘p narsaga erishadilar, jamiyat uchun foydali ish qilib, munosib nom qoldiradilar. Bo‘sh vaqtdan oqilona

foydalananish xayrli ishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'sh vaqt tushunchasi nisbiy bo'lib, uni «erkin vaqt» deb ham atash mumkin. Chunki insonning kundalik mehnatidan turmush tashvishlaridan xoli bo'lib, madaniy dam olishi bo'sh vaqtdir.

Bo'sh vaqt – dam olish, charchoq chiqarish, ma'nан va jismonan rivojlanish uchun sarflanadigan vaqt. Undan qanday foydalananish har kimning o'z ixtiyorida. Bo'sh vaqtda bilim va malaka oshirish, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, sport va havaskorlik ijodiyoti bilan shug'ullanish, madaniy hordiq chiqarish, sayr qilish kabi ko'plab faoliyatlar bilan mashg'ul bo'lish mumkin.

Agar kishilarning kundalik (24 soat) umumiy vaqt byudjetini to'rt qismga bo'lsak, uning bir qismini ish vaqtiga (7–8 soat), ikkinchi qismini – bo'sh vaqt (4–5 soat), uchinchi qismini – uyqu (7–8 soat), qolgan qismini boshqa zaruriy faoliyatlar – ishga borish uchun sarflanadigan vaqt (transportda, piyoda) va hokazolar (4–5 soat) tashkil qilar ekan.

Bo'sh vaqt miqdoriga ko'ra dam olish, haftalik va yillik dam olish kunlari, bayram kunlari va boshqalarga bo'linadi.

Kundalik dam olish – bir kun davomida, ya'ni ish vaqtiga tugagandan keyingi faoliyatni o'z ichiga oladi. Kundalik dam olish ichiga uning keng tarqalgan shakllari – toza havoda sayr qilish, radio va televideniye dasturlarini eshitish va tomosha qilish, kitob mutolaa qilish, badan tarbiya bilan shug'ullanish kabilarni kiritish mumkin.

Haftalik dam olish – shanba va yakshanba kunlari bajariладиган faoliyatларни о'з ichiga oladi. Bu dam olish kunlari tavsiya etиладиган faoliyatларга шаҳар ташқарисидаги dam olish maskanларida va tabiat qo'ynida hordiq chiqarish, qarindosh-urug', yoru do'stlardan xabar olish, tomorqa ishlari bilan shug'ullanish nazarda tutiladi. Kundalik va haftalik dam olish vaqtining mazmunli va maroqli o'tishida madaniyat va san'at muassasалари hamda sport to'garakлari faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Odatda xursandchilik, shodlik va quvonchga boy olish lahzalari bayram kunlari namoyon bo'ladi. Unga oldi dan tayyorgarlik ko'riladi, eng yaxshi liboslar kiyiladi, lazatli taomlar tayyorlanadi. Aynan shu kunlarda televideniye, radio, madaniyat va san'at muassasalari o'zlarining eng yaxshi dasturlarini namoyish etadi.

Har yilda bir marta dam olish – har yil qonuniy ravisda haq to'lanib, hordiq chiqarishga imkoniyat beruvchi ta'tillardir. Bunga sog'likni tiklash uchun sanatoriylar va hatgohlarda davolanish, dam olish kabilalar kiradi.

Bo'sh vaqt shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun bebaho ne'matdir. Chunki bo'sh vaqt ijtimoiy boylik hisoblanib, shaxs ma'naviyatining yuksalishi uchun xizmat qiladigan Pirovard natijada bo'sh vaqt mehnat unumdorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Agar inson qanchalik yaxsida unumli mehnat qilsa, shunchalik samarali va mazmunli dam olishga ehtiyoj sezadi. O'z navbatida shu narsa e'tibor molikki, yaxshi hordiq chiqara olmagan kishi ko'ngildagide mehnat qila olmaydi. Shunday ekan, bo'sh vaqtdan samarali foydalanish kishilarning mehnat jarayonida sarf bo'lga kuch-quvvatini tiklash, sog'lig'ini mustahkamlash, ruhiyatini tetiklashtirish demakdir.

Fan-texnika taraqqiyoti ijtimoiy hayotimizning ajralma qismiga aylanib, qo'l mehnatining mexanizatsiyalashuvi natijasida bo'sh vaqt tobora ko'payib borayotgan hozirgi paytda aholining madaniy dam olish faoliyatini tashkil etish muhim masalalardan biriga aylandi. Binobarin, bo'sh vaqt zamiridagi shaxs va butun jamiyatning rivoji, kishilarning ma'naviy hamda jismoniy sog'lom bo'lishi, ular hayotini yanada mazmunli va rang-barang qilish uchun cheksiz sharoitlar mavjud. Bu esa, o'z navbatida, dam olish madaniyatini yuksaltirish imkonini bermoqda.

Dam olish madaniyatini yuksaltirishdan asosiy maqsad – kishilarning madaniy hordiq chiqarishlarini ta'minlash bilan birga, ularning har tomonlama ravnaq topishiga ko'maklashishdan iboratdir.

Sotsiologlarning hisob-kitoblariga ko'ra, asosiy ishdan ishqari shug'ullanish mumkin bo'lgan faoliyat turlari 500 turga yetar ekan.

Madaniy dam olish va bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishning turlari va imkoniyatlari shunchalik ko'PKI, ularni maxsus turkumlash kerak bo'ladi. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish va madaniy dam olish shakllarini shartli ravishda turkumlarga bo'lish mumkin. Har bir turkumda dam olish shakllari murakkablashib, samaradorligi ortib boradi.

Birinchi turkumga dam olishning eng oddiy shakllari kam harakatli hordiq chiqarish, charchoqni tarqatish faoliyatlari kiradi. Bunday passiv dam olishga ishdan keyin uyda divan, karavotda yotib charchoq chiqarish, ko'cha, xiyobon-hundagi o'rindiqlarda o'tirib hordiq chiqarish, ochiq havodagi sayr qilish, mehmonga borish kabilalar kiradi. Bu hordiq chiqarishni «faoliyatsiz dam olish» deyish ham mumkin.

Ikkinci turkum dam olish shakllari madaniy-ma'naviy vositalar, ya'ni kitob, gazeta, jurnallarni mutolaa qilish, radio tinglash yoki televizor ko'rish, teatr, kinoteatrлarda spektakl yoki film tomosha qilish orqali hordiq chiqarish kabilardir.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga ma'naviy boylik sifatida o'tib kelayotgan an'anaviy dam olish usullari mavjud. Jumladan, ko'ngil yozish tadbirlari. Bu tadbirlarda asosan insonning mehnat faoliyatidan keyingi ham jismoniy, ham ruhiy charchog'ini chiqarish maqsad qilib qo'yiladi. Bularga: choyxo'rlik, oshxo'rlik, harifona (harfana, halfana), sayr, sayil – dala sayli, tog' sayli, hog' sayli, gul sayli, suv sayli, do'stlar davrasasi, suhbat va shukabilar kiradi. Bunday tadbirlarda inson ko'ngil yozib, charchoqlarini ma'lum darajada unutadi, kayfiyati ko'tariladi.

Ma'rifiy-hordiqiy tadbirlarlarda dam olish madaniyatining asosan ma'rifiy jihatiga e'tibor qaratiladi. Bunda maxsus bilim, tajriba, mushohada kabi aqliy jarayonlar bilan bog'liq xususiyatlar talab etiladi. Bo'sh vaqtida hayot uchun zarur bo'lgan bilim, malaka, tajribalarni dostonxonlik, ertakxonlik, lofchilik, topishmoqtoparlik, maqolbilarlik, mushoira, bahribayt, munozara, aytishuv, masalchilik, kitobxonlik,

g‘azalxonlik, ruboixxonlik, qasidaxonlik, chistonxonlik
shu kabi ma’rifiy tadbirlar orqali olish mumkin.

Bo’sh vaqtida sevimli ijodiy mashg‘ulot bilan shug‘ul
nish an’analari ham mavjud. O’zbek xalq an’anaviy ijod
dam olish turlarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Og‘zaki ijod – baxshi-shoirlik, askiyachilik, ertakchilik,
lofchilik kabilalar.

2. Musiqa-qo’shiq – musiqa ijro qilish, terma, qo’shalla,
yalla, laparlar ijro etish.

3. Teatr-tomoshaviy ijod – masxarabozlik, qiziqchilik
dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, ko‘zboylog‘ichlik va hokazo.

4. Amaliy san’at – tikish, to‘qish, kashtachilik, kulolchilik,
misgarlik, o‘ymakorlik va shu kabilalar.

Bayram-marosim hordig‘i. Hayotdagi muhim voqealarni
sanalarni nishonlash jarayonida dam olish. Bayram-marosim
hordiqlarini ham o‘z navbatida quyidagicha tasnif qilamiz:

1. Tabiat bilan bog‘liq mavsumiy bayram-marosimlar
«Navro‘z», «Sumalak bazmi», «Boychechak», «Lola sayli»
«Qizil gul sayli», «Tut sayli», «Suv sayli», «Qovun sayli»
«Anor sayli», «Uzum sayli» va boshqalar.

2. Inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar – «Sul
yunchi», «Ismlash», «Beshik to‘yi», «Ilk qadam», «Sunni
to‘yi», «Muchal yoshi», «Nikoh to‘yi», «Payg‘ambar yoshi»
va hokazo.

3. Diniy marosimlar – Ro‘za hayiti, Qurban hayiti, Mav
lud va boshqalar.

Bayramlar qadim davrlardan boshlab insoniyat hayotining
eng muhim va ajralmas qismiga aylanib qolgan. Ularsi
hayotni mutlaqo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bayramlar xalq
hayotining eng yaxshi va go‘zal tomonlarini aks ettiruvchi
ko‘zgudir. U insoniyatning o‘zi bosib o‘tgan yo‘lini chuqur
anglashi, qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlardan g‘ururlanishi,
ertangi kunga umid bilan qarashiga yordam beradi. Har bir
millat va davlatning o‘ziga xos va qadrli bayramlari bo‘l
ganidek, O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklarning ham
eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, avloddan-av
lodga o‘tib, takomillashib, beba ho merosga aylanib qolgan

bayramlari ko‘p. Bu bayramlarning ma’lum qismi tarixning olovuq shamollari» – bosqinchilik siyosati va turli hukmdorlar tazyiqiga uchrab, nohaq yo‘qotilgan, unutilgan, ayrimlari qarama-qarshiliklarni yengib, ko‘pgina xususiyatlaridan qulsa-da, butunlay yo‘qolib ketmagan, xalq hayotidan mustahkam o‘rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istiklarini hisobga olib, azaliy bayramlarimizni tiklashga katta e’tibor berildi. Jumladan, Prezidentimiz farmoniga binoan «Navro‘z», «Ro‘za hayiti», «Qurbon hayiti» bayramlari rasman tiklanib, xalqimiz tomonidan keng nishonlana boshlandi. Shuningdek, istiqlol sharofati bilan – «Mustaqillik kuni», «Konstitutsiya kuni», «O‘qituvchi va murabbiylar kuni» ham alohida bayram sifatida rasman qabul qilindi.

Bayramlar vaqtning monotonligiga (bir xilligiga) barham berib,unga muayyan «shodlik surati», rang-baranglik baxsh etadi. Shu sababli qadimdan bayramlar vaqtning o‘ziga xos o‘lchovi hisoblangan.

Ijtimoiy hayotdagagi o‘zgarishlar ta’sirida talabga javob bermay qolgan an’ana va bayramlar asta-sekin unutila boshlaydi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo‘lgan an’analar taraqqiy etadi. Masalan, Navro‘z, Hosil to‘yi, Sumalak sayli va hokazo bayramlar ana shu talablarga javob bergani uchun asrlar davomida yashab kelmoqda.

Navro‘zni bayram qilish O‘rta Sharq va O‘rta Osiyoda qadimda tarkib topgan an’anadir. Bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalarga qaraganda, yilboshi – Navro‘z bayramini o‘tkazish an’anasi miloddan avvalgi IV asrlardan e’tiboran keng tarqalgani ma’lum bo‘ladi. Ya’ni, bu qadimiy bayramning tarixi yigirma to‘rt asrdan ortiqroq tarixga egadir. U insonning juda qadimdan shakllana boshlagan udumlari, urf-odatlari, kundalik turmush ehtiyojlari, atrof muhit, tabiat omillari bilan munosabatlari zaminida vujudga kelgan. Asrlar o‘tishi bilan bu urf odatlari mamlakatlar, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishi zami-

rida keng yoyila borgan, mazmunan boyigan hamda ma'lum o'lkalar doirasida tarqalib, mustahkam an'anaga aylangan.

Ko'hna va navqiron Navro'z bayrami qadimda O'rta Osiyoning turli joylarida o'ziga xos shaklda nishonlanib, uch kundan to o'n besh kungacha davom etgan. Navro'z bozor qoshidagi joylarda, katta maydonlarda, shahar chekkalarida gi sayilgohlarda uyushtirilgan. Odadta, bayramning birinch kuni quyidagicha o'tgan: ertalab bayram boshlanganda keyin dorbozlar va polvonlarning chiqishlari, kun o'rtasidu sozandalar, navozandalar va boshqa san'atkorlarning ijrolari kechki payt esa sayillar, xalq o'yinlari, bazmlar tashkil etilgan. Navro'z bilan bog'liq tomoshalar – har xil musobaqalar ko'pkari (uloq), poyga bayramning ko'rki bo'lgan.

Navro'z kunlari katta bozorlar (savdo-sotiqlar) tashkil qilingan va shirin taomlar tayyorlangan. Odadagi ovqatlardan tashqari do'lma, yałpiz, ko'k piyozi va boshqa ko'katlar solingan maxsus taomlar pishirilgan. Navro'z taomlari orasida sumalak alohida o'rinni tutgan.

Navro'z arafasida uy-joylarni tozalash, ko'kat va gullar bilan bezash, ota-onasi, yaqin kishilar bilan diydorlashish, marhumlarning qabrularini ziyyarat qilish xalqimiz orasida bugungi kunda ham odad tusiga aylanib qolgan. Qadimiy Navro'z odatlari ichida, odamlarning hayotimiz shirin bo'lsin degan ma'noda bir-biriga shakar va shirinliklar hadya etishi, gullar taqdim qilishi, bir-biriga suv sepishi kabi o'yinlar keng tarqalgan. Odatlar zamirida xalqning Yangi yil hosildorlik, mo'l-ko'lchilik yili bo'lsin, degan ezgu orzusi yotadi.

Ajdodlarimiz madaniy-ma'naviy qadriyatlarining gultoji hisoblangan Navro'z bayrami qadimiy an'analarimizni bugungi zamondoshlarimiz estetik qarashlari bilan bog'lovchi muhim vosita sifatida elimizga xizmat qilib kelmoqda.

«Sumalak sayli» (yoki «Sumalak bazmi») Navro'zning «shohona taomi» – sumalak tayyorlash, sumalakxo'rlikka bag'ishlangan marosimdir. Sumalakni asosan ayollar tayyorlab, uni pishirish jarayonida suhbatda bo'lishgan, hikoyalar, ertaklar va latifalar aytishib, o'yin-kulgi qilishgan. Sumalak tayyor bo'lgach, uni pishirishda qatnashganlar va mahalla

shli sumalakxo'rlik qilish uchun «sumalak sayli»ga taklif etilgan.

Ma'lumki, oilaviy marosimlar o'zbek xalq an'analarining qismining va muhim qismini tashkil etadi. Oilaviy marosimlarning ko'pi bolalar hayotidagi muhim voqealarga bag'ishlanishi uchun ham yoshlarning ma'naviy kamol topishida muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy foydali dam olish an'analariga bo'sh vaqtida odamlar uchun xayrli va foydali xizmatlar qilish – ota-onasi, yaqin qarindosh, ustozlardan xabar olish, kambag'al, yetimchi, kasal, qariya, ojizlarga yordam berish, to'y-ma'raka, hashlar, xayriya ishlarida qatnashish, muqaddas qadamjolarni qayorat qilish kabilalar kiradi.

Bundan tashqari aholining turli qatlamlari, guruhlari orasida ham o'ziga xos dam olish an'analarini bo'lib, bolalar, qizlar, erkaklar, ayollar, yoshi ulug'larning madaniy dam olish shakllari bir-biridan farq qiladi.

Dam olish shakllarining turi, usullari, uslublari, yo'l-yo'nqlari anchayin ko'p bo'lsa-da, ularning bitta umumiyyususiyati bor. U ham bo'lsa, dam olish bilan bir qatorda madaniy hordiq faoliyatining millatimizga xos an'analarini a'stash va ularning o'rnak, namuna bo'ladigan jihatlari orqali yoshlarni tarbiyalash hamda xalqimizga munosib farzandlar etib voyaga yetkazishdan iboratdir.

Ajdodlarimiz asrlar davomida ma'rifiy-ijodiy dam olish maqsadga muvofiq tashkil etilganda, kelajak avlodning sog'lom va yuksak fazilatlarga ega bo'lib voyaga yetishi, sog'lom, quvnoq, tetik tanda ruhiy sog'lik bo'lishini juda teran anglaganlar, eng asosiysi – bolani ma'naviy sog'lom ruhda tarbiyalash omillarini qo'llaganlar.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Odamlar o'z millatiga, davlatiga, diniga aloqadorlik, shuningdek, o'z qiziqishlari, ideallariga mansublik asosida birlasha boshlashi natijasida ijtimoiy-madaniy faoliyatning shakllanishini Siz qanday izohlaysiz?

2. Hordiqiy muassasalar deganda nima ko'zda tutilgan?
3. Jamiyatdagi an'ana, marosim, bayram, urf-odatlarning o'tkazilishini ma'lum tartib asosida muvofiqlashtirib boshish bo'yicha turmushdan olingen misollarni keltiring.
4. Turli ijtimoiy harakatlar, nodavlat tashkilotlar, partiyalari milliy-madaniy markazlar bilan faol hamkorlikni yo'l qo'yish ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining vazifasiga kiradimi?
5. Odamlarni milliy an'analar, urf-odatlardan doirasida birlash-tira olish malakasiga egalik ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladimi?



Tayanch so'z va iboralar

Tosh, bronza, temir davrlari, choyxonalar, guzartalar, musofirxonalar, karvonsaroylar, rabotlar, masjidlar, madrasalar, bo'sh vaqt, madaniy rivojlanish.

3.3. Ijtimoiy-madaniy faoliyat va jamoatchilik nazorati

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy islohotlarning natijalari har bir O'zbekiston fuqarosi hayotida namoyon bo'lmoqdagi hamda bu baravj taraqqiyot sur'ati dunyo hamjamiyati tomonidan yakdil e'tirof etilmoqda. Istiqlol yillarida aholining farovonlik darajasi 1990 yilga nisbatan 4 barobarga yuksalgani va Angliyadagi nufuzli «Inssad» instituti tadqiqotlariga ko'ra, O'zbekistonning umumiyligi farovonlik darajasiga ko'rinish 64-o'ringa ko'tarilganligi alohida e'tiborga loyiqidir. Taqqoslash uchun 1988 yilda Sobiq SSSR o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko'ra dunyodagi nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlardan ham ancha ortda edi. O'zbekiston Respublikasi esa umumiyligi rivojlanish darajasiga ko'ra, har tomonlama qoloq bo'lgan SSSR tarkibidagi 15 ta respublika orasida 12-o'rinda turardi. Demak, istiqlol sharo-fati bilan o'tgan yillar ichida misli ko'rilmagan o'zgarishlar guvohi bo'lib turibmiz.

Istiqlol tufayli hamda izchil joriy etilayotgan oqilona ishlotlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti, madaniyati, aholining intelektual salohiyati barqaror rivojlanib bormoqdi. Mamlakatimiz bilan turli yo'nalishlarda hamkorlik qilayotgan davlatlar, iqtisodiyotimizga investitsiya kirituvchi turpiy firma va tashkilotlar safining kundan-kunga kengayib borayotgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Ayni paytda shuni ta'kidlash lozimki, tezkor hayot sur'atlari davlat va jamiyat farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli faoliyat ustidan jamoatchilik nazoratini tizimli yo'lga qo'yishni kun tartibiga qo'ymoqda. Dinoberin, jamoatchilik nazorati ijtimoiy adolatni ro'yobga chiqarish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy sohaga davlatimiz tomonidan har yili byudjet mablag'larining 60 foizi yo'naltirilishi ham jamoatchilik nazoratining moddiy potensialini kuchaytiradi.

Bugungi kunda tadbirkorlar, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, o'rta umumiy ta'lim pedagoglari, qo'shma korxonalarining ishchi-xodimlari, tijorat sohasi bilan mashg'ul aholi vakillari, bank xodimlari, individual tarzda faoliyat yurituvchilar kasanachilik, qurilish, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan aholi vakillarining aksariyati o'ziga to'q va farovon hayot kechirayotganlari barchaga ma'lumdir. Ta'kidlash zarurki, ana shu yuqorida sanalgan soha va kasb sohiblarining umumiy statistik miqdori ham mamlakatimizda amalda bo'lgan jami mehnat resurslarining deyarli yarmini tashkil etadi.

Ma'lumki, O'zbekiston o'zining milliy strategiyasini e'lon qildi. Bu strategiya rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib va mustahkam o'rinni olishdan iboratdir. Hozirgi bosqichda mamlakatimiz dunyo hamjamiyati davrasidan o'zining munosib o'rniga ega bo'ldi. Endigi vazifa esa yuksak taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'shilishdir. Ana shu oliy maqsadlarga erishishda subyektiv omil, ya'ni, odamlarning ijtimoiy-intellektual, madaniy faolligi, yangi faol informatsion-madaniy muhitga aholining nafaqat adaptatsiya bo'lishi, balki, shu yuksak intellektual, bunyodkorlik, madaniy-

estetik muhitini yaratish harakatini keng targ‘ib etish muhim ahamiyatga egadir.

Jamoatchilik nazorati konsepsiyasi xalqimiz tarixida astalar davomida erishilishi mushkul bo‘lgan orzu, ideal bo‘lib kelgan. Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida ijtimoiy nazoratga erishish faqat yuqqori madaniyat, ilm-fan, ma’rifat dars-jalariga ega bo‘lgan orif jamoalargagina nasib etadi, ma’rifatga ega bo‘lмаган xalqlar esa, hukm bilan boshqarilishga moyil bo‘ladilar, deb ta’kidlaydi. Xitoy mutafakkiri Konfutsiy ham aholi axloq, madaniyat, ma’rifat bilan tarbiyalansa, jamiyatda jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yilsa, mamlakatdagi tinchlik, ijtimoiy barqarorlik mustahkam bo‘ladi deydi: «Raiyat amru farmonlar bilan idora qilinib, jazo choralari bilan tizginlab turilsa, garchi xalq faqat jinoyat sodir etishdan vaqtinchu forig‘ bo‘lsalar-da, jinoyatning isnod ekanini his qilmaydilar. Axloqiy meyorlar bilan idora qilinib, adab-taomil (ma’rifat) bilan tiyib turilsagina raiyat halol va or-nomusli bo‘libgina qolmay, balki o‘zini o‘nglab ham olgay»¹.

Demak, jamoatchilik nazorati nafaqat odamlarni jamiyat talablari asosida mo‘tadil yashashlarini ta’minlaydi, balki, ularning hayot sifatini yaxshilash, o‘zlarini o‘nglab olish imkoniyatlarini ham oshiradi.

Abu Mansur al-Moturudiy ham inson shaxsi ma’naviyati va mavqeini turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo‘lsa, diniy tazyiq-lardan himoya qiluvchi jamoaviylik zarurligini asoslab, bu jamoaviylikka o‘zaro kelishuv negizida erishish mumkinligini orzu qilib, xalq tinchligi, totuvligi va taraqqiyoti faqat insonlararo murosa muvozanati yuzaga kelgandagina amalga oshishini bashorat qilgan edi. Ulug‘ bobomiz bashorat qilgan ana shu murosaviy muvozanat holatlariga istiqlolning o‘tgan murakkab yillari davomida erishganimiz ulug‘ saodatlardan sanaladi.

Sobiq ittifoq davrida katta avlod vakillariga yaxshi tanish bo‘lgan «Davlat nazorati», «Xalq nazorati», «Davlat inspeksi-

¹ **Konfutsiy.** Muhokama va bayon. –T.: «Yangi asr avlodi», 2013, 56-bet.

«ya»), «KGB», «Partiya nazorati» singari tekshiruvlar orqali odamlarni qattiq siquvgaga olish siyosati amal qilar edi.

Sho'rolar davrida davlat odamlarni yalpi tarzda o'z nazorati ostida ushlab kelgan bo'lsa, istiqlol tufayli odamlar, ya'ni, jamoatchilik davlat ishlarini-da o'z nazoratiga olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu ijtimoiy holat mustaqillik davrida erishilgan eng muhim yutuqlarimizdan biridir.

Mamlakatimizda tinchlikni asrash, qadrlash va tinchlik uchun kurashish muhim, umummiliy vazifalardan sanaladi. Tinchlik omilining ijtimoiy hayotimizdagi o'rni va rolini qadriyat darajasida targ'ib etish, jamiyatning turli qatlamlari orasidagi uning holatini o'rganib borish ham jamoatchilik nazorati vazifalaridandir.

Birinchi Prezidentimiz jamoatchilik nazoratining savyasi yuqori bo'lishi kerakligi haqida to'xtalib, bir usul o'rninga ikkinchi yaxshiroq usulni joriy etish jarayonlarida jamoatchilikning nazorati ayniqsa, kerakligini alohida qayd etgandilar. Shu boisdan ham hozirgi kunda jamoatchilik nazorati samaradorligini ta'minlash uchun ijtimoiy sherikchilik, ommaviy axborot vositalari haqida, jamoatchilik nazoratiga doir yangi qonunlar qabul qilinayotgani muhim ahamiyatga egadir.

Jamoatchilik nazorati mohiyat-e'tiboriga ko'ra, davlat tashkiloti mutasaddi shaxs va rahbarlarining o'z mas'uliyatini qay darajada zimmasiga ola bilish holatini baholashni ifoda etadi: «Mas'uliyat uchun esa, – deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz, – rahbarlarda, dastavval, yuksak malaka va chiqur javobgarlik hissi rivojlangan bo'lishi kerak».

Kuchli fuqarolik jamiyatining muhim jihatlaridan biri odamlarning davlat tuzilmalari bilan o'zaro aloqalari bevosita, ya'ni, individual yondashuv tarzida emas, balki, bu munosabatlarning asosan jamoat tashkilotlari orqali amalga oshirilishidir.

Istiqlol yillarda mamlakatimizda jamoat tuzilmalari tashkil etilishi jarayonlarini har tomonlama rag'batlantirish, aholini imkon qadar ko'proq korporativ asoslarda birlashu-

agini ta'minlash bilan birga, davlat tuzilmalarining faoliyati ustidan tizimli jamoat nazoratini yo'lga qo'yishdan iborat yalpi ijtimoiy harakatga ham asos solindi.

Ijtimoiy nazorat jarayonlari kishilarning o'zaro jamoaviy birikuvlari, nodavlat tashkilotlar mavqeining mustahkamlanishiga bevosita bog'liq bo'lganligi bois, mazkur harakati ni quyidagi yo'naliishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida aholining turli tabaqalari, ijtimoiy qatlamlari psihologiyasi va intilishlariga monand faol jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi klublar, uyushmalar tashkil etish.

2. Madaniyat muassasalarida o'zbek xalqi mentalitetiga xos jamoaviylik tabiatini inobatga olib, ma'raka, marosim hamda to'y tadbirlarini ixcham va tartibli o'tkazishni ta'minlaydigan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

3. Yoshlar faolligini ta'minlovchi turli to'garaklar faoliyatini aholining turarjoylari (mahalla, qishloq guzarlari), mehnat faoliyatini olib boradigan muassasalar hamda madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etish ishlarini jamoatchilik nazoratiga olish.

4. Aholining etnik-sulolaviy yoki mintaqaviy birlashuvlariga emas, balki ma'naviy ehtiyojlari, saviya, did, qizi-qishlaridan iborat korporativ asosdagi uyushuvga intilishlarini rag'batlantirish.

5. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida atrof-muhit va ekologiya himoyasi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi uyushma va to'garaklarni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir.

Birinchi Prezidentimizning jamoatchilik nazorati konsepsiysi ayni chog'da aholining ishlab chiqarish, ta'lim va boshqa tuzilmalar bilan qamrab olinmagan qatlamlari orasida ham jamoatchilik nazorati ishlarini faollashtirishni ko'zda tutadi. Shu boisdan ham jamoatchilik nazorati konsepsiysi nafaqat davlat tuzilmalari ishini, balki o'zgarayotgan makon va zamon jarayonlari mahsuli bo'lgan jamiyat tarkibini ham doimiy e'tiborda tutib borishni kun tartibiga qo'yadi.

Jamoatchilik nazorati ayni paytda mavjud nodavlat tashkilotlar, jamg'armalar, partiyalar ishlarining samaradorligini ham muntazam ravishda orttirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 4 ta partiya, «Kamolot» YOIH, ko'plab nodavlat-notijorat tashkilotlar va jamg'armalar faoliyat yuritmoqda. Mazkur jamoat tashkilotlari ham nodavlat institutlar sifatida muayyan faoliyatni amalga oshirayotgan bo'lsa-da, ularning aksariyati asosan o'zining ijtimoiy negiziga, o'z qatlamlari, xayrixohlari manfaatkini ifoda etishga e'tibor qaratadi. Tabiiyki, partiyalarning hokimiyatga intilishlari nechog'li tabiiy hol bo'lsa, joriy, kundalik va muntazam faoliylatlarda o'z firqadoshlari qiziqishlari, maqsad va intilishlari, turmush tarzi, manfaatlarining eng tayinli ifodachisi bo'lishi ham shunchalik zarurdir. Zero, insonlar maqsad va manfaatlari mushtarakligi negizida o'z hayotini tashkil etadi. Xalqimizning o'z tomiriga tavanishga bo'lgan kuchli maylini inobatga olish, mentalitet xususiyatlaridan kelib chiqib ish tutish nodavlat tashkilotlar faoliyati samaradorligini ta'minlashi shubhasizdir. Binobarin, jamoat nazoratining ijtimoiy kuchi fuqarolik institutlarining davlat va jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'sir darajasining nechog'li ekanligiga bevosita bog'liqdir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan xalqimizning bunyodkorlik faoliyatini ulug' mo'ljallar yo'liga effektiv yo'naltirish borasida amalga oshirgan sa'y-harakatlari negizida ana shunday maqsadlar mujassam edi. «Bunday tadbirlarning asosiy maqsadi, – deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz, – avvalo jamoatchiligidimiz, keng ommaning faolligini oshirish va shu bilan birga ularning davlatimiz va jamiyatimizni boshqarish masalasiga ko'proq jalb etishdir, desak ayni haqiqat bo'ladi».

Madaniyat muassasalarida ijtimoiy ijodiyot turi sifatida rivojlantiriladigan jamoatchilik nazorati uchun mas'ul shaxslarda uchta kasbiy-insoniy jihatlar ustuvor bo'lishi zarur. Birinchisi, Vatan, jamoa manfaatini fidoyilik bilan himoyalay olish, ikkinchisi, jamoada yuz bergan muammoviy vaziyatlarni ijobiy hal etishga intilish bo'lsa, uchinchisi, har bir

holatda me'yorni saqlay olish, har qanday vaziyatlarda ham inson shaxsiyatini toptamaslik, sha'nini yerga urmaslik fizi latlaridan iboratdir.

Agar jamoatchilik nazorati uchun mas'ul shaxsda me'yoy tamoyiliga rioya qilish sust bo'lsa, jamoada guruhboz shakllanadi, muhit buziladi. Shuningdek, jamoatchilik nazorati xodimi tashkilotdagi har qanday kamchilikni aniqlashi bilanoq, bu kamchilikni birdaniga butun jamaoa a'zolariga oshkor qilish payida bo'lsa, jamoada sog'lom raqobat emas, balki, negativ oppozitsiya yuzaga keladi. Shu boisdan ham jamoatchilik nazorati uchun mas'ul shaxslar odamlardagi xato bilan kamchilikni, muhim bilan zarurni, ijtimoiy havil katta bo'lgan xato bilan, xavfi uncha katta bo'limgan xatonni, ishga bog'liq nuqson bilan xodimning shaxsiy hayotiga doir nuqsonni, mas'uliyatsizlik sabab qilingan ayb bilan xodimning kasbiy saviyasi, kompetentligi sustligi uchun yuzaga kelgan aybni, tasodifan yuz bergen hodisa bilan mantiqan amalga oshgan rejani farqlay bilishi zarur. Jamoatchilik nazorati uchun mas'ul shaxs barcha ishlarga ratsional, ya'ni, bosiq aql bilan yondasha olishi kerak.

Madaniyat muassasalaridagi badiiy ijodiyot to'garaklari sifatini o'rghanish sohasidagi jamoatchilik nazorati asosan ta'lim subyektlari bo'lgan pedagog va o'quvchi-talaba faoliyatining sifat jihatlarini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Shuningdek, madaniyat muassasalaridagi jamoatchilik nazorati ma'muriy nazorat doirasiga kirmaydigan masalalarni hal etish imkoniyatiga ham egadir. Masalan, madaniyat xodimi va to'garak a'zolarining tashqi ko'rinishi, salomlashish odobi, bo'sh vaqtidan nechog'lik unumli foydalanishlari, kitob mutolaasiga muhabbat, Internetdan foydalanish madaniyatini tarkib toptirish, ayollarga hurmat ko'rsata bilish singari masalalar shular jumlasidandir.

Madaniyat muassasalaridagi jamoat nazorati ustoz-shogird tizimini samarali yo'lga qo'yishda ham namoyon bo'ladi. Bunda yangi ishga kelgan xodimlarni chuqur bilim va mala-kaga ega bo'lgan ustozlarga biriktirib qo'yish hamda ularning

Babiy rivojlanish dinamikasini jamoatchilik nazorati ostiga
qilish kutilgan samarani beradi.

Madaniyat muassasalarining mahalla bilan hamkorlik-dagi jamoat nazorati ijtimoiy va badiiy ijodiyot rivojiga burchli turtki beradi. Birinchi Prezidentimiz O'zbekiston Konstitusiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tadbirda qilgan ma'rurasida mahalla institutining faoliyat doirasini yanada kengaytirish zarurligini qayd etib: «Bugun oldimizda turgan demokratik islohotlarni yanada chiqurlashish vazifasi haqida gapirar ekanmiz, eng avvalo, davlat hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining yaxlit tizimini tashkil qilish, buning uchun huquqiy normalarni mustahkamlash, kerak bo'lganda, maxsus qonunlarni qabul qilish lozim» deb ta'kidlagan edi.

Ma'lumki, bugungi kunda hududdagi madaniy, ijtimoiy-ma'naviy muhitni tarkib toptirishda mahallaning roli ustuvor sanaladi. Xususan, oilalardagi ajralishlar, qizlarni kollejni tutgatmasdan turib erta tur mushga uzatish, mahalla hududiga turli yot g'oyalarning kirib kelish holatlarini keskin kamaytirish borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Endigi vazifa esa hududdagi barqaror ijtimoiy-ma'anaviy muhitni asrash, aholi madaniyatini yuksaltirish, ularni bunyodkorlik ishlariga kengroq jalg qilish, madaniy-ma'naviy yuksalish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iboratdir.

Bugungi tez o'sib borayotgan ma'naviy-intellektual ehtiyojni madaniyat muassasalari, maktab, kollejlardagi fan va ijod to'garaklari to'la ravishda ta'minlab bera olmayotir. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Andijon shaharlariagi har uch oilaning biri o'z farzandini turli to'garaklarda shug'ullantirish xohishlari mavjudligini bildirdilar. Shu boisdan ham, mahallalardagi jamoat nazorati nafaqat kam ta'minlangan oilalarni moddiy jihatdan yuqori darajaga ko'tarish ishlarini, balki, yuqori darajadagi ta'minlangan oilalarning ijtimoiy-ma'naviy muammo va ehtiyojlarini yechishda ham amaliy ko'mak beruvchi institutga aylanishi taqozo etilmoqda. Shu boisdan ham, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan yak-

ka tartibda faoliyat yurituvchi enaga, repititor, ijodiyot turlari bo'yicha konsultant – madaniyat xodimi, oilani maishiy jihat dan boshqaruvchi singari individual tarzdag'i mehnat faoliyatni turlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirishi zarurligini bugungi farovonlashayotgan turmushimiz talab etmoqda.

Demak jamoatchilik nazorati nafaqat bajarilayotgan ishlari sifatini nazorat etish, balki, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ishg'a solishni ham nazarda tutadi.

Shu narsaga e'tibor berish kerakki, jamoatchilik nazoratini hammani baravar qo'llab-quvvatlash yoki odamlarni davlat organlari ta'siridan himoyalash, deb tushunmaslik kerak. Jamoatchilik nazorati – bu xodimlarning to'g'ri va halol ishlashi, rahbarlarning maqbul qarorlar qabul qilishi va manfaatlar muvozanatini saqlashga bo'lgan ijtimoiy e'tibordir. Zero, jamoatchilik nazorati jamoadagi ijtimoiy me'yorlarning tarozisi, to'g'ri yo'lning himoyachisi vazifasini bajaruvchi faoliyatdir.

Istiqlolimiz davrida, xuddi insoniyat tarixidagi ulug' o'zgarishlar davrida bo'lgani singari, inson ongi va tafakkuri-dagi bosh mezonlar – imon, ishonch, to'g'rilik, tartibotlarga hurmat so'z va tushunchalarining mazmunini ham isloh etishga erishildi. Davlat siyosatida so'z va ish, maqsad-reja hamda amaliyot birligi ta'minlanmoqda. Bugungi kunda odamlar davlat tomonidan belgilanayotgan dastur va rejalar ijrosining albatta bajarilishiga to'la ishonadilar. Davlat faoliyatiga xos bo'lgan to'g'rilik, adolatlilik, rejaviy ish tutish xususiyatlari jamiyat va odamlar fe'l-atvori, turmush tarziga ham ko'cha boshladи.

Mustaqillik tufayli davlatimiz jamoatchilik nazorati ostida bo'lgan holda faoliyat yuritishni xohlamоqda. Qachon davlat xalqning nazorati ostida bo'lishini xohlaydi? Qachonki, davlat o'zining to'g'ri yo'lда ekanligiga, faoliyati to'laligicha inson manfaatlariga xizmat qilayotganiga ishonsa. Bugun davlatimizda ana shu ishonch qadriyati mustahkam о'rnatilgan. Xalqimizning davlatimiz olib borayotgan ishlarga ishonchi esa davlatimizning barqaror rivojlanishiga poydevor bo'immoqda.

Jamoatchilik nazorati samaradorligi aynan ana shu sof insoniy fazilatlar – to'g'rilik, ishonch, so'z va ish birligi asosiga

qiladi. Mamlakatimizda ezgulik asosiga qurilgan jamoatchilik nazorati ikki mustahkam poydevorga asoslanib amal qiladi. Bu ikki poydevor, bir tomonidan, to'g'rilik, tartibotlari hurmat, buniyodkorlik, vatanparvarlikdan kuch olsa, ikkinchi jihatdan davlatimiz tomonidan odamlarning yarayuvchanlik faoliyatini olib borishlari uchun barcha huquqiy, qiziqsodiy, moliyaviy, ma'naviy imkoniyatlarning to'la-to'kis yaratib berilganidan quvvatlanmoqda. Davlat faoliyatini nazorat etishdek muhim ishda jamiyat tomonidan qo'llaniluvchi to'g'rilik tamoyili mamlakatimizning rivojlangan, demokratik davlatlar qatoridan munosib o'rinn olishdek ezgu maqsadiga kuch va qanot bag'ishlaydi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Madaniyat muassasalarida jamoatchilik nazorati qanday tashkil etiladi?
2. Jamoatchilik nazorati va oila hamkorligi qanday amalga oshiriladi?
3. Jamoatchilik nazorati va mahalla hamkorligi-chi?
4. Jamoatchilik nazorati va «Kamolot» YOIH hamkorligi qanday amalga oshiriladi?
5. Jamoatchilik nazorati uchun qaysi insoniy sifatlar ko'proq samara beradi?
6. To'garakdag'i ish sifatini oshirishda ustoz-shogird tizimi qanday samara beradi?

Tayanch so'z va iboralar:

Davlat boshqaruvi, jamoatchilik nazorati, murosaviy muvozanat, madaniyat xodimi, to'garak a'zolari.

3.4. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda muzeylarning roli

Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi tarixiy hujjalarni, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o'rganib, ko'rgazmalarga

qo‘yish va keng xalq ommasiga havola qilishdan iborat. Muzeylar faoliyati xalqning tarixiy taraqqiyoti jarayonida rivo‘lanib boradi, qo‘lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy-ma’naviy merosi xususida juda katta bilimlar berdi. Muzeylar madaniy-ma’rifiy muassasa sifatida ommaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni ma’naviy kamolotga yetkazishning yetakchi vositalaridan hisoblanadi.

Yurtimizda yangi-yangi muzeylarning tashkil etilishi, poytaxtdagi eng yirik va nufuzli «Temuriylar davri tarixi davlat muzeyi», «Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyi», main-lakatimiz janubida joylashgan Termiz shahridagi «Arxeologiya muzeyi»ning ochilishi hukumatimiz tomonidan muzey va muzeyshunoslik sohasida nihoyatda katta ishlarning amalga oshirilganidan dalolat beradi. Muzeylar mazmun jihatdan quyidagi turlarga birlashadi:

- Tarix muzeylari, tarix-arxitektura va tarixiy adabiyot muzeylari;
- O‘lkashunoslik muzeylari;
- Xotira-yodgorlik (uy) muzeylari;
- San’at muzeylari;
- Soha muzeylari;
- Turli muzeylar.

Muzeylar qachon paydo bo‘lgan va ularning ahamiyati nimalardan iborat? «Muzey» – yunoncha atama bo‘lib, «muzai» so‘zidan kelib chiqqan. Qadimgi Yunon mifologiyasida san’at va fan ma’budalari «muzalar» deb yuritilgan. Muzalar, ya’ni ma’budalar yoki xudolar shoir va san’atkorlarga ilhom beradi, deb e’tiqod qilingan. Shuning uchun antik poeziya asarlарining boshida ko‘pincha Muzaga murojaat qilingan. San’at, adabiyot va tarixga oid bir qancha ma’budalar mavjud bo‘lgan. Jumladan, antik shoirlardan Gesiod (mil. avv. VII-asr) o‘z asarlarida 9 ta ma’budani sanab o’tadi: Klio – tarix; Yevterpa – poeziya va musiqa; Taliya – komediya; Melponena – tragediya; Terpsixora – o‘yin; Erato – muhabbat lirikasi; Poligileniya – gimnlar; Uraniya – astronomiya; Kalliopa – epos ma’budalaridir. Appolon Muza xudosi hisoblan-

jan. Muza obrazı Yevropa tasviriy san'atida o'z ifodasini topgan. Ma'budalar – turli shakldagi haykallar alohida ehtirom bilan muqaddas sanalgan imoratlarda saqlangan. Odamlar ma'budalarni ziyyarat qila turib, ulardan orzu-istiklarini amalga oshirishini tilaganlar. Natijada, muzalar joylashgan dargoh insonlarning ziyyaratgohiga aylangan. Bu dargohda eng asl buyumlar, nodir, qimmatbaho ashyolar va go'zal san'at asarlari ham saqlana boshlagan. Ular bino sahnini bezash bilan birga, ziyyoratchilar qalbida alohida taassurot ham qoldirgan. «Muzeun» – bu go'zal buyumlar saqlanadigan, ilhom parilari to'planadigan joy, degan ma'noni anglatadi.

Shuningdek, «Moziy» so'zining «Muzey» atamasiga monand ekanligini ham e'tirof etish kerak. «Moziy» so'zining lug'aviy ma'nosi tarix, o'tmish degan mazmunni anglatadi. Muzeylar ham vazifasiga ko'ra tarixni, o'tmishni namoyish qilish bilan avlodlarga bilim beradi. Shunday ekan, muzeylar tarixdan saboq beradi, u xalqning asrlar davomida qo'lga kintgan yutuqlari, ilm-ma'rifatga qo'shgan hissasi haqida ko'rgazmali, ishonchli, ilmiy-asosli ma'rifat tarqatadi, desak kato bo'lmaydi.

Muzey dastlab Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan. Bu mamlakatlarda ayrim san'at yodgorliklari ibodatxonalarda to'planib, turli ko'rgazmalar tashkil etilgan. Keyinchalik Ellimiz davrida muzey kolleksiyalari vujudga keladi. San'at, madaniyat va fan erishgan yutuqlarning namunalaridan iborat kolleksiyalar to'plash Uyg'onish davrida Italiyada, so'ng esa Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda urfga kiradi.

Temuriylar davrida tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atida ulkan yutuqlarga erishildi. Saroy, madrasa, maqbara va boshqa binolarni nafis suratlar, naqshlar bilan bezash turaqqiy etdi. Bibixonim masjidi, Go'ri Mir, Shohi Zinda, Ahmad Yassaviy maqbarasi va masjidi, Shahrisabzdagi Oqsatoy, Ulug'bek qurdirgan rasadxona va madrasalar o'zining ulug'vorligi bilan Sharq me'morchiligining shoh asarlari borlib, ularda xalqimizning yuksak did va mahorati, aql-zakovlati namoyon bo'lgan.

Bu davrda savdo-sotiq, hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan ediki, Buxoro, Samarqand ustalari tomonidan ishlangan buyumlar dunyo bozorlarida yuqori baholanardi. Hirot ustalarining zargarlik buyumlari, Samarqand, Buxoro duxobasi katta shuhratga ega edi. Amir Temur davrida Mo'varounnahr ustalarining ijodiy ishlari ko'rigi bo'lib turgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, 1469 yilgi ko'rikda Ali Isfahoni degan hunarmandning san'ati tahsinga sazovor bo'ladi. Usta guldon idishni ko'rikka taqdim etadi. Bu guldonda 32 hunarmandning ish uslubi ko'rsatilgan edi.

Hunarmandlar o'z mahoratlarini yangi qurilgan masjid, maqbara va boshqa inshootlarda namoyon etar edilar. Misalan, Bibixonim masjidi uchun ustalar tomonidan ishlangan shamdonlar va masjid darvozasiga ishlangan naqsh kandkorlik san'atining cho'qqisi edi. Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun tabrezlik usta Abdul-Aziz ikki tonnalik mis qozon yasagan (1381-yil).

Go'ri Mirning 1405-yil Temur ko'milgandan keyingi ichki ko'rinishi «Harbiy memorial muzey»ni eslatar edi. Maqbaraga qo'yilgan har bir buyum nodir tarixiy va madaniy yodgorlik edi.

Tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha, maqbara ichiga Sohibqironning kiyimlari, devorlariga qurol-yarog'lari osilgan edi. Bu qurollar oltin-kumushdan yasalgan bo'lib, qimmatli la'l-yoqut toshlar bilan bezatilgan. Maqbara gumbaz ostida osmondagи yulduzlarni eslatuvchi oltin-kumush qandillar osilgan, bitta qandil 4000 misqol tillordan yasalgan edi. Yerga maqbara o'lchovida ipak va duxoba gilamlar solingan.

Temuriylar sulolasidan Husayn Boyqaro Hirotni go'zal binolar, masjid, madrasalar bilan obod etadi. She'riyat sulton Alisher Navoiy bilan birga Hirotni shoir va fozillar bog'iylari aylantiradi. Shu davrda tarixchi olim Mirxon (1498-yil vafot etgan) va uning nabirasi, tarixchi Xondamir, buyuh mo'yqalam sohibi Kamoliddin Behzod ijod qilishgan. Shu davrda Hirot miniatyura san'ati ustalari maktabi vujudga keladi. Sanoqsiz qo'lyozmalar iste'dodli xattotlar tomonidan ko'chirilgan va zarhallar bilan bezalgan.

Sharqshunos olim A.Y. Yakubovskiyning yozishicha, Ali-ibn Navoiyning (1441–1501) juda katta, nodir qo‘lyozmalarga boy shaxsiy kutubxonasi bo‘lgan. Bu kutubxonadan tarixchi Xondamir, musavvir Behzod va boshqa olimu fozillar foydalanganlar.

Buxoro-Xiva xonliklarida ham nodir qo‘lyozmalar, miniyaturlar kolleksiyasini to‘plab saroy va shaxsiy kutubxonalar barpo etish odat bo‘lgan.

Shunday qilib, O‘rta Osiyoda dastlabki muzeylear nodir buyumlar, noyob qo‘lyozmalar va boshqa san‘at hamda humarmandchilik buyumlarini to‘plab namoyish etish shaklida namoyon bo‘lgan.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng xalqimiz oldida millatimizning har tomonlama rivojlanishi va ravnaq topishni ta’minlash bilan bog‘liq muhim vazifalar paydo bo‘ldi. Shulardan biri, uzoq o‘tmish davrlarga borib taqaladijan boy tarixga, qadim madaniyatga ega bo‘lgan xalqimiz o‘z o‘tmishini, kelib chiqishini, ota-bobolari, urf-odatlari, ma‘naviy boyliklari, yuksak madaniyati, san‘ati tarixini yunada chuqurroq o‘rganishi, anglashi va bevosita davom etdirishidek ulug‘ vazifa edi.

Birinchi Prezidentimiz «Tarix – xalq ma‘naviyatining nosidir», deb ta’kidlar ekan, mustaqil Vatanning har bir fuqrosi, ayniqsa, uning kelajagini belgilab beruvchi yoshlari o‘z tarixi va madaniyatini yaxshi bilishlari shart ekanini ko‘zda tutadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tarix fanining dolzarb muammolari haqidagi suhbatida bu boradagi muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatib: «Ma‘naviyatni tiklash, tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak», degan edi.

Tarixiy xotirani shakllantirish, rivojlantirish, shu bilan birga, kelajak avlod qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini paydo qilish vazifasiga barcha madaniy-ma‘rifiy muassasalar qatorida muzeylear ham katta hissa qo‘shmoqda. Muzeylear tarixiy xotirani jonlantirish omili bo‘lib xizmat qilar ekan, unda

namoyish etilayotgan materiallar ashyoviy dalil sifatida o't davriga xos xususiyatlarni aks ettirganligi bilan, o'sha dav madaniyati, san'atidan xabar berishi bilan juda qimmatlidir. Ular xalqimizning yuksak rivojlangan madaniyati, adabiyoti, san'ati hamda ma'naviy dunyoqarashiga asoslangan xususiyatlari bilan tomoshabin e'tiborini qozonadi. Unda bevosita shu buyumlarda aks etgan joziba, sehr, geometrik aniqlik, tarx barkamolligi, qurilish-arxitektura inshootlarining o't aniq va pishiq loyihalariga nisbatan inson aqlini lol qoldirdigan ta'sirini uyg'otadiki, bu kishida beixtiyor faxrlanishi qoyil qolish va undan o'rnak olib, yangi san'at asarlarini yaratish sari ilhom uyg'otadi.

Mustaqillik tufayli respublikamizda muzeylar faoliyatiga bo'lган e'tibor yanada oshdi. Xususan, keyingi o'n yil ichida davlat tasarrufidagi muzeylar soni 140 tani tashkil etmoqdidi. Shulardan tarix muzeylari 75 ta, o'lkashunoslik muzeylari 23 ta, badiiy san'at koshonalari 10 ta, me'morial muassasalar 20 ta, adabiyot muzeylari 8 ta, tabiat muzeylari 4 tadan iborat. Ayni paytda bu muzeylarda 1 million 600 mingdan ortiq eksponatlar mavjud.

Muzeylarimizda saqlanayotgan amaliy san'at asarları ilmiy tadqiqotlar uchun bebaho moddiy manba ekanligi bilan ham alohida ilmiy qimmat kasb etadi. Muzeylararo qo'shma ko'rgazmalar ko'lamenti har galgidan ham kengaytirish zaruri Negaki, Buxoro, Xiva, Surxondaryodagi muzey zaxiralaridagi shunday asarlar borki, ular nafaqat mamlakatmizdagi markaziy muzeylarda, qo'yingki, dunyoning hech bir muzeyida uchramaydi. Muzeylararo qo'shma ko'rgazmalarning afzallik tomonlaridan biri, avvalo, minglab muzey ixlosmandlariga qulay imkoniyat yaratilishidir. Qolaversa, muzey xodimlari o'zaro tajriba almashadilar va ilmiy-uslubiy yordam oladilar.

Mustaqillik yillarda respublikamizning turli shaharlari da, jumladan, poytaxtimiz Toshkentda 1996-yil «Temuriylar tarixi davlat muzeyi», 2002-yilda «Qatag'on qurbanlari xotirasi» muzeyi hamda Termizda «Arxeologiya muzeyi» tashkil topdi. «O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi», «O'zbekiston Davlat San'at muzeyi» va viloyatlardagi qator muzeylar qayta

imurlandi. Hozirgi kunda respublikamizda 1200 dan ortiq tur-
li yo'nalishdagi katta-kichik muzeylar faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi PF-1319-
son Farmoni muzeylar va muzeysenoslik fanining ravnaqiga
beng yo'l ochib berdi. Farmonda ko'zlangan maqsadlardan
bir, respublikamizdagi barcha muzeylarni yagona bir tizim-
ga birlashtirish, ya'ni ularni ma'naviy boshqaruvchi markazi
nihbar organ yaratishdan iborat edi. O'sha Farmonga binoan
yangi tashkil topgan «O'zbekmuzey» jamg'armasi o'z faoli-
yatining birinchi kunlaridanoq asosiy yo'nalishlarini belgi-
lib, amalga joriy etish lozim bo'lgan vazifalarni aniqlab oldi:

1. Respublikamiz muzeylari o'z yo'nalishlariga qarab xalqimizning boy madaniy merosini, uning taraqqiyot bosqich-
indagi o'rnnini haqqoniy aks ettirib, zamon talablari asosida
tuglol ruhidagi eksponatlar yaratishi zarurligi;

2. Asrlar davomida yaratilib, chetga chiqib ketgan me-
tosumizni Vatanimizga qaytarish;

3. Muzeylarni ma'naviyat o'chog'iga aylantirib, xalqimiz,
ayniqsa, yoshlarimiz qalbiga davlatimiz tarixiga, ajdodla-
rimiz merosiga nisbatan g'urur va faxr tuyg'usini sing-
dirish;

4. Muzeylarimizdagи boy eksponatlarni jahon jamoat-
diligiga tanitish maqsadida targ'ibot ishlarini kuchaytirish,
viloятlararo ko'rgazmalar tashkil etishga ko'maklashish;

5. Xalqaro turizmnı rivojlanтиrish orqali O'zbekiston
muzeylariga chet ellik sayyoohlarni jalb qilish, ularga yuksak
madaniy xizmat ko'rsatish;

6. Muzeylar fondidagi eksponatlarning yagona ro'yxatini
tuzish ishlarida zamonaviy texnik vositalardan keng foydala-
nish hamda noyob eksponatlar aks etgan otkritkalar, buklet-
lar, yo'l ko'rsatkichlar, albomlar, kataloglar chop etish;

7. Kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratish,
oly o'quv yurtlariga muzeysenos olimlarni jalb etib, o'qitish
usullarini takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarini amaliy

mashg'ulotlar bilan uzviy olib borish, respublikadagi yetakchi muzeylarda muzey xodimlarining malakasini oshirish.

So'nggi yillarda muzeysunos olimlarimiz respublikamizdagi muzeylar faoliyatini yanada yaxshilash maqsadidagi muzeylarni rivojlantirishning maxsus ilmiy tamoyillarini ishlab chiqdilar. Mutaxassislar fikricha, bu borada O'zbekiston tarixi davlat muzeyining yangi ekspozitsion ilmiy tamoyillari barcha muzeylar uchun namuna bo'la oladi. Hozir tamoyil va tematik-ekspozitsion rejalar ko'paytirilib, respublikamizdag'i barcha muzeylarga tarqatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, avlodlarimizni uzoq o'tmish ma'naviyati va madaniyatidan bahramand etish, ularning qalbida Vatanga, shu aziz tuproqqa mehr ruhini singdirishda muzeylarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Muzeylar faoliyati xalqning tarixiy taraqqiyot jarayoni haqidagi qanday bilimlar beradi?
2. Mamlakatimizdag'i yirik muzeylardan 10 tasini sanab bering.
3. Muzeylar mazmun jihatdan qanday turlarga bo'linadi?
4. «Moziy» so'zining lug'aviy ma'nosini aytib bering.
5. Muzeylar faoliyatini yaxshilash uchun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida mustaqil ish tayyorlang.



Tayaneh so'z va iboralar:

Muzey, tarixiy xotira, madaniy muassasalar, eksponat, moddiy va ma'naviy yodgorliklar, ashyoviy dalillar.

3.5. Mutolaa – ijtimoiy-madaniy faoliyatning harakatlantiruvchi kuchi sifatida

«Mutolaa» so'zi aslida arabcha o'qish degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. Ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lgan

mutolaaning shaxs va jamiiyat hayotida tutgan o'rniga ko'ra uni mutolaa madaniyati kontekstida olib qarash zarur.

«Mutolaa madaniyati» tushunchasi haqida gap ketar ekan, madaniyat hodisasiga maxsus yondashish, unga ta'rif berish lozim bo'ladi.

Madaniyat tushunchasining murakkab va ko'p qirrali ekanligi ijtimoiy fanlarda mazkur tushunchaga yondashuvning xilma-xilligiga, barchani qanoatlantiruvchi yagona ta'rifning qabul qilinmay kelayotganligiga sabab bo'ldi. Manbalarning guvohlik berishiga ko'ra, bugungi kunda ilm-fanning turli sohalarida madaniyatga 250 dan ortiq ta'rif berilgan¹.

Sharq mutafakkirlari madaniyat tushunchasini ma'rifat, farosat, aql bilan uyg'un tushuncha sifatida talqin qilib kelgan.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning asarlarida bayon etilgan madaniyat to'g'risidagi fikrlarini umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, madaniyat bilim, aql va axloq omillarining uyg'unligidan hosil bo'ladi. Agar xoh jamiyat, xoh jamoa, xoh shaxs bo'lsin, ularda ana shu omillar mutanosib ravishda muvozanatni saqlamasa, bu tanazzulga olib keladi. Chunki madaniyatsiz jamiyatda adlu adolat, jamoada – do'stlik, hamjihatlik, shaxsda esa komillik bo'lmasligi shubhasizdir, deya ta'kidlaydi alloma.

Bizning nazarimizda madaniyat tushunchasining yagona ta'rifi mavjud emasligiga asosiy sabablardan biri – mazkur hodisa insoniyat turmush tarzining deyarli barcha sohasiga kirib borib, hayotning barcha jabhalarida namoyon bo'lib borayotganidadir. Shunday qilib, qayd etish joizki, mutolaa madaniyati umumiyligi madaniyatning hosilaviy ko'rinishidir.

Mutolaa madaniyati kitobga qiziqish, odamlarning aabhängotlar bilan kengroq tanishishga bo'lgan rag'batini, shuningdek, axborot manbalaridan to'liq foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishini taqozo etadi.

¹ *Qarang: Л.И. Михайлова.* Социология культуры: Учеб. пособие. М.: «ФАИР-ПРЕСС», 1999, 19-б.

Mutolaa madaniyati kishining manbani to'laqonli tushni, undan estetik zavq olishi, muallif fikri va g'oyasini anglashi hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, o'zini qiziqtirgan masalalarga doir manbalarni topa olish va undan o'qishda, ishda, hayotda foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Kitobni tanlash, uni tez o'qish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o'qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyatiga kiradi. Demak, mutolaa madaniyati insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg'unlashish, ma'naviy foyda olishga yo'naltiradi.

Ayni chog'da mutolaa madaniyatini ta'lim tizimlari orqali maxsus shakkantiradigan ixtisoslashgan ma'lumotni inson hayoti davomida turli manbalar – kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, ensiklopedik va boshqa), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniye, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (Internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a'zolari, ish yoki o'qish joyidagilar, qo'ni-qo'shnilar va boshqa insonlar) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiyligi ma'lumotdan farqlash lozim bo'ladi. «Ixjisolslashgan ta'lim insonga bir soha doira-sida cheklangan bilim va malaka beradi. Umumiyligi ta'lim esa insonga keng va to'liq dunyoqarashga ega bo'lish, hayotning turli tomonini ... tushunish imkonini beradi»¹.

Demak, mutolaa madaniyatining muhim tarkibiy jihatini undagi ixtiyorilik, ta'lim olishdagi anglash, faoliyatni erkin tanlash, takomillashuvga bo'lgan ongli rag'bat, ichki da'vat tamoyillari bo'lib, ular inson taraqqiyoti uchun o'ziga xos harakatlantiruvchi omillar sanaladi.

Ruhshunoslarning ta'kidlashicha, bola tashqi olamni aqlidrok bilan emas, avvalo, tuyg'u bilan, hissiyot bilan qabul qilar ekan. Shuning uchun ham ta'sirchan voqealarga boy,

¹ Н.А. Рубакин. Письма к читателям о самообразовании. – В изб. произв. Т.2. – М.: «Книга», 1975. 12-б.

yaroyibot, mo'jizalar koni hisoblangan xalq ertaklari, dos-toulari, rivoyatlari bitilgan kitoblarni bolalarga o'qib berish-dan charchamaslik kerak. Asta-sekin kitobning sehr-jozibasi yosh qalbni butunlay zabit etishi, savodi chiqqach bolaning ozi kitobdan zavq olish, lazzatlanish uchun mutolaani odat qilishi tayin.

Yoshlarda kitobxonlikka o'chmas havas uyg'otishdan muddao – ularni yetuk, komil inson etib tarbiyalashdan iboratdir.

Inson kamoloti bilan bog'liq muhim jihatlardan biri, uning jamiyat rivojiga nisbatan mustaqillik darajasidir. Darhaqiqat, insonning komillik sari intilishida mustaqil bilim olish va mutolaaning o'rni beqiyos bo'lib, inson har qanday sharoitda ham, jamiyat rivojining har qanday bosqichida ham mutolaa yordamida o'z-o'zini rivojlantirishi, kamol toptirishi mumkin. Bu esa, mutolaa omilini favqulodda ijtimoiy zarurat darajasiga chiqaradi. Zotan, buyuk istiqbolni ko'zlab intiluvchi har bir jamiyatda mutolaa madaniyatiga ustuvor mamlila sifatida yondashilishi bejiz emas.

Amaldagi nazariy-empirik tajribalar tahliliga ko'ra, jamiyat rivoji inson kamolotiga ikki xil yo'nalishda ta'sir qilishi mumkin.

Birinchidan, jamiyat hayotining takomillashuvi fuqaro shaxsi oldiga yangi-yangi dolzarb talablarni qo'yib boradi. Masalan, fan va texnika taraqqiyoti, sanoatning rivojlanishi va ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi yangi ixtisosliklar, yuqori malaka va maxsus bilimlarni egallahni kun tartibiga qo'ymoqda hamda jamoaviy mahsulot mazmunida shaxsiy ulush mas'uliyatini oshirishni dolzarblashtirmoqda.

Ikkinchidan, yangicha shart-sharoitlar kishilarning o'zaro munosabatlarga kirishish usullarini ham o'zgartirmoqda. Paydo bo'lgan mazkur yangiliklarni o'zlashtirish va tartibga solishga intilish ham inson kamolotiga xizmat qiladi. Masalan, kompyuter texnologiyalari va internetning kundalik hayotimizga shitob bilan kirib kelganligi, internetning kishilararo ma'lumot almashish vositasiga aylanib borayotgani,

Internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish va uni turmush tarzining deyarli barcha jabhalariga joriy etishni lab qilmoqda.

Ijtimoiy hodisa bo'lgan komil insonni tarkib toptirish tarixiy shart-sharoit bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Xalqimizning tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmqo'riyotning ma'lum bosqichlarida turlicha xususiyatlarga ega bo'lgan tarbiya usullari va jarayonlari, ijtimoiy mo'ljallar va qadriyatlar ustuvor mavqe kasb etib, o'zgarib borgan. Ularning konkret shaxsning yoki guruhning jamiyatda tutgan o'rni, mavjud davlat tuzumi va boshqa shu kabi omillar, ko'plab ijtimoiy hodisalar qatori «komil inson» g'oyasiga munosabati va uni tarkib toptirish jarayonlariga ham turlicha yondashuvlarni yuzaga keltiradi. Bu esa, komil insonni tarbiyalashning tarixiy tizimini anglatadi.

Komil insonni tarkib toptirish jarayonining yana bir tizimini uning subyektlaridan farqlash mumkin:

- 1) butun bir jamiyatning komillik sari intilishi;
- 2) alohida guruhning komillik sari intilishi;
- 3) shaxsning individual kamoloti.

Komil inson shaxsini kamol toptirish jarayonini mazmuniga yoki subyektiga ko'ra, tarixiy rivojlanish yoki amal qilishiga ko'ra tuzilmalarga ajratishdan maqsad mazkur jarayonga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdir. Tarixiy rivojlanish natijasida komil insonni tarkib toptirishning barcha jihatlari o'zgarishga uchraydi. Konkret tarixiy sharoitlarda «komil inson» g'oyasi, unga xos xususiyatlar, uni shakllantirish usullari va hokazolar turlicha bo'ladi, eng muhimi esa, vaqt o'tishi bilan takomillashib boradi. Buni xalqimizning tarixiy-madaniy rivojlanish evolyutsiyasida «komil inson» g'oyasining davr bilan hamohang o'zgarib, takomillashib borishida ham kuzatishimiz mumkin.

«Avesto»da komil inson g'oyalarining juda asosli va teran qo'yilganligi diqqatni o'ziga tortadi. Jumladan, «o'z xalqiga xayrixoh, odil tuzumga mos yaxshiliklar g'oyasi nihoyatda chuqur mazmunga ega bo'lib, komillik mezonlarining

qonularini tashkil qiladi. Ayniqsa, insonga yuksak ma'naviyat sohibi darajasiga ko'tarilish vazifasi qo'yilganligi alohida choniyatga molik»¹.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tarkib yasovchi tushunchalaridan biri bo'lgan komil inson hodisasiga xos xususiyatlu xalqimiz tafakkurida zardushtiylik dini bilan uzviy bog'liq holda shakllangan edi. Darhaqiqat, komil inson g'oyasi o'ziming rivojlanish tarixi davomida zardushtiylik dinidagi asosiy g'oyalar – ezgulik va yovuzlik kurashi hamda ezgulikning ulug'lanishi asosida shakllanib keldi. Zero, «komil inson g'oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyanob g'oyadir»².

Barkamol shaxsni tarbiyalash azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Buning isbotini mutafakkirlarimiz asarlarida teran ifodalaniganligidan ko'rishimiz mumkin.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz»³.

Komil inson ta'rifi borasida fikr yuritgan ulug' allomalar, mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan mulohazalarni unnumiy tahlil etish shundan guvohlik beradi-ki, komil shaxs siyemosidagi bosh belgi – mehr-muruvvat fazilati, ya'ni insonning boshqalarga ezgu munosabati ekanligi ayonlashadi. Zero, mehrsiz qilingan barcha sa'y-harakatlar oxir-oqibatda xudbinlikka olib keladi. Komil inson siyemosidagi ikkinchi

¹ S. Otamurodov. «Avesto» – bebaho merosimiz.// «Jamiyat va boshqaruv», 2001, №3. 37-b.

² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «O'zbekiston», 2001. 56-b.

³ Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Islom Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: «O'zbekiston», 1999. 134-b.

umumlashtiruvchi xususiyat esa bilim, ilm, o'qishga kattal mayl va rag'batdan iboratdir. Eng qadimgi yozma obidamiz «Avesto»dan tortib, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning komil inson konsepsiyasigacha bo'lgan manbalarning barchasida bilim, ma'rifatga kuchli rag'bat shaxs kamolotigiga keng yo'l ochishi asoslab beriladi.

Modomiki, barcha sa'y-harakatlarimizning pirovard maqsadi komil insonni tarbiyalash ekan, jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirish, avvalo, fuqarolarning o'zini o'zi muttasil va muntazam rivojlantirish payida bo'lishi, izlanish zavqidan chekinmaslik, o'qish, o'rganishda izchillikka erishish bosh muddao bo'lmoq'i zarur.

Mutolaa samaradorligini ta'minlash, badiiy asarning nozik qirralarini ilg'ay olish, undan zavqlanish va g'oyaviy mazmunini to'liq idrok etish uchun muallif ijodkorligi bilan bir qatorda kitobxon ijodkorligi ham talab etiladi.

Misol uchun, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanini o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini olib ko'raylik. Ko'pchilik adabiyot ixlosmandlari tan olganidek, «O'tkan kunlar» ishq-muhabbat mavzuiga bag'ishlangan tarixiy asar. Unda XIX asr o'rtalarida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar fonda ikki yoshning go'zal, lekin baxtsiz muhabbat tasvirlangan. Shu bilan birga, bu roman vatanparvarlik to'g'risidagi betakror asardir. Oddiy o'quvchi undagi muhabbat sarguzashtlariga, ayriliq izardiroblari-yu, visol lazzatlari ifodalangan voqealarga maftun bo'lishi, qahramonlar bilan birga shu tuyg'ularni yurakdan kechirishi mumkin. Aslida ushbü badiiy zavqning o'zi ham kam emas. Ammo sinchkov kitobxon shu bilangina cheklanib qolmaydi. U yozuvchi tomonidan batafsil tasvirlanmagan bo'lsa-da ishoralar, qochirimlar, qisqa izohlar (xabarlar) orqali ko'rsatishga harakat qilingan mazmun, ijodiy niyatni anglab yetishga intiladi. Bu asarning bosh qahramoni Otabek nafaqat sof va ulug'vor sevgi egasi, balki ona tuproq uchun jonini fido qilishga tayyor vatanparvar inson obrazi sifatida taqdim etilganidir. Shunisi borki, roman oxirida shahid bo'lganligi qisqa satrlarda aytib o'tilgan Otabek va Usta Olimlarning vatanparvarligi abstrakt tushuncha

emas. Buni romandagi ba'zi voqealar silsilasidan, ularning zamiriga singdirilgan ma'nodan anglab olish mumkin.

Ma'lumki, Otabekni qaynotasi uyiga kiritmay, quvib solgandan keyin u Marg'ilon ko'chalarida tentirab, oxiri shoyi to'qivchi Usta Olimning eshidigiga duch keladi, uning mehmoni bo'ladi va mezbonning sevgi sarguzashti, xotini Saodatning valoti tufayli boshidan kechirgan g'am-anduhlaridan, ayriliq azoblaridan voqif bo'ladi. Yuksak insoniy tuyg'ular bu ikki glamli ko'ngilni bir-biriga yaqinlashtirib, sirdosh do'stlarga aylantiradi. Voqealar rivoji Otabekning muhabbat - Kummushbibini ham tuproqqa qo'yadi. Har ikki yigitning mahbubasi, yurak toji shu zaminda abadiy qo'nim topadi. Endi ular uchun bu tuproq oddiy yer emas, muhabbatga yo'g'rilgan muqaddas zaminga aylandi. (Otabekning tungacha qabristonda qolib ketishini eslang). Endi bu zaminni aziz saqlash, loptalishiga yo'l qo'ymaslik nomusli kishining oriyat ishiga aylandi. Vatan sarhadlariga g'ayridinlar bostirib kelganda Otabek ham, Usta Olim ham ko'ngillilar qatori qo'lga qurol olib, jangga otlanganining, Toshkentdan ham, Marg'ilondan ham ancha olisda jon taslim qilib, shahid bo'lganining boisi hunda.

Modomiki, muallif bu voqealarning mufassal tasvirini bermay, qahramonlarning xatti-harakat motivlarini batafsil yoritmas ekan, bu o'rinda asarning mohiyatiga chuqur kirib borish uchun «kitobxon ijodkorligi» zarur bo'ladi.

Insonda badiiy salohiyatning mavjudligi, badiiy zavq va badiiy didning tarbiyalanganligi uning umumiy madaniyatlik darajasining salmoqli qismini tashkil etadi. Bunda shaxsning mutolaa madaniyatini egallagani muhim omil hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda mutolaa sotsiologiyasi va psixologiyasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar mutolaa madaniyatining tizim yasovchi muhim belgilari – mutolaa texnologiyasi, mutolaa darajasi hamda mutolaa intensivligi ekanini ta'kidlaydilar.

Mutolaa texnologiyasi kitobxon tomonidan matnni o'zlashtirish usullarini bildirib, uning matn mazmunini qancha-

lik darajada anglaganligi hamda anglangan tushunchalarini hayotga qanchalik tatbiq qila olishi bilan belgilanadi. Bu mutolaa texnologiyasining sifat jihatiga taalluqli bo'lsa, uning miqdoriy jihatni esa, o'quvchining tez yoki sekin o'qishida namoyon bo'ladi. Mutolaa jarayonida shaxsning operativ xotirasi hamda diqqatning muqimligi shakllanadi. Bu ikkasi esa, o'z navbatida, shaxsning aqliy va badiiy kamolotini ta'minlaydi. Jamiyatning har bir a'zosini aqliy va hissiy rivojlantirish esa, mamlakatimizda amal qilayotgan komil inson konsepsiyasining hamda har tomonlama sog'lom avlodni shakllantirish borasidagi sa'y-harakatlarimizning asosiy maqsadidir.

AQShlik mutaxassislar mutolaa jarayonlarini o'qilayotgan matnni tushunish koeffitsiyenti 70 foizdan kam bo'limgan «me'yoriy» hamda koeffitsiyenti 50 foiz atrofida bo'lgan «saralab» o'qish turlariga ajratadilar. Bunda me'yoriy o'qish oddiy (minutiga 200–300 ta so'z), tez (minutiga 300–500 ta so'z) hamda juda tez (minutiga 550 tadan ortiq so'z) o'qish bo'lishi mumkin. Saralab o'qish esa, qarab chiqish, qidirish va saralashdan iborat bo'ladi. Saralab o'qishda o'qish tezligi minutiga 800–1600 ta so'zni tashkil etadi. Ushbu o'qishni mutaxassislar diagonal o'qish deb ham nomlashadi¹.

Mutolaa madaniyatining ikkinchi tizim yasovchi belgisi – mutolaa darajasi ham mutolaa texnologiyasi bilan bog'liq bo'lib, o'quvchi tomonidan ma'lumotni anglash darajasini bildiradi. Buning to'rtta bosqichi mavjud. Ular quyidagilar:

Birinchi darajada o'quvchi matnning mazmunini anglab, hikoya qilinayotgan voqeanning syujetini hamda uning asosiy jihatlarini eslab qoladi.

Ikkinci darajada o'quvchi matnning mazmunini hamda syujetni anglab, voqealar rivojini ma'lum darajada bashorat qila olish qobiliyatini namoyon qiladi.

Uchinchi darajada o'quvchi matnga va unda hikoya qilinayotgan voqeaga o'zining mustaqil munosabatini bildirib,

¹ О. Черномыс. Игры разума и чтение. Халкаро Интернет тармоғининг www.aboutstudy.ru саҳифаси, 1.07.2003.

qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay oladi hamda quruning epizodlarini tahlil qila oladi.

To'rtinchi darajada o'quvchi matnning mazmunini to'la anglab, voqeani mustaqil tahlil qila oladi. Qahramonlarning xatti-harakatlarini voqealar mantig'i asosida tahlil qilib, sintetik, ya'ni umumlashma xulosalar chiqara oladi.

Mutolaa madaniyatining eng muhim tizim yasovchi belgisi mutolaa intensivligi bo'lib, bunda mutolaa manbalaridan davriy foydalanish sur'ati tushuniladi. Ya'ni, bir kishining bir hafta davomida yoki bir oy (yil) mobaynida nechta kitob o'qiganligi mazkur shaxsning mutolaa intensivligini belgilaydi. Mutolaa intensivligi jamiyatda mutolaa madaniyatining darajasiga mutanosib bo'lib, intensivlik qanchalik yuqori bolsa, mutolaa madaniyati ham shunchalik yuksak bo'ladi. Mutolaa intensivligining yuqori bo'lishini ta'minlovchi omillar quyidagilardir:

1. Mutolaaga va ma'lumot olishga qiziqish darajasining yuqoriligi. Bu xususiyat shaxsda yoshligidan, maktab partasidan, hatto bolalar bog'chasidan shakllanadi. Demak, jamiyatda barkamol shaxslarni kamol toptirishning muhim jihatlaridan biri – bolalarda mutolaaga qiziqishni shakllantirishdan iborat.

2. Mutolaa manbalarining qiziqarli, mazmunan boy bo'lishi. Buni ta'minlash uchun mutolaa manbalarining mazmunderligini oshirish, shuningdek, jahon hamda milliy mumtoz adabiyot namunalarini, yuksak iste'dod va mahorat bilan yaratilgan zamonaviy asarlarni ko'proq chop etish kerak.

3. Mutolaa manbalariga oson ega bo'lishni ta'minlash. Buning ikkita omili mavjud bo'lib, birinchisi – iqtisodiy omildir. Ya'ni, aholining xarid quvvati bilan mutolaa manbalarining bahosi mos kelishi kerak. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining mutolaaga bo'lgan ehtiyojlarini himoya qilish, ya'ni kam ta'minlangan va nogironlarga yordam ko'rsatishda ularni bepul kitoblar bilan ta'minlash, gazeta-jurnallarga obuna qilishni tashkil etish lozim.

Ikkinchi muhim jihat esa, mutolaa manbalarini tarqatiladigan muassasalarining qulay joylashuvидir. Ya'ni, kutub-

xonalar, Internet-kafelar, kitob hamda gazeta do'konlari istiqbolni ko'zlagan qat'iy reja asosida joylashtirilishi, bunda, eng avvalo, kitobxon va gazetxonlarning manfaatlari hisobga olinishi darkor.

4. Bozor iqtisodi talablariga mos ravishda turli adabiyotlar va boshqa mutolaa manbalarining reklamasini keng yo'lgan qo'yish kerak.

Shaxsda mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxona va axborot-resurs markazlarining ahamiyati katta. Ular o'zining barcha vositalari orqali kitobxonlarning o'qish xarakteriga va mutolaa orqali tarbiyalanishiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni kitobga qiziqish uyg'otadi, ko'nikmalarni tarbiyalaydi, kitobga mehr paydo qiladi. Kutubxona mustaqil ravishda kitob tanlashni, undan bilim va zavq olish yo'llarini, o'qigan narsalar haqida fikr yuritishni va unga tanqidiy qarashni, shu bilan birga kitoblarni tartibli ravishda o'qishni o'rgatadi.

1971-yili YUNESKO va xalqaro nodavlat tashkilotlar tomonidan qabul qilingan «Kitob xartiyasi»da «Jamiyat barcha kishilarga kitoblardan zavqlanishni ta'minlashga burchlidir», degan jumlalar bor. Darhaqiqat, badiiy adabiyotni o'qishdan asosiy muddao – undan zavq olish, badiiy obrazlar olamiga kirib borish, ularning turfa taqdirlari, o'y-fikrlari, orzu-in tilishlari, muhabbat sururi-yu, ayriliq hasratlariga sherik bo'lish, qahramonlar hayoti bilan yashash, ular bilan birga nafas olish, qisqasi, kitobning mazmun-mohiyatini aqlan anglab yetish va qalbdan his qilishdan iboratdir. Asarni bu darajada mukammal o'zlashtirish jo'n ish emas, u kishidan yuksak intellektual va estetik darajani, ya'ni o'ziga xos mutolaa madaniyatini talab qiladi. Bunday maqomga erishgan kishi esa haqli ravishda badiiy rivojlanishning yuqori pilapoyalariga ko'tarilgan hisoblanadi.

Mutolaa madaniyatini belgilovchi mezon – kitobni tanlab, saralab o'qishdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, mutolaa uchun kitob tanlash mutolaa jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Hozirgi matbaa imkoniyatlarining kengayishi natijasida kitob nashr qilish juda rivojlandi. Elektron shakldagi kitoblar ham ko'payib bormoqda. Bu jarayonda, kitobxonlar, ayniqsa,

yoshlar uchun informatsion chalkashliklar orasidan zarur, toydali axborotni, yaxshi kitobni ajratib olishda tajribali kishilar, adabiyotshunoslar ko'magiga ehtiyoj katta. Kitobxonlarni, ayniqsa, yosh kitobxonlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish uchun malakali maslahatlar, tavsiyalar zarur.

Shu ma'noda, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Davlat Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlari bilan hamkorlikda professor M.Bekmurodov g'oyasi asosida tuzilgan «Aholi turli qatlamlari vakillarining mustaqil o'qib, o'zlashtirishi tavsiya etiladigan badiiy, ilmiy-falsafiy va tarixiy-axloqiy adabiyotlar ro'yxati» shu bobga ilova qilinganda.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxatidan insonni to'lujonli shaxs bo'lib shakllanishga chorlaydigan, o'ziga xos yo'l ko'rsatadigan asarlar o'rinn oldi. Mazkur ro'yxatga kiritilgan badiiy, ilmiy-falsafiy va tarixiy-axloqiy asarlarning ko'p yoki kamligi hali maxsus muhokama bo'lishi mumkin.

*Ijtimoiy-madaniy faoliyatda aholi turli qatlamlari
vakillarining mustaqil o'qib, o'zlashtirishi uchun tavsiya
etiladigan badiiy, ilmiy-falsafiy va tarixiy-axloqiy
adabiyotlar ro'yxati*

I. JAHON ADABIYOTI

1. F. Rable – «Gargantuya va Pantagryuel».
2. Shekspir – «Romeo va Juletta», «Gamlet», «Qirol Lir».
3. I.V. Gyote – «Yosh Verterning iztiroblari», «Faust».
4. Shiller – «Qaroqchilar», «Makr va muhabbat».
5. Balzak – «Gorio ota», «Gobsek», «Yevgeniya Granden».
6. Stendal – «Qizil va qora», «Parij ibodatxonasi».
7. Aleksandr Dyuma – «Graf Monte Kristo».
8. Ernest Xeminguey – «Chol va dengiz».
9. Jek London – «Martin Iden».
10. Yevrepid – «Medeya».
11. Plavt – «Xumcha».
12. R.N. Guntekin – «Choliquushi».
13. Gyugo – «Dengiz zahmatkashlari».
14. P. Merime – «Karl IX sultanati yilnomasi».
15. Gomer – «Iliada», «Odissiya».
16. Jyul Vern – «O'n besh yoshli kapitan».
17. Servantes – «Don Kixot».
18. A. Sent-Ekzyuperi – «Kichkina shohzoda».
19. Ch. Dikkens – «Oliver Twistning boshidan kechirgani
lari».
20. Garret Bitcherning Stou – «Tom tog'aning kulbasi».
21. S. Moem – «Oy va chaqa».
22. G. Gesse – «Cho'l bo'risi».
23. G.G. Markes – «Yolg'izlikning yuz yili».
24. Dante – «Xalq tili haqida».
25. Ekkerman – «Gyote bilan suhbatlar».
26. G. Monn – «Sehrli tog'».
27. Jahon hikoyalari antologiyasi.
28. K. Abe – «Qumdag'i xotin».
29. «Yuzini yo'qotgan odam» – Yapon novellalari.
30. Tagor – «Halokat».

II. MDH XALQLARI ADABIYOTI

1. A.S. Pushkin – «Kapitan qizi», «Yevgeniy Onegin».
2. Chexov hikoyalari.
3. Lermontov – «Zamonamiz qahramoni».
4. N.V. Gogol – «Mirgorod», «Dikanka qishlog‘i oqshom-
lari», «O‘lik jonlar».
5. Nodar Dumbadze – «Hellados».
6. Fuzuliy – Devon.
7. Muxtor Avezov – Abay.
8. Maxtumquli – She’rlar.
9. Chingiz Aytmatov – «Oq kema», «Asrga tatigulik kun».
10. Lev Tolstoy – «Anna Karenina», «Urush va tinchlik».
11. Sholoxov – «Don hikoyalari», «Tinch Don».
12. Turgenev – «Otalar va bolalar», hikoyalari, romanlar.
13. O’Sulaymon – «Aylanayin ona zamin».
14. R.Hamzatov – «Mening Dog‘istonim».
15. T. Qosimbekov – «Singan qilich».
16. F.M. Dostoyevskiy – «Jinoyat va jazo».
17. V.G. Korolenko – «Ko‘r muzikachi».
18. Mixail Bulgakov – «Usta va Margarita».
19. Husayn Jovid – «Shayx San’on».

III. O‘ZBEK ADABIYOTI

1. Yusuf Xos Xojib – «Qutadg‘u bilig».
2. Ahmad Yassaviy – «Devoni hikmat».
3. «Alpomish» dostoni.
4. Alisher Navoiy – «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ai sayyor», «Saddi Iskandariy», «Xazoyin ul-maoniy», «Holoti Pahlavon Muhammad».
5. Bobur – G‘azallar.
6. Turdi – She’rlar.
7. Furqat – G‘azallar.
8. Mashrab – Devon.
9. Muqimiy – G‘azallar.
10. Ogahiy – Devon.
11. Abdulla Qodiriy – «O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», «Diyor Bakr» (hikoyalari kitobi).

12. Cho'lpon – «Kecha va kunduz», she'rlar.
13. Abdulla Avloniy – «Turkiy guliston yoxud axloq».
14. Hamza – «Devoni Nihoniy».
15. Fitrat – «Hind ixtilochilar», «Munozara».
16. G'afur G'ulom – «Shum bola», «Yodgor», she'rlar.
17. Abdulla Qahhor – Hikoyalar.
18. Oybek – «Navoiy», «Qutlug' qon».
19. Hamid Olimjon – She'rlar.
20. Maqsud Shayxzoda – «Jaloliddin Manguberdi», «Mirzo Ulug'bek».
21. Pirimqul Qodirov – «Yulduzli tunlar», «Humoyun VII Akbar», «Uch ildiz».
22. Odil Yoqubov – «Ulug'bek xazinasi», «Diyonat».
23. Shukur Xolmirzayev – «O'n sakkizga kirmagan kim bor», «Qora kamar», «O'zbeklar».
24. Tog'ay Murod – «Otamdan qolgan dalalar», «Ot kishnagan oqshom».
25. R. Parfi – She'rlar.
26. Mirkarim Osim – «Karvon qo'ng'irog'i».
27. O'tkir Hoshimov – «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar».
28. O'lmas Umarbekov – «Qiyomat qarz».
29. Shavkat Rahmon – «Saylanma».
30. Asqad Muxtor – «Chinor».
31. Abdulla Oripov – She'rlar, «Hakim va ajal», «Jannatga yo'l».
32. Erkin Vohidov – She'rlar, «Ruhlar isyonii», «Nido» .
33. Muhammad Ali – «Sarbadorlar» .
34. Omon Matjon – «Haqqush qichqirig'i».
35. Nazar Eshonqul – «Momoqo'shiq», «Urush odamlari», «Maymun yetaklagan odam».
36. Murod Muhammad Do'st – «Lolazor».
37. Tohir Malik – «Murdalar gapirmaydilar».
38. Ulug'bek Hamdam – «Muvozanat».
39. M.Mansur – «Judolik diyori».
40. Sobir O'nar – «Bibisora».
41. Isajon Sulton – «Munojot».

42. X. Do'stmuhammad – «Bozor».
43. Erkin A'zam – «Pakananing oshiq ko'ngli».
44. A. A'zam – «Hali hayot bor».
45. Sh. Bo'tayev – «Qo'rg'onlangan oy».
46. XX asr hikoyalari antologiyasi.
47. A. O'ktam – She'rlar.
48. Usmon Azim – She'rlar .
49. X. Davron. She'rlar.
50. T. Qayipbergenov – «Qoraqalpoqnoma».

IV. ILMIY-FALSAFIY VA TARIXIY-AXLOQIY ADABIYOTLAR

1. Rabg'uziy – «Qissasi Rabg'uziy».
2. Ahmad Yugnakiy – «Hibatul haqoyiq».
3. Amir Temur – «Temur tuzuklari».
4. Alisher Navoiy – «Sirojul muslimiy», «Nazmul javohir» «Hayrat ul-abror», «Lison ut-tayr», «Nasoyim ul-muhabbat», «Tarixi anbiyo va hukamo».
5. Fitrat – «Hind sayyohi».
6. K. Monson – «Gyote va islom».
7. Abay – «Nasihatlar».
8. R. Nosir – «Olam yuzin obod qil».
9. Aziziddin Nasafiy – «Komil inson».
10. G'azzoliy – «Tavba kitobi».
11. Jaloliddin Rumiy – «Ichingdag'i ichingdadur», «Masnaviyi ma'naviy»
12. Zahiriddin Muhammad Bobur – «Boburnoma».
13. Xondamir «Makorim-ul axloq».
14. O. Sharafiddinov – «Olamning qalbi».
15. B. Qosimov – «Ismoilbek Gaspirali».
16. Platon (Aflatun) – «Davlat», «Qonunlar».
17. Aristotel – «Poetika».
18. Ogahiy – «Gulshani davlat», «Zubdat ut-tavorix».
19. So'fi Olloyor – «Sabot ul-ojiziyn».
20. Sulaymon Boqirg'oniy – «Boqirg'on kitobi».
21. Beruniy – «Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar».
22. L. Tolstoy – «Iqrornoma».

23. I. Bunich – «Partiyaning oltinlari».
24. Konfutsiy – «Muhokama va suhbatlar».
25. Farobiy – «Fozil odamlar shahri».
26. Abu Homid G'azzoliy – «Mukoshafat-ul qulub» («Qalblar kashfiyoti»)
27. Kaykovus – «Qobusnama»
28. Narshaxiy – «Buxoro tarixi»
29. E.Fromm – «Inson qalbi»



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Mutolaa» so‘zining lug‘aviy ma’nosini ayting.
2. «Mutolaa madaniyati» tushunchasiga ta’rif bering.
3. Mutolaa madaniyatini shakllantirishning asosiy bosqichlarini bilasizmi?
4. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan asosiy ijtimoiy institutlarni sanab chiqing.
5. Mutolaa madaniyatiga erishishda ixtiyoriylik tamoyili ning ahamiyatini tushuntirib bering.
6. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi kutubxona xodimlari olib boradigan ijtimoiy-madaniy faoliyatga qanday ijobiy ta’sir ko’rsatadi?
7. «Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining jamiyatda mutolaa madaniyatini tartibga solishdagi ahamiyatini nimalarda ko‘rasiz?



Tayanch so‘z va iboralar

Kitob, mutolaa, mutolaa madaniyati, shaxs, komil inson, jamiyat, tanlab o‘qish, kitobxon ijodkorligi, kutubxona.

3.6. Ijtimoiy-madaniy faoliyat va inson kapitali

Inson kapitali degan tushuncha XX asr boshlaridan e’tiboran ilk daf'a muomalaga kiritilgan bo’lsa, XXI asr arafasida ishlab chiqarish, fan, ta’lim, siyosat, madaniyat va boshqa sohalarda bu atama keng qo’llanila boshlandi. Ta’kidlash zarurki, shu paytga qadar kapital so‘zi mulk, boylik, erishilgan narsa sifatida tushunilib kelindi. Shuningdek,

vaqin-yaqingacha kapital tushunchasi insondan ajratilgan holda talqin etilar edi. Inson moddiy kapitalni yaratishda faqat vosita sifatida qaralardi. Inson kapital uchun vosita emas, balki uning egasi, moddiy va nomoddiy kapitalni yaratuvchi va undan foydalanuvchi ekanligi nihoyat XX asrning so'nggi choragida anglab yetildi.

Xususan, o'tgan XX asrning 70-yillaridan boshlab, AQSh va Yevropa mamlakatlari olimlari Teodor Shuls, Geri Bekker, Sh.Rozen, F.Uelcha, B.Chizuika, Y.Ben-Poreta, M.Blauga va boshqalar insonni faqat tor yo'nalishda, muayyan kasbga tayyorlashdan ko'ra, umumiyoq yo'nalishda shakllantirish foydali ekanini asoslovchi asarlarni yaratdi. Bu asarlarda insonni umumiyoq yo'nalishda tayyorlash uni kasbiy va ijtimoiy humoyalash, ya'ni shafqatsiz bozor munosabatlari sharoitida ishsiz qolishdan muhofazalashda ko'mak berishi har tomonluma yoritib berildi. Ammo insonni kasbiy rivojlantirish yumushlari uni insoniy, ya'ni, ma'naviy yuksaltirish bilan qaytarzda uyg'unlashuvi bu asarlarda o'z ifodasini topmadi.

Amerika iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyotida tub burilish yasagan mashhur tadbirkor va olim G.Ford jamiyat va alohida olingan tashkilotning barqaror rivoji faqatgina inson qobiliyatiga, kasbiy layoqatiga va uning mas'uliyat darajasiga bog'liq ekanligini asoslab bergan hamda uning muhimligini qayta-qayta ta'kidlab kelgan. Bir so'z bilan aytganda, G.Ford va shu sohada ish olib borgan boshqa nazariyotchilar ham inson kapitalini shakllantirish uni ko'proq umumiyoq rivojlantirishga bog'liq, deb hisoblashadi.

Umuman G'arb dunyosi ijtimoiy fanlarida inson kapitali jamiyatning ma'naviy-axloqiy holatini yaxshilash, odamlarni yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlariga safarbar etish taraqqiyot yo'lidagi katta imkoniyat, deb talqin etilmaydi. Shaxsning mehnat jarayonida o'z-o'zini jamoanining, jamiyatning uzviy qismi hamda atrofdagilarga ongli tarzda naf keltiruvchi inson sifatida anglay olish imkoniyati ochib berilmaydi.

Shu tariqa inson kapitali tushunchasi asosan biryoqlama, ya'ni, inson kapitali insonning o'ziga bevosita keladigan

foyda yoki shaxsni ijtimoiy himoyalash imkoniyati sifatida tushunib kelindi.

Bugungi kunga kelib esa inson kapitali tushunchasi ning mohiyati tamomila o'zgardi. Inson kapitalining to'ma'nodagi insoniy mohiyat kasb etishida ma'naviyatning ya'ni, tarbiya omilining roli nechog'lik muhim ekanligini anglash dolzarb ahamiyat kasb eta boshladи. Inson kapitalining ma'naviyat bilan uyg'unligi va ajralmasligi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida ilk daf'a ilmiy asoslangan holda yorqin asoslab berildi. Ayniqsa, Birinchi Prezidentimizning insondagi bilim va salohiyatning mas'uliyat tuyg'usi bilan, iste'dodlar ro'yobini millatning orzu-intilishi bilan, kasbiy taraqqiyot natijasida erishilgan muvaffaqiyatlarni o'zlikni anglash zarurati bilan uyg'un tarzda tarbiyalash haqidagi dono mulohazalari e'tiborlidir.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan tamoyil, ya'ni, inson omilini bilim va tarbiya bilan uyg'un tarzda shakllantirish pirovard natijada umumiyoq miqyosda kuchli va yalpi taraqqiyotni, ya'ni ijobjiy ma'nodagi «portlash effekti»ni yuzaga keltirishi to'g'risidagi ilmiy bashorati bugungi kunda o'zining to'la tasdig'ini topdi.

Davlatimizning Birinchi rahbari tomonidan asoslab berilgan barkamol shaxs konsepsiysi asosida tahlil etganimizda inson kapitali tushunchasi mohiyat etiboriga ko'ra quyidagi ijtimoiy xususiyatlarni namoyon etadi:

- inson kapitali zamonaviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi;
- inson kapitalini rivojlantirish davlat, jamiyat va shaxsning o'zidan jiddiy sa'y-harakat va xarajatlar talab etadi;
- inson kapitali bilim, tajriba, strategik reja, odamlarning intellektual-ma'naviy darajasi, shuningdek, muayyan maqsad, qiziqish va layoqatlari sifatida ham milliy zaxira hisoblanadi;
- inson kapitalini rivojlantirish maqsadida qilinuvchi xarajatlar faqat yaqin vaqt mobaynida emas, balki uzoq istiqbolda ko'proq naf keltiradi;

inson salohiyati uning egasiga ko'rsatiladigan e'tibor va jumxoniyatlik natijasida inson kapitaliga transformatsiya bo'ladi.

Iaraqqiyot darajasining o'sib borishi, bozor munosabatlarning chuqurlashuvi mehnat bozoriga va xodim kasbining sifatiga bo'lgan talabni kuchaytirib boradi. Zero, zamonaviy bozor talablari ish bajaruvchi shaxsning har tomonlama va chuqur bilimlar egasi bo'lishini taqozo etadi.

Ma'lumki, bilimlar pirovard natijada ko'rsatilayotgan xizmatlar yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda mehnat salohiyati ham imqod, ham sifat ko'rsatkichlariga ko'ra, Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan maqsadlarni amalga oshirishga qodir kuchga aylandi. Chunki o'tgan yillar mobaynida aholining ma'nnaviy-intellektual saviyasi, kasbiy layoqat darajalari keskin yuksaldi. Ta'kidlash joizki, sobiq sho'rolar davrida xalqimiz o'z mehnatining natijalaridan manfaatdor emas edi. Odamlar biror bir ishni bajarish asnosida o'zlarini asosan ish jarayonining ishtirokchisi sifatida his etar, qilgan ishlarning natijasi uchun o'zlarini manfaatdor deb ham, mas'ul deb ham anglamasdilar. Istiqlol tufayli mehnat hodisasi muayyan ish, faoliyat jarayonini ta'minlovchi vositadan so'nggi pirovard natijani qo'lga kiritishga ongli yo'naltirilgan omilga aylandi. Mustaqillik sharofati bilan erishilgan eng muhim ijtimoiy-ma'nnaviy yutuqlarimizdan biri ham mehnat mazmunining mohiyatan o'zgargani bo'ldi.

inson kapitalini rivojlantirishda mehnat omilining roli beqiyosdir. Yaqin o'tmishda odamlar asosan muayyan vaqt doirasida ishlash hamda ish vaqt tezroq o'tishidan manfaatdor kayfiyatda yashar edilar. Ular o'z ish faoliyatlari natijasidan manfaat olishni o'yamasdan va hatto bunday manfaatni umid ham qilmasdilar.

Sotsiolog M.Veberning fikriga ko'ra, tez sur'atlar bilan rivojlanish yo'liga o'tgan jamiyatlarda inson omiliga e'tibor keskin kuchayadi. Tashabbuskorlik, innovatsion tafakkur

qilish, nostandard holatlarda eng to‘g‘ri, maqbul yechim topish bilish, mas’uliyatni zimmaga olish salohiyatiga ega bo‘lgan shaxslarga ehtiyoj tez orta boradi.

Individlarga tayanishdan ko‘ra, har tomonlama chiqar bilimga ega shaxslarga tayanish tendensiyasining kuchayishi jamiyatdagi barqaror taraqqiyotning ifodasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizda bilimli, tashabbuskor, mas’uliyatli shaxslar tarbiyasiga ustuvor ahamiyat berib kelinmoqdasi. Istiqlolga erishilgan dastlabki yillardanoq inson kapitalini rivojlantirishga keng qamrovli yondashilib, uning mazmuni doirasidagi quyidagi tarkibiy jihatlarga alohida e’tibor qarash tilmoqda:

- insonlarning mehnat salohiyati;
- salomatlik holati;
- intellektual darajasi;
- tashkilotchilik, tadbirdorlik qobiliyati;
- madaniy-axloqiy rivojlanganlik darajasi;
- ijtimoiy hamkorlik asosidagi faoliyat ko‘lami;
- o‘z-o‘zini, xodimlarni va tashkilotni boshqarish salohiyati.

Hozirgi paytdagi mavjud ilmiy adabiyotlarda inson kapitalining qiymati jamiyat qoidalari va qonun talablariga monand yashovchi insonni hamda zamonaviy talablar darajasida ishlay oladigan mutaxassisni shakllantirish uchun davlat tomonidan sarf etilgan mablag‘lar miqdori bilan belgilanadi, deb qayd etilmoqda.

Ta’kidlash joizki, inson kapitali uning egasidan ajralmaydigan va undan bu kapitalni hech kim tortib ololmaydigan mulk sanaladi. Shu boisdan ham inson kapitali jamiyatning eng noyob qadriyati hisoblanadi va ijtimoiy taraqqiyotning bosh harakatlantiruvchi kuchidir. Oddiygina qilib aytganda, inson kapitali – bu har bir insondagi bilimlar, egalangan boy kasbiy tajribalar, yaratish va bunyodkorlikka yo‘naltirilgan ijtimoiy mo‘ljallardir. Inson kapitalini boyitishga yo‘naltirilgan investitsiyalar doirasiga bilimlar orttirish, kasbiy malakalarini oshirish, salomatlikni mustahkamlash,

hamda yangi ma'lumotlarni topish, ularni egallab olish va bu ma'lumotlardan unumli foydalana olish salohiyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyatlar kiradi.

Istiqlol yillarida inson kapitalini rivojlantirish masalasiga ijtimoiy taraqqiyotimizning ustuvor vazifasi sifatida qarab kelinmoqda.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Inson kapitali» tushunchasiga ta'rif bering.
2. Ijtimoiy-madaniy faoliyat orqali inson salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslang.
3. Islom Karimovning inson kapitalini rivojlantirishga doir mulohaza va munosabati haqida fikr bildiring.
4. Madaniy muassasalar inson kapitalining qaysi jihatlarini rivojlantirishga mas'ul hisoblanadi?
5. Bilimlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va roli nimalardan iborat?
6. Iste'dodlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va rolini izohlang.
7. Mehnat omilining inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyatini tushuntiring.
8. Istiqlol yillarida inson kapitalining qaysi tarkibiy jihatlari ayniqsa tez rivojlandi?
9. «Inson kapitali» tushunchasini yaqqol ifoda etadigan beshta keys tayyorlang.



Tayanch so'z va iboralar:

Inson kapitali, bilim, tajriba, intellektual daraja, salohiyat, inson omili, qobiliyat.

3.7. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida milliy g'oya va ma'naviyat targ'iboti samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyanoma

Mustaqillikni qo'lga kiritgach, O'zbekistonning dunyo mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi hamkorlik munosabatlari to-bora kengayib bormoqda.

Dunyoqarashi, ma'naviyati va intellektual salohiyati tamomila yangicha bo'lgan yangi avlod shakllandı. Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan zamon barchadan yangicha qarash va fikrlashni talab etmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarni mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbiga ona yurtga muhabbat, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan bugungi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish tobora dolzarblashmoqda. Mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osuda va farovon turmushimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan turli xil mafkuraviy tajovuzlariga qarshi izchil kurash olib borish va bu boradagi ishlarni yanada jlonlantirish Respublika madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi barcha madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining muhim bo'g'iniga aylanmoqda.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamon jamiyatimizda va dunyoda ro'y berayotgan jarayonlardan ogoh bo'lib borishni talab etmoqda. Bugungi davr, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan samarali kurasha oladigan jonku-yar targ'ibotchilarini to'la safarbar qilishni taqozo etmoqda. Zero, hozirgi intellektual-axborot asri voqealar rivojidan bir qadam oldinda yurish, ijtimoiy hodisalarining o'zgarish tendensiylarini ilmiy bashorat qilib borish asosida faoliyat yuritish, davr bilan hamnafas yashashni talab qiladi.

Bunday vaziyatda Birinchi Prezidentimizning «Faqatgina mustaqil fikrlaydigan, iyomon-e'tiqodi mustahkam, otabobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan ezgu qadriyatlarga qadoqatli bo'lgan insongina bunday qutqularga uchmasligi, to'g'ri yo'ldan adashmasligi mumkin. Buning uchun, albatta, birinchi navbatda, farzandlarimizni yuksak bilim va ma'naviy lazilatlar bilan qurollantirishimiz, bizga yot va begona bo'lgan turli zararli oqimlardan himoyalanish uchun xalqimizga bu boradagi bor haqiqatni yetkazish, bunday xavf-xatarlardan odamlarni, avvalambor, yosh avlodni haqiqat bilan himoya qilishimiz zarur», degan fikrlari bizlar uchun dasturulamal boladi.

Mazkur metodologik ko'rsatma doirasida quyidagi yo'naliishlarda keng ko'lamdag'i ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

- o'zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniyma'rifiy va axloqiy merosini har bir fuqaroning ma'naviy mulkiga aylantirish, milliy o'zlikni anglatish maqsadini ustuvor yo'naliish sifatida amalga oshirish, milliy g'oya va mafkurani xalqimizning ongi va qalbiga chuqur singdirish, uni ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish;

- Vatan ozodligi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etib borish, siyosiy jarayonlarga, mustaqillik yillarda erishilgan yutuqlar tahlli asosida jamiyatning har bir a'zosi qalbida milliy g'ururni kuchaytirish, hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaslik tuyg'usini kamol toptirish;

- aholining barcha qatlamlarida, xususan, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, ularda dunyo va mamalakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatda bo'lish hissini uyg'otish;

- jamiyatda o'zaro insoniy munosabatlar – mehr-murvvat, hurmat-ehtirom, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish jarayonini milliy g'oya va ma'naviyat tamoyillari bilan uyg'un tarzda tizimli va uzluksiz targ'ib etib borishni yo'lga qo'yish;

– chet el ommaviy axborot vositalari, Internet ijtimoiy tarmoqlari va saytlarida tarqatilayotgan urf-odatlarimiz, milliy mentalitetimizga zid, odobsizlik, axloqsizlikni targ'ib etuvchi vayronkor g'oyalarning yoshlарimiz ongiga salbiy ta'sir o'tkazishining oldini olish;

– yoshlarda yuksak ma'naviy va madaniy sifatlarni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jamiyatda o'z o'rnnini topishi hamda kasb-hunar egallahga bo'lgan ishtiyоqini kuchaytirish borasidagi axloqiy, tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish;

– madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyati orqali yoshlarning yetakchilik qobiliyatini namoyon qilishlari hamda boshqaruv mahorati va tajribasini oshirishlariga keng imkoniyat yaratib berilishini ta'minlash;

– yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmunini keng targ'ib etish orqali ularning huquqiy madaniyatini yuksalish;

– «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi tahdidlarning yoshlar hayotiga salbiy ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik va ularda qat'iyatlilikni kamol toptirish;

– yoshlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini keng targ'ib etish va ularning ongida barkamol shaxs ideallini shakllantirish orqali zamonamiz qahramonlarini kamol toptirish;

Mazkur ishlarni bajarishda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» hamda «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy jihatdan nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada madaniyat va aholi dam olish markazlarida ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy targ'ibot olib borishning mohiyati va ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:

yuksak rivojlangan, demokratik davlatlar qatorida bo'lishdek oliy maqsadni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilish, amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlari qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining hamiyatini aholi orasida jadal targ'ib qilish, yurtimizga qurshi qaratilgan g'oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlaridan odamlarni hushyor va ogoh bolishga da'vat etish, olimlar, siyosatchi va ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizi-muni yo'lga qo'yish;

– mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdog'i bunyodkorlik ishlarining jahon hamjamiyati va dunyo tashkilotlari tomonidan bir ovozdan e'tirof etilayotganini keng targ'ib etish;

– aholining turli qatlamlari, xususan, yoshlar orasida tarixiy xotiraga, milliy o'zlikka ega bo'lish zaruratin anglatish, milliy ma'naviyatimiz obidalarini asrash, e'zozlash va madaniy merosimizni yoshlar tomonidan maqsadli hamda ongli o'zlashtirilishiga erishishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;

– mamlakatimizda inson salohiyatini ro'yobga chiqatishning samarali mexanizmlarini qo'llash, inson kapitalini rivojlantirish jarayonlarini keng targ'ib etish;

– ulug' mutafakkirlarimizning dunyo tamadduniga qo'shgan buyuk hissalarini xalqimiz ongi va qalbiga yetka-zish hamda shu asosda milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalash;

– aholining milliy qadriyatlar, tarixiy obidalarga bo'lgan ehtiromli munosabatini yanada oshirish, ayniqsa, yoshlarining muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar va muzeylarga muntazam tashriflarini tashkil etish;

– yoshlarning intellektual salohiyati, badiiy-estetik didi va saviyasini uzliksiz yuksaltirib borish maqsadida mutolaa madaniyatini rivojlantirish, bu borada o'ziga xos musobaqa va tanlovlarni tashkil etish, «Ziyonet» tarmog'ida har bir ta'lim subyektining o'z elektron-axborot resurslarini yaratish ishlarini ma'naviy rag'batlantirish;

- ma’naviyatning ma’no-mohiyati, milliy ma’naviy timizning qadimiy ildizlari, noyob va betakror namunalari bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadiga qaratilgan targ‘ibot ishlarini muntazam ravishda olib borish;
- mustaqillik – huquq va imkoniyat ekanligining ma’mun-mohiyatini ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida shuningdek, ta’limdan tashqarida bo‘lgan aholi orasida ham tizimli targ‘ib etish;
- oila, mahalla, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy ta’lim muassasalari va ta’limdan tashqari muassasalarda komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq tuyg‘u va tushunchalarni yosh avlod qalbi hamda ongiga ta’sirchan usul va uslublar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish, targ‘ibot ishlarini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tashkil etish;
- muqaddas islom dinining ma’naviy-ma’rifiy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;
- aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o’ttasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an’ana hamda qadriyatlarning hayotimizdagи o’rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo’naltirilgan davra suhbatlari va uchrashuvlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o’tkazish;
- milliy g‘oya va mafkura masalasi bilan bog‘liq dolzар muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroficha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo’nalishlarini aniqlash, ularning aholining barcha qatlamlariga ta’sirini o’rganish, milliy manfaatlarimizga, an’anaviy hayot tarzimizga zid bo‘lgan xurujlarning mohiyatini tanqidiy ochib berish;
- yilning har choragida amalga oshirilgan amaliy faoliyat natijalarini viloyat, tuman va shahar ommaviy axborot vostalarida e’lon qilib borish, shu bilan birga, har chorak mobaynida amalga oshirilgan pozitiv o’zgarishlar haqidagi axborotlardan keng jamoatchilikni xabardor etib borish;

respublikaning taniqli olim-professorlari, jumladan, baysuf, huquqshunos, sotsiolog, filolog, pedagog va psixologlarni jalgan holda huquq, madaniyat, ta'lim, bandlik, iqtisadiy qo'shiqni saqlash masalalarida muntazam targ'ibot ishlarini o'tkazib borish, mahalla institutlarida uy bekalari hamda yoshi ulug'lardan iborat aholi qatlamlariga fuqarolarning ijtimoiy ahvolini inobatga olgan holda ma'naviy ko'mak beishi mexanizmlarini ifoda etuvchi videoroliklar, bukletlar tayyorlash;

ayrim voyaga yetmagan yoshlarning ta'lim jarayonini tashlab, norasmiy ravishda ishlash uchun chet ellarga ketishining oldini olish va ular o'rtaida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ota-onalar, vasiylar va keng jamoatchilik ishtirokida tushuntirish ishlarini olib borish;

Uslubiy ko'rsatma bandlarini amalga oshirish mexanizmi quyidagilardan iborat:

– tuman hamda shahar madaniyat va aholi dam olish markazlarida targ'ibot ishlarini tizimli tashkil etuvchi jamoatchilik kengashini tuzish;

– bolalar, o'smirlar va kattalar uchun mo'ljallangan milliy ma'naviyat targ'ibotiga bag'ishlangan hamda ma'rifiy yo'nalishdagi dolzARB mavzularda hujjatli materiallar, badiiy filmlar, ssenariylar, o'quv uslubiy manbalar tayyorlash;

– aholi turli qatlamlari orasidagi madaniy, ma'naviy-axloqiy muhit holatini o'rganib borish, bu borada tizimli tarzda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, ijtimoiy-ijodkorlik, ma'naviy muhit holatini doimiy monitoring qilib borish;

– madaniyat va aholi dam olish markazlari tomonidan qamrab olingan har bir qishloq, mahalla kesimida hududlarning ma'naviy muhiti va ijodkorlik bilan mashg'ullik darajasini ifoda etuvchi mafkuraviy xaritasini tuzish;

– yoshlar bilan ishlashda, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan tizimli tarzda foydalanish;

– aholi va yoshlarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy masalalarga oid ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy-

siyosiy muhit va jamoatchilik kayfiyatini doimiy o'rgani
borish;

– targ'ibot ishlarini chekka hududlarda, mahalla va qishloq
loqlarda samarali olib borish maqsadida qishloq va mahalla
fuqarolar yig'inlari hududlarida joylashgan mahalla guzarlari
faoliyatini yo'lga qo'yish;

– mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida qurilayotgan mahalla
guzarlari tarkibida mahalliy byudjetdan moliyalash
tiriluvchi eng kamida beshtadan havaskorlik to'garaklari,
«Ma'naviyat markazi» va kutubxonalar tashkil etish;

– Har bir madaniyat va aholi dam olish markazi huzuridagi
maxsus analitik guruh tashkil qilish.

3.8. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda inson omili

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov inson omilini faol-
lashtirishda uch asosiy tamoyil, ya'ni, ma'naviyat, ma'rifat va
odob-axloq omillarining favqulodda zarurligini alohida qayd
etgan edi. Ayni chog'da, mazkur tamoyillarning o'zaro mut-
nosibligi, ichki uyg'unligi, oqilona me'yorlarda taqsimlanishi
masalasi ham muhim ahamiyatga egadir.

Inson omilining xalq madaniyati va ma'naviyatidagi
uzilgan holda faollashuvi jamiyatda individualizm, egoizm,
shafqatsizlik, rasizm, millatchilik singari sifatlar rivojiga yo'll
ochadi: shuningdek, yoshlar tarbiyasini ilm-ma'rifat bilan
birga olib bormaslik jamiyatda konformizm, biqqlik, ur-
odatlarga mukkasidan ketish singari holatlarning avj olishiga
olib kelishi mumkin. Insoniyatning yaqin 3000 yillik tarixiy
taraqqiyot tajribasi shundan guvohlik beradiki, yaxshilik,
ezgulik, savob, hamdardlik fazilatlarini o'zida ifodalovchi
ma'naviyat omiliga befarqlik va ilm-fan rivojiga bирyoqlamani,
texnokratik ruju qo'yish inson shaxsining axloqan yemirili-
shi, ma'naviy tubanlashuviga sharoit tug'dirib keldi.

Birinchi Prezidentimiz mazkur tamoyillarning uyg'un
mutanosiblikda amal qilishi faqat tizimiyl tartibotlar yuzaga
keltirilgandagina samara berishini ta'kidlagan edilar. «Bar-
chamiz yaxshi bilamizki, fuqarolik jamiyatni asoslarini barpo

ishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat shaxsida, shaxsnimuntazam kamol toptirish borasida uzlusiz olib borishdan iborat. Bu hayotiy haqiqat, biz hamisha qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam olmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak».

Shu boisdan ham, O'zbekistonda xalqimiz ma'naviy yaxlitligini saqlab qolish, o'zlikdan chekinmaslik, sof insoniy fikrlarga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilishdan iborat keng ko'lamdag'i ijtimoiy siyosat izchil yurgizilmoqda.

Binobarin, demokratiyaning asl mohiyati jamiyatda adolat tamoyilini qaror toptirishdan iborat ekanini e'tiborga obshak, mamlakatimizda mazkur jihat quyidagi omillarda yaqqol ko'rindi:

birinchidan, fuqarolarning tinchligi va milatlararo tovuzlik tamoyili umumjamiyat miqyosida yalpi qaror topganda;

ikkinchidan, fuqarolarning turli ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy jamiyatlarga birlashish erkinligi kafolatlanmani va real amal qilayotganida;

uchinchidan, ma'naviyat, ma'rifat va odob-axloq tamoyillari orqali insonning insonligini o'ziga anglatishdan iborat umumjamiyat harakatining izchil amalga oshirilayotganida;

to'rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga insonni kuchli ijtimoiy himoya qilish orqali bahamjihat kirib borish siyosatiga qat'iy amal qilinayotganida.

Mazkur omillarning umumiyligi va pirovard majmui esa mamlakatimizda adolat tamoyilining o'ziga xos va o'ziga mos tantanasini ifoda etadi. Zero, demokratiya nafaqat shaxs haq-huquqlarini himoyalash, balki, boshqalarga xalal bermay yashash, jamiyatga doimiy ravishda ijtimoiy naf keltinib borish omili hamdir.

Rahbar kadrlar masalasi – inson omili muammosi tarkibida alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqni ibratli yo'lga, jo'shqin faoliyatga undash uchun odamlardagi o'z liderlari-

dan rag'bat olish moyilligiga jiddiy urg'u berish, har bir ishda rahbarning shaxsiy namunasiga e'tibor qaratish muhim jihat sanaladi. Jamiyatdagi obro'-e'tiborli shaxslarga, el oldida nazarga tushgan liderlar omiliga tayanish asosida ish tutish har bir boshlangan ishda shubhasiz samara beradi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov davlat boshqaruvida rahbar kadrlarning roli masalasiga jiddiy e'tibor qaratish «Boshqaruv vazifalarining asosiy qismi markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar va tumanlardagi davlat boshqaruv idoralariga o'tishini ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'z-o'zini boshqarish, jamoatchilik tashkilotlariiga ham yetib boradi» – deb ta'kidlagan edi. O'tgan yillarda mobaynida mazkur siyosatning to'g'riliqi isbotlanib, «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» shiori ijtimoiy boshqarishning bosh tamoyiliga aylanib qoldi. Binobarin, endilikda davlat o'z vazifalarini hokimiyatni kuchaytirish hisobiga emas, aksincha, demokratik omillarni kengaytirish va keng xalq ommasini boshqaruvga jalb etish yo'li bilan amalga oshirmoqda.

Ma'lumki, fuqarolarning tafakkuri, siyosiy saviyasi demokratik o'zgarishlar sur'atlari bilan mos bo'lsa, boshqaruvning demokratlashtirishga zamin yaratiladi. Shuning uchun ham demokratik o'zgarishlar hamda yangi demokratik jarayonning chuqurlashtirish va ularni hayotga tatbiq etishni, eng avvalo, jamiyatimizning o'zi anglamog'i va hal qilmog'i darkor. Bu borada jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan mahallalarning o'rni va o'zini o'zi boshqarish tartibini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, shaxs taraqqiyoti oldimizga qo'yilgan ulug'vor vazifalarni hal etishda g'oyat dolzarb masala hisoblanadi. Shaxsni rivojlantirish uchun jamiyatimizda barcha imkoniyatlar hozirlangan. Hamma gap bu imkoniyatlardan odamlarning nechog'li foydalana olishidadir. Buning uchun hozirgi paytda umumjamiyat miqyosida har bir shaxs uchun individual taraqqiyot dasturlarini tarkib toptirish kun tarbidagi masala hisoblanadi. Individual taraqqiyot dasturlari barcha maktablar o'qituvchi va qatnashchilar, universitetlarning talabalari, ishxonalar (davlat va nodavlat tashkilotlar), jamoat

toshkilotlarida faoliyat yurituvchi xodimlar uchun umumiy tarzda joriy etilmog'i va uning izchil bajarilishi ustidan qon'iy jamoat nazoratini o'rnatish, oyma-oy mazkur dasturning bajarilishi monitoringini oshkoraliq asosida amalga oshirib borish, bu faoliyatni ommaviy axborot vositalari, radio va televideniye orqali ko'rsatib, eshittirib, ommaviylashirib borish, shubhasiz, ijobiy samaralar beradi.

Kuchli ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy siyosat konsepsiysi iltgan 25 yillik zafarli tiklanish davrlarida mohiyatan yangi mazmunga ega bo'ldi.

Shu boisdan ham, Birinchi Prezidentimiz tomonidan ushbu yo'nalish sifatida asoslab berilgan inson omili masalasi o'ta muhim, serqirra masaladir. Bu esa inson omilining demografiya, ijtimoiy himoya, ma'rifat, ma'naviyat, odob-axloq tamoyillariga bevosita bog'liq holda amal qilishini taqozo etadi. Chunki inson omili masalasi – jamiyatda odamlardagi ijtimoiy fazilatlar, ularning qadriyatlar tizimi ham demakdir. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatdagi axloqiy tamoyillar, xulq-atvor me'yorlari, mehnat jarayonidagi, hordiq chog'idagi, iste'mol, hayotiy rejalar, bilimi, axborotga egaliklari, mehnat va malakalari, g'oyalari, maqsadlari, ijtimoiy adolat, huquq va erkinliklari, fuqarolik burchlari, milliy taraqqiyot haqidagi bilimlarining majmuasidir.

Inson omili tushunchasi faqat bitta odamga emas, balki odamlar guruhi, jamoalar va ulardag'i ijtimoiy-ma'naviy mühitga, odamlarning xulq atvoriga ham bog'liq bo'ladi.

Inson omili – har bir odamning imkoniyatlarini oshirish, uni kuchaytirish ham demakdir. Bu esa har bir kishiga xos biologik, psixologik va intellektual salohiyatni kuchaytirishni taqozo qiladi.

Inson omili faol bo'lmasa, biron ta ham ulkan vazifa ud-dalanmaydi. Inson omilini faollashtirish imkoniyatlariga:

- odamlarning kayfiyati;
- tuyg'ulari;
- odatlari;
- ijtimoiy mo'ljallari;
- qadriyatlari;

- yakka va guruh shaklidagi xulq-atvorlari;
- nima (kim)larga taqlid qilishi;
- e’tiqodi;
- qobiliyati;
- layoqat va motivlari;
- tevarak-atrofga munosabati;
- odamlar orasidagi munosabati;
- jamoadagi ma’naviy muhit va boshqalar kiradi. Ijtimoiy gumanitar fanlar yuqoridagi holatlarning paydo bo‘lishi o‘zgarishi va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishi lozim.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda inson omilini faollashtirish imkoniyatlarini izohlang.
2. Madaniyat orqali inson omilini faollashtirish yo’llari ni malardan iborat?
3. Axloqiy tamoyillarning inson omilini rivojlantirishda o‘rnini izohlang.
4. Shaxsning ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ta’siri qanday?
5. Inson omili va boshqaruv jarayonlari samaradorligi uy-g‘unligi tushunchasini izohlang.



Tayanch so‘z va iboralar:

Inson omili, imkoniyat, layoqat, salohiyat, qobiliyat, faoliylik, e’tiqod.

3.9. Madaniy antropologiya va milliy mentalitet

Madaniy antropologiya uchun madaniyat tushunchasi muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisa hisoblanadi. Madaniyat tushunchasi ko‘pqirralidir. Aksariyat mualliflar (Y. Uayt, K. Klakxon, A. Kreber va boshqalar) madaniyatni odamlarning o‘zaro birgalidagi hayotining mazmuni tarzida tushunadilar va jamiyatni ushbu mazmunni qamrab oluvchi tarkibiy yaxlitlik sifatida talqin etadilar. Ammo mazkur tarifning juda keng va mavhumligi bois, so‘nggi yillarda ma-

daniyat va sivilizatsiya tushunchalari alohida tarzda o'rganiqla boshlandi.

Sivilizatsiya – ijtimoiy hayotning muayyan taraqqiyot mahsuli va mazmuni bo'lib, aniq belgilangan ijtimoiy tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Madaniyat esa sof ma'naviy fenomen qitatida insoniyatning sotsiobiologik tur sifatida saqlanib qolishiga, tinchligi, barqarorligi, tarixiy tajribasining uzviyiligiga xizmat qiluvchi hodisadir. Ayniqsa, bugungi kunda insoniyat boshiga real xavf tug'dirayotgan yadroviy urushlar inhdidi, ekologik falokatlar, demografik portlashlar va boshqa umumplanetar muammolar madaniyat hodisasiga daxldor emas. Aksincha, madaniyat mazkur falokatlarning oldini olish ustida qayg'uradi. Shu boisdan madaniyatga sof insoniy tamoyillar orqali saralangan, ramziy-semiotik nuqtai nazarlardan tanlangan va xalqlarning pozitiv, ya'ni o'zaro burlashib turmush kechirishlarining tajribasi, deb qarash maqsadga muvofiqdir. Shu boisdan, madaniyat inson uchun ongli faoliyatlarni amalga oshirish yo'lidagi pozitiv va foydali bo'lgan barcha hodisalar majmuini ifoda etadi.

Shunday qilib, madaniyat ko'pchilik aholi guruhlarining birligidagi hayotini tashkil etuvchi va boshqaruvchi pozitiv tajribadir. Bu esa madaniy antropologiyaning tadqiqot obyektni ham konkretlashtiradi. Antropologiya fanining tadqiqot obyekti insonning ijtimoiy hamda tabiiy muhitdagi holatini madaniyat omili orqali o'rganishdan iboratdir.

Ijtimoiy psixologiya fani tomonidan erishilgan ba'zi muhim xulosalar ijtimoiy antropologiya fani uchun ham qimmatlidir. Xususan, ijtimoiy psixologiya fani vositasida chuqur o'rganilgan individning real ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi, uning jamiyatdagi normativ, deviant yoxud muayyan sotsial tollar doirasida harakatlarini o'rganuvchi nazariyalar ijtimoiy antropologiya fani doirasida ham tadqiq etiladi. Madaniyat tushunchasining antropologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq etish aslida kichik yoki ibridoij xalqlarning madaniyatini o'rganishdan boshlanadi. XX asr boshlarida E.B.Taylor bu haqda shunday degan edi: «Madaniyat bu – insonning jamiyat

a'zosi sifatida an'analar, rasm-rusumlar, bilimlar, e'tiqodlari, axloq, san'at va qonunlarni o'zlashtirishidir»¹.

Madaniyat hodisasini to'laroq anglash maqsadida maykur tushunchani falsafa fani nuqtai nazaridan tahlil etish ham maqsadga muvofiqdir.

Madaniyatni falsafiy tushunish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

– Madaniyatga faoliyat sifatida yondashish quyidagi qodalarda o'z ifodasini topadi: «Madaniyat inson tomonidan o'z o'zini va borliqni qayta qurishdan iborat faoliyat demakdir», «Madaniyat – insonning mohiyatini ifodalovchi faoliyat».

– «Texnologik» yondashish quyidagi qoidalarda ifoda etiladi: «Madaniyat kishilik tajribalarini saqlovchi, rivojlanuvchi va avlodlarga yetkazuvchi vositadir», «Madaniyat – faoliyatni amalga oshirish uslubidir».

– Madaniyat tushunchasini gumanistik-mazmuniy jihatdan ta'riflovchi qoidalari quyidagilardir: «Madaniyat insonning ijodiy kuchlari va qobiliyatlarining rivojlanish qonuniyatlari ifodasidir», «Madaniyat insonning tabiat va jamiyat bilan o'ziga xos uyg'unlashuvidir».

– Madaniyatga natijaviy hodisa sifatda ta'rif beruvchi qoidalari: «Madaniyat insoniyat tomonidan erishilgan tarixiy taraqqiyot ifodasidir», «Madaniyat inson tomonidan yaratilayotgan va qanday qilib yaratilayotgan narsalar majmuidir».

Madaniyat tushunchasi turli mintaqalarda turlichanegizlarda tarkib topganligini ham ta'kidlash joizdir. G'arb mamlakatlari uchun madaniyat tushunchasi «kultura» atasidan kelib chiqqan va ma'no xususiyatiga ko'ra «yer haydash», «yerni ishslash» etimonini ifoda etadi. Bu esa madaniyat («kultura») tushunchasi doirasiga yerni ishslash mohiyatidan kelib chiquvchi «shakllantirish», «rivojlantirish», «tarbiyalash» ma'nolarini ham kiritishni taqozo etadi. Shu yo'nalishda G'arb xalqlari mutafakkirlari «madaniyat

¹ Qarang: **Ф.И. Минищев.** Социальная антропология. –М.: 1997, 4-7-betlar.

«kultura» tushunchasi mazmunidan kelib chiqqan holda unga ko'proq inson ongi, intilishlari mahsulining ko'rinishlari sitatida tavsif berib kelganlar. Xuddi shu negizda madaniyatning «ommaviy madaniyat», «ishlab chiqarish madaniyati», «normativlar (xulq-atvor) madaniyati», «siyosiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «mehnat madaniyati» va hokazo ko'rinishlari maxsus o'rganilib kelinadi.

Sharq xalqlarida, xususan, islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda esa madaniyat so'zi g'arbcha mazmunidan farqli ravishda «madina» atamasi bilan bog'liq bo'lib, «shaharlik», «shaharga xos» ma'nolarini anglatgan. Madaniyat atamasining mazkur shakli yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlikka da'vatdan ko'ra insonga muayyan tartibotlar, turmush tarzini qabul qilishga undashni ifoda etadi. Tabiiyki, atamalar o'rtasidagi mazmuniy farqlar xalqlarning taraqqiyot darajalariga ta'sir qilmay qolmagan. Yevropada «kultura» madaniyat uzoq yillar mobaynida «sivilizatsiya» atamasi bilan ham uyg'unlikda tushunib kelindi. Holbuki, sivilizatsiya tushunchasi madaniyat (kultura) atamasi tarkibidagi ajoddalar tarixi, vorisiylik, turmush tarzi, xulq-atvorlar tizimi, badiiy-estetik mayllar, an'analar, mentalitetlar singari omillarni o'zida to'liq ifoda etmaydi.

Madaniyat tushunchasi odatda moddiy va ma'naviy turliuga bo'lib o'rganiladi. Moddiy madaniyat insonning aqli, shuuri, mehnati orqali yaratilgan barcha narsalardan iboratdir. Ma'naviy madaniyat esa moddiy boyliklarni yuzaga keltirishga asos bo'lувчи omillar, ya'ni so'zlar, g'oyalar, odat va an'analar, e'tiqodlar, yondashuvlarni ifoda etadi. Ko'rinish turibdiki, ma'naviy va moddiy madaniyatlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjuddir.

Madaniyat tushunchasi antropologiya fani nuqtai nazariidan talqin qilinishiga ko'ra, madaniy antropologiyaning predmeti, jismoniy antropologiyadan farqli o'laroq, insoniy jamiyatlar madaniy holatlarining tahlilidan iboratdir¹. Antropologlarning fikriga ko'ra, inson xatti-harakatlarining mo'hiyati genetik omillarga ko'ra emas, balki madaniy shakllanishiga ko'ra belgilanadi.

Madaniy antropologiya fani XIX asr oxiri va XX boshlarida jadal taraqqiy topgan bixevoirizm (inglizcha «bo-haviour» – xatti-harakatlar, xulq-atvor ko'rinishlari) nazari yasini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Bixevoirizm tarafdarlari pozitivizm tamoyillariga tayanib, fan faqatgina inson faoliyatining bevosita kuzatish mumkin bo'lgan jihatlarinigina tadqiq etishi zarur, deb hisoblaydi. Ular insonning madaniy kamolotida «stimul – reaksiya» tamoyili muhim o'rinni tutishini ta'kidlaydilar. «Stimul – reaksiya» tamoyili ko'ra, inson tashqi ta'sirlar oqibatida o'ziga xos va mos ham katlarni bajaradi. Bixevoiristlar tashqi ta'sirlar mazmunini inson sha'ni, g'ururi, qiziqishlari, maqsadlariga muvofiqlash-tirish odamlarning madaniy taraqqiyoti, ijtimoiy rivoji, xulq atvorini yaxshilashga xizmat qiladi, deb hisoblaydilar.

Madaniy antropologianing muhim yo'nalishi turli min-taqalar, regionlar, xalqlar va odamlar o'rtasidagi masofaviy farqlar omilini o'rganish hisoblanadi. Antropolog E.T. XII-XIII asrning 60-yillarida «proksimika» (lotincha «proximus» – yaqindagi shaxslar, holatlar, muhit) atamasini fanga kiritadi². Mazkur yondashuv orqali turli xalqlarning ijtimoiy bag'rikengligi, o'zmuhitiga boshqalarni singdira olish darajasi, alohida kishilar o'rtasidagi muloqotlar masofasi masalalarini maxsus o'rganish imkoniyatlari yuzaga keldi. Ma'lumki, ham bir davlat, mintaqa, viloyat, tuman va hatto har bir qishloq, mahalla, ko'cha, alohida shaxslar o'rtasida anglanmagan masofa mavjud bo'lib, bu chegaralarning buzilishi oqibatida turli xil nizolar, konfliktlar, falokatlar yuzaga kelgan. Ayin chog'da ta'kidlash joizki, turli xalqlardagi masofa chegaralari ularning tarixan nechog'li tig'iz yashab kelganligi bilan ham izohlanadi. Masalan, Xitoy, Yaponiya, Gonkong, Singapur singari mamlakatlardagi odamlar o'rtasidagi muloqot masofasi darajasi bilan Mo'g'uliston, Buryatiya, Saxa-Yakutiya

¹ Qarang: Социологический словарь, –М.: «Экономика», 2000, 147-бет.

² Qarang: Ф. Минюшев. Социальная антропология. –М.: 117-бет

ingari o'lkalardagi odamlararo madaniy masofa o'rtasidagi forqlar kattadir. Shunday qilib, odamlar o'rtasidagi shaxsiy masofa chegaralari aholining an'anaviy joylashuvi va zichlik darajasiga proporsional bog'liqdir. Quyida yaponlarning shaxsiy territorial muhiti, madaniy muloqotlar masofasi jadvalini keltiramiz.

Shaxsiy masofa chegaralari

Ijtimoiy masofa	Bevosita muloqot masofasi	Shaxsiy masofa	Intim masofa
1,6 m atrofida	1,2 m–3,6 m	46 sm–1,2 m	15–46 sm

Madaniyat hodisasini talqin etishda diffuzionizm yo'nalihsining o'rnnini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Diffuzionizm antropologiya, etnologiya, arxeologiya hamda kulturologiya fanlarini tushunishda o'ziga xos o'rinn tutib, ijtimoiy taraqqiyotning negizida madaniyatlarning o'zaro uygh'unlashuvi va tarqalishi mujassam ekanligini ifoda etadi. Diffuzionizm muayyan xalqlardagi madaniy taraqqiyotning evolyutsion tarzda, ichki qonuniyatlar negizida rivojlanishiga qarama-qarshi o'laroq, tashqi ta'sirlar ustuvorligi g'oyasini asoslab beradi hamda turli madaniyatlardagi ilg'or yutuqlarini dadil singdirish va o'zlashtirish orqali taraqqiyotga erishish zarurligini ilgari suradi. Diffuzionizm nazariyasining yuzaga kelishida G. Tard tomonidan asoslab berilgan ijtimoiy taqlid konsepsiysi muhim o'rinn tutgan.

Madaniy antropologiyaning mohiyatini anglashda sotsiobiologik yo'naliish ham muhim o'rinn tutadi. Mazkur yo'naliish XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo'lib, ijtimoiy hayot voqealarini evolyutsion biologiya usullari orqali asoslab berishga intiladi. Mazkur konsepsiya individning xulq-atvori, yatti-harakatlari mohiyatini har bir shaxsga xos bo'lgan gene-tik dastur mazmuni ifoda etadi, deb tushuntiradi.

Antropologiyadagi biologik yo'naliish tadqiqotchilari dastavval hayvonlar hamda ularning jamoalari tabiatini

o'rganib, odamlar va hayvonlarning ba'zi xatti-harakatlaridagi o'xshashlikni asoslashga erishdilar. Bu esa ular tomonidan hayvonlar va odamlar fe'l-atvorlarida to'g'ridan-to'g'ni o'xshashlik bor va ulardagi o'zaro harakatlanish mexanizmlari o'rtasida aynan analogiya mavjuddir, degan g'oyani ilgari surishlariga asos bo'lib xizmat qildi.

Sotsiobiologik yo'nalish assoschisi Eduard Uilsonning 1975-yilda nashrdan chiqqan «Sotsiobiologiya. Yangi Sintez» kitobida biologik usullarni qo'llash odamlarning fe'l-atvori, xatti-harakatlarini maqsadli va muntazam kuzatish orqali ularning kelajakda qay tartibda ish qilishlari, nimalarga qodirligi, intilishlari, qobiliyatlarini natijalarini aniq boshorish qilish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, odamlar o'zaro genetik guruhanishga moyilliklariga ko'ra, muayyan faoliyatlarni bajarishga kirishish asnosida bir-birlari bilan birlashdilar va hamkorlikdagi xatti-harakatlar qilishga moyilliklarini namoyish etadilar¹.

Tabiiyki, turli xalqlar madaniyatlarida xulq-atvorlarining etnik stereotiplari turlicha bo'lib, har bir xalq fe'l-atvori uning tarixiy-madaniy kechmishi, turmush tarzi, ob-havo xususiyatlari va hokazolar bilan ham izohlanadi. Masalan, fransuz xalqi vakillarining turli hayotiy vaziyatlardagi fe'l-atvori etnopsixologik stereotiplar doirasida o'ziga xos namoyon bo'ladi. Xususan, fransuzlar o'zaro muloqot chog'ida qizg'in suhbatga kirishadilar, suhbatdoshining so'zini bo'lib gapireshga, emotsiyal bahslashishga moyil bo'ladilar. Ammo tavakkal qilib ish tutishni yoqtirmaydilar. Fransuzlardan farqli ravishda angliyaliklar bamaylixotir muloqotga kirishishga, suhbatdoshining fikrini bo'lmasdan tinglashga moyildirlar. Angliya ishbilarmonlari, olimlari, san'at namoyandalari muayyan qavmlar vakillaridan iborat bo'lib, yaqin aloqada uzoq yillar ish yurituvchi odamlarning o'zaro tabaqalanishi negiziga amal qiladilar. Angliya mumtoz ilm-fani, biznesiga

¹ Qarang: E.O. Wilson. Sociobiology. The New Synthesis. — Cambridge, 1975. 28–34-betlar.

so'x xususiyat konservativizm hisoblanadi. Bu yerda ko'p qurilik tarixga ega an'analar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Inglizlar yaqin va o'rta muddatlardagi prognozlarga tayamub ish tutadilar. Ularda so'z va ish birligi tamoyiliga rioya qilish muhim qadriyat hisoblanadi¹.

O'zbeklarda esa jamoaviy tabiat hamda yosh, jins, marta ba farqlarini hisobga olib yondashish ustuvor mavqe kasb etadi. O'zgalarning fikrini eshitish ham tabiiy tarzda suhbatdoshning ijtimoiy mavqeい, yoshi, jinsini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Madaniy antropologiya millatlararo munosabatlar mobuyatini tadqiq etish jarayonida ijtimoiy-tarkibiy va madaniy omillar roliga alohida yondashadi. Xususan, etnik muloqotlarga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-tarkibiy omillar jumlasiga tadqiqotchichilar Y. Arutyunov, A. Drobijeva, A. Susokolovlar quyidagilarni kiritadilar:

1) ijtimoiy va etnik tabaqalashuvlarning o'zaro aloqadorligi;

2) jamiyatda yuz beruvchi ijtimoiy-tarkibiy o'zgarishlar ta'siri;

3) etnik omillarning ijtimoiy mobililik jarayonlariga ta'siri².

Etnoslарaro munosabatlarni uzoq yillar davomida o'rungan amerikalik olim G. Allport shunday xulosaga keladi: «Millatlar o'rtasidagi iddaolar, da'volar, nizo hamda konfliktlar o'zaro aloqaga kirishuvchi guruahlarning ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy mavqelari tenglashgan holdagini o'z kuchini kamaytirishi mumkin»³.

Madaniyat hodisasini o'rganishda psixologik antropologiya so'nggi yillarda qator yo'nalishlarda tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ularni quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

¹ Qarang: **В.П. Шейнов.** Психология и этика делового контакта Минск: «Амалфея», 1997, 260–270-betlar.

² Qarang: **G.W. Allport.** The Nature of Prejudice, Mass, Addison. Wesley, Cambridge, 1954. (ch.16)

³ **G.W. Allport.** The Nature of Prejudice, Mass, Addison. Wesley, Cambridge, 1954. (ch.16)

1) Millatlarning etnik o'ziga xosligini psixofiziologik jihatdan tadqiq etishda qiyosiy va krossmadaniy usullari qo'llovchi yo'naliш. Mazkur yo'naliш doirasida etnoslarning xatti-harakatlari mazmunini anglashda xotira, hissiyotli nutq o'ziga xosliklarini o'rganishga urg'u beriladi;

2) Kulturologik tadqiqotlar, ya'ni har bir xalq madaniyatiga xos bo'lgan milliy qadriyat mo'ljallari, etnoslarning ramzlar asosidagi ma'naviy dunyosining mazmun-mohiyatini ochishga yo'naltirilgan, etnografiya, folklor, san'atshunoslik fanlari bilan hamkorlikda amalga oshiriluvchi ilmiy izlanishlar;

3) Mamlakatlarning etnik ongi va o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi yo'naliшlar;

4) Jamiyatga endigina kirib kelayotgan yosh avlod vakilaring ijtimoiylashuvi bilan bog'liq etnik xususiyatlarni tadqiq etuvchi yo'naliш.

Antropologiya madaniyat va din muammosiga ham alohida ilmiy yo'naliш sifatida yondashadi. Dinning antropologik tahlili doirasiga turli konfessiyalarning inson hayotidagi ijtimoiy-psixologik hamda gnoseologik o'rni va rolini tadqiq etish kiradi.

Madaniyat va din hodisalarining o'zaro uyg'unlikdagitahlili mazkur jarayonning tarkibiy jihatlarini tavsiflashni taqozo etadi. Ular quyidagilardir:

1) Diniy ong va madaniyat;

2) Madaniyat va diniy faoliyat;

3) Madaniyat va diniy munosabatlar;

4) Madaniyat va diniy oqimlar, konfessional tashkilotlar.

Ma'lumki, diniy ong ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida diniy mafkura va diniy psixologiya tarzida amal qiladi. Diniy mafkura – diniy e'tiqodlar, tasavvurlar hamda turli xil aqidalar va ko'nikmalar majmuidir. Diniy psixologiya – turli xil diniy tasavvurlar, diniy bashoratlar, g'oyalar, hissiyotlar, kayfiyatlar, qarashlar, ruhiy-emotsional mayllarning o'ziga xos sintezidir. Diniy faoliyat muayyan tartiblar, qoidalar, Xudoga sig'inish me'yordi doirasida amalga oshiriluvchi jarayondir. Dinga bevosita sig'inish me'yordi asnosida shaxsning

tiqodi hamda ilohiy kuchlarga itoati amalga oshiriladi. Insonlarning madaniyatga bog'liqligi darajasidan farqli o'laroq, shaxsning faoliyatda shaxsning mazkur jarayonga singishi, beriliishi, bog'liqligi bir qadar qat'iyroq, mas'uliyatliroq, majburiylik ko'lami teranroq kechadi. Bunga asosiy sabab shaxsning faoliyatiga hisob berish mas'uliyati kuchliroq anglanishi, sabab va oqibat kategoriyasining amal qilishiga kuchli psixologik omil bo'lgan qo'rquv hissi ustuvorroq ahamiyatli deb etishidir.

Madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi vorisiylik an'analariga bog'liq bo'lib, o'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlanadi va yangi qadriyatlar yaratish yo'lida tayanch vazifasini o'taydi. Ana shu ikki jarayon eskilik bilan yangilik o'rtasidagi obyektiv zaruriy bog'lanish vorislik, deb ataladi. Lekin bunda taraqqiyotga xizmat qiladigan progressiv vorislikni, unga to'siq bo'ladigan reaksiyon vorislikdan farqlash lozim bo'ladi. Madaniyatga ijobjiy (pozitiv) va nulbiy (negativ) ta'sir etuvchi vorislik ham mavjud.

Madaniyatda an'analar omilining roli beqiyos. Xalq ma'miy merosi, an'ana va urf-odatlar tufayli kishilarning tarixiy, madaniy tajribasi to'planib, avloddan-avlodga o'tib boradi.¹ Madaniy an'analar deganda, faqat marosim va urf-odatlarnigina tushunmaslik kerak. Madaniy an'analar ayni vaqtida avloddan-avlodga o'tib boradigan, tarixan qaror topgan va ijtimoiy ongning tarkibiy qismiga aylangan g'oyalar, bilimlar, qadriyatlar, qarashlar, tasavvurlar, xulq hamda did normalari va h.k. kabi omillarni ham o'z ichiga oladi.

Madaniyat bevosita qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, uning turlari quyidagilar:

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.
2. An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar.
3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va

¹ Фалсафа. –Т., «Sharq», 1999, 301–337-betlar.

tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

4. Odamlar o'rtasidagi jamoaviylik, hamkorlik, xayrixohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

Yuqorida bayon etilgan qadriyatlar, o'z navbatida:

1) umuminsoniy qadriyatlar

2) mintaqaviy qadriyatlar

3) milliy qadriyatlar

4) diniy qadriyatlar turlariga bo'linadi.

Madaniyat sotsiologiyasida ijtimoiy institutlar muhim alma miyatga ega. Ijtimoiy institutlar deganda kishilarning ijtimoiy faoliyatlari tashkillanadigan va amalga oshiriladigan munosabalar va ularda ijtimoiy fe'l-atvor, harakatlarning muvofiq lashtiriluvi tushuniladi. Ijtimoiy institutlarning ko'rinishlari:

1) Muvofiqlashtiruvchi (relyatsion) institutlar (jins, yosh, kasb turi, qobiliyatlarga oid mezonlarni aniqlab beruvchi ijtimoiy institutlar).

2) Boshqaruv (idora etish) institutlari.

3) Birlashtiruvchi (integrativ, uyg'unlashtiruvchi) institutlar.

4) An'analar bilan bog'liq ijtimoiy xulqni muvofiqlashtiruvchi institutlar (odatlar, marosimlar, qarindosh-urug'chilik munosabatlaridan iborat faoliatlarni tashkillovchi).

5) Madaniy ijtimoiy institutlar (din, san'at, adabiyotga doir faoliatlarni muvofiqlashtiruvchi)¹.

Madaniyat sotsiologiyasida odamlarning intellektual, axloqiy, estetik fazilatlari, amaliy sa'y-harakatlarga intilishi, qiziqishi hamda ehtiyojlari muhim ahamiyatga ega.

Antropologiya fani etnomadaniyat omiliga ko'p jihatdan bog'liqdir. Etnomadaniyatning tarkib topishiga odamlarning jamoaviy turmush kechirishini taqozo etuvchi muayyan

¹ Умумий социология. – Т.: ТошДУ, 78-бет.

umumi qiziqishlar, intilishlar, ehtiyojlar katta rol o'ynaydi. Etnomadaniyat izlari aholi turmush tarzining barcha jabhalarida, ya'ni, kiyinishi, farzand tarbiyasi, oila tartibotlari, uyjoy qurilishlari, folklor va boshqalarda namoyon bo'ladi. Etnomadaniyatning tarkib topishida geografik muhit, til omili, diniy, psixik, etnonimik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, geografik omil odamlarning kasb-kori, kiyinishi, san'ati, an'analarining o'ziga xos shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatsa, diniy omil kishilarning dunyoqarashi, xulq-atvori, qiyosiy qarashlari mazmunida o'z aksini namoyon etadi.

Antropologiya fani shaxsning madaniy ijtimoiylashuviga jarayonlariga ham alohida urg'u beradi. Bu borada etnosning ijtimoiy xarakteri, mentaliteti muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning ijtimoiy-madaniy xarakteri borasida uzoq yillar izlanishlar olib borgan fransuz antropologi B.Katl hozirgi zamон kishisining ijtimoiy xarakteri, mentalitetini quyidagi to'rt guruhga ajratadi.

1. Utilitar mentalitet. Mazkur guruhga kiruvchilar madaniyatning o'ziga xos standart iste'molchilari bo'lib, o'zlarining individual manfaatlarini hamisha ustun qo'yadilar, amaldagi rasm-rusumlar, an'analarga sodiq bo'ladilar, mavjud ijtimoiy tartibotlarga passiv hurmat namoyish etadilar.

2. Shaxsiy xavfsizlik ustida qayg'uruvchilar. Mazkur guruhga kiruvchilar asosiy e'tiborni o'z shaxsiyatlariga qaratadilar, shaxsiy hayotda muayyan muvozanatga intilib yashaydilar, o'zaro munosabatlarni nizolarsiz, konfliktlarsiz olib borishga harakat qiladilar. Ular turli xil favqulodda axborotlar va yangiliklarga hissiyot bilan yondashishlari sababli hayotdag'i jo'shqin o'zgarishlarni qabul qilishni yoqtirmaydilar.

3. O'zgarishlarga moyil mentalitet. Mazkur guruhga kiruvchilar hayotdan zavq olishni yoqtiradilar, faoliyat maydonini kengaytirib borishga moyil bo'ladilar, sayohat qilishga, yangiliklar olamiga sho'ng'ib yashashga intiladilar.

4. Kelajakka ishonch bilan qarovchi optimistlar. Mazkur guruhga kiruvchilar odatda bir nuqtada turg'un turmaydiganlar, jo'shqin izlanishdan tinmaydiganlar, bir qadar tavakkal

qilishga moyil tabaqa hisoblanib, ijodiy va ishlab chiqarish mahsulotlari yaratish va iste'mol qilish tushunchalari bilan yashaydilar. Ularga xos bo'lgan xususiyatlardan biri, avval, muayyan maqsad, g'oyani ilgari surib ortidan g'ayrat bilan borishdan charchamaslik odati hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ma'lumki, tabiat va jamiyatdagi barcha o'zgarishlar, birinchi navbatda, inson fe'l-atvori, ruhiyoti, mentalitetida o'z ta'sirini qoldiradi. Mentalitet o'zgarishlari esa, shaxs ma'naviyati davlat tizimi, tuzilmalari va hatto jamiyat qiyofasini ham o'zgartirib yuborishga qodir ekanligi ayon bo'lmoqda.

Antropologik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo hozirgi kunda umumiy axloq, muayyan mazmundagi ma'naviy qiyofa, global mohiyatga ega tamoyillar uchun kurash fiziysiga kirdi. Rivojlangan mamlakatlar nafaqat sanoat mahsulotlari, informatsion va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish omillari orqali keng ko'lamdagagi geopolitik siyosat yurgizishmoqdu, balki o'z xalqining tabiatni, fe'l-atvori, mentaliteti, o'ziga xosliklarini muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tiziga, hayotning barcha jabhalariga izchil singdirishga intilmoqda. Dunyo xalqlari uchun umumiy etiket, umumiy fe'l-atvor, umumiy mentalitet maxsus va izchil ravishda tarkib toptirilmoqda. Siyosiy, iqtisodiy va informatsion globallashuv mentalitetlar, ruhiy o'ziga xosliklar, fe'l-atvorning standartlashuviga ham turtki bermoqda.

Garchi dunyo xalqlari mentalitetlarining standartlashuvini muayyan ijobjiy jihatlarni ifoda etsa ham, o'z navbatida, birkator salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Xususan, bu narsa xalqning milliy o'zligidan chekinishga, madaniyatning vorisiylik an'analariga, milliy xarakter bir butunligiga putur yetkazadi. Bu narsani madaniy antropologiya fani nuqtasi nazaridan o'zbek xalqi misolida ochib berish mumkin. XVI asr boshlaridan e'tiboran davom etgan siyosiy-ijtimoiy tananzul va bir yarim asrlik mustamlaka davrlari mobaynidan o'zbek xalqi o'zligini asrash, milliy birligini, ma'naviy hamda axloqiy yaxlitligini saqlab qolish borasida mislsiz mato-

nat ko'rsata bildi. Milliy birlikni muhofaza etish jarayonlari ~~z~~flashgan davlat homiyligida emas, balki, asosan aholi turli tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyorolar, hunarmandlar, deliqonlar, umuman olganda, jamiyat kuchi vositasida amalga oshirilib kelindi va quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

1. O'zbek xalqi tanazzul va mustamlaka davridan o'zining ~~z~~tnik yaxlitligini saqlagan holda chiqo bildi;

2. Milliy ma'naviyatning yorqin ifodasi bo'lgan urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, marosim va ma'rakalar tizimi ~~z~~aqlab qolindi;

3. O'tmish madaniyatimizning o'lmas obidalari, buyuk mutafakkirlarimiz qalamiga mansub bebafo asarlarning katta qismi, vahshiylarcha talon-tarojlarga qaramay turli tadbiurlarni qo'llash orqali asrab-avaylandi va avlodlarga yetkazildi;

4. Til birligi va tozaligini, uzoq yillar davomida maxsus ~~z~~tkazilgan ta'sir va tazyiqlarga qaramay, saqlashga erishildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turli xil millat ma'naviyatiga yot bo'lgan axloqiy kodekslar, turmush tarzining o'zgacha ~~z~~slublarini singdirish borasidagi uzlucksiz tazyiqlarga qaramay, o'zbek xalqi o'zining bag'rikengligi, saxovatpeshaligi, mehmondo'stligi, sabr-bardoshliliq singari chin insoniy fazilatlarini yo'qotmadidi.

Tabiiyki, yurtimizning asl farzandlari tomonidan xalqimizning milliy o'ziga xosligini saqlab qolish, uning ma'naviy poydevorlariga jiddiy putur yetkazmaslik uchun olib borilgan goh oshkora, goh xufiyona kurashda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi:

1. Xalqimiz tarixiy-madaniy ildizlarining teranligi va ~~z~~rtomirligi, boy ma'naviy merosning mavjudligi;

2. Xalqimizning asosan o'troq hayot kechirib kelganligi, o'troq hayot esa turg'un mazmundagi urf-odatlarni taqozo etishi, aholining ijtimoiy-ma'naviy mo'ljallarida shahar ruhi, ma'naviyatining an'anaviy ustuvor mavqe kasb etib kelganligi;

3. Xalqimizning o'z milliy madaniyati, tili, san'ati, ada-biyotiga muhabbat, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'ana va

marosimlarga sodiqligi, xalq odatlariga millatning ma'naviy qiyofasi sifatida e'zozlab yondasha bilganligi;

4. Islom dini bilan xalq an'anaviy madaniyatining ular qurashishiga qarash, ta'qibdagi din bilan mazlum bo'lgan xalqning ozodlik uchun kurashida e'tiqodiy birlik holati tarkib topganligi va mustahkam amal qilib kelganligi;

5. O'zbek xalqining chidamliligi, cheksiz-chegaraligini sabr-bardoshi, bag'rikengligi, g'animlarni beixtiyor quroslanlantirishga qodir sofdilligi, samimiyyati, mehribonligi, yordam va hamisha hamkorlikka shay qalbi va hokazo omillari xalqimizning ma'naviy, etnik hamda ijtimoiy-siyosiy vogeli sifatida saqlana bilganligi va yashovchanligiga imkon berdi.

Ayni vaqtida ta'kidlash joizki, shu davr mobaynida xalqimiz yo'qotgan qadriyatlar, saqlab qolishga erishilgan qadriyatlardan bir necha hissa ko'proqdir. Ayniqsa, o'tgan birlashtirishda yarim asrlik mustamlaka davri va undan oldingi 300 yillik turg'unlik va tarqoqlik davri o'zbek xalqi mentalitetida jiddiy asoratlar qoldirdi.

Xalqimizga xos bo'lgan bahamjihatlik, hamkorlik, jangorvarlik, ahdga vafodorlik, sadoqat, har ishda birinchi bo'lishga kuchli rag'bat, so'z va amal birligi singari fazilatlarimizga jiddiy putur yetkazildi. Mamlakatimiz tarixidagi so'nggi 400 yil mobaynida xalqni milliy birlashishga da'vat etish borasida sa'y-harakatlarning izchil olib borilmaganligi, faqat etnik, sulolaviy va hududiy birlashish bilan qanoat qilish og'ir oqibatlarni yuzaga keltirdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuviga o'tmishdan meror bo'lib o'tgan barcha holatlarga yangicha ko'z bilan qarash, yalpi tiklanish, umummiliy ma'naviy islohotlarni boshlash imkoniyatini beradi. Istiqlol hammamizga mamlakatni yalpi sog'lomashtirish, milliy bir butunlikni ta'minlash, ma'naviy yaxlitlikni yuzaga keltirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bugungi kun mantig'i xalqimiz fe'l-atvori, mentaliteti o'zgarishlariga jiddiy e'tibor qaratishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Tafakkur» jurnali va «Fidokor» gazetasiga bergan

Intervyularida, shuningdek, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy hajakati tashabbuskor guruhi bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida, xalqimiz mentalitetini yaratish, buniyodkorlik ruhi bilan qurollantirish konsepsiyasini o'rtaga qo'ydi.

Birinchi Prezidentimiz millat mentalitetini o'zgartirish jarayonlarini tadrijiy tarzda amalga oshirishda, asosan, ikki yo'nalishda amaliy faoliyatni tashkil etish, ya'ni azaliy o'minalarimizga, bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan xalqimizning urf-odatlari, tili, dini, ruhiyatiga, qisqacha aytganda, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanish bo'lsa, ikkinchisi – umuminsoniy va zamonaviy yutuqlariga tayanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib berdi. Ma'lumki, tafakkur tarzi, dunyoqarash, ruhiyat omillari fe'l-atvor, xarakter tizimida o'zak jihatlar hisoblanib, barcha o'zgarishlarning ibtidosidir. Tafakkur tarzinining takomilishuvida esa ma'naviy-ma'rifiy omillar muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda ta'lim haqidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi, ma'naviyat omillining davlat siyosatida ustuvor yo'nalishga aylantirilishi, bu borada amalga oshirilgan keng ko'lAMDAGI faoliyat millat fe'l-atvori, tafakkur o'zgarishlariga jiddiy turtki berdi. Ikkinchi jihatdan esa, jamiyatimizning rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik doiralarining, ilmiy-texnikaviy, madaniy uyg'unlashuv miqyoslaring mutazam kengayib borishi kishilarimiz dunyoqarashi va turmush tarzida yangicha yondashuvlarni tarkib toptirayotir. Binobarin, har qanday taraqqiyot, sivilizatsiya turli xalqlar ma'naviyati, madaniyat, erishgan yutuqlari va intilishlarining sintezidan tug'iladi.

Bugungi o'zbek mentaliteti bozor munosabatlari hamda hozirgi zamon informatsion intellektual texnologiyalarining ustuvorligi davrida yana qanday muhim xususiyatlarga ega bo'lishi zarur? O'zgarayotgan zamon va yangilanayotgan makon dunyo xalqlari fe'l-atvori tizimida miya faolligi, su'y-harakatlarda tezkorlik, topqirlik va ayni chog'da har bir ishda rejaviylik, puxta tayyorgarlik, fahm-farosat, muammolarni hamkorlik asosida hal etish xususiyatlarining rivoj

topishini taqozo etmoqda. Shuningdek, shaxs va jamiyat shaxs va davlat munosabatlari tizimida alohida subyektlari – insonlar rolining benihoya oshib borishi kuzatilmogda.

Ana shu munosabat bilan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov xalqimiz xarakterida pragmatistik, ekzistensialistik hamda ratsionalistik xususiyatlarni shakllantirish va rivoqlantirish zarurligini ilgari surdi. Ma'lumki, pragmatizm – harakat, intilish ma'nolarini ifodalab, shu harakat orqali muayyan foyda, manfaatlarga ega bo'lishni, shaxsning maqsadli sa'y-harakati, faoliyati unga mehnatiga muvofiq naf, foyda keltirishini ifoda etadi. G'arb kishisi tabiatan individual bo'lib, manfaat omili uning barcha harakatlarini faollashtirdi, faol shaxs sa'y-harakatlari uchun asosiy mezon vazifasini o'taydi. Bizda esa, shaxsiy foyda izlash boshqalardan ko'rn, o'zini ko'proq o'ylab ish tutish odob boirasidan chetdagi hol sanalib, kishini jamoadan begonalashtiruvchi, uni go'yoki xudbin qilib qo'yuvchi omil vazifasini bajarib kelgan.

Bozor munosabatlari insonni tartibli hayotga undaydi, fikrlab ish tutishga, tadbirkorlikka da'vat etadi. Bozor hamma narsaga ongli yondashuvni, oqillik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Me'yorsiz bag'rikenglik, hotamtoylik, saxovatpeshalik, agar lozim bo'lsa serchiqimlilik, hisobsur-sarf-xarajat qilishga moyillik singari odatlarimizni ma'lum darajada cheklaydi. Har narsaga aql ko'zi bilan qarash asta sekin turmushning bosh tamoyiliga aylanib boradi. Bu esa Birinchi Prezidentimiz ta'kidlagan ekzistensialistik, ya'ni hayotga bugungi talablardan kelib chiqib, hushyor va oqilonma yondashuvlarni yoshlrimiz fe'l-atvoriga singdirish nechog'li dolzarbligini yanada ravshan ko'rsatadi. Odatiy hayot tuzimizda biz o'zimizni doimiy ekzistensiya holatida, ya'ni yashashga mas'ul va yashayotgan shaxs sifatida muntazam his etib turmaymiz. Biz o'zimizni emas, ko'proq boshqalarni kuzatishga, kuzatayotganda ham ongli, tizimiy emas, betarib qayd etib yurishga moyilmiz. Ekzistensialistik yondashuv insonni ongli, hushyor, sergak, o'zini tirik, oqil mavjudot sifatida doimiy anglash va his etib turishga undovchi kuchdir.

Bunday yondashuv insonda o‘zini o‘zi doimiy tarzda yangiborish, tashqi shart-sharoitlarga moslashuvchanlik, o‘zini muhofaza eta bilish, muntazam ravishda takomillashuvga qiziq sezish xususiyatlarini tarkib toptiradi. Ekzestinsialistik yondashuv kishini konformizmdan, ya’ni hamma narsaga o‘nib ketaverishdan, ortiqcha qanoatdan, befarqlik va loqaydilarga berilishdan xalos bo‘lishga, o‘z so‘zi, o‘z nuqtayi nazari, e’tiqodiga qat’iy va barqaror bo‘lishga da’vat etadi. Ekzistensializm o‘z so‘zi, ishi va taqdiri uchun mas’ullik hisobini ham tarkib toptiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mazbur g‘oya ulug‘ ajdodimiz Abu Mansur al-Moturidiyning har inson u dunyo va bu dunyodagi taqdirini «o‘zi yaratadi, inson erkinligi, hurligini ta’minlovchi kuch – har bir hayotiy vaziyatda oqilona me’yor, murosaviy muvozanatni ta’minlay tilish tamoyillariga rioya qila olishdan iboratdir» degan konsepsiyasiga ayni muvofiqligini hamda insonning har ishga qodirligi va mas’ulligi g‘oyasining xalqimiz tarixida ma’naviy poydevori mavjudligini ko‘rsatadi. Shu boisdan ham tarbiyiy faoliyatimizda xalqimiz ma’naviy merosi, xotirasida tarixan mavjud bo‘lgan milliy fazilatlarimizni qayta tiklash va bugungi kunimizga xizmat qildirish yo‘lidan borishimiz zarurdir.

Dunyo o‘zgarishlari mazmuni umumiy yondashuvlarga, murosa va hamjihatlikka erishishga da’vat etuvchilar bilan xususiy haqiqat tarafдорлари, ya’ni faqat o‘z manfaatlari yo‘lida kurashuvchilar o‘rtasidagi bahs-munozara keskinligining tobora ortib borishi bilan izohlanmoqda. Insoniyat yakdil fikr qilish, umumiy sa’y-harakatlarga erishish, siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy ziddiyatlarni faqat yalpi bartaraf etish uchun kurashish zarurligining zamon taqozosи ekanligini tobora navshanroq anglamoqda.

Umumiylashuv jarayonlarining kengayishi insonning hayot va jamiyatdagi o‘rnii masalasiga o‘zgacha yondashuv zaruratini kun tartibiga chiqarmoqda. Shaxsning jamiyatdagi o‘rnii tobora qat’ylashib, uning bevosita o‘z imkoniyatlari orqali yoki muayyan jamoa, guruh vositasida ijtimoiy

hayotga ko'rsatuvchi ta'siri ortib bormoqda. Ma'lumki, ayni davrdagi demokratiya tartibotlari G'arb dunyosida tug'ilgan hodisadir. Hozirgi paytda dunyo xalqlari hayotiga singdiri layotgan demokratiya tamoyillari G'arbiy Yevropa xalqlari mos bo'lgan turmush tarzining adolat tamoyillari bilan yo'g'rilgan namunasidir. Butun dunyoda yuz berayotgan global lashuv, ya'ni, umumiylashuv jarayonining mushtarak qismi sifatida namoyon bo'layotgan g'arbona demokratiya Sharq xalqlari hayotiga muayyan qiyinchiliklar bilan tomir otmoqda. Bu yo'lda har bir davlat o'ziga xos murakkabliklar davrin o'tashiga, ba'zan esa kutilgan natijalarining mutlaqo teskar holatlariga ro'para bo'lib qolishiga ham to'g'ri kelmoqda.

Agar demokratiyaning asosiy talabi bo'lgan inson haq huquqlarini teng ta'minlash va uni adolatli himoyalash zarurati an'anaviy buddaviylik diniga sig'inuvchi mamlakatlarda xususan, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Tayland singari davlatlarda bir qadar silliq kechayotgan bo'lsa, islam qonunlari barqaror bo'lgan Sharq mamlakatlarida bu jarayon jiddiy kataklizmalar, siyosiy buxronlar, og'ir yo'qotishlar hisobiga amalga oshirilmoqda. Hatto, g'arbona demokratiya tartibotlarini singdirishga bo'lgan ayrim urinishlar tamoman teskari oqibatlarni tug'dirib qo'ygani ham yaqin tariximizdan ma'lumdir.

G'arb xalqlari uchun har qanday muammoning yechimini manfaatlar hal etishi umumiyl qonuniyat hisoblanadi. Manfaatlar silsilasida iqtisodiy manfaat, ayniqsa, ustuvor ahamiyatga ega. Ingliz mentalitetini yaxshi bilgan mashhur davlat arbobi U.Cherchill «Angliya taqdirini uning doimiy do'stlari emas, balki doimo o'zgarib turuvchi manfaatlari belgilab kelgan» degan edi.

G'arbdagi moddiy, real manfaatlar ustuvorligi qadriyati sharqona qadriyatdan farq qilib, Sharq xalqlari uchun bosh qadriyat ma'naviy omillar, ayniqsa, inson sha'ni, obro'-e'ti bori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan. Madaniy talablar esa, o'z-o'zidan qadriyatlar qatorini mutanosiblash tirishni, birining ketidan mantiqiy ravishda ikkinchisini qo'yishni taqozo etgan. Xususan, otaga ehtirom, onaga e'zo-

ko'rsatish, aka va uka hurmati, qavmu qarindoshlar totuvligi, qo'ni-qo'shnilar ahilligi qadriyatlar sifatida muayyan ketma-ketlikda, qadrlanish darajasiga ko'ra iyerarxik shaklda bayotdan o'rIN olib kelgan. Qadriyatlar qatoridagi tartiblarning buzilishi jamiyat, so'ngroq esa davlatning nurashiga olib kelgan. Iyerarxiya Sharq turmush tarzining maromini belgilab turuvchi muvozanat me'yori, eng asosiy tamal toshlidan hisoblangan. Iyerarxik tizim hamma jarayonlarning o'z oqimida kechishiga, po'rtanalar yuz bermasligiga kafolat vazifasini o'tab kelgan.

Sharq xalqlari turmush tarzi murakkabliklari to'g'risida olmas obidalar yozib qoldirgan qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy dunyo barqarorligi faqat moddiy boyliklarning teng taqsimlanishigagina emas, balki umum tomonidan e'tirof etilgan adolatli tengsizliklarga tayanishga bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Mutafakkir odamlarni tinchlantirish uchun ularni tenglashtirish emas, balki, adolatli tabaqalashuvga erishish zarur, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Dunyo tinchligi – uning qarashlariga ko'ra, «ota va bola», «er va xotin», «hokim va fuqaro», «aka va uka», «ustoz va shogird» o'ttasidagi tengsizlik maromining nechog'li saqlanishiga bog'liqdir. Mabodo ana shu besh tengsizlikning biror bir bo'g'iniga darz ketgudek bo'lsa, dastlab oiladan, keyin jamoa, jamiyat va nihoyat davlatdan baraka, fayz ko'tariladi va umumi inqirozlarga yo'l ochiladi.

Tengsizlik tartibotining mazkur formulasi nafaqat uzoq Sharq, balki Markaziy Osiyo mamlakatlariida asrlar mobayunda amal qilib kelgan. Buning tamomila aksi sifatida G'arb dunyosi har bir fuqaroning hech bir istisnolarga bog'liq bo'limgan real tengligiga erishish uchun necha asrlab kurash olib bordi va bunga erishdi ham.

Biz bugun yalpi tenglik uchun kurash harakati muayyan ma'naviy qadriyatlarning narxi pasayishi, insoniylik, ezgulik singari tamoyillar ahamiyatining susayishiga olib kelgandan qat'i nazar, G'arb mamlakatlari uchun umumi yuksak taraqqiyotga erishish imkoniyatlarini tug'dirganini e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Ayni chog'da, yalpi tenglikka erishish

jarayonlari oqibatida odamlararo munosabatlardagi ilqili ma'naviy qadriyatlarning narxi pasayishi, samimiyat, ezylik, hamdardlik singari tamoyillarning hayotdagi ahamiyati susayishiga olib kelganligini ham unutmasligimiz zarurdi. Bugungi G'arb dunyosi uchun individualizm, egoizm, konformizm, marginallik, shafqatsizlik xususiyatlarining shaxsifatlariga aylanib qolayotganligini ommaviy axborot vositalari tashvishlanib qayd etmoqda.

Shu boisdan ham O'zbekistonda xalqimiz ma'naviy yutligini saqlab qolish, o'zlikdan chekinmaslik, sof insoniyat zilatlarga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilish siyosatini izchil yurgizilmoqda.

Binobarin, demokratiyaning asl mohiyati jamiyatda adolat tamoyilini qaror toptirishdan iborat ekanligini e'tiborga olsak, mamlakatimizda mazkur jihat quyidagi omillarda yaqqol ko'rindi:

Birinchidan, fuqarolarning tinchligi va millatlararo to tuvlik tamoyili umumjamiyat miqyosida yalpi qaror topgani; ikkinchidan, fuqarolarning turli ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy jamiyatlarga birlashish erkinligi kafolatlangani va real amal qilayotganida; uchinchidan, ma'naviyat, ma'rifat va odob-axloq tamoyillari orqali insonning insonligini o'ziga anglatishdan iborat umumjamiyat harakatining izchil amalga oshirilayotganida; to'rtinchidan, bozor iqtisodiyotining murakkab muhitiga insonni kuchli ijtimoiy himoya qilish orqali bahamjihat kirib borish siyosatiga qa'tiy amal qilinayotganida. Mazkur omillarning umumiyligi va pirovard majmui esa mamlakatimizda adolat tamoyilining o'ziga xos va o'ziga mos tantanasini ifoda etadi.

Shunday qilib, Sharq xalqlari uchun G'arbga xos bo'lgan hammani bir xil qarichda o'lchovchi total, ya'ni yalpi tenglik formulasi emas, balki insoniylik talablari to'laroq bajari-luvchi iyerarxik tenglik (pastdan yuqoriga, bosqichma-bosqich riosa qilinuvchi munosabatlar tizimi) formulasi ko'proq mos keladi.

Iyerarxik tenglik formulasi Konfutsiy ta'kidlagan insoniyat qanoat, insof, diyonat, kattaga hurmat, kichikka izzatdan

iborat, anglangan cheklanishlarni e'tiborga olgan holda yashashni taqozo etadi. Mazkur talab jamiyatni faqat qonunlar kuchi orqaligina emas, balki ma'naviyat undovi vositasida ham boshqarishga yo'l ochadi.

O'zbek mentalitetidagi muhim bir jihat – aholi turli tabaqalari ijtimoiy-madaniy va siyosiy sa'y-harakatlari jarayonini me'yoriy va ongli boshqarishdan iboratdir.

Ma'lumki, o'zbek xalqi tabiatan yaxshiga havasli, ibratga moyil, kattaga ehtiromli, kichikka izzatli, ergashuvchanlik mayli kuchli xalqdir. Ana shu ergashuvchanlik, ibratga moyillik xislatlarini millat manfaatlariga bura olish, ularni Vatan ravnaqi yo'liga safarbar etish, bu fazilatlarni nopol kimsalardan, shubhali siyosiy oqimlardan muhofaza etish, g'animlarning g'arazli kirdikorlariga qurban bo'lishdan asusli favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy antropologiya fani, jamiyatni samarali boshqarish jarayonlari dastavval aholini e'tiqodlar, qiziqishlar va boshqa o'lchamlar asosida tashkillashtirish ishlarini tizimli yo'lga solish orqali amalga oshishini asoslaydi. Tashkillashtirish jarayonlarini esa, muayyan guruhlar tarkibidagi yetakchilar, lider shaxslar atrofida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Zero, ergashuvchanlik tabiati ergashtiruvchilik omiliga doimiy ehtiyoj sezib turadi.

O'zbek mentalitetida o'zgarishi zarur bo'lgan yana bir jihat – bu xalq tabiatidagi jamoaviylik va individualizm omillarining nisbatidir. Ma'lumki, G'arbda shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Jamoa insonning ichki-botiniy dunyosi, ruhiyati, shaxsiy hayotiga mutlaqo aralashmaydi. Sharqda esa, jamoa asosan insonni ijtimoiy nazorat ostida tutib turish, shaxsning jamoadagi munta-zam ishtiroki uning umumiyligi, axloqiy me'yorlar doirasida ish tutayotganining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ayricha ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida qaraladi. Ammo jamoaviylik nisbatining mutloqlashtirilishi shaxs erkinligi va ozodligiga xavf tug'dirishi mumkin. Shu boisdan ham o'zbek mentalitetida jamoaviylikda me'yorni saqlagan holda

yondashilib, uning bir qadar individuallashuvi, javobgarlik hissini rivojlantirish, o'zi uchun o'zi hisob bera olish, mustoqil ish tutish, shaxsiy mas'ullik singari xususiyatlarni takomil lashtirish jihatlariga ham e'tibor qaratiladi.

Jamiyatning intellektual-ma'naviy darajasi qancha yuqori bo'lsa, qonunlarning o'rni va roli muttasil ortib boradi. Nemis sotsiolog Zimmel fikricha, odamlarni ularning taraqqiyot darajasiga ko'ra uch xil usulda boshqarish mumkin. «Ba'zilarni, – deydi u, – shaxsiy namunalar, ko'rsatmalar bilan, boshqalarni urf-odatlar, rasm-rusum va an'analar bilan boshqarish, eng rivojlanganlarini esa, faqat qonunlar vositasidagina boshqarish mumkin».

Darhaqiqat, rivojlangan G'arb mamlakatlarida xalq an'analarini, urf-odatlari faqat maishiy turmush doirasida amal qilib, bir qadar cheklangan. Fuqarolarning keng ko'lamdag'i hayot tarzi, davlat va jamiyat tuzilmalari, ijtimoiy munosabatlar tizimi asosan qonunlar vositasida boshqariladi. Rivojlangan Sharq mamlakatlari – Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya singari mamlakatlarda ham xalq odatlari, an'analarining jamiyat hayotidagi mavqeiga nisbatan qonunlari ta'sirining salmog'i yuqoridir. Shunday ekan, mamlakatimizda ham iqtisodiy, texnologik va ma'naviy taraqqiyot darajasi yuqorilab borishi bilan jamiyat hayotida qonunlarning o'rni va roli shunchalik ortib borishi tabiiy holdir.

Xullas, madaniy antropologiya insonning tabiiy va ijtimoiy muhitdagi holatini turli fanlar, xususan, falsafasi, sotsiologiya, psixologiya, biologiya orqali, shuningdek, xalqlarning ijtimoiy xarakteri, mentaliteti vositasida ham atroficha o'rganishga erishadi.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Madaniyatning falsafiy talqinini ta'riflang.
2. Madaniyatga faoliyat nuqtai nazaridan yondashing.
3. Madaniyatni texnologik nuqtai nazaridan tahlil qiling.
4. Madaniyatga gumanistik qarash nuqtai nazaridan fikr biling.
5. Madaniyatni «kultura» termini orqali izohlab bering.

6. Muloqotlar masofasi deganda nimani tushunasiz?
7. Madaniy pragnozlarni izohlang.
8. Madaniyat sohasidagi ilmiy tadqiqotlar talqini haqida aytilib bering.
9. Madaniy qadriyatlar tasnifi nimalardan iborat?
10. Madaniyat sohasidagi ijtimoiy institatlarga misol keltirring.

Tayanch so‘z va iboralar:

Madaniyat, mentalitet, madaniy antropologiya, e’tiqod.

3.10. Ijtimoiy-madaniy faoliyat orqali mafkuraviy zombi qilishga qarshi kurash

«Biz o‘zimizning pirovard maqsadimizga erishish uchun zamon qanday tez va shiddat bilan o‘zgarayotganini hisobga olgan holda, vogelikning ortida emas, balki uning oldida yurishimiz, har qanday noxush harakat va muammolarning oldini olishimiz zarurdir».

Islom KARIMOV

Turli xil madaniy ta’sirlar va diniy e’tiqodlarni aholi ongiga singdirish orqali siyosiy, mafkuraviy maqsadlarga erishish harakati XX-asr oxiri va XXI-asr boshlaridagi davrning o‘ziga xos xususiyatiga aylanib bormoqda. Ommaga madaniy, diniy va mafkuraviy tazyiq o’tkazish xususiyati dunyodagi yirik islam, xristian, buddaviylik va iudaizmdan iborat 4 dindagi an’anaviy e’tiqod amallaridan ajralib chiqqan mazhablar, sektalar, oqimlar faoliyatida, ayniqsa, bo’rtib namoyon bo’lmoqda. Diniy e’tiqod orqali ta’sir o’tkazish jarayonlari odamlar ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish, pirovard natijada ularni ma’naviy manqurt – zombiga aylantirish bilan yakun topmoqda. Yoshlar ongini zaharlab, ularni zombi qilish mexanizmi qanday tarzda namoyon bo’lishi, bu jarayon qay tarzda kechishi, mafkuraviy muxoliflarimiz o‘zlarining y‘arazli maqsadlariga erishish uchun qanday shakl va uslublardan foydalanayotganini tadqiq etish bugungi kunning favqulodda muhim masalalaridan sanaladi.

Dunyodagi jamiki odamlar uchun oddiy va tabiiy, aymalik vaqtida eng oliv qadriyat o‘z nasli, surriyoti bo‘lgan farzandini qadrlash hisoblanadi. Farzanddan keyingi qadriyatlar qatorini ota-onasiga, ulardan keyin aka-ukalarni qadrlash tashkil etadi. Oiladan keyin yaqin do‘sstlar, qarindoshlar, og‘aynilari, jo‘ralar, dugonalar, hamkasblar, mahalladoshlar birin-kechin o‘rin olib, eng so‘ngida shunchaki tanish-bilishlar bilan yakun topadi. Bu holat barcha xalqlar turmush tarzi uchun tabiiydir. Agar qadriyatlar qatori o‘zgarsa, ya’ni, biror bikiishi o‘z farzandidan ko‘ra do‘ssti yoki mahbubasini ko‘proq qadrlasa, atrofdagilar bunga xayrixoh bo‘lib qaramaydilar. Mobodo inson o‘z oilasi, yaqinlariga xiyonat qilib, oiladan uzoq bo‘lgan odamlarga yaqinlashsa nafaqat oila, balki, barcha tanish-bilishlar, mahalla, hamkasblar ham bu odamdan nariroq bo‘lishga intiladi.

Madaniyat muassasalarida mashg‘ul bo‘lganlar orasidagi ana shu jamiyat qoidasini izchil singdirish katta ahamiyatga egadir. Xususan, turli xil mafkuralar, diniy oqimlar, ayniqsan, «ommaviy madaniyat» ta’siriga moyil bo‘lib qolish xalqimiz qadriyatlariga bepisandlik oqibatida yuz beradi. Masalan, o‘tan zararli oqim bo‘lgan «Hizb-ut-tahrir» yo‘liga o‘tganlarning ongida dastavval asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar qatorini o‘zgartirish jarayoni amalga oshiriladi. Ularga eng muhim qadriyat farzand, oila emas, balki, islomiy qonun-qoidalar, deb uqtiriladi. Islomiy qonun va shariat qoidalarini kundalik turmushga joriy etish uchun kurashish eng oliv saodat, deb o‘rgatiladi. Demak, shaxsni an‘anaviy tarbiya muhitidan chiqarib, noan‘anaviy ta’sir holatiga solish uchun inson tomonidan qadrlanadigan qadriyatlar qatori quyidagi o‘zgartirilgan tartibda bo‘lishiga erishiladi.

1. Xalifalik davlatini qurish;
2. Faqat islomiy qoidalar asosida yashash;
3. Milliy urf-odatlar o‘rniga islomiy an‘analarni joriy etish;
4. Boshqa dinlar tarafдорларига qarshi jihad qilish;
5. Islomiy birodarlar bilan ma‘naviy-diniy hamfikrlikka erishish;

6. Oila;
7. Qavmu qarindoshlar;
8. Mehnat faoliyatini tashkil etish, kasb-hunar bilan mashg'ullik.

Ta'kidlash joizki, g'oyaviy muxoliflarimiz, eng avvalo, diniy e'tiqodni o'zgartirish ishlarini ta'sir doirasiga olingan shaxsning turmush tarzini tubdan o'zgartirishdan boshlashga intiladilar. Turmush tarzi dabdurustdan o'zgargan inson esa hayotda gangib qoladi. Avval olgan oilaviy tarbiyasi ko'magida yangi boshlanayotgan hayotda mustaqil harakatlana olmaydi. Unga doimiy rahnamo, moddiy-ma'naviy tayanch zarur bo'lib qoladi. Shu boisdan ham, turli xil sekta va oqimlarga bilib-bilmay aralashib qolgan yoshlarga bir qarashda qiziqarli, jozibador bo'lib tuyuluvchi faoliyatlar, kasb-korlar, mashg'ulotlar taklif etiladi. Natijada, ko'p yillar mobaynida o'rganib qolgan odatiy hayot yo'lini yo'qotgan yoshlar yangi yo'lda arosatda qolib, mafkuraviy homiysining ma'naviy quliga aylanadi.

Qadriyatlarning qiyosiy manzarasi

Nº	O'zbekona milliy, an'anavyi tarbiya tizimida qadriyatlarning ahamiyat darajasiga ko'ra joylashishi	Noan'anavyi, ekstremistik ruhda tarbiyalash tizimida qadriyatlarning ahamiyatiga ko'ra joylashishi
1.	Farzandga bog'liqlik, mehr	Xalifalik davlati qurish.
2.	Ota-onas, oilani qadrlash	Islomiy qoidalarga to'liq o'tish.
3.	Aka-ukaga mehr	Milliy urf-odatlar o'miga islomiy an'analarni joriy etish.
4.	Do'stlik, muhabbat, Vatanga sadoqat	Boshqa din tarafdarlariga qarshi jihad qilish.
5.	Diniy, madaniy, axloqiy tolerantlik	Faqat musulmon birodalar bilan diniy hamfikrlikka erishish.

6.	Oshna-og‘aynilar, hamkasblar qadriyati	Cheklangan islomiy, e’tiqodiy yaqinlikka erishish
7.	Kasb-korga sadoqat	Kasb-kor qadriyatini islomiy e’tiqodga bo‘ysundirish
8.	Diniy e’tiqod qadriyati	Farzand, oila, ota-onalari, qarindoshlar
9.	Badiiy ijodiyot bilan mashg‘ullik	Badiiy ijodiyotni inkor qilish

Ana shu aqidalarga ishontirish uchun esa odamlar orasida aqliy va ruhiy-psixologik uslublar bilan ish olib boriladi. Mafkuraviy ta’sir etish samaradorligini ta’minalash uchun esa ularga tez ishonishi mumkin bo‘lgan odamlar maxsus tanlab olinadi. Ular quyidagilar:

1. Aholi orasidan harakatchan, ammo besabr, tez lovillab ketuvchi, odamlarga hamisha nimalarnidir muvaffaqiyatsiz uqtirishga urinib yuruvchi, psixologiyada «xolerik» tipiga mansub xarakterli, hayotda biroz omadi chopmay turgan odamlar;

2. Yoshlar orasidan soddadil, ishonuvchan, biror bir mafkuraviy immunitetga, ijtimoiy-nazariy poydevorga ega bo‘lmagan, dinlar, diniy oqimlar haqida, ularning farqiy jihatlari xususida ma’lumotlarni o‘zlashtirmagan, ammo yangiliklarni bilishga qiziquvchan yigit-qizlar;

3. Ishxonada, mahallada, jamoa orasida tayinli ijtimoiy mavqega, ayricha obro‘-e’tiborga ega bo‘lmagan, ammo, ayni vaqtda egallab turgan ijtimoiy mavqeiga nisbatan balandroq obro‘ga da’vogar bo‘lgan, o‘ziga xos liderlik talabi va ishtiyoqi mavjud bo‘lgan shaxslar;

4. Turmushda, kasb-korida kasodga uchrab, krizis holatini boshidan kechirayotgan, odamlardan biroz uzoqlashib, o‘z yog‘ida o‘zi qovrilib yurgan, qaysi ish yoki choraning boshini tutishni bilmayotgan odamlar;

5. Bir qarashda jamoa va odamlar nazaridan chetda bo'lib yurishni ma'qul ko'ruchchi, kamsuqum, beozor, har xil shovqin-suron davralardan o'zini xoli, o'zining dunyosida o'zi yolg'iz yurishni ma'qul ko'ruchilar, psixologiyada «melanolik» tipli xarakterga ega bo'lgan odamlar tanlanadi.

Tanlangan odamlarga avvaldan maxsus tayyorgarlik kurslarini o'tagan xorijlik va mahalliy «mutaxassis»lar ong va tafakkurga informatsion ta'sir ko'rsatish mexanizmini ishga soladilar. Mazkur mafkuraviy ta'sir etish mexanizmining mohiyati uch bosqichli bo'lib, birinchi bosqichda «mijoz» bilan uchrashuv go'yo tasodifday yuz berib, maroqli va qiziqligi suhbat tarzida amalga oshadi. G'oyaviy oqimlar xususida dastlabki ma'lumotlar berib, mijozga hech qanday majburiyat yuklamasdan ish tutiladi. Mijoz suhbat asnosida biror-bir majburiyat yoki taklif olmaydi, maroqli suhbatdan to'la qomiqish hosil qildirilmaydi. Unda suhbat mobaynida ko'pgina savollar tug'iladi. Ammo suhbat vaqt 5–10 minutdan ataylab oshirilmaydi. «Maroqli» va bir qadar sirli uchrashuv ataylab to'xtatiladi. Suhbat yakunida mo'jazgina broshyura yoki vaqa berilib, «yana uchrashib qolguncha» deya soxta samimiyat bilan xayrashiladi.

Ikkinci suhbat vaqtি birinchi uchrashuvdan 3–4 kun kevin (dastlabki yoqimli taassurot yo'qolmasdan turib) uyush tiladi. Suhbat vaqtida oilaviy ahvol, ishxonadagi holat, turmush tarzi xususida (mijozning ijtimoiy va shaxsiy hayoti esa avvaldan o'rganilib qo'yilgan bo'ladi) hol so'raladi. Yelim bo'lib yopishmasdan hamdardlik ruhida fikr bildiriladi. Hayotda hamma narsada yechim borligi, ana shu yechim yo'lini esa Xudo ko'rsatishini, bu dunyoda hech narsa tasodifan bo'lmasligi va hattoki hozir bo'layotgan ana shu uchrashuv ham Yaratganning irodasi ekanligi uqtirib o'tiladi. Suhbat 10–15 minutdan oshirilmaydi. Hayotdan norozi ruh kuchaytilib, yechim yo'llari muqarrarligiga endi aniqroq ishora beriladi. Ammo bu safar ham taklif etilayotgan oqimga ochiq-oydin o'tish taklifi berilmaydi. Mijoz esa psixologik jihatdan suhbat mobaynida taklifni kutish holatidan xalos bo'la olmaydi. Suhbat oxirida yana qo'shimcha adabiyotlar

sovg'a, deb beriladi va «siz bu yerda o'zingizni qiziqtirayotgan, hayotda sizni qiyab kelgan ko'pgina muammolarga yechim topasiz» deb uqtirib qo'yiladi.

Uchinchi uchrashuv ikkinchi suhbatdan 5–6 kun o'tkazilib amalga oshiriladi, xuddi avvalgi qadrdonni ko'rib qolganday psixologik muhitda sodir etiladi. O'tgan safar aniqlashtirilgan ayrim holatlar, masalan, mijozning qizi kasal bo'lganligi eslanib, uning sog'ligi haqida so'raladi va tuzalganligidan mehribonlik bilan shukr qilinib, hamma narsa Ollohning irodasi ekanligi ta'kidlanadi. Mijoz qalbida iliqlik uyg'otiladi. Suhbat har qanday odamning bu hayotda o'z holicha yashashi mumkin emasligi, dunyoda benihoyat darajada bog'liqlik mavjudligi qayd etiladi. Yaratganni bilish va unga e'tiqod qilish eng ulug' saodat ekanligiga turli misollar bilan ishontiriladi. Mijozning taklif etiluvchi g'oyaviy oqimga tayyorlik holati ma'lum bo'lgach, unga masala mufassal tushuntiriladi. Bu oqimga juda ko'p odamlar xayrixohligi va unga qo'shilayotganligi alohida ta'kidlanadi. Ayni vaqtda bu yo'lga kirish har bir odamning o'z mustaqil ishi, erkin tanlov ekanligi aytildi. Suhbat 20–30 minut davom etadi. Suhbat muloqotning psixologik ta'sirini uzluksiz oshirib borish tarzida o'tkaziladi.

Ma'lumki, kishiga erkin tanlash imkoniyati berilsa, u hamisha taklif etuvchidan maslahat va yo'l so'raydi. Shunda mijozga javoban «buni siz tanlang, biz to'g'ri yo'lni ko'rsatdik, shu yo'lga kirish-kirmaslik sizning ishingiz» deb aytildi. Bunday javob mijozda suhbatdoshiga ishonchni yanada ortiradi va zararli oqimga ergashishga bo'lgan maylni kuchaytiradi.

Guruhga kiritib olingan shaxsni shu guruh doirasida, mustahkam ta'sir ostida ushlab turish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun dastavval, ta'sir ostiga olingan shaxslarga targ'ib etilayotgan e'tiqodiy nazariyani boshqa biror-bir nazariya bilan qiyoslash imkoniyati berilmasligiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki qiyoslash boshlanishi bilan targ'ib qilinayotgan g'oyaga shubha, ishonchsizlik paydo bo'ladi. Zero, hamisha qiyoslash – bilishning bosh omili sanalib kelgan. Shuning uchun shaxsda qiyoslashga bo'lgan

intilishni, xohishni yo'q qilishga harakat qilinadi. Xohishni yo'qotishning sinalgan uslubi esa, egallangan nazariyaning boshqa nazariyalardan ustunligini doimiy ta'kidlashdir.

Shu o'rinda qayd etish joizki, muxoliflar psixologiya fani erishgan natijalar, ya'ni xohishni ong osti tuzilmalariga singdirish mexanizmidan keng foydalanmoqda. O'z-o'zidan, tabiiy ravishda kechuvchi, istalgan odam yoki hayvonda biron-bir narsa yoki hodisaga nisbatan maylni yuzaga keltiruvchi psixologik mexanizmning ishlash tartibi o'ta oddiy bo'lib, bir jins, bir xil mazmun yoxud shakldagi narsa yoki informatsiyani ketma-ket, uch martadan ko'p ko'rsatish va eshittirish avvaldan kutilgan samarali natijalarni beradi. Shaxsga ko'rsatilgan maqsadli ta'sir esa, ong osti tuzilmalarida muayyan vaqt mobaynida to'plangan ma'lumotlarni tasdiqlash yoki inkor etish jarayonlarining boshlanishiga, boshlanganda ham o'ziga xos avtomatik tarzda, ya'ni inson irodasidan tashqari holda boshlanib ketishiga asos bo'ladi. Bu yerda motiv, ya'ni nimaga inson ko'proq moyil bo'lganligi ham muhim rol o'yнaydi. Inson, ayniqsa, o'zi xohlagan narsaning tasdig'iga erishishga intiladi. Shu boisdan ham, muxoliflarimiz qaysi ma'lumotlar berishdan ham ko'ra, ularni qanday tarzda yetkazish, asosan suhbatdoshda xohish, mayl uyg'otishga katta e'tibor qaratadilar.

Mazkur mafkuraviy ta'sir jarayonlarini modellashtiradigan bo'lsak, quyidagi formula yuzaga keladi:

$$A = \frac{T}{I} = O'Q + I.$$

A – shaxs ongi, tafakkuriga axborot, fikr, nuqtayi nazarlar tarzida singdiriluvchi mafkuraviy ta'sir.

T – shaxs tomonidan qabul qilingan mafkuraviy axborotlarni tasdiqlash.

I – singdiriluvchi ma'lumotlarni shaxs tomonidan qabul qilmaslik, inkor etish;

O'Q – mafkuraviy ta'sir natijasida shaxs tafakkuridagi o'zgargan qarashlar.

I – o'zgargan shaxsni ana shu holatda barqaror qolishini ta'minlovchi immunitetli yondashuvlar majmui.

Inson ongi, tafakkuriga uch yoki undan ortiq marta ko'rsatiluvchi mafkuraviy ta'sir tabiiy ravishda olingen yangi ma'lumotlarni o'ylashga, o'ylash esa ularni tasdiqlash yoxud rad etishga bo'lgan ongosti psixo-fiziologik jarayonlar boshlanishiga turtki beradi. Agar shaxsda mazkur fikr-qarashlar (diniy e'tiqod, axloqiy pozitsiyalar) xususida avvaldan shakllantirilgan nuqtayi nazarlar bo'lsa, yangi ma'lumotlar avvalgi ma'lumotlar bilan qiyoslanadi va aksariyat hollarda singdiriluvchi g'oyalarni inkor etuvchi natijalar yuzaga keladi. Agar shaxsda yangidan singdiriluvchi ma'lumotlar xususida muayyan ma'rifiy tayyorgarlik, tushuncha va tasavvurlar bo'limasa, yangi ma'lumotlarni hayotiy aqida, e'tiqodiy yondashuv sifatida qabul qilish, ularni qalban tasdiqlashga bo'lgan moyillik ustunlik qila boshlaydi. Tasdiqlash asosida qabul qilingan e'tiqod, g'oyalalar o'zlashtirilgach, ularni tashqi ta'sirlardan himoyalash mexanizmi ishga tushib ketadi. Mazkur jarayon yanada samarali kechishi uchun esa, misionerlar (ular xoh «Hizb-ut-tahrir», xoh «Vahhobiylik», xoh «Akromiyalar», yoinki «Yevangelistlar», «Svideteli Iyegova» va h.k. bo'lishdan qat'i nazar) o'z «muridlari»da manfur g'oyalaringa mos bo'lgan mafkuraviy immunitetni tarkib top tirishga urinadilar.

Zero, salbiy mafkuraviy immunitet e'tirof etilgan sog'lom ma'naviy muhitdan vayronkor kuchlar tomonidan ajratilgan odamlarni muayyan mafkuraviy qobiqda saqlab turish uchun amalga oshiriladi. Demak, immunitet ikki xil shaklda, ya'ni:

- sog'lom ma'naviyatni himoya qilish tarzida;
- vayronkor g'oyalalar asosida odamlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itish tarzidagi salbiy mafkuraviy immunitet holidu namoyon bo'ladi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlari puxta o'y langan psixologik mexanizmdan iborat bo'lib, ta'sir doirasiga olingen shaxs ongi va qalbini har tomonlama «zanjirband» etishni nazarda tutadi. Buning uchun esa mafkuraviy tutqin etilgan shaxsga tashqaridan (ota-onalaridan, mahalla ahlidan, tanish-bilishlardan, huquq-tartibot xodimlaridan va h.k.)

beriluvchi savollar tasnif qilinib, har bir savol uchun maxsus javoblar tayyorlanadi. Javoblar suhbatlar mobaynida mijochning e'tiboriga oddiy fikr almashuvga o'xshatib, me'daga tegmaydigan shaklda havola etib qo'yiladi. Immunitet javoblaridan bir nechtasini misol tarzida keltiramiz:

Savol: «—Siz «Hizb-ut-tahrir»ga a'zo bo'lib, xalifalik davlati quraman, deb qamalgansiz, yaxshigina ish joyingizdan ajralgansiz, oila a'zolariringiz, qavmu qarindoshlaringiz bilan tinch va osuda hayotingizdan mahrum bo'lgansiz. Bu holatlarga tushganiningizdan pushaymon qilmaysizmi?»

Salbiy immunitet javobi: «—Yo'q pushaymon emasman. Chunki bu hayot sinovdir. Har kim ekkanini o'radi».

Savol: «—Yoshgina farzandlaringiz bor ekan. Ular endi kunning qo'liga qarab qoladi? Kim ularni boqib katta qiladi? Siz shularni o'ylamaysizmi?»

Salbiy immunitet javobi: «—Peshonada yozilgani bo'ladi, birodar. Farzandlarning ham rizqini xudo beradi».

Savol: «—Xotiningiz juda yosh ekan. Endigina 25 ga kintBDI. Axir uni ham o'ylash kerak-ku?! Turmush o'rtog'ingiz Siz tufayli majbur bo'lib, yomon yo'lga kirib ketsa nima bo'ladi?»

Salbiy immunitet javobi: «—Agar xotinim yomon yo'lga kirib ketsa, narigi dunyoda javobini o'zi beradi».

Savol: «—Ota-onangiz, aka-ukalaringiz bu yo'l xatarli, nomaqbul, deb Sizni qaytarishga urinishganmi?»

Salbiy immunitet javobi: «—Shunday bo'lgan. Meni tanlangan yo'limdan qaytarmoqchi bo'lishgan. Men ko'nmagandan. Ular dinu islomda adashganlar. Men ularga bu haqda ko'paytganman».

Mazkur savollarga javoblarni mazmunan (sotsiologiyada fikr va mulohazalarni mazmuniy tahlil etish uslubi «kontent-analiz» deb ataladi) tahlil etish shuni ko'rsatadiki, mafkuraviy ta'sir doirasiga tushib qolgan shaxs mulohaza bildirayotgan paytda o'z fikrini ongi, tafakkurida mushohada etmay turib iżhor etishga moyil bo'ladi. Bunday shaxslar uchun «mafkuraviy daholar» tomonidan avvaldan tayyorlab qo'yilgan va shaxsning ongiga singdirilgan immunitetli javoblar o'ziga

xos «shpargalka» vazifasini o'taydi. Mushohada etilmagan, tafakkur chig'irig'idan o'tkazilmagan «tayyor javoblar» boshqalar tomonidan berilgan savollar uchun o'ziga xos himoya qobig'i, qalqon vazifasini o'taydi.

Mafkuraviy ta'sir doirasiga tushib qolgan shaxsni «zombi» holatidan chiqarish uchun quyidagilarni amalga oshirish taqozo etiladi:

1. Mafkuraviy zaharlangan shaxs ongiga u tomonidagi qabul qilingan e'tiqodiy aqidalar, qadriyatlarning soxtaligi xususida uzlusiz ravishda uch martadan kam bo'lмаган, tazyiqsiz suhbat o'tkazish va suhbatdan so'ng, shaxsni u hammaslak bo'lган odamlardan chetda saqlash lozim. Toki u o'zi eshitgan fikrlarni o'ylashga vaqt va imkon topsin. Agar o'tkazilgan suhbatdan so'ng mafkuraviy ta'sir ostida qolgan shaxs yana hammaslaklari davrasiga qaytsa, ijobjiy ta'sir kuchi neytrallashadi.

2. Mafkuraviy tutqun bo'lган shaxsga uyda qolgan yaqinlarining xatlarini o'qib berish, oila a'zolari bilan bevosita suhbatlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday suhbatlar qadriyatlar tizimida o'zgarishlar yasab, soxta xalifalik davlati qurish g'oyalari o'rniga farzand mehrini tuyish, oila davrasi ga qaytish orzularini kuchaytiradi.

3. Mafkuraviy ta'sir doirasida qolgan shaxsni o'zi ergashigan g'oyaviy yo'nalish vakillari bilan hamsuhbat, hamfiki bo'lishdan saqlash muhim ahamiyatga egadir. Agar ular bir birlari bilan uzlusiz muloqotda bo'lib turishsa, insonga xos bo'lган aldanishga moyillik tuyg'usi yana amal qila boshlaydi.

4. «Zombi» holatidan chiqarishda pozitiv, hayotga zavq tuyg'ularini uyg'otuvchi badiiy filmlar, ko'tarinkи ruhdagi musiqiy asarlar ijrosi, yorug' xonalarda o'tkaziluvchi suhbatlar muhim ahamiyatga ega. Eskilik, zamondan ortda qolgan g'oyalari mantiqan xaroba kulba, xira yoritiluvchi xona, qo'pol muomala, past saviyadagi kaltabin so'z va mulohaza larga monanddir. Pozitiv ta'sir ko'rsatish uchun esa buning tomoman aksi bo'lган holatlarni yuzaga keltirish, shubhasiz o'z samarasini beradi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Insonning ongu tafakkuri esa bir kunda o'zgarmaydi, albatta. Uning dunyoqarashi o'zgarishi va kengayishiga vaqt kerak, tajriba kerak. Chetdan turib qanday zo'ravonlik bo'lmasin, odam zoti o'z hayoti misolida, tajribasida taklif tilayotgan va amalga oshirilayotgan o'zgarishlar unga nima berayotganini, qanday naf keltirayotganini ko'rishi kerak va igror bo'lishi darkor».



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida mafkuraviy tasirlardan odamlarni ma'naviy himoyalash yo'llari haqida so'zlab bering.
2. Zombi tushunchasining mazmunini izohlang.
3. Qadriyatlar qatoridagi mantiqni qanday tushunasiz?
4. Zombi qilish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?
5. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida yoshlар mafkuraviy immunitetini tarbiyalash yo'llarini tushuntiring.

3.11. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda ma'naviyat va milliy mentalitet omilidan foydalanish

XXI asrning shiddatli taraqqiyot mantig'i dunyo va jamiyatimizda tamoman o'zgacha manzarani tarkib toptirmoqda. Ko'z o'ngimizda shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo qator yangi sifatlarga ega bo'lib bormoqda. Birinchidan, dunyoning hayot maromi, vaqt sur'ati tezlashib jo'shqin mazmun kasb eta boshladi. Ikkinchidan, bozor talablari hamma naraga sergaklik bilan yondashish, hisob-kitobni qat'iy olib borish zaruratini kun tartibiga qo'ymoqda. Uchinchidan, dunyo jarayonlari bilan doimiy hisoblashish, atrof mamlikatlarda yuz berayotgan jamiki voqeа-hodisalarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish zaruratini muhim talablar darajasiga ko'tardi. To'rtinchidan, har bir siyosiy guruh, jamoa yoxud alohida insonning dunyo jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari behad o'sdi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov inson omilini foltashtirishda uch asosiy tamoyil, ya'ni, ma'naviyat, ma'rifat

va odob-axloq omillarining favqulodda zarurligini alohida qayd etadi. Ayni chog'da, mazkur tamoyillarning o'zaro mutanosibligi, ichki uyg'unligi, oqilona me'yordorda taqsimlanish masalasi ham muhim ahamiyatga egadir.

Birinchi Prezidentimiz mazkur tamoyillarning uyg'un mutanosiblikda amal qilishi faqat tizimi tartibotlar yuzaga keltirilgandagina samara berishini ta'kidlaydi.

«Barchamiz yaxshi bilamizki, fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluk siz ish olib borishdan iborat. Bu hayotiy haqiqat, biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak».

Shu boisdan ham, O'zbekistonda xalqimiz ma'naviy yaxlitligini saqlab qolish, o'zlikdan chekinmaslik, sof insoniy tilatlarga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilishdan iborat keng ko'lmandagi ijtimoiy siyosat izchil yurgizilmoqda.

Istiqlol yo'lidan sobitqadam borayotgan yurtimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy tizimlarni jid-diy isloh qilishga kirishildi. Islohotlar samaradorligi esa inson ongi va tafakkuridagi o'zgarishlarga hamohang va bevosita bog'liqdir. Shu boisdan ham yangilanayotgan davlatablari asosida inson omili va milliy mentalitetni faollashirish, kadrlarni tanlash, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, fuqarolarni mahalliy hokimiyat organlari orqali o'zini o'zi boshqarishga o'rgatish, ijtimoiy faollikni keng rag'batlantirish va shu yo'l bilan fuqarolik jamiyatini barpo etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Binobarin, endilikda davlat vazifalari hokimiyatni kuchaytirish hisobiga emas, aksincha, demokratik omillarni kengaytirish va keng xalq ommasini boshqaruvga jalb etish yo'li bilan amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, fuqarolarning tafakkuri, siyosiy saviyasi demokratik o'zgarishlar sur'ati bilan mos bo'lsa, boshqaruvni demokratlashtirishga zamin yaratiladi. Shuning uchun ham

demokratik o'zgarishlar hamda yangi demokratik jarayonni chuqurlashtirish va uni hayotga tatbiq etishni, eng avvalo, jamiyatimizning o'zi anglamog'i va hal qilmog'i darkor. Bu borada jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan mahallalarning o'mi va o'zini o'zi boshqarish tartibini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat taraqqiyotining so'nggi o'n yilligi o'zining shiddatkor ruhi, tez o'zgaruvchan tabiat, ijtimoiy yo'nalganlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu jarayon bir tomondan umumiplanitar ko'lamda kolonial va yarim kolonial tuzilmalarning batamom barham topishi, ikkinchi jihatdan esa, mavjud siyosiy, iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarning tubdan qayta guruhlanishi bilan ham izohlanadi.

Ayni vaqtda insoniyat yalpi globallashuv jarayonlariga tobora faolroq integratsiyalashmoqda. Dunyo miqyosida tadrijiy ravishda umumiylar iqtisodiyot, umumiylar fe'l-atvorlar tiziuni, yalpi madaniyat, kelishilgan siyosiy yondashuvlar, umumiylar mentalitet tarkib topmoqda. Shu bilan bir vaqtda xalqlarning o'z-o'zini anglash darajalari ham yuksalib, milliy meros, o'z xalqining tarixiy-madaniy tajribalariga moyillik tuyg'ularining kuchayish tendensiyalari ham kuzatilmoqda. Shu tariqa dunyo ko'p qiyofali, turfa maqomlar, murakkab xususiyatlari ko'rinish kasb etib bormoqda.

O'zbekiston ana shu marakkab muhitda o'z so'zi, mustaqil yondashuvi, sobitqadam rivojlanish ruhi bilan alohida ajralib namoyon bo'lmoqda. Bosib o'tilgan istiqlol yo'limiz hayotimizni mohiyatan yangicha mazmundagi dunyoga, turmush tarzimizni ilgari xalqimiz tarixiy-madaniy tajribasida ko'rilmagan tub o'zgarishlar jarayoniga olib kirdi. Vatan, valq, millat tushunchalaridan tortib inson, erk, vijdon, oriyat, oqibat, insof, adolat qadriyatlarigacha bo'lgan barcha narsalari mazmuni o'zining asl mohiyat-ma'nosini ifodalay boshladi. O'zlikka qaytish harakati buyuk tarixiy jarayon tarzida amal qilmoqda.

O'zgarishlar ruhi odamlarning hayotga bo'lgan qarashlari, yondashuvlari, maqsad va rejalar, sa'y-harakatlari mazmuni,

ijtimoiy mo'ljallarida ham o'z ifodasini topmoqda. Bu narsa millatimiz vakillarining ijtimoiy harakatchanligi, ilmiy tildi aytganda, mobililik darajasining oshganligida ham ko'rindi. Agar ilgari xorijda bo'lib kelish odamlar uchun favqulodda bii hol sanalgan bo'lsa, bugungi kunda chet elda ishlash, o'qish, yashash odatiy bir voqeaga aylangani barchaga ayon. Bu em mamlakatimizda demokratiya tartibotlari chuqur ildiz otayot gani, erkin va ochiq jamiyatga aylanib barayotganimizning yorqin ko'rsatkichlaridir.

O'zgarishlar mazmuni faqat ko'zga yarq etib tashlanadi gan jihatlar bilangina cheklanib qolmaydi. O'zgarishlar mo'hiyat-e'tiboriga ko'ra voqeligmizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda.

Keyingi yillarda madaniyat muassasalari moddiy-tehnik bazalarining mustahkamlanganini, zamonaviy ta'lif vositalari bilan ta'minlanganini va to'garaklar tashkil etilganini alohida qayd etish joiz. Bugungi san'at va madaniyat muassasalari mamlakatimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi ilmiy, siyosiy va madaniy markazlar vazifasini ham bajarmoqda.

Madaniyat va san'at muassasalari bilan bir qatorda mamlakatimizda asrlar mobaynida oddiy odamlar haq-huquqlarining himoyachisi vazifasini o'tab kelgan an'anaviy, hududiy jamoat tashkiloti, ya'ni mahalla institutiga, uning imkoniyatlari ko'lamini kengaytirishga jiddiy e'tibor berilib, bu masalada davlat ahamiyati darajasiga ko'tarildi. Xalqaro jamoatchilik tomonidan O'zbekistonda bugungi kunda mahalla instituti to'laqonli demokratik-gumanitar tashkilot sifatida e'tirof etti layotgani ham bejiz emasdir.

Birinchi Prezidentimiz shaxs tarbiyasi omili mentalitet o'zgarishlari bilan chambarchas hodisa ekanligiga urg'ul beradi va hayot voqeligining mentalitetni o'zgartirishi xusida alohida to'xtalib, bu holat masalaning bir jihat ekanligini, ayni chog'da mentalitetning o'zi ham hayotni o'zgartirishga qodir kuch ekanligini ta'kidlaydi.

Hozirgi paytda ijtimoiy jarayonlar tahlilidan kelib chiquvchi muhim vazifalardan biri ham mentalitet omilini faoli-

lashtirishga erishishdir. «Agar mentalitetni atrofimizdagi hayot tarzining mahsuli sifatida qabul qilsak, uning ikkinchi jihat shundaki, – deb ta’kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz, hayotning o’zi ham, uning o’zgarishlari ham odamzod tafakkurining o’zgarishi bilan chambarchas bog‘liq»¹.

Yangi davr talablariga xos milliy mentalitetning tarkibiy jihatlari va tamoyillari ichida markaziy o’zak mavqeni adolat mezoni egallaydi. Adolatlilik ijtimoiy hayotimizning oiladan to davlat miqyosidagi faoliyatgacha bo’lgan barcha bo’g’inlarida baravar amal qilishi zarurdir. «Adolat, – deb alohida qayd etgan edi Birinchi Prezidentimiz, – biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo’lishi darkor»². Adolat bilan birga insof-diyonat, ezgulikka ishonch, shukronalik, fuqarolar tizoligi, qanoat singari fazilatlar bugungi kunning butun insonlari uchun bosh sifatlar bo’lishi zarurdir.

Insof-diyonat shaxsning muhim sifati bo’lib, uning o’zini cheklay, chegaralay olish kuchini ifoda etadi. O’zini cheklay olish insonning irodasiga, tarbiyalanganlik darajasiga, aql-zakovatiga bevosita bog‘liqdir. Xalqimizning tarixiy-madaniy tajribasida insof-diyonatga erishish turli ko’rnishlarda namoyon bo’lib kelgan. Uning yaqqol namunasini yassaviylik, naqshbandiylik tariqatlarida ko’rish mumkin. Dunyoviy insof-diyonat esa mavjud imkoniyatlarda me’yor talablaridan kelib chiqib yondashish, mas’uliyat doirasidan chetlanmaslik, nafsni tiya olish, o’zgalar manfaatlariga hurmat bilan qarash singari sifatlarda namoyon bo’ladi.

Ko’pmingyillik tariximiz mobaynida umummilliylar komillik va butunlikka bo’lgan intilishlar ilk daf’a mustaqillik tulayli xalqimizga nasib etdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan xalqimizning ma’naviy komilligi, millet butunligini tarkib toptirish va rivojlantirish konsepsiysi

¹ Qurang: «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblar. **Islom Karimov**. «Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz». –T.: «O’zbekiston», 1999, 297-bet.

² Qurang: O’sha manba, 294-bet.

ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. O'zgarayotgan zamon va yangilangan makon mantig'i xalq xarakterida il gari yetarli rivoj topmagan yangi fazilatlarni tarkib toptirish zaruratinini kun tartibiga qo'yayotgani bois, Yurtboshimiz xalqimizni ma'naviy uyg'onish, hushyorlik, atrofga keng nazari tashlash, qiyoslab harakat qilishga da'vat etib kelmoqda.

Birinchi Prezidentimizning o'zbek millati mentalitetini progressiv o'zgartirish borasidagi yaxlit konsepsiysi ikki katta yo'nalishdan iborat bo'lib, ularning birinchisi xalqimiz fe'l-atvori, turmush tarzi, xarakteridagi salbiy xususiyatlarini evolyutsion tarzda bartaraf etib borish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish, yaxshilariga yo'l, rag'bat, har bir ijobjiy ishni qadash va taqdirlash, ibrat omiliga kuch berish siyosatidan iboratdir.

Mazkur konsepsiyaning muhim asosiy negizida xalqimizning jamoaviylik tabiatini bunyodkorlik faoliyatlariga yo'naltirish, ommani yaratish ishlariga, ayniqsa, madaniyat va san'atga oshufta qilish, badiiy ijodiyotga odamlarni yalpijalb etish, boshqarishda yetakchilar, liderlar omiliga tayanish, har tomonlama komil shaxslarning ibrat kuchidan samarali foydalanishning maqsadlari mujassamdir.

Xullas, o'zbek mentalitetini zamon mantig'iga muvofiq evolyutsion o'zgartirishning yaxlit tizimi quyidagi jihatlar ro'yobini taqozo etadi.

1. Xalqimiz turmush tarzi, urf-odatlari, fe'l-atvori mazmu-nini umummilliy ko'lamba chuqur mushohada etish, ortiqcha marosimbozlik, isrofgarchiliklardan bosqichma-bosqich qu tulish yo'lidan borish;

2. Barcha sa'y-harakatlar, amallar, an'analar, to'y va ma'rakalarni o'tkazish jarayonida qat'iy me'yor talablariga rioya qilishga o'rganish, kichik oilaviy tadbirlarni mahalla, tuman, butun shahar miqyosidagi ma'raka-marosimlarga aylantirib yubormaslikka intilish;

3. So'z va ish birligiga rioya qilish, va'dabozlik, ortiqcha chiranih, maqtanchoqlikka moyillik singari illatlarga qarshi kurash olib borish, har bir narsa, hodisani o'z nomi bilan ayanan ifodalashga o'rganish;

4. Butunlik falsafasini turmush tarzimiz, fe'l-atvorimiz mazmun-mohiyatiga aylantirish, yosh avlod vakillarini lafzli shaxs qilib shakllantirish, fikri so'ziga, so'zi amaliga, amali Vatan manfaatlariga ayni muvofiq bo'lishiga erishish;

5. Odamlarda o'z fe'l-atvorlari, sa'y-harakatlari, intilishlari, ma'naviy qiyofasining holati xususida shaxsiy taftish malakasini shakllantirish, o'z ustida doimiy ishlash, takomilishuv, o'zidan qoniqmaslik fazilatlarini shakllantirish, o'zi yonib boshqalarni ham yondira olish xususiyatlarini tarkib toptirish;

6. Badiiy ijodiyot mashg'ulotlariga aholining turli qatlamlarini yalpi jalb etish;

7. Ezgulik yo'lida fidoiy bo'lish, yaxshilik qilishga, boshqalarning tashvishiga yelkadosh bo'lishga tayyorlik fazilatlarini kamol toptirish;

8. Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lidagi intilishlar bilan shaxsiy sa'y-harakatlar uyg'unligiga erishish;

9. Yoshlarda ezgu va savob ishlarni har kuni va hamisha qilishga kuchli ichki rag'bat, ehtiyoj, intilish fazilatlarini tarkib toptirish;

10. Milliy-madaniy merosni yalpi o'zlashtirish, qadriyatlarimizdan chin iftixor tuyg'ularini his etish, g'ururlanish va zavq ola bilishni tarbiyalash;

11. Insof, adolat, halollik, vijdon singari tamoyillar tarbiyasini muntazam tarzda olib borish, bu ishda rahbarlar, obro'li shaxslar, lider-yetakchilar, ota-onalarning shaxsiy ibrati omilidan samarali foydalanish;

12. Fuqarolarda o'zini jamoaning nafaqat miqdoriy-jismani a'zosi, balki, ma'naviy bo'lagi deb his etish, umumiyligi intilishlar, sa'y-harakatlar, maqsadlar tizimi mazmuniga har bir inson o'z ulushi, hissasi nechog'li ekanligini anglashni shakllantirish;

13. Intellektual mulk ustuvor ahamiyat kasb etayotgan hozirgi zamonda har tomonlama va chuqur bilimlar sohibi bo'lishga intilish, umumjahon taraqqiyoti jarayonlariga faol integratsiyalashuv yo'lidan borish katta ahamiyat kasb etadi.

Xullas, buyuk kelajak taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishi o'zimizning qo'llimizda ekanligi, bu maqsad barcha mazning ma'naviy o'lchovimiz, shaxsiy va ijtimoiy mo'ljalimizga aylanishi bugungi kun taqozosidir. Darhaqiqat Birinchi Prezidentimiz aytganidek, «Mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarini, xalqimiz tabiatini, mentalitetini inobatga oluvchi rivojlanishning mazkur yo'li biz uchun nihoyatda maqbuldir»¹.

Shunday qilib, istiqlol yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan ulug' bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimiz tafakkur tarzi o'zgarib, uning mentalitetida quyidagi xususiyatlar tarkib topdi:

1. Aholi turli qatlamlarida, xususan, qishloq aholisi orasida bozor iqtisodiyoti tamoyillarini tadrijiy o'zlashtirish asosida mulkka egalik xususiyati shakllantirildi. Mulkdorlik mas'uliyatini anglash esa, odamlar tabiatida saxovatpeshlilik, muruvvatlilik, bag'rikenglik fazilatlarining qayta uyg'unishiga, mulkni asrash, ko'paytirish va boyitish harakati esa vatanparvarlik tuyg'usi bilan uyg'unlashuviga olib keldi.

2. Istiqlol yillarda odamlarda o'z-o'zini oxlokratik ya'ni, to'da, olomon a'zosi sifatida emas, mustaqil shaxs sifatida anglash tendensiyasi tarkib topdi. Mustaqil shaxs sifatida anglash tuyg'usi esa kishilarimizda hayotga pragmatik yondashish, o'z taqdirini o'zi yaratish, o'z baxti va kelajagi uchun kurashish xususiyatining rivojlanishiga turtki berdi.

3. Mustaqillik yillarda odamlarda shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini uyg'un anglashdan iborat, milliy tariximizda ilgari bo'lмаган yondashuvning shakllanishiga erishildi. O'z manfaatining davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashuvi odamlarda ijtimoiy voqelikni individual, mintaqaviy anglashdan korporativ anglash darajasida tafakkur yuritish, turmush tarzini tashkil etish imkonini berdi.

4. Istiqlol yillarda qonunlar ustuvorligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Natijada, xal-

¹ Qarang: **Islom Karimov**. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999, 14-bet.

qimiz tabiatini, fe'l-atvori, turmush tarzida qonunlarga itoat, amaldagi tartib-qoidalarga hurmat qadriyati tarkib toptirildi. Bu esa mamlakatimizda jinoiy xatti-harakatlarni qasddan sodir etish, axloq buzilishini, giyohvandlik singari illatlarning sezilarli darajada kamayishi, kundalik turmushimiz osoyishtaligi va barqarorligi ta'minlanishiga olib keldi.

5. Xalqimiz tabiatida tarixga hurmat, ajdodlarimiz metosiga ehtirom, ularning boy ma'naviy mulkini e'zozlash xususiyati, o'ziga xos an'analarini tarkib toptirildi. Vatanimizning o'nlab allomalari faxr-ifixorimiz manbai bo'lgan ulug' ajdodlarimiz ruhini e'zozlab ulkan obidalar, memorial koshonalar, haykallar barpo etildi, maxsus anjumanlar o'tkazilishi, bap'ishlov kitoblari nashr etilishi yo'lga qo'yildi. Bu esa aholining, xususan, yoshlarning chin vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish imkonini kengaytirdi.

6. Mustaqillik yillarda odamlarimizning hayotga rational, ya'ni aql ko'zi bilan qarash, har bir ishda me'yorga noya qilish fazilati tarkib toptirildi. Bu esa biron-bir faoliyatda, xususan, boshqaruvda takabburlik, boshqalarning fikrini nazar-pisand qilmaslik, manmanlik singari illatlarining sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. Odamlarda yaxshidan iibrat, yomondan soboq chiqarish fazilati kuchaydi.

7. Istiqlol yillarda jamiyatda ayollarga pozitiv munosabat tizimi tarkib toptirildi. Natijada, ayollarning ijtimoiy mavqeiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, ularning jamiyatdagi haq-huquqlari to'la ro'yobga chiqishiga erishildi. Bu esa xotin-qizlarimizni turmushimizning turli jabhalarida yana da ijtimoiy faol bo'lishga, o'z vatanparvarlik tuyg'ularini amalga oshirishlariga qulay shart-sharoitlar tug'dirdi.

8. Istiqlol yillarda oilaga bo'lgan munosabat ilk daf'a davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. Oila omili asosiy Qonunimiz va boshqa me'yoriy hujjalarda qayd etilib, uning milliy o'zligimizning beshigi va asl qadriyati ekanligi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Bu esa oilada o'zaro totuvlik, ittifoq, hurmat va muhabbatni har tomonlama kuchaytirish imkonini berdi.

9. Mustaqillik yillarida shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan munosabat tizimi ham o'zgardi. Odamlarda o'z-o'zini qadrlov bilish, ijtimoiy muhitda munosib o'rnnini topish fazilatlari shakllantirildi. Bu esa o'ziga sodiq, o'zini qadrlovchi insonning boshqalarga xiyonat qilmasligi, o'zgalarga ham xuddi o'zidek qarash xususiyatini umumjamiyat ko'lamida keng yoyilishiga olib kelmoqda.

10. Ta'lif tizimi isloh etilib, ma'rifiy yuksalishning tumomila yangi konsepsiysi hayotga joriy etildi. Ma'rifiy yuksalishning mazkur dasturi jamiyatning barcha a'zolariga intellektual taraqqiyot uchun keng imkoniyatlar eshiklarini ochdi. Bu esa jamiyatda ma'rifiy taraqqiyot borasida pozitiv «portlash effekti»ning yuzaga chiqishga imkon yaratdi. Minglab yoshlarimizning xalqaro ko'rik-tanlovlari g'oliblari, intellektual olimpiadalar championlari, ilg'or G'arb universitetlarining nomdor stipendiatlari bo'lishiga olib keldi.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ma'naviyat va shaxs ijtimoiy faolligining bog'liqligini izohlang.
2. Ma'rifatning madaniyat va ma'naviyatdan uzilishi qanday oqibatlarga olib keladi?
3. Ma'naviyatning madaniy ijodkorlik bilan bog'liq tarzda amal qilmasligi qanday oqibatlarning yuz berishiga sabab bo'ladi?
4. Milliy mentalitetning madaniyatga ta'siri qanday namoyon bo'ladi?
5. Madaniyat va muhabbat hodisalari o'rtasidagi uyg'unlikni izohlab bering.
6. O'zbek mentalitetining evolyutsion o'zgarish bosqichlarini yoritib bering.



Tayanch so'z va iboralar:

Ma'naviyat, shaxs ijtimoiy faolligi, shaxsiy manfaat, davlat manfaati, milliy mentalitet.

3.12. Ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning hayotiy mo‘ljallari va ta’lim qadriyatları

Ong va tafakkur o‘zgarishlarini izchil amalgalashishiga naviy hayotning barcha jabhalarini isloh etish, xususan, ertangi kun mazmunini nechog‘li boyitish, o‘zgartirish rejalariga bevosita bog‘liqdir. Jamiyatni pozitiv o‘zgartirish jarayonlari esa shaxsning o‘zini o‘zi o‘zgartirish tadbirlaridan boshlanadi. Individual maqsadlar, rejalarning nechog‘li ijtimoiy mazmun kasb etishi esa jamiyatning siyosiy, ma’naviy faoliyat darajasini ifodalaydi. Shu boisdan ham bugun madaniyat muassasalarida ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning, ayniqsa, yoshlarning maqsad va orzu-o‘ylari jamiyatning umumiy maqsadlari bilan uyg‘unligi masalasini maxsus ilmiy o‘rganish dolzarb muammolardan sanaladi. Ijtimoiy mo‘jal omilining bugungi yoshlari ma’naviyatidagi o‘rnini va roliga bag‘ishlab o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalari bu borada alohida e’tiborga loyiqidir. Mazkur tadqiqot respublikamizning Farg‘ona hamda Jizzax viloyatlari umumiy o‘rta ta’lim maktablari va kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini o‘rtasida o‘tkazildi. Tadqiqot doirasiga 1200 nafar o‘quvchi jahb etildi.

Tadqiqot natijalari yoshlarning bugungi ijtimoiy hayot o‘zgarishlariga befarq emasliklari, bunyodkorlik faoliyatiga daxldorlik tuyg‘usi yuqori darajada ekanini ko‘rsatdi. Xususan, yoshlarning aksariyat ko‘pchiligi «Siz ushbu to‘garaklarda o‘z xohishingiz bilan shug‘ullanyapsizmi?» degan savolga «o‘zimning qiziqishim sababli» (76 foiz) hamda «ota-onamning maslahati bilan» (24 foiz) degan javob variantlarini belgiladilar. Mazkur savolga javoblar haqqoniyligini o‘rganish maqsadida berilgan «Sizning ushbu to‘garakda shug‘ullanishingizdan maqsad nima?» degan savolga 56 foiz yoshlar «yaxshi mutaxassis bo‘lish» deb javob bergan bo‘lsa, 44 foiz respondentlar «jamiyatda o‘z o‘rnimni topish uchun» deb javob berdilar.

Shuningdek, yoshlar o‘zlari tanlagan kasbiy yo‘nalishlarini hayotiy baxt tushunchasi bilan uyg‘un tasavvur etishlarini

ham namoyon etdilar. «Siz baxt deganda nimani tasavvum qilasiz?» degan savolga «odamlarga kerakli bo'lib yashash» (31 foiz), «yaxshi mutaxassis bo'lish» (32 foiz), «o'qishni davom ettirish» (30 foiz) singari pozitiv javob variantlarini belgiladilar.

Yoshlar mazkur savolning tayyor javob variantlari bo'lgu «uylanish, turmushga chiqish» (6 foiz), «daromadli ishlash joylashish» (3 foiz), «boy-badavlat yashash» (8 foiz) singari javoblarni nisbatan kam qayd etdilar. Tabiiyki, o'quvchi-qatlashchilar mazkur hayotiy jihatlarni keyingi bosqichga duxldor deb bilib, dastavval o'zlarini hayotga har tomonlama tuy yorlash zaruratinu muhim deb bilishlari e'tiborga loyiqdirlar.

Hozirgi yoshlarda ijtimoiy mo'ljal omilining katta yoshdagi aholi vakillari fikr-qarashlaridan birmuncha farqli jihatlari namoyon bo'lmoqda. Bunday o'ziga xoslik ularning hayotga pragmatik yondashuvlarida ham o'z ifodasini topdi. Xususan, anketa mazmunidan o'rinn olgan «Siz quyidagi xususiyatlardan qaysi biri insonga ko'proq foydali deb hisoblaysiz?» degan savolga so'rovga jalb etilgan yoshlar «bilimdonlik» (28 foiz), «ishbilarmomonlik» (38 foiz), «o'ziga bo'lgu ishonch» (34 foiz) deb javob qaytardilar.

Yoshlarning makoniy mo'ljallari, kelajakda qaysi joyda muqim yashashga doir fikrlarini o'rganish ham muhim ijtimoiy ahamiyatga egadir. «Kelajakda o'zingiz mo'ljal qilgan yashash joyingizni qayerda deb bilasiz?» degan savolga mul laq ko'pchilik o'quvchilar o'z baxtlarini kindik qoni to'kilganda joyda topishlarini bildirdilar (55 foiz), «respublika, viloyat yoki tuman markazida yashash» fikriga egalar 15 foizdan iborat. Ammo qatnashchilarning har uchtadan biri (35 foiz) bu haqda o'ylab ko'rmaganlar va kelajakda qayerda yashash faoliyat yuritishlarini aniq tasavvur etmasliklarini bildirdi.

Tez o'zgarayotgan davr mazmuni turli xil tashqi ta'shi oqibatida evolyutsion tarzda o'zgarib bormoqda. Shu bo'sidan ham bugungi yoshlar ma'naviyatiga qaratilgan turli mafkuraviy, g'oyaviy-siyosiy ta'sirlarni o'rganish ham muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayon yoshlar tomonidan turli omaviy axborot vositalari, xususan, xorijiy telekanallar ko'n

satuvlari yoki radio eshittirishlari hamda Internet xabarlariga bo'lgan munosabatlari orqali oydinlashadi. Turli buzg'unchi matkura va siyosiy kuchlar manfaatlarini o'zida ifoda etgan bunday axborotlar nima haqiqatu nima uydirma ekanini yaxshi tahlil etolmaydigan yoshlар ongida ikkilanish va ishonchuzlik kayfiyatini paydo qilib qo'yishi mumkin. Bunday hotat xorijdan yoshlар ongiga singdirib kelinayotgan xabar va ma'lumotlar mazmunini chuqur o'rganish, ular berayotgan, Vatanimiz manfaatlariga zid keluvchi axborotlarga qarshi tadbirlar, bahs-munozaralar, axborot soatlarini doimiy ravishda o'tkazib borish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

Xullas, ijtimoiy mo'ljal hodisasini tizimiylardan tahlil etish bugungi yoshlarning hayotga bo'lgan munosabatlari, fuqaro statidagi faoliy darajasi, ma'naviy qiyofasi, shaxs sifatida o'z-o'zini anglash ko'lamin o'rganish hamda tarbiyaviy jarayonlarni jamiyatning ustuvor yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirish imkoniyatini oshiradi.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy mo'ljal hodisasining mohiyatini izohlang.
2. Yoshlarning o'zini o'zi baholash xususiyatlarini tushuntirib bering.
3. Shaxsning prognostik mo'ljallarini tahlil qiling.



Tayanch so'z va iboralar:

Ijtimoiy mo'ljal, ijtimoiy o'zgarishlar, yoshlarning ma'naviy qiyofasi.

3.13. Tashkilot va tashkilotchilik madaniyati

Tashkilot madaniyati tushunchasi maxsus ilmiy taddiqot predmeti sifatida XX-asrning oxirgi choragidan boshlab o'rjanila boshlandi. Tashkilot madaniyati tarkibi va mazmuini xususiyatlariga ko'ra millat, jamiyat va jamoa madaniyatindan farq qilib, milliy, etnik, partiyaviy va hududiy bog'liklardan xoli hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Tashkilot

madaniyati uchun biron-bir mamlakat yoxud hudud chegaralari doirasida cheklanishlardan iborat shartliliklar ham begonadir.

Tashkilot madaniyatining XXI-asrda yanada mustahkamlanishi va barqaror rivojlanish xususiyatiga ega bo'lishi kuzatilmoqda. Barqaror taraqqiy topgan xalqaro tashkilotlar faoliyatlarini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur hodisa o'z mazmuniga ko'ra uch guruhdan iborat maqsadlari turkumini o'z oldiga qo'ygandir. Bular quyidagilar:

- tashkilotning pirovard maqsadlari;
- tashkilotning doimiy maqsadlari;
- tashkilot xodimlarining xulq-atvor qoidalari.

Tashkilotning pirovard maqsadlari doirasiga xodimlarning kasbi, muassasa orqali jamiyat va Vatanga xizmat qilishi, aho lining ijtimoiy turmushini yaxshilash, sohani rivojlantirishiga hissa qo'shish darajasini oshirish masalalari kiradi.

Tashkilotning doimiy maqsadlariga esa, mehnatga ilmiy yondashuv, yuksak samaradorlik, muassasada texnologik yangilanishlarni joriy etib borish, jamiyatga halol xizmat qilish orqali foyda orttirish, faollik, yaratuvchanlik, bozorida adolatli raqobat muhitini yuzaga keltirish masalalari kiradi.

Tashkilot xodimlarning xulq-atvor qoidalari muassasaga bo'lgan munosabatlar tizimini tashkil etib, to'rtta bosqichdan iboratdir. Birinchisi, tashkilotga bo'lgan munosabat (sodilik, o'z kasbi, mavqeidan mammunlik), ikkinchisi, ish joyiga kasbiga bo'lgan munosabat (harakatchanlik, mas'uliyatlilik, sabr-bardosh, ehtiyyotkorlik, o'z kasb-koridan g'ururlanish), uchinchisi, hamkasblarga, xodimlar va rahbarlarga munosabat (o'zaro hamkorlik, e'tibor, g'amxo'rlik, ijro intizomi), to'rtinchisi, xodimning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati (salomatligi, tetikligi, axloqiy-ma'naviy barkamolligi, o'zini idora qilish darjasи) masalalarini o'z ichiga oladi. Tashkilot madaniyati muassasaning nafaqat ishchanlik xususiyatini ifodai laydi, balki tashkilotga xos bo'lgan madaniyatni har bir xodim xatti-harakatida aks ettiradi.

Tashkilot madaniyati xodimlar tomonidan o'z-o'zicha o'zlashtirilmaydi, balki rejali asosda, izchillik bilan mutaxassislardan ongi, ruhiyatiga singdirib boriladi. Tashkilot madaniyati Yaponiya firmalarida odatda xodimlar tomonidan sakkiz oy mobaynida to'la-to'kis o'zlashtiriladi. Buning uchun har kuni ish boshlanishidan oldin umumiyligini majlis chaqiriladi. Xodimlar xulq-atvorining asosiy qoidalari takrorlanadi. Tashkilotning joriy va istiqbol faoliyat rejali hamma ko'radigan joyga ilib qo'yiladi. Tashkilot madaniyatini o'zlashtirish mas'ulinasiga yangi texnologiyalarni joriy etishdek mas'uliyatli vazifa bilan baravar masala sifatida yondashiladi.

Hozirgi zamon rahbarining muhim jihatlaridan biri favqulodda vaziyatlarda hamda ishda kamchiliklarga yo'l qo'yilgan hollarda barcha mas'uliyatni zimmasiga ola bilish xususiyatidir. Shu narsa e'tiborga sazovorki, mamlakatning umumiyligini taraqqiyot darajasi qancha yuqori bo'lsa, faoliyat uchun mas'ullik hissi shuncha yuqori bo'ladi va rahbarning ish javobgarlik darajasi ham, intizomi ham shuncha yuksak bo'ladi.

So'nggi yillarda tashkilot madaniyatini muayyan tizimga keltirish borasida tadqiqotlar amalga oshirildi. Angliyalik olim R.D. Lyuis, fransuz sotsiolog D. Bollinje, gollandiyalik olim G. Xofshtede, rus olimi A.I. Prigojin tomonidan tashkilot madaniyati tarkibiy va mazmuniyligini jihatdan tahlil etilib, qator tipologik tizimlar ishlab chiqildi. Mazkur tizimlar orasida dunyoning 70 mamlakatida tadqiqot o'tkazib, 60 mingdan ko'proq respondentlardan o'z ishidan, mehnat faoliyatidan, hamkasblaridan, hayotiy maqsadlaridan, mehnat jarayoni-dagi muammolarga munosabatdan, e'tiqodiy mansubliklari, kusbiy layoqatlaridan qoniqishi, mammunlik yoxud qoniqmaslik darajalarini aniqlab chiqqan G. Xofshtede izlanishlari diqqatga sazovordir.

O'z tadqiqotlarida G. Xofshtede tashkilot madaniyatiga munosabatda to'rt yo'nalish mavjudligini aniqlaydi. Bular: individualizm-kollektivizm, hukm o'tkazib boshqarishning katta va kichik masofalari, noaniqliklardan qochishning

barqaror va zaif ko'rinishlari hamda muassasada erkaklar va ayollar omilining ta'siri yo'nalishlaridan iborat ekanligi asos lab beriladi.

Mazkur yo'nalishlarning turli davlatlardagi o'ziga xos umumiyligi jihatlarini aniqlash tashkilotlarning har bir mamlakatdagi madaniy xarajatlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Tashkilotlar mazmunini aniqlash esa, turli mamlakatlar dagi mehnat faoliyatlarini mazmuni, ishga bo'lgan munosabati mohiyatini chuqurroq anglash, ish davomida yuzaga keluvchi konfliktogen jarayonlarning oldini olish, uni avvaldan tahlil qilib borish, ya'ni prognoz qilish imkoniyatini oshiradi Amalga oshirilgan tadqiqotlar G. Xofshtede va G. Bollinge larga tashkilot madaniyatining holati va rivojini diagnostika qilish imkoniyatini berdi.

Individualizm-jamoaviylik yo'nalishi individning guruhga qanchalik uyg'unlashuvi darajalarini belgilab beradi. Jamoaviylik tengsizligi maqomidan kelib chiqib, ijtimoiy boshqarishni tashkil etadi.

Boshqaruvning katta masofalari amal qiluvchi tashkilotlarda farmoyish va buyruqlar muhokama etilmaydi, ta'sir huquqdan yuqori turadi, yuqori lavozimdagagi shaxslar alohida mavqe kasb etadilar, xodimlar o'tasida ishonchszilik hukm suradi, xodimlar noroziliklarini izhor etishdan cho'chiydiladi.

Boshqaruvning kichik masofalariga amal qiluvchi tashkilotda esa, xodimlarning ish tartibotlari, bajarayotgan ishlari va mavqelari o'rta sidagi har xillik aniq belgilangan bo'lil, rahbarning ta'sir va tazyiqidan ko'ra, huquqlar, qoidalar u tuvorlik qiladi. Yuqori lavozimdagagi rahbarlar quyi lavozimdagagi xodimlar uchun ilohiylashtirilmaydi, boshqaruvchi va bo'ysunuvchilar o'rta sidagi o'ziga xos uyg'unlik tarkib topgani bo'ladi, oddiy xodimlar o'rta sidagi esa, o'zaro hamkorlik uloqalari amal qiladi.

Tashkilot madaniyati uchun muhim jihatlardan yana bir faoliyatlarda noaniqliklardan qochish tendensiyasiidir. Gol land olimi G. Xofshtede va fransuz sotsiolog D. Bollinge noaniqliklardan qochishning quyi va yuqori bosqichlarini aniqlashib, noaniqliklardan qochish tendensiyasi yuqori

tashkilotlarda xodimlar o'rtasidagi raqobatning bo'lmasligi, bir xil lavozimda ko'proq ishlashga intilish, ishda tavakkalchilikka yo'l qo'ymaslik, yangi texnologiyalarni joriy etishdan cho'chish holati bo'lishini, noaniqliklardan qochish tendensiyasi quyi tashkilotlarda xodimlar o'rtasida raqobat va musobaqa ruhining kuchliligi, bir xil lavozimda uzoq ishlab qolish ma'qullanmasligi, ishda tavakkalchilikka keng yo'l berilishi, yangi texnologiyalarni faol joriy etishga moyillikning ustuvorligi aniqlanadi.

Tashkilot madaniyatining to'rtinchi o'lchami ayollar va erkaklarning o'rni va roliga bag'ishlangan bo'lib, maqsadga erishish, vazifalarni bajarishning motivatsion jihatlarini ifoda etadi. Ma'lumki, an'anaviy yondashadigan bo'lsak, erkaklar zimmasiga oiladagi turmushni moddiy-miqdoriy ta'minlash vazifasi yuklangan bo'lsa, ayollar shu hayotning sifat jihatlarini ta'minlab keladilar.

Amerikalik sotsiolog F. Xariberg talqiniga ko'ra, erkaklar «ish uchun yashash», ya'ni hayotda muayyan maqsadlarga erishishni ko'zlab yashasalar, ayollar «ish – yashash uchun», ya'ni mehnat muayyan vazifalarni bajarishga yo'nalgan, deb hisoblaydilar.

Ayollar tashkiloti chin insoniylik tushunchasini xodimlarga doimiy e'tibor, g'amxo'rlik va o'zaro muloqotlarning yaxshiligi sifatida talqin etsalar, erkaklar faoliyat orqali o'zidagi salohiyatlarini yuzaga chiqarish, jamoa va jamiyatda tan olinish, obro' orttirish deb tushunadilar. Erkaklar jamoalarida ziddiyatlar ochiq mazmun kasb etib, keskin qaramaqarshiliklar muhitida kechadi. Ayollar o'rtasidagi ziddiyatlar esa, odatda yashirin amal qiladi va muloqotlar vositasida boshqarib boriladi.

Tabiiyki, har qanday tipologiya ham muayyan kamchiliklarga ega bo'lganidek, biz yuqorida talqin etgan to'rt o'lchamli tipologiyada ham muayyan ishlov berish uchun zarur jihatlar mavjuddir. Masalan, G'arb demokratiyasida barcha ijtimoiy, siyosiy sa'y-harakatlar individ ozodligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, Sharqda jamoa bo'lib erkinlikka chiqish, jamoaviylikka intilish tendensiyasi ustuvorlik

qiladi. Ayniqsa, O'zbekistonda jamoa bo'lib yashash va ishslashga moyillik, qarorlar qabul qilishda an'anaviylikka mavjud jamoada avvaldan amal qilib kelgan odatlar, rasm rusumlardan kelib chiqish, keskin choralar qo'llashdan ko'm voqealarning o'z-o'zidan yetilib borishiga urg'u berish, man lahat va tashqi fikrlarning shaxsiy nuqtayi nazardan ko'm ustuvor ta'sir kuchiga egaligi omillari tashkilot madaniyoti hodisasini talqin etishda hisobga olinishi zarurdir.

Shuningdek, O'zbekistonda tashkilotlardagi xodimlarning ishga tanlanishida ko'proq shaxsiy axloqiy sifatlari, rahbarga bevosita tanishligi yoki uning yaqinlariga aloqadorligi xodimning faoliyatdagi bahosi, uning kasbiy sifatlaridan kelib chiqishidan ko'ra kuchliroq omil ekanligi, tashkilotning tinchligini afzal ko'rish, keskin raqobat ruhidan qochish xususiyatlarini hisobga olishimiz lozim.

Rahbar mas'uliyati va ma'naviyati ko'p qirrali jarayondir. Rahbar odam tashkilotning manfaati uchun xizmat qilishi kerak deganimizda, birinchi navbatda, rahbar xalqning ahvolini nechog'lik yaxshi bilishi, xalqning farovonligini ko'tarish uchun choralar izlashini ko'z oldimizga keltiramiz. Bu masalaning barchasiga aniqlik kiritish, ularni hozirgi zamon ko'zi bilan baholash, bu boradagi eng dolzarb muammolarni aniqlash zarur. Har bir rahbar o'zi boshchilik qilayotgan tashkilot xodimlarining turmushini yaxshi o'rganishi, rivojlanish va unga to'siq bo'layotgan tomonlarni yaxshi tasavvur qilishi, taraqqiyotiga yo'l ochuvchi vositalarni ishga solabilishi, bu ishda qat'iyat, sabr-bardosh, tadbirkorlik ko'rsatni olishi darkor.

Ikkinchi o'rinda majlislar turadi. Bu majlislarda oddiy fuqaro ishtirok etmaydi, katta rahbar o'zidan pastdagilarni to'plab topshiriq beradi, ularning hisobotini eshitadi va niyat axborotlar pastdan yuqoriga qarab to'planib boradi. Rahbar bu axborotlarni e'tiborsiz qoldirmasligi va o'z vaqtida chora ko'rishi lozim.

Rahbarning ma'naviy saviyasi qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik ijtimoiy ijodkorlikka moyil bo'ladi. Ijtimoiy ijod-

kor shaxs esa boshqaruvda ko‘proq korporativ boshqaruv uslublarini joriy etadi. Boshqalarga g‘amxo‘r bo‘ladi, rahbar xodimlarning ichki ruhiy holati, orzu-intilishlari, kayfiyatlari, yashash va turmush tarzi imkoniyatlaridan xabardor bo‘lib turishi, muammo va ichki ziddiyatlarni oqilona yechish yo‘llarini tavsiya eta olish salohiyati bilan ajralib turadi. Ayni vaqtida rahbar o‘z-o‘zini boshqarishi, o‘z faoliyatiga tanqidiy ko‘z bilan qarashi, o‘z-o‘zini anglashi, o‘ziga va boshqalarga talabchan bo‘lish tamoyillari ham muhim ahamiyatga egadir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Tashkilot madaniyati tushunchasini ta’riflab bering.
2. Tashkilot madaniyati turlarini ayting.
3. Tashkilot madaniyati madaniyat muassasalarida qanday yo‘lga qo‘yiladi?
4. Ayollar hamda erkaklarning ish va ijodiyotga farqli munosabatlari nimalardan iborat?
5. Jamoaviylik va tashkilotchilik madaniyati tushunchalari o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlang.
6. Zamonaviy rahbarning madaniy qiyofasi haqida gapiring.
7. Odamlarni ishga qabul qilishda ularning qaysi sifatlariga ko‘proq e’tibor qaratish zarur?



Tayanch so‘z va iboralar:

Tashkilot, tashkilotchilik madaniyati, jamoaviylik, rahbarning madaniy saviyasi.

3.14. Madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ularning turlari va ahamiyati

Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi madaniy-ma’rifiy tadbirlar asosan katta yoshdagи aholining madaniy-axloqiy, badiiy-estetik, milliy-ma’naviy kamoloti yo‘lida xizmat qilishga qaratilgan.

«Tadbirlarda keng qamrovli ishlar olib borilib, ular kishilarga ishdan bo‘sh vaqtlarida kerakli axborot berish, badiiy-estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda

ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham unga kengroq tushuncha va atama zarur bo'lmoqda. Ularni keng qamrovli «madaniy tadbirlar» deb atasa yaxshi bo'ladi. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, «ommaviy tadbirlar», «badiiy tadbirlar» atamalariga ham murojaat qilish mumkin»¹.

«Madaniy-ma'rifiy tadbirlar deganda aholini ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning madaniy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini, dam olishini ko'ngilli o'tkazish, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi tadbirlar tushuniladi»².

Bizningcha, «madaniy-ma'rifiy tadbirlar» eng avvalo, milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga, shuningdek, kishilarni ma'naviy tajovuzlardan ogohlikka chorlash, ularning mohiyatini anglab yetishga qaratilgan tizimli shakllar, usullar, vositalar va maqsadli amaliy harakatlar majmuidir. Madaniy-ma'rifiy tadbir ta'lim-tarbiyaning muhim yo'nalishi bo'lib, uning asosiy maqsadi muayyan masala bo'yicha bilim berish bilan birga anglangan xatti-harakatga yo'naltirishdan iborat. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjuddir.

Birinchidan, insoniy fazilatlarni ulug'lash, yuksak ma'naviyatli kishilar hayoti va faoliyatini ta'riflash, ularni ibrat, namuna qilib ko'rsatish orqali kechadi. Ikkinchidan esa, muayyan illatlarni qoralash, ulardan xalos bo'lishga da'vet, targ'ibot qilish orqali amalga oshiriladi va bunda erishilgan yutuqlarni xolisona e'tirof etish, kamchiliklardan xulosa chiqarish muhim ahamiyatga egadir.

¹ U. Qoraboev. Madaniy tadbirlar (Madaniy hordiq nazariyasi va amaliyoti bo'yicha o'quv qo'llanma). –T.: Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003. 123-bet.

² A. Begmatov, R. Rustamova. Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar. –T.: «Ma'naviyat», 2008, 12-bet.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar orasida eng ko'p qo'llanadigan shakllardan biri mavzuli tadbirlardir. Mavzuli tadbirlar muayyan ijtimoiy hodisa bo'lib, mutaxassislar, san'atkorlar hamda tadbir ishtirokchilari bilan birgalikda, ma'naviy ug'unlikni ta'minlash asnosida, jamoa uchun ijtimoiy jihatdan muhim hisoblangan voqealarga, sanalarga bag'ishlab tashkil etiladi.

Bunday tadbirlarga misol qilib, «Bugungi yoshlar ma'naviyati», «Milliy g'oya – bizning g'oya», «Milliy qadriyatlar», «Ommaviy madaniyat tahdidi», «Odob-axloq – millat g'ururi» mavzularidagi tadbirlarni sanab o'tish mumkin.

Ta'lif muassasalarida o'tkaziladigan mavzuli kechalar mahallalarda, madaniyat saroylarida, korxonalarda, dam olish uylarida o'tkaziladigan mavzuli kechalardan tubdan farq qiladi. Chunki ishtirokchilarning ijtimoiy tarkibi, yoshi, jinsi, kasbi kabi xususiyatlarga ko'ra tafovutlar mavjuddir. Bu tafovut faqat tashqi farq bo'libgina qolmasdan, mavzuli kecha jarayoniga ijrochilar va boshqa qatnashchilar o'rtasidagi hissiy-emotsional aloqaning o'rnatilishiga ham jiddiy ta'sir o'tkazadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mavzuli tadbirlar ishtirokchilari ta'lif muassasalarida bir xil, ya'ni, talaba va o'quvchilardan iborat bo'lganligi uchun sahnada rol ijro etuvchilar bilan tomoshabinlar o'rtasida hissiy-emotsional aloqa o'rnatish ancha oson kechadi. Mavzuli tadbirda qatnashchilar muayyan axborotni qabul qiluvchigina bo'lib qolmasdan, o'zlari ham yangi axborot yaratuvchilar sifatida voqealar zamirida yotgan mazmunga munosabat ham bildirib boradilar. Natijada, tadbir o'tkazishdan kutilgan tarbiyaviy maqsad amalga oshiriladi.

Mavzuli tadbirlar xalqimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda, siyosiy madaniyatini o'stirishda, mamlakatimizning barqaror taraqqiyot tendensiyasini to'g'ri anglashida g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, milliy qadriyatlar inson ma'naviy olami bilan bog'liq. Milliy istiqlol g'oyasining muvaffaqiyati, avvalo, insonlardan har tomonlama bilimli, jismonan sog'lom, ma'nana barkamol

bo'lishni talab etadi. Demak, bugungi kunda odamlarni milliy g'oya bilan qurollantirish o'ta dolzarb vazifadir. Ozod va erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, barkamol insonni buniyodkorlikka yo'naltirish ana shu vazifalar sirasiga kiradi. Zero, har bir shaxs ijtimoiy hayotni o'zida mujassam etuvchi kuch sifatida jamiyatdagi barcha jarayonlarning, hayotbaxshi tushunchalarning o'zlashtiruvchisi, o'ziga singdiruvchisidir. Ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonida, jumladan, mavzuli tad-birlar orqali odamlar aniq va oqilona yo'naltirilgan ma'naviy qadriyatlar, me'yorlar va talablarni o'zlashtiradi.

Bugungi axborot asrida Internet saytlarining salmoqli qismida inson sha'niga mos kelmaydigan matnlar targ'ib etil moqda. Sotsiologlar tomonidan amalga oshirilgan monitoring natijalari barcha mavjud saytlarning taxminan 12 foizi ponografik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Internet orqali tarqatiladigan (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa, uning qahramoni o'z maqsadiga yetish uchun zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zi bosh maqsad hisoblanadi.

Internet bugungi kunda ommaviy axborot va kommunikatsiya tizimining eng tez rivojlanib borayotgan bo'g'ini sifatida g'oyaviy kurash va targ'ibotning asosiy maydoniga aylanganligini, shu jumladan, diniy ekstremistik qarashlarni targ'ib qilayotganini ham ko'rish mumkin.

Diniy ekstremistlar va terrorchilarining Internetdagи saytlarida ularning maqsadi xaspo'shlanib, harakatlarini ma'naviy va axloqiy jihatdan oqlashga harakat qilinadi. Bunday saytlarda ularning faoliyatini oqlovchi, «qahramonligi»ni kuylovchi qo'shiqlar, kliplar bilan uyg'unlikda berilishidan maqsad, ularning mafkuraviy va hissiy ta'sir quvvatini oshirishdan iboratdir.

Bu sharoitda masalaning yana bir muhim jihatiga e'tiborni qaratish alohida ahamiyatga egadir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot

va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz»¹.

Shu ma'noda bugungi kunning jiddiy global muammosiga aylangan giyohvandlik, OITS kasalligining oldini olish, missionerlik, terrorizm, Internetdan foydalanish madaniyati va turli ekologik muammolarning mohiyati haqidagi mavzuli tadbirlarni o'tkazishga bo'lgan talab kuchaymoqda. Zero, bu muammolar qanday shakl va ko'rinishlarda bo'lishidan qat'i nazar, nafaqat jamiyat va millat uchun, balki butun insoniyat taqdiri uchun ham jiddiy xavfdir.

Shuningdek, xalq turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy hayotidagi muhim voqeя va hodisalarga bag'ishlangan mavzuli tadbirlar ham jamiyat rivojiga xizmat qilishi shubhasiz. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yoshlarni oilaga tayyorlash;
- bunyodkorlik fazilatlarini rivojlantirish;
- mening qishlog'im: kecha va bugun;
- tadbirkorlik – barchaning ishi;
- don – rizq-ro'zimiz;
- jismoniy tarbiya va sport – sog'lik garovi kabilar.

Shuningdek, madaniy hayotdagi ko'pgina kamchiliklar, jumladan, ayrim kinofilmlarimizdagi bachkana tasvirlar, teatrlarimizda qo'yilayotgan spektakllarning talab darajasida emasligi, milliy estradamizda g'arbona andozalarga taqlidining kuchayib borayotgani, gazeta do'konlarida oldi-qochdi nashrlar kO'payib ketayotgani ham o'quvchi yoshlar dunyo-qarashiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Bularning barchasi

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2013, 114-bet.

Vatanga sadoqat, ajdodlarimiz qoldirgan bebahो ma'naviy merosga, milliy, xususan, oilaviy qadriyatlarga yuksak hui mat tuyg'ularini madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali aholi on giga singdirish, ularning samaradorligini oshirishni talab etadi.

Shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga jismoniy-tibbiy ji hatdan tayyorlash bilan bir qatorda, huquqiy savodxonligini oshirish, oila iqtisodiyoti, madaniyati va psixologiyasi muammolari bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, yoshlar uchun ularning balog'at davriga xos bo'lgan ma'rifiy tadbirlarni uzlushtirish o'tkazib borish lozimdir. Bu boradagi ijtimoiy-madaniy faoliyatni yoshlarning jinsi, temperamenti, ijtimoiy mansubligi, millati hamda hududiy xususiyatlarini puxta hisobga olib tashkil etish lozimdir. Bu masala global ta'sir kuchayib bo'rayotgan, milliy qadriyatlarimizga g'arbona turmush tarzi va odatlarini singdirishga intilish yaqqol ko'zga tashlanayotgan hozirgi sharoitda yanada dolzarblashadi. So'nggi vaqt larda bu borada ko'zga tashlanayotgan muammolar, chunonchi, balog'at yoshiga yetmagan qizlarni turmushga uzatish hollarining uchrayotgani, nikohdan tashqari tug'ilayotgan chaqaloqlar sonining ortishi ayrim yoshlarning onalikdan voz kechib, o'z farzandlarini boshqalarga tashlab ketayotgani, ayniqsa, bunday holatlarning yirik shaharlarda ko'proq uchrayotgani tashvishlanarli holdir.

Qizlar o'rtasida oila qonunchiligi va umuman huquqiy savodxonlikni oshirish, oilani saqlash va uni barqarorlashtirish bilimlarini berish, oila buzilganida juda ko'p muammolargacha kelishini ham tushuntirib bormoq kerak. Buning natijasida oila buzilishidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarga nisbatan previntiv (oldini oluvchi) yondashuv shakllandi.

Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga bag'ishlangan tadbirlarda ularning tub mohiyatini o'zida mujassamlashtirish gan bu dasturlar asosida davlatimizning oilani mustahkam-

lash uchun olib borayotgan izchil siyosat insonparvarlikka yo'naltirilganligi aniq hayotiy misollar, tarixiy tajribalar namunasida ham ilmiy-nazariy, ham amaliy misollar orqali tu-chuntirib berilishi zarur.

Masalan, «Oilada erkakning roli» deb nomlanuvchi tadbirda insoniylik, mehr-muruvvat, o'zaro yordam, yaratuvchilik va ro'zg'orni to'kin qilish borasida er va xotin roli ochib beriladi.

Yuqorida bayon qilinganidek, oila institutini mustahkamlash tadbirlari oldindan rejalashtirilib tashkil etilgandagina ularning tarbiyaviy ta'siri yuksak darajada bo'ladi:

oila institutini mustahkamlash uchun Konstitusiyamizda bayon etilgan huquq va erkinliklar to'g'risida yosh oilalar ottasida intellektual ring o'tkazish;

Konstitusiya kuniga bag'ishlab er va xotinning ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, kasbi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengligi, so'z erkinligi, o'z fikrlarini bayon etidi, o'zaro totuvlikni qadriyat deb bilishi, farzand tarbiyasiga baravar mas'ul ekanligini teran anglatishga bag'ishlab suhbatlar tashkil etish, oila muhitida ota-onalarning burchi, farzandlarning bepul ilm olish huquqi davlat tomonidan kafolatlangani (41-modda) xuquqi bilan birga tarixiy, madaniy, ma'naviy merosni asrab-avaylash, atrof-muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lish majburiyati (49-, 50-moddalar), O'zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning burchi ekanligi;

fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majbur ekani (52-modda)ni tu-chuntirib borish ham zarurdir. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyat mobaynida ota-onalarning o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish, tarbiyalashga majburligi (64-modda);

voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburligi (66-modda) alohida uqtirib borilishi katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Nullas, oila institutini mustahkamlashga doir ijtimoiy-madaniy faoliyatni rejalashtirishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

– har bir uchrashuv, suhbat yoxud disput avvaldan ~~pushti~~
rejalashtirilishi, ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi, iqtib
dorini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. O'tkaziladigan
tadbirda reja bilan birga ssenariy ham ishtirokchilar tomoni
dan o'zlashtirilgan va to'la anglab yetilgan bO'lса, samarali
natijaga erishish mumkin.

– tadbirga taklif etiluvchi mehmonlar o'zining mavzusi
obro'si, salobati bilan odamlarni psixologik jihatdan bo'sh
qo'ymasligiga e'tibor qaratish zarur.

– tadbirlar jamoaning o'z ichki imkoniyatlarini hisob
olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

– tadbir mavzusi tinglovchilar e'tiborini jalb etishi zarur.
Masalan: «Ayollar qachon erga yon bosadilar?», «Bola tarbi
yasida otaning ustuvorligi to'g'rimi?», «Nima uchun onasini
sevgan bola obro' topadi?» singari nomlanishlar tabiiy
vishda e'tiborni tortadi deb o'ylaymiz.

Tadbirlarni o'tkazishda misollarni ko'proq mahalla tushu
qarisidan olish va mahalliy hayotiy misollarni tadbir ishtirokchilari o'zlari yashab turgan mahalladan keltirishsa, yana
da ko'proq muvaffaqiyat ta'minlanadi.

Tashkilotchilar tadbirlarni o'tkazish mobaynida:

- auditoriyada tinchlik o'rnatilishiga;
- ishtirokchilarining o'z fikrlarini o'rtaga qo'yishlariga;
- ssenariy bandlariga rioya etilishiga;
- reglamentdan chiqish holatlariga hurmatni saqlagan
holda chek qo'ya olishga;
- tadbirdagi jarayonni sezdirmasdan qayd etib borishga;
- tadbirning o'z vaqtida yakunlanishiga;
- tahlil asosida kamchiliklarning sababini aniqlash va
keyingi tadbirlarda bunday kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka
erishish zarur.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirish jarayonida
tarixiy, diniy, adabiy, lisoniy manbalarni o'rganish, ularni
tahlil etish, qiyoslash natijasida bahs-munozaralar uyush-
tirish ham qatnashchilar ma'nnaviyati va bilim darajasining
oshib borishiga xizmat qiladi.

Bahs-munozaradan quyidagi maqsadlarda foydalilanildi:

har bir qatnashchining o'z nuqtayi nazarini himoyalay
ish malakasini shakllantirish;

yangi bilimlarni shakllantirish;

qatnashchilarda u yoki bu savollarni chuqur o'ylab
lo'rish, tub ma'nosiga yetishga motivatsiyani ta'minlash;

qatnashchilarni dalil va faktlarga asoslangan o'z xu
masini shakllantira olishga o'rgatish.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat samaradorligini oshirishda bo'
lajak faoliyatni baholash mezonlarini bilish ham muhim aha
nuyatga egadir. Ijtimoiy-madaniy faoliyat samaradorligini
aniq baholash shartlaridan biri tinglovchilar auditoriyasining
o'ziga xosligini har tomonlama o'rganishdir. Hozirgi paytda
gi mavjud amaliyotga ko'ra auditoriyalar tinglovchilar tar
hibiga ko'ra to'rt turga ajratiladi:

1. Axborotlarni e'tiborsiz qabul qilishga o'zini avvaldan
psixologik yo'naltirgan auditoriya. Bu auditoriya tadbirda
beriladigan axborotlar saviyasi va mazmunidan o'zini yuqori
qo'yadi. Bunday auditoriya bilan ishlashda yig'ilgan odamlar
bilmagan kichik faktlar, qiziqarli misollarni avvaldan kelti
nish orqali ularda ijobiy munosabat shakllantiriladi.

2. Ijtimoiy faol auditoriya. Bular ma'lumotli, ziyoli, yangi
likka o'ch insonlar bo'lib, ularga ta'sir ko'rsatuvchi har qan
day axborot muammoli, dolzarb, bahstalab bo'lgani ma'qul.
Istabalalar, magistrant, aspirantlar, olimlar shular jumlasid
andir.

3. Axborotlarni har xil o'zlashtiruvchi auditoriya. Bunday
tinglovchilar bilan ishlashda auditoriyani bir necha guruhgaga
bo'lish texnologiyasi ish beradi.

4. Axborot mazmuniga avvaldan psixologik qarshi bo'lув
chi auditoriya. Bular ma'lum sabablarga ko'ra tarbiyasi og'ir
kimsalar toifasi bo'lib, hayotda aniq maqsadi va maslagi
yo'q, o'z ustida ishlamaydigan insonlar. Ularning orasida
asosan o'smirlar ko'p bo'ladi. Diniy aqidaparastlarning domi
ga tushib qolgan yoshlar ham shular jumlasidandir. Ular yan
giliklar, tafsilotlarga boy axborotlarga o'ch bo'ladi. Shuning

uchun bunday toifadagi kimsalarga baobro' shaxslar orqali ta'sir ko'rsatgan ma'qul.

5. Maishiy dunyoqarashi ustuvor bo'lган auditoriya. ~~An~~ san bekalar, qariyalar, ma'lum sabablar bilan nogiron bo'lilib asosiy vaqtini uyda o'tkazadiganlar. Ularni hayotiy video filmlar, qiziqarli ko'rsatuv va lavhalar o'ziga jalb qiladi. Shundan kelib chiqib, bunday insonlar uchun mafkuraviy axborot taylorlanganda, ularning soddaligi, samimiyatga o'chligi ~~vi~~ insoniy e'tiborga muhtojligini inobatga olib ish ko'rilsa, ~~ni~~ marali bo'ladi. Ular ko'proq uy ishlari bilan band bo'lган uchun muloqot va uchrashuvlar ularning dam olish vaqtlanishi mo'ljallanishi, milliy udumlar, rasm-rusumlarimizning ijohasi jihatlaridan foydalanish, tadbir vaqt va joyi masalasini ~~ni~~ halla faollari va xotin-qizlar qo'mitalari bilan hamkorlikda o'ylab ko'rish kerak bo'ladi.

Madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda auditoriyaning katta yoki kichikligi ham inobatga olinishi kerak.

- 100–200 kishidan ziyod odam bo'lsa katta,
- 15–100 tagacha odam bo'lsa – o'rtacha,
- 15 tagacha bo'lsa, kichik auditoriya hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy tadbir tashkilotchisining bilishi ~~shart~~ bo'lган qoidalar:

- katta auditoriyada: notiqlik mahoratining o'ta yuqori bo'lishi, ko'rgazmali vositalardan foydalanishda aniqlik, ~~mu-~~ vollarning imkon darajasida kam bo'lishi;

- kichik auditoriyada: savol va javoblarning imkon darajasida ko'p bo'lishi, rasmiyatchilikdan xoli bo'lishi, notiqlik mavzuga oid bilimlarining mukammal bo'lishi, mavzu ~~ma-~~ munini yoritishda ijodiy yondashuv. Bundan tashqari, auditoriyaning yosh xususiyatlarini, ularning bilimlari darajasini ham hisobga olish zarur.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini aniqlash uchun agar bunday ish kichik auditoriyalarda amalga oshirilg'an bo'lsa, unda tinglovchi-yoshlar, tarbiyalanuvchilar yoki ~~ta~~ laba-qatnashchilararning dunyoqarashlarini bevosita suhbatlari, yozma ishlar va ularning ishga, voqeа-hodisalarga bo'lган

munosabatlari orqali aniqlab, mashg'ulotlarni qayta-qayta o'tkazish mumkin.

Agar auditoriya tarkibi aralash, ya'ni, turli kasb vakilidan iborat bo'lsa, uning samarasini bir martada aniq belgilash murakkabdir. Chunki psixologiyada shunday qonuniyat borki, auditoriyani tashkil etuvchi odamlar soni ortib borgani sari uning pedagogik samaradorligi susaya boradi. Shuning uchun 100 kishidan ortiq, ya'ni, 200–300 kishilik auditoriyada ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, odamlarning yetkazilayotgan ma'lumotni qaytarajada o'zlashtirayotgani bo'yicha monitoring olib borish sururdir. Bunday paytlarda yangilikka o'ch tinglovchi notiqqa nisbatan neytral mavqeni egallashi, uning fikrlariga to'liq ergashmasligi mumkin. Katta auditoriyalarda pedagogik g'oyalarga ergashtirish muhim ahamiyatga egadir. Agar muayyan guruh axborotni qabul qilishga moyil bo'lsa, mafqat tinglash, balki eshitib qabul qilish darajasi ham yuqori bo'ladi. Mabodo, tinglovchilar orasida savol beruvchilar paydo bo'lsa, bu savol ko'pchilikka ma'qul bo'lmasligi yoki ayrimlarga yoqishi mumkin, bunday vaziyatda topqirlik va rukkolik bilan, barchaga ma'qul keladigan gaplarni topa olish lozim.

Shuningdek Vatan va yurt taqdiriga aloqador muhim mayzulardagi uchrashuv va ma'ruzalar imkon qadar kichiktoq davralarda, «davra suhbatlari» tarzida amalga oshirilsa, umarali bo'lishi psixologiyada va ijtimoiy amaliyotda isbot qilimgan. Madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini o'lchash mezonlari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning bilim darajasi, ijtimoiy faolligi;

jamiyatning ma'naviy sog'lomligi, odamlarning o'zlamruhan tetik va bardam tutishi;

vatanparvarlikning turli ko'rinishlari kundalik turmushda tobora ko'proq namoyon bo'lib borayotgani;

aholida bilim saviyasini oshirishga intilishning kuchayishi, gazeta-jurnal, vaqtli matbuotga talab va taklifning ortib borishi;

- jinoyatchilik va huquqbazarlik holatlarining kamayib borishi, ayollar va o'smirlar o'rtasida sodir etiladigan jinoyatchilikning bartaraf etilishi;
- giyohvandlik va turli zararli odatlarning yoshlar o'ttida kamayib borishi, bunda keng jamoatchilikning ishtiroki;
- diniy-dunyoviy bilimlarga intilish, shu sohadagi adab yotlarga nisbatan ehtiyojning bir maromda saqlanishi (ARM lardan foydalanish uzlusizligi);
- oilalar mustahkamligi, ajrimlarning kamayib borishi;
- fuqarolarda qonunlarga nisbatan itoatkorlikning shakllanishi;
- butun jamiyat miqyosida sog'lom ma'naviy va ijtimoiy muhitning shakllanishi.

Ijtimoiy fikrni o'rganish bu – ma'naviy tadbirlarning keng xalq ommasi va yoshlar ongiga nechog'lik chuqur singib berayotganini o'rganishning ishonchli yo'llaridan biri. Ijtimoiy fikr – guruh yoki jamiyat tomonidan yakdil tarzda izhor qili nadigan umumiy nuqtayi nazardir. Ijtimoiy fikr ko'pincha psixologiya hamda sotsiologiya fanlari tomonidan o'rganiladi. Lekin jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xos bo'lgan jarayonlar ijtimoiy fikrni faqat ma'lum guruh mutaxassisligingina emas, balki barcha faol shaxslar o'rganishini taqos etadi.

Kundalik hayotimizda, ayniqsa, mamlakatimiz sharoitida ijtimoiy fikrning asosiy barometri, o'lchovi mahalladir. Mahalla ahli har bir oilada ro'y berayotgan hodisalarini bilishi insonlar taqdiriga befarq bo'la olmaydi, faollar orqali ijtimoiy hayotdagi har bir o'zgarish, odamlar ongi va qalbidagi his kechinmalar o'rganiladi. Shu ma'noda O'zbekiston sharoitida mahallaning haqiqiy demokratiya darsxonasi ekanligi, uning ijtimoiy fikrni boshqarish imkoniyatlarida ham o'z tasdig'ini topgan.

Shunga qaramay, ma'naviy-ma'rifiy ishlar amaliyotida jamiyatdagi ma'naviy barqarorlikni ta'minlash uchun ijtimoiy fikrni o'rganib borish, bunga jamoatchilikning ilg'or vakillarini jalb etish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy fikrni o'rganish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

1. Sotsiologiya va psixologiyaning maxsus usullarini qo'llagan tarzda, mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilg'an tadbirlar. Bunda asosan so'rov usullari – anketa va intervju yo'li bilan jamoatchilik fikri o'rganiladi. Anketa yozma so'rov shakli bo'lib, unga kiritilgan savollar yordamida ma'naviyat va ma'rifatga oid masalalarning yoshlar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini aniqlash mumkin. Anketa savollari tinglovchilar ongidagi bilimlar qay darada mustahkam ekani haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Umuman, ma'naviyatning inson ongidagi monitoringini aniqlashda ma'lumotlilik darajasiga ko'ra, ochiq savollar bining vozma fikrlarni to'plash, intervju yo'li bilan xilma-xil fikrlarni o'rganish samarali hisoblanadi.

2. Joylarda, mahalla qo'mitalari, o'quv maskanlarida ishonch pochtalari» tashkil etish mumkin. Bunda aholining, bat xabarlari orqali ro'y berayotgan jarayonlar, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, mahallalar, turar joylar va mehnat jarayonlari idarasi ayrim salbiy hodisalarga munosabati aniqlanadi, uchun qolning islohotlardan manfaatdorligi o'rganiladi.

3. Hujjatlar, yozma manbalar va xatlarning mazmuni, televideniye, radio va vaqtli matbuot sahifalarida mehnat-jarayonlarning fikr-o'ylarining bayonini ham sifat, ham miqdori jihatdan tahlil qilish orqali ularning ma'naviy jarayonlar mohiyatini qay darajada tushunayotgani, ularga munosabati, bu jarayondagi ishtirokini o'rganish mumkin. Bu ham jahon ijtibasida sinalgan ishonchli usullardan biridir.

Shunday qilib, madaniy-ma'rifiy ishlar jarayoni murakkab, bo'p bosqichli va o'ta mas'uliyatli bo'lib, ular samaradorligini muttasil o'rganib borish, yanada mahsuldor va ta'sirchan tariyaviy usullarni amaliyotda qo'llash, takomillashtirib borish ishlari yo'nalishdagi ishlarning tarkibiy qismidir.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tadbirlari tasnifi haqida so'zlab bering.
2. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning maqsadini izohlang.

3. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar auditoriyasini tavsiflang.
4. Davra suhbatlarining ma'rifiy ahamiyatini olib berlang.
5. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ijtimoiy fikrni o'rganib hushlangning ahamiyatini tushuntiring.
6. Hujjatlarning madaniy tadbirlardagi o'rni va rolini tushlang.
7. Madaniy tadbirlarda ssenariyning ahamiyati qaydida jada?
8. Bayramlarni o'tkazishda milliy qadriyatlardan qanday foydaliladi?
9. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishga doir keys tayyoblang.



Tayanch so'z va iboralar:

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar, turmush tarzi, mafkuriy immunitet, ijtimoiy fikr.

3.15. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda gorizontal va vertikal yondashuv nisbati

Jamiyat tarixi mohiyat e'tiboriga ko'ra kishilar o'rtasidagi munosabatlar tarixidan iboratdir. Tarixiy taraqqiyotning hushlangning bir davrida tarkib topgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy tuzum esa jamiyatni tashkil qilgan shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy munosabatlarni shakllantirgan va idora qilib kelgan. Shu sababli, har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, maqsadi, manfaatlari, tuzum tomonidan unga berilgan erkinlik darajalari kabi masalalar o'ziga xos ijtimoiy muammolarni tashkil qiladi. Hal etilishi zaruri bo'lgan ana shunday muammolardan biri ijtimoiy-madaniy faoliyatdagagi odamlararo munosabatni yanada yaxshilash muosalasidir.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning muhim o'ziga xosligi hushlangning faqat turli xil ijodiyot orqali yoshlarga bilim, kasb-hunar o'rgatishgina emas, balki ularni ma'naviy barkamol qilib hayotga tayyorlashni ustuvor deb bilishdir. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobi shunday yozadi: «Odamlar hayotda hamisha bir-birlariga bog'lanib yashashga moyil bo'ladi».

Ba'zilar esa odamlar o'rtasida ixtiyoriy bog'lanishlar yo'q, har bir odam o'z manfaati uchun boshqalarning manfaatiga zurtar yetkazishi, biri boshqasiga begona bo'lishi zarur, mabodo ular birlashsalar ham zarurat, majburiyat tufayli birlashadilar, o'zaro murosaga kelishsalar ham faqat biri g'olib chiqib, boshqalari mag'lub bo'lganda murosaga keladilar, deb o'ylaydilar. Bunda ular tashqaridan ta'sir etuvchi bir kuch tuziyiqida o'zaro kelishuvga majbur bo'ladilar, agar ana shu kuch yo'qolsa, kelishuv ham yo'qoladi, yana begonalashuv paydo bo'ladi va ular tarqalib ketadilar. Insoniyatga xos bo'lgan hayvoniy aqidalardan biri ham mana shu noto'g'ri hisavvur va aldamchi aqidadir».

Abu Nasr Forobiyning bu fikrlaridan ko'rinish turibdiki, u insonlarni majburan emas, balki ixtiyoriy ravishda birlashib, hamkorlikda yashashlari zarurligini, ana shunda o'zaro imzolar tugashini uqtiradi. Uning fikricha, tashqi ta'sir, tazyiq emas, balki, o'zaro anglangan aloqalar, ya'ni gorizontal munosabatlар odamlararo totuvlik va yaxshilikning asosi hisoblanadi. Unga ko'ra:

— kishilarning o'zaro bog'liqligi zamirida muayyan qabila-urug'larga tegishlilik yotadi, bu esa katta miqdordagi kishilar guruhi o'rtasida ijtimoiy, madaniy, siyosiy yondashuv yakdillagini tashkil etadi;

— odamlararo munosabatlarning barqaror amal qilishida diniy e'tiqod umumiyligi ham muhim rol o'ynaydi. Gorizontal munosabatlarni mustahkamlovchi odamlararo aloqalarda, umumiy madaniy qarashlar, o'zaro sabr-toqat, bag'rikenglik, urf-odat, an'analar, fe'l-atvor birligi, saviyalar tengligi, didlat o'xshashligi, xarakter yaqinligi ham muhim ahamiyatga egadir.

Ayni vaqtda gorizontal munosabatlarni mustahkamlashga odamlarning hammasi ham ongli ravishda amal qilmaydilar, balki ularning bir qismi ko'pchilikka taqlid qilib, ya'ni, masha mohiyatini yetarli his etmasdan turib ish qiladilar.

Gorizontal yondashuvning muhim o'ziga xosligi bu insonning o'z atrofidagi sheriklari, hamkasblari, qarindoshlari va do'stlariga nisbatan ongli tarzda doimiy ravishda mehr

ko'rsatish yoki o'z yaqinlariga xolislik asosida yaxshilik qilishni faqat undan foyda olish ilinjini ko'zlamasdan qilish zarurligini ham ifoda etadi. Gorizontal yondashuv odamlararo munosabatlarda ongli yondashuv, hushyorlik, ogohlilik zarurligini namoyon etib, har bir ishda yaxshilikni ko'tish, jamiyatda yuz berayotgan ijobjiy o'zgarishlarni his etish va shukur etishni ham taqozo etadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov istiqlolga erishilgan ilk davrdayoq mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti uchun odamlararo maqsadlar mushtarakligi va harakathui birligi juda zarurligini ta'kidlab: «Endi inkor qilish kayfiyati dan bunyodkorlik kayfiyatiga o'tish payti keldi», deb aytgan fikrlarida chuqur ma'no-mazmun mujassamdir.

Tarbiya samaradorligiga erishishda vertikal hamda gorizontall yondashuv xillari amaliyotda keng qo'llaniladi. Tarbiyada vertikal yondashuv deganda bu maqom, mavqe, lavozim, mulkka egalik farqiga ko'ra munosabatlarni, rahbarning xodimga ta'siri, ular o'rtaqidagi masofa darajalari, shuningdek, katta yoshli odamlarning o'z farzandlari, shogirdlari, hamkasb va hammahalla yoshlarga nisbatan ma'naviy ta'siri tushuniladi. Kattalarning yoshlarga vertikal tarzda ta'sir o'tkazishi milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish, vorisiylik an'analarini saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Kattalarning ibrat omili orqali ijtimoiy-madaniy faoliyatni yo'lga qo'yish tajribasi xalqimizning asriy an'analarining ajdodlardan avlodlarga o'tkazilib, ularning hayotchanligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Shu o'rinda vertikal yondashuvning yoshlar ongiga ko'rsatuvchi ma'lum darajadagi salbiy ta'siri haqida ham to'xtalishni joiz deb hisoblaymiz. Ma'lumki, yoshlar o'zlariga mos do'stlar, tanishlar orttiradilar va ular bilan bo'sh vaqtlarini ko'proq birga o'tkazadilar. Ota-onalar, pedagoglar esa o'z farzandlari, shogirdlarini ularning tengdoshlari beruvchi maslahatlar asosida emas, balki, kattalarning gapi, yo'rig'i bilan ish tutishga yo'naltiradilar.

Psixolog olimlarning ta'kidlashlariga ko'ra, hali aqlini yaxshi tanib olmagan ba'zi yoshlar tarbiyada vertikal yonda-

shuvchi ota-onalar, pedagoglarga, ularga g‘amxo‘rlik qiluvchi insonlar deb emas, balki ularning yo‘lini to‘suvchi, ko‘zlangan ishni bajarishga halaqit beruvchilar, raqiblar sihatida yondashishga moyil bo‘lib qoladilar.

Xuddi shu nuqtayi nazarni tasdiqlovchi hammaga tanish bo‘lib qolgan bir manzara, ya’ni, ba’zi yoshlarning madaniyat muassasasi hovlisida, mahalla guzarida, xullas chet-chetda berkinib, sigareta chekishlari holatini ko‘z oldimizga keltiraylik. Chekayotgan yoshlar to‘garak rahbari, murabbiylarini ko‘rib qolishsa darhol sigaretalarini yashirish, murabbiylar, umuman, kattalar nigohiga tushmaslik payida bo‘lishadi. Ya’ni, ular shu yo‘l bilan o‘zlarini boshlariga tushuvchi tashvish va xavfdan himoya qila boshlaydilar.

Afsuski, har qanday himoya – bu o‘zini haq deb bilishdir. Agar aynan shu holatda yoshlar o‘zлari hurmat qiladigan tengdoshlari, to‘garak a’zolarining bunday vaziyatdan noroziliklariga duch kelsalar va shu qilayotgan ishlari nojo‘ya ekanligidan noqulay holatga tushsalar, ya’ni, uyala boshlasalar, natija butunlay boshqacha bo‘ladi. Uyalish hissi bu odamning o‘zi qilayotgan ishini noto‘g‘ri, nohaq deb bilishdir. Shu boisdan ham tarbiyada, ijtimoiy-madaniy faoliyatda «tengdosh – tengdoshga», «yoshlar – yoshlarga» degan shior samaradorligini yanada oshirishimiz, shubhasiz, katta samara beradi.

Shu boisdan ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirish mobaynida yoshlarni tarbiyada orqadan quvib, do‘q-po‘pisa qilib ularning himoyaga o‘tib olishlariga emas, balki, ularni o‘zлari qilayotgan ishlaridan uyalish, noqulay vaziyatga tushib qolishlariga erishish ko‘proq natija beradi.

Gorizontal munosabatlар mushtarak manfaatlar birligini ham taqozo etadi. Manfaatlar mushtarakligi esa korporativ yaqinlikni shakllantirish zaruratini kun tartibiga chiqaradi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov anglangan korporativ manfaatlar uyg‘unligini tarkib toptirish xususida shunday deydi: «Jamiyat ichidagi alohida shaxslarning uyushqoqlik bilan jipslashishiga ularning qaysi urug‘ga, xududga yoki etnik guruhga mansubligi emas, balki umum davlat darajasida

korporativ manfaatlarning yaxshi anglangan mushtarakligi asos bo'lishi kerak».

Gorizontal tarbiya samaradorligi maqsad omiliga ham ko'p jihatga ko'ra bog'liqdir. Atoqli faylasuf Aristotel o'zining «Poetika» asarida «Maqsadi yo'q kishining xarakteri ham bo'lmaydi. Xaraktersiz odamning biror bir narsaga qiziqishi, rag'batisi ham bo'lmaydi» deb ta'kidlaydi (Aristotel. «Poetika» –T.: 1974, 4-bet).

Alisher Navoiy shahzoda Badiuzzamonga yozgan maktabularidan birida maqsad xususida shunday ibratli fikrlarni bayon qiladi: «Odamning murod-maqsadi bo'lmasa, balo lardan omon qolmaydi. Ammo har kishining murodi ko'proq bo'lsa, haq-taolo amriga itoati ham ko'proq bo'ladi». (Alisher Navoiy. Asarlar, O'n uchinchi tom. –T.: 1966, 126-bet.)

Demak, yoshlar o'rtaida gorizontal darajadagi totuvlikni ta'minlash uchun dastavval maqsad tarbiyasini yo'lgan qo'yish, ularning ongi, qalbida kelgusi hayot orzularini tarkib toptirish o'ta muhim masaladir.

Maqsadning shakllanishida qiziqish omili muhim rol o'ynaydi. Yoshlarda muayyan soha, kasb yoki mashg'ulotlarga qiziqishni uyg'otish va uni kuchaytirib borish katta ahamiyatga ega. Buning uchun esa, aholi ongida qiziqish hamda chit yojlarning real holati, u yoki bu sohaga qiziqish darajalarining o'sish, o'zgarib borish jarayonlarini jiddiy o'rganib borish dolzarb masaladir.

Qiziqish omiliga yondashganda masala mohiyatini teran anglangan holda munosabat bildirish zarurdir. Zero, qiziqish umumdan xususga, jamoaviy ko'lamdan individ, shaxs darajasi ko'chirilgandagina, ya'ni, inson o'zi qiziqayotgan narsani qalban va aqlan anglangan tuyg'ular bilan yondasha olgan hol-dagina u bunyodkor kuchga aylanadi. Birinchi Prezidentimiz mazkur masala xususida shunday fikrni izhor etgan edi: «Bugungi kunda eski sho'ro davridagi kabi quruq tashviqot bilan biror natijaga erishib bo'lmaydi. Yoshlarda avvalo hayotga qiziqish, qiziqish va yana bir bor qiziqish uyg'otish kerak va bu ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning negizini tashkil etishi lozim.

Aslida odamga qachon va qanday sharoitda ta'sir o'tkazish, ongi va shuuriga biron g'oyani singdirish mumkin? Qachonki, unda o'sha g'oyaga qiziqish uyg'onsa. Odamning o'zida qiziqish bo'lmasa, tabiiyki, uning miyasiga zo'ravonlik bilan hech narsani singdirib bo'lmaydi»!.

Avval aytganimizdek, G'arbdagi moddiy, real manfaatlar ustuvorligi qadriyatidan farq qilib, Sharq xalqlari uchun bosh qadriyat ma'naviy omillar, ayniqsa, inson sha'ni, obro'e'tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan. Shu boisdan ham O'zbekistonda xalqimiz ma'naviy yaxlitligini saqlab qolish, o'zlikdan chekinmaslik, sof insoniy fazilatlariga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilish siyosati barcha sohalarda, xususan, ijtimoiy-madaniy faoliyatda ham izchil yurgizilmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonida, xususan, ijtimoiy-madaniy faoliyatda gorizontal yondashuvning muhim o'ziga xosligi havaskorlik ijodiyoti jamoasi rahbari va to'garak a'zosi o'rtasida yuz beruvchi ijtimoiy sheriklik asosidagi faoliyat va muloqotlar asnosida namoyon bo'ladi.

To'garak rahbari va a'zosi o'rtasidagi muloqotda ustoz va o'quvchi teng huquqli hamkorlar sifatida yondashadilar. Rahbar guruhdagi har bir shug'ullanuvchiga shaxs sifatida yondashadi. To'garak a'zolariga teng va differensial yondashib, ularni kuchli va kuchsizlarga ajratmaydi.

Eng muhimi badiiy havaskorlik ijodiyotida ustoz ta'lim va tarbiya muammolarini yechishda o'zini to'garak a'zosi o'rninga, to'garak a'zosi esa o'zini ustoz o'rniga qo'yib ish tutadi. Io'garak a'zosining mustaqil fikri, faoliyati va tashabbusi rivojlantiriladi va rag'batlantiriladi. Shug'ullanuvchining muayyan kasb yoki sohani, fanlarni o'zlashtirishi jarayonida uning shaxsi, ruhiy holati, individual sifatlari ham uyg'un tarzda nechog'li takomillashib borishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Gorizontal yondashuv to'garak a'zolarining har bir bilim, kasb, soha dovonlarini egallagandan so'ngi unda ichki faxr-

Islom Karimov. Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz quolib bo'lmaydi. –T.: «O'zbekiston» 2006, 5-bet.

ni, qoniqishni tarkib toptirib, yangi marralarni zabit etishga doimiy rag'bat berib turadi. Bunday yondashuv yoshlarda nurli istiqbol motivatsiyasini, yuqori cho'qqilarga ijtimoiy mo'ljal olish, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch va o'zini o'zi baholash darajasini oshiradi. Gorizontal yondashuv mohiyat-e'tiboriga ko'ra mamlakatimizdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun mazmun-mohiyatini to'laroq yuzaga chiqarishga imkon yaratib, shaxs, inson omili ustuvorligini ta'minlashga, har bir ta'lim subyektini hech kimdan kam bo'limgan va hech kimdan kam bo'lmaydigan shaxslar qilib tarbiyalashga to'la-to'kis xizmat qiladi.

Sobiq sho'rolar davridagi ijtimoiy-madaniy faoliyat tizi mi to'laligicha vertikal yondashuv asosiga qurilgan edi. Ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi vertikal yondashuvda pedagog shaxsining ustuvorligi, uning fikri, ta'limiy uslublari u hatto fe'l-atvori birlamchi ahamiyatga ega bo'lib, to'garak a'zosi o'rganayotgan ijod turi yoki ta'limning shunchaki iste'molchisi sifatida namoyon bo'lib kelgan. Vertikal yondashuvda to'garak a'zosining biror bir ijod sirlari va umuman ta'limiy resurslarni faqat o'zlashtirish jarayonlariga asosiy e'tibor qaratiladi. Ya'ni, vertikal yondashuvda ta'limning subyekti, ya'ni, havaskorlik ijodiyoti qatnashchisi o'rganilishi zarur bo'lgan soha, kasb va o'quv materialining yaratuvchisi ga aylana olmaydi.

Bunday yondashuvda to'garak rahbari a'zolarni muayyan maqsad yo'lida birlashtirolmaydi, natijada, to'garak rahbari va a'zolari o'rtasida masofa shakllanib qoladi. To'garak rahbari jamoada tabiiy ravishda yuzaga chiquvchi ichki nizolarga aralasha olmaydi, ularning ijtimoiy maqbul yechimida ishtirok etmaydi. Bunday holat esa guruh a'zolari o'rtasida tartibsizlik, dangasalik, faoliyatsizlik va mas'uliyatsizlikning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, vertikal yondashuvda to'garak rahbarining o'zi ham o'zini to'garak a'zosining o'rniga qo'yish orqali holatga real baho berishga harakat qilmaydi u har qanday muammoli vaziyatlarda o'zini haq deb biladi. To'garak a'zolarining erkin fikrlashiga yo'l qo'yaydi.

Vertikal yondashuv asosidagi ijtimoiy-madaniy faoliyatda to'garak a'zolarining aksariyat tashabbusi umumiy tartibotlarni buzish, deb hisoblanadi va u imkonni boricha rad etiladi. Ayni chog'da vertikal yondashuv to'garak a'zolarida juriatsizlik, qo'rquv, irodasizlik, qat'iyatsizlik, himoyasizlik hussini ham kuchaytiradi. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda vertikal yondashuvning eng xavotirli jihatni, bu to'garak a'zosi o'zini yuqori maqomdagagi imkoniyatlar, ideal tiplarga identifikatsiya qila olmasligi va uning identifikatsiya doirasi faqat o'z guruhi, hamqishloqlari, hamkasblari darajasi bilan cheklanib qolinishidir.

Vertikal yondashuvning muhim o'ziga xosligi bu to'garak a'zosiga doimiy qat'iy nazorat obyekti deb yondashilishi va unga ta'sir o'tkazilishi kerak bo'lgan makon sifatida qarashlidir. Chunki sobiq sho'rolar davrida to'garak a'zosi ta'lum-tarbiyaga doir holatlar yechimida mutlaqo ishtirok etmagan va u hamisha muayyan holatlarda miqdoriy a'zo sifatida namoyon bo'lib turgan. Bunda havaskorlik ijodiyoti qiziquvchilarining bor kuchi, diqqat-e'tibori ongli ravishda qod sirlarini egallah, ya'ni, sohalar, bilimlarni o'zlashtirib o'z-o'zini rivojlantirishga emas, balki o'zini doimo tashqi ijtimoiy-ma'naviy ta'sirlardan himoya qilishga qaratib kelgan.

Istiqlolimizgacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-madaniy faoliyatda ta'lum to'laligicha vertikal yondashuv asosiga qurilgan bo'lib, o'quvchi ta'luming passiv ishtirokchisi sifatida qabul qilinar edi. Sobiq sho'rolar davrining taniqli pedagogi A.S.Makarenkoning: «Hamma narsa kollektivda», «hamma narsa kollektiv uchun» va «hamma narsa kollektiv orqali» degan shiori vertikal yondashuvning o'q tomiri bo'lib, kollektivizm omili mutloq darajaga ko'tarilgan, inson, shaxs esa kollektivning qurbaniga aylantirilgan edi.

Gorizontal tarbiyada turli millat vakillari tomonidan «men», «biz» va «siz» so'zlaridan iborat olmoshlar ayniqsa keng ko'lamba qo'llaniladi. Agarda amerikaliklarda «men» omili hamma narsadan ustun mavqe kasb etsa, ruslarda «biz» (мы) omili turli ijtimoiy masalalar yechimida hal qiluvchi

ahamiyatga ega bo'lib kelgan. O'zbeklar esa o'zaro muloqotda ko'proq «Siz» olmoshini ishlatalilar. Xuddi shu masalaning nechog'li ahamiyatlari ekanlini o'rganish uchun turli yoshdagi aholi qatlamlari vakillari orasida suhbat – intervyu o'tkazdi. Suhbat paytida «O'z ish faoliyatingizda yoki bajarilgan ishlar xususida axborot berayotganingizda o'zingiz aytayotgan «men», «biz», «siz» so'zlarining qaysi biri eshituvchilarda ko'proq ijobjiy taassurot qoldiradi deb o'ylaysiz?» degan so'volga turli xil javoblar olindi. Xususan, 50 yoshdan oshgani kishilarning aksariyati, ya'ni, so'ralganlarning har to'rttadan uchtasi «siz» olmoshini ta'kidlash orqali axborot berish ko'proq ijobjiy samara berishini, 30-35 yosh orasidagilarning har ikkitasidan biri masalani «biz» olmoshi orqali va teng yoki «siz»ni ta'kidlash bilan yaxshi taassurot olishlarini qayd etdilar. Ammo 25-35 yoshli respondentlarning faqat 40 foizi «siz» olmoshlarini ishlatish orqali ijobjiy taassurot olish imkonini yaratilganini qayd etdilar. Suhbat natijalari yoshlari orasida ong, tafakkur tarzining o'rta va katta yoshli aholi vakillari tafakkur tarzidan bir muncha farq qilishini ko'rsatdi. Ammo umumiy yondashuv ko'proq «siz» olmoshi atrofida aylani shini, xalqimiz ko'proq o'zinikidan ko'ra boshqalarning xizmatini ta'kidlash, ish bajarishda boshqalarning hissasini yuborish sakroq baholashni ma'qul ko'rishlarini, «siz»ga urg'u berish o'zaro yaqinlikni samaraliroq ta'minlashini teran his etadilar. «Men» olmoshini ortiqcha ta'kidlash esa, insonni o'zi erishgan yutuqlariga qaramay, uning jamoadagi obro'si oshishiga emas, balki, el-yurt, umum nazaridan uzoqlashib qolishiga xizmat qilishi mumkin. So'ralganlar «siz» olmoshini qo'llash esa bilvosita tarzda shaxs mavqeining oshishiga, gorizontallarni mustahkamlash va jamoani birlashtirishiga xizmat qilishini qayd etadilar.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatda gorizontal tarbiyani mustahkamlashning ma'naviy negizi mehr omilidir. Ko'pchilik mehnat qalbdan, ko'ngildan tug'iladi, deb hisoblaydi. Shuni unutmaslik kerakki, mehr aqlning ham mevasidir. Shu boisdan ko'ngil mevalari ichida eng insoniy tuyg'u – mehr hisobla

nadi. Mehr, garchi ko'ngil mevasi bo'lsa ham, anglangan qattingi-harakat, oqilona yondashuvlar ifodasi bo'lganligi bois, u ko'proq aql orqali yo'naltiriladi. Masalan, ota-onaning o'z farzandiga, ustozning shogirdiga, farzandlarning o'z ota-onalariga, akaning ukaga ko'rsatuvchi e'tibori anglangan qattingi-harakatlar sifatidagi mehr hisoblanadi. Muhabbatda esa boshqani yoqtirish, sevish tuyg'ulari ustuvor bo'ladi. Shuning uchun, muhabbatni anglanmagan tuyg'u, mehrni esa anglangan tuyg'u deb atash ko'proq ma'quldir.

Agar muhabbat mehr bilan yo'g'rilgan bo'lsa, bunday tuyg'ular juda mustahkam va barqaror bo'ladi. Gorizontal munosabatlarda aka va uka, ustoz-shogird, er-xotin, hamkasblar o'rta sidagi hissiy munosabatlarni mehr rishtalari orqali mustahkamlash katta ahamiyatga egadir. Ammo shuni unutmaslik kerakki, mehr tuyg'usi juda nozik bo'lib, uning rishtalari tez uzilib ketishi mumkin. Masalan, arning xotiniga o'tkazgan yo'ravonligi, akaning ukaga musht ko'tarishi, ustozning shogirdiga yoqtirmasdan o'shqirib ish buyurishi mehrning zavoliga olib keladi. Bir marta uzilgan mehr rishtasini ularash juda mushkuldir. Ehtiroslar tiklanishi mumkin, ammo insoniylik asosidagi mehr tuyg'ulari asli boricha to'la tiklanmaydi.

Shunisi e'tiborliki, tazyiq o'tkazgan, musht urgan tomonidan mehr ketmasligi mumkin, ammo, kaltak yegan, luqorat, do'q-po'pisa ko'rgan tomonidan mehr tez yo'qoladi. Mehrsizlanib qolgan tomon asosan o'ziga xos majburiyat, yu'ni, erim-ku, akam-ku, ustozim-ku, el-yurt nazarida e'tibor ko'rsatishim kerak-ku, degan zaruratni bajarish yuklamasi asosida ish tuta boshlaydi, xolos. Ba'zilar men uni bolalikdan boqdim, undirdim, o'stirdim, o'qitdim, odam qildim, ammo, negadir juda mehrsiz bo'ldi, deb hayron bo'lib yurishadi. Mehrsizlik ildizini oilada, turli hayotiy vaziyatlarda avval berilgan tarbiya tarixidan izlamoq kerak.

Sotsiologiyada odamlarning o'zaro yoqtirish tuyg'ulari asosidagi birlashuvini referent guruhlar atamasi orqali organiziladi. Hayotda insonlar ikki, uch, uzog'i bilan to'rt kichilik ko'ngilga yaqin odamlardan iborat o'zaro ahil kichik

guruhlarga birlashadilar hamda mazkur guruhlar doirasida kasbiy, maishiy va ijtimoiy masalalarni o'zaro hamkorlik bilan etib yashaydilar. Odamlarning o'zlariga mos odamlarni topib birlashishlari maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanib, keksa yoshga yetganlarida ham uzlusiz davom etadi. Odamlarning bunday yoqtirib birlashish holatlari oxir-oqibatda, o'zaro do'stlik darajasiga o'sib chiqishi ko'p martalab kuzatilgan. Agar adabiy manbalarga murojat qilsak, «O'tgan kunlar» romanidagi Otabek va Hasanali obrazlari, Aleksandr Dyumaning «To'rt mushketyor» romanidagi Atos, Partos, Aramis va D'Artanyan obrazlari va boshqa ko'plab badiiy va hayotiy misollar odamlarning referent guruh sifatidagi birlashishlari nechog'li muhimligini tasdiqlaydi.

Referent guruhlar odamlararo gorizontal bog'lanishlarning eng ommaviy hamda dunyodagi barcha holatlar uchun xos bo'lgan ijtimoiy shakli hisoblanadi.

Yapon menejmentida ikki, uch yoki to'rt kishi bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlarni taqsimlashda albatta xodim larning qaysi referent guruhlarga mansubligi omiliga e'tibor qaratiladi. Odatda kichik xususiy masalalarda o'zaro birlasha olmagan odamlar umumiy masalalar yechimi yo'lida aslo birlasha olmaydilar.

Inson taraqqiyotini barqaror ta'minlashda ham gorizontal yondashuvning ahamiyati kattadir. Alisher Navoiy o'zinining mashhur «Majolisun-nafois» asarida bitta ijodiyot turi yoki biror bir kasb-hunar doirasida faoliyat yuritgan zamon-doshlariga qaraganda kamida 3–4 kasbni puxta o'zlashtirib, muvaffaqiyatli faoliyat olib borgan olimlar, shoirlar, hunarmandlar to'g'risida iliq fikrlar bayon etgan. Xususan, ulug' mutafakkir o'sha davrda yashab o'tgan mashhur allomalar Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Qul Muhammad Udiy, Mavlono Muhammad Jomiy, Xo'ja Fazlulloh Abul-Laysiy va boshqalar biror bir manfaatni ko'zlamasdan faqat umumiy takomillashuv rag'bati bilan musiqa nazariyasi, kuligrafiya, astronomiya, Qur'oni karimni ifodali tilovat etish

janatlarni mukammal darajada o'zlashtirib olganliklarini qayd etadi.

Shu o'rinda shaxsning gorizontal rivojlanishi borasidagi bu tajribaga e'tibor qaratamiz. Yaponiya korxonalarida xodimlar mansab pillapoyalaridan vertikal o'sish o'rniga gorizontal rivojlanishiga alohida e'tibor qaratadilar, ya'ni, masalan, agar u tashkilotda kichik iqtisodchi bo'lib ishlayotgan bo'lsa, 2 yil ishlab jamoada yaxshi bahoga erishgandan so'ng yonidagi boshqa lavozimda, ya'ni, buxgalter bo'lib ishlashga, yana biroz muddatdan so'ng esa marketolog kasbini egallashga intiladi. Yaponiyalik xodim shu tariqa sohaga doir eng muhim yondash lavozimlarda ishlab bo'lganidan keyingina vertikal kar'era qilishga o'zini haqli deb hisoblaydi.

Demak, gorizontal rivojlanish deganda muayyan kasb, soha doirasida faqat bir tomonlama rivojlanish emas, balki, o'zi tanlagan sevimli kasbini chuqr egallash bilan birga, boshqa turli sohalarda ham uyg'un takomillashuv afzalligini itoda etadi.

Mamlakatimizda 12 yillik bepul ta'lim tizimining yaratilganligi va bu jarayonda umumiy o'rta maxsus ma'lumot olish bilan birga o'quvchining 2–3 ta kasb-hunarga ega bo'lish imkoniyatlari yaratilganligi ham insonni har tomonlama rivojlantirish maqsadlariga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy-madaniy faoliyat esa, o'z mohiyatiga ko'ra, davlatimizning barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat keng ko'lamli siyosatini yoshlar va boshqa turli aholi qatlamlari vakillarini ijodiyotga to'liq safarbar etish orqali yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Iqtisodiy-siyosiy va ayniqsa ijtimoiy-madaniy faoliyatda vertikal va gorizontal yondashuvlar mutanosibligi hamisha davlatimizning diqqat-e'tiborida bo'lib keldi. Mamlakatimizning barqaror va yuqori sur'atlarda rivojlanishi, xalqimiz hayotining farovonlashuvi yuksalgani sari gorizontal yondashuvlarning ijtimoiy-madaniy makondagi o'rni va rolini ortib borishiga olib kelmoqda. Mamlakatimizda istiqlolimizning ilk davridayoq e'lon qilingan «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat

jadagi omillar ta'siri natijasida madaniy va mental o'zgarishlar yuz berish tabiiydir. Hozirgi kundagi global ekotizimning buzilish xavfi aholining ma'naviy salomatlik holatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatayotgani barchaga ayon. Kishiha madaniy holatiga bir tomondan global ekotizimning suruji, ikkinchi tomondan aynan insonning tashqi muhitga ko'rsatayotgan vayronkor munosabati o'rtasidagi bog'liq masalasi insoniyat hal etishi zarur bo'lgan ustuvor muam moga aylangan. Mazkur muammolar yechimi esa bashariyatning umumplanetar hamda mahalliy-mintaqaviy darajadagi yondashuvlarini o'zgartirish, global miqyoslarda mental o'zgarishlarni amalga oshirishga bevosita bog'liqdir.

Ayni chog'da Yurtboshimiz umr qadriyati bebabu ma'naviy mulk, ilohiy ne'mat ekanligini unutmaslikni, ma'naviyati, millatning mental qiyofasini o'zgartirishda sial eksperimentlar, inqilobiy yondashuvlar ayanchli oqibat larga olib kelishini ta'kidlab, bu borada hovliqmalik, shosh ma-shosharlik xavfli ekanligini qayd etadi: «Biz tadriji ya'ni evolyutsion izchillik xususiyatlariga ega bo'lgan islohot va o'zgarishlar tarafborimiz. Faqat bu yangilanishlar ijtimoiy munosabatlar va turmush tarzining o'zgarishi, odamlar ongi da demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan chambor chas bog'liq holda amalga oshirilishi darkor»¹.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan global lashuv jarayonlarini nafaqat obyektiv, ya'ni tashqi ta'sirida, balki subyektiv yondashuvlar, ya'ni muayyan insonlar ishtirokidan, uning bevosita ta'siridan chetda tasavvur etish noto'g'ri ekanligini, har bir ijtimoiy o'zgarishlarnegizida alohida guruhlar, konkret shaxslar, maxsus loyi halashtiruvchi texnologiyalar mujassamlashuvi nazariyosini o'rtaga qo'ydi va har tomonlama asoslab berdi. Shu boisdan ham mazkur nazariya global hamda mahalliy darajalardagi yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonlarini umuminsoni

¹ «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishdir». Konstitutot yamizning 22 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasidan.

Jumoyillar doirasida boshqarishning bir qator yechimlarini boslash imkoniyatini yuzaga keltirdi. Ular jumlasiga Birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan muammolar yechimiga korporativ yondashish, pozitivizm, pragmatizm, yig'unlik, mutanosiblik hamda hayot jarayonlariga ekzistental yondashish nazariyalarini keltirish o'rinnlidir.

Inson umrining qadri, hayot mohiyatini teran anglash, yashash zavqini bunyodkorlikda deb bilish ekzistensializm nazariyasining o'q tomiridir. Zero, hayotda xaotik umr kechirish, umrning har bir soniyasini his etmasdan izsiz o'tkazishga qarama-qarshi o'laroq Birinchi Prezidentimiz inson umrini hayotning bosh qadriyati sifatida tarannum etadi.

XX asrning o'rtalarida ochlik, vayronalik, tartibsizliklar og'ushida qolgan Yaponiya aynan ekzistensializm g'oyalarini quroq qilib, bugun dunyoning eng sara mamlakatiga aylanib boldi. Har bir yapon uchun umr qadri bosh qadriyat sifatida aylangan ehtiyojga aylanganligi Yaponiya taraqqiyotining u'lusizligi va barqarorligini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, umrni qadrlash nazariyasi uch mustahkam ildizga tayanadi. Ular xalq milliy ma'nnaviyati, pragmatizm va ekzistensializmdan iboratdir.

Milliy mustaqillikka erishilgandan so'nggi davr ijtimoiy-ijtisodiy va ma'nnaviy hayotda tub o'zgarishlar, islohotlarni hayotga joriy etish va inson tafakkurini yangi ijtimoiy makon va zamon mantig'iga muvofiqlashtirish jarayonlaridan iborat boldi. Ana shu keng ko'lamli transformatsion jarayolarda istiqolimizning dastlabki yillardanoq inson qadr-qimmati, uning sha'ni, umrni e'zozlash qadriyatları ustuvor ijtimoiy mo'ljallar sifatida davlat siyosatining markazida bo'lib keldi.

Umrni qadrlash konsepsiyasida pragmatistik omilning shamiyati katta bo'lib¹, insonning turmushda jarayoni yuromda harakatlanishdan natijaviy mo'ljal olib, maqsadli

Pragmatizm – lotincha-harakat, faoliyat ma'nolarini ifodalaydi. Ilovigi paytda pragmatic shaxs harakatchan, jo'shqin, intiluvchan inson mazmuniga egadir.

harakatlanishga undaydi. Pragmatik shaxs qat'iyatli bo'lib dastavval o'zining aytgan so'ziga, qilayotgan ishiga, maqsadlariga sidqidildan ishonadi va ularning ro'yobi uchun qat'iyat bilan kurashadi. Boshqalarni esa o'zining komil ishonchi xatti-harakatlari bilan o'z atrofiga birlashtira oladi. Bunday hayotiy yondashuv esa shaxsni jamoada yetakchi dan jasiga ko'taradi. Yetakchi pragmatizmi jamoa fe'l-atvori ma'naviyati, ruhiy olami, dunyoqarashlariga kuchli ta'sir o'tkazib, aholi turli qatlamlarida hayotga bo'lgan pozitiv yondashuvni shakllantiradi va istiqbolga ishonch tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan aytilgan «Rahbar o'zi yonib, boshqalarni ham yondira olishi, ezgu maqsadlariga erishish yo'lida odamlarni ruhlantira bilishi zarur»ligi to'g'risidagi fikrlari aynan pragmatistik yondashuvning ijtimoiy zaruriyat darajasida ekanini ta'kidlaydi.

Umrni qadrlash konsepsiyasining yana bir muhim negiz ekzistensial, ya'ni hayotning tub ma'nosini anglab yashash muhitini yuzaga keltirishdan iboratdir. Birinchi Prezidentimiz insonning hayotda mohiyat-e'tiboriga ko'ra xaotik, ya'ni bir qadar bee'tiborlik, hayot jarayonlari mohiyatini anglash asosidagi yashashdan ko'ra o'z holicha, qanday holat yuzaga kelsa, shunga qarab yashayverish, oqimga qarab bamaylixot suzaverish mayli xususida chuqrur fikr yuritib: «Ey birodan axir umr degani oqar suvdek o'tib boryapti, men ham inson bo'lib, orzu-umid bilan dunyoga kelib, o'zim uchun ham yashashga, shu hayotdan bahra olishga vaqt topoldimmi, deb o'ylamaydi» deb kuyungani negizida qancha-qancha ma'no yashiringandir.

Darhaqiqat, mamlakatimizda xalq manfaati yo'lida g'ani xo'rlik qilinayotgani, hayotimizning barcha jabhalari barqaroq va mutanosib farovonlashib borayotgani, tinch va osoyishto turmushimizdan qoniqish tuyg'usi kuchayayotgani, insonning ma'naviy salomatligi masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, bu borada davlatning bosh islohotchi sifatida gi faolligi oshayotgani barchamizga ayondir. Shu boisdan ham Birinchi Prezidentimiz: «Davlat, hokimiyat idoralari

sog'liqni saqlash masalasiga qanchalik e'tibor bermasin, avvalo aholimizning, har qaysi odamning bu masala bo'yicha qarashini o'zgartirmasdan turib, ijobiy natijalarga erishish quyin bo'ladi», deb xaqli ravishda ta'kidlaydi. Birinchi Prezidentimiz umrni qadrlash konsepsiyasini asoslaganida jamiyat, aholi faolligiga misol qilib Yaponiya mamlakatini qayta-qayta tilga olib, bu mamlakatda yuz mingdan ziyod bir asrdan ko'p umr kechirayotganlar borligi xalq sog'ligi tom ma'noda yurtning haqiqiy boyligiga aylanganini havas bilan qayd etgan edi. Hamda bunday natijaga milliy qadriyatlarga hurmat, xalq ma'naviyatini e'zozlash, umummilliy yuksak madaniy saviya, ta'lim omillarini uyg'unlashtirish natijasida erishilgани Birinchi Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlanadi. Ayni chog'da umrni e'zozlash jarayonlari inson omili bilan chambarchas bog'liqligi, hamma narsani uzil-kesil hal qiluvchi omil insonning o'zi ekanligi, yaponlar hayot tarzini esa umrni qadrlash uchun saboq sifatida o'rganishimiz zarurligi ayon bo'ladi. Shunday ekan, o'tayotgan umrini his etish, tushunish va anglash zaruratining umummilliy muammo sifatida qo'yilayotgani Birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan umrni qadrlash konsepsiyasining bosh leytmotivi, ya'ni tom ma'noda insonning insoniyligini yuzaga chiqarishdan iborat ekanligi oydinlashadi.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan umrni qadrlash konsepsiyasida belgilangan vazifalarni hayotga keng joriy etish uchun jamiyatimizning turli jabhalarida quyi-dagi masalalar yechimiga alohida ahamiyat berilishi zarur, deb hisoblaymiz:

1. Jamiyat a'zolarida, ayniqsa, yoshlar orasida umr qadriyatini e'zozlash, hayotiy faoliyatni oqilona, ratsional tashkil etish madaniyatini tarkib toptirish va tako millashtirish;
2. Ijtimoiy va shaxsiy zararli odatlardan xoli, jismoniy va ruhiy uyg'unlik asosidagi taraqqiyotga intilishdan iborat hayotiy falsafa xususiyatlarini keng targ'ib etuvchi ommaviy axborot vositalarida doimiy ruknlar tashkil etish, aholi turli qatlamlari vakillarini keng qamrab olishni nazarda tutgan holda madaniyat va aholi dam olish markazlarida, korxona

va muassasalarda, nodavlat tashkilotlarda, mahalla tuzilmalarida, xullas, ta'limdan tashqari tizimlarda keng ko'lamlı ijtimoiy-madaniy faoliyatni olib borish, umr falsafasi mavzuida gi maxsus suhbatlar majmuini tuzish va keng yo'lga qo'yish;

3. Ta'limning barcha bo'g'inlarida yoshlar ma'naviy kasbiy kamolotining uyg'un rivoj topishini ta'minlovchi meologik yondashuvlarni tarkib toptirish va rivojlantirish;

4. Tarbiya samaradorligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan korporativ yondashuvni tarkib toptirish, ya'ni, madaniyat ma'rifat muassasalari maktab – oila – mahalla, ota – ona farzand – o'qituvchi, maktab – universitet – ishlab chiqarish singari ijtimoiy subyektlar va tuzilmalar o'rtasidagi uzvli hamkorlik, umumiy maqsad yo'lidagi mustahkam birlikni tarkib toptirish;

5. Joylarda insonning ma'naviy salomatligi masalalariga bo'lgan ijtimoiy e'tiborni, bu boradagi mavjud holatlarini doimiy o'rganib borish uchun maqsadli sotsiologik so'rovlar tashkil etib borish va amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlarni samaradorligi monitoringini yo'lga qo'yish;

6. Istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan islohotlarning inson ongi, tafakkuridagi in'ikosini tadqiq etib borish, millatimiz madaniyat va mental qiyofasidagi pozitiv o'zgarishlarni yanada rivojlantirib borish, xalqimizdagи bunyodkor ruh omili tarbiyaviy vositalar orqali kuchaytirish;

7. Aholi turli qatlamlari orasida ekologik madaniyatni shakllantirish, atrof-muhitni asrash harakatini kengaytirish, yoshlar ma'naviyatida tom ma'nodagi hayotimiz tim soli bo'lgan qadriyatlarni tarkib toptirish, bu borada milliy merosimiz obidalaridagi mavjud manbalar, ulug' mutafakkilariimizning fikr va qarashlarini keng targ'ib etish;

8. Shukronalik umrni qadrlash falsafasining markaziy bo'g'ini ekanligini inobatga olib, millatimizning faxri, g'ururi bo'lgan zamonamiz qahramonlari, taniqli sportchilar, O'zbekiston Qahramonlari, davlat va jamoat arboblari, baobro', martabali shaxslarning sog'lom turmush tarzi borasidagi sa'y-harakatlarini ibrat omili sifatida keng targ'ib etishni yo'lga qo'yish.



1. Insonning ma'naviy salomatligi tushunchasini izohlang.
2. Umr qadriyatini targ'ib etishning o'ziga xosligini ochib bering.
3. Ekzistensial yondashuvning mohiyatini tushuntiring.
4. Akmeologiya xodisasiga ta'rif bering.
5. Pozitiv o'zgarishlar deganda nimalarni tushunasiz?
6. Zamonamiz qahramonlarini qanday targ'ib etish mumkin?
7. Madaniyat va ma'rifat muassasalari faoliyatining uyg'unligi qanday namoyon bo'ladi?
8. Hayotni ratsional o'tkazish madaniyati nimalarni ifodalaishi?
9. Sog'lom turmush tarzi madaniyati aholi dam olish markazlarida qanday targ'ib etiladi?
10. Mavzu bo'yicha bitta keys tayyorlang.



Tayanch so'z va iboralar

Umr qadriyati, sog'lom turmush tarzi, pozitivism, ratsional hayot, akmeologiya, ekzistensializm.

3.17. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda kompromiss va konsensus nisbati

Ijtimoiy-madaniy faoliyat haqida fikr, munosabat bildirmoqchi bo'linsa, madaniyat muassasalariga munosabatda bir-birlari bilan qanchalik hamjihatligi, ijodiy yakdilligi, o'zaro ahilligi masalasiga dastavval e'tibor qaratiladi. Agar mazkur muassasada o'zaro inoqlik, hamfikrlilik, uyushqoqlik barqaror degan mulohazaga kelinsa, bu madaniyat muassasiga nisbatan boshqalarda beixtiyor hurmat-ehtirom tuyg'usi yuzaga keladi. Mabodo, bu muassasa xususida o'zaro kelishmaydigan, xodimlari bir-birini hurmat qilmaydigan, tikri va amali ayricha odamlar degan munosabat bildirilsa, boshqalar undan o'zlarini uzoqroq tutishga intiladilar. Shu

boisdan ham, o'zaro ahillik, inoqlik, ijodiy birdamlik muammosi hamisha dolzarb, ijtimoiy-ma'naviy muammo bo'lib kelgan. Binobarin, har bir san'at va madaniyat dargohining zafarli, shon-shavkatga burkangan yo'li, baxtli taqdiri ham ana shu ijtimoiy-ijodiy yaqinlik masalasiga bevosita bog'liq holda namoyon bo'lib kelgan.

O'zbek xalqi tabiatan san'at va madaniyatga oshusti, jamoaviy millat ekanligi ma'lum. Chunki biror bir o'zbek yo'qki, to'yi yoxud ma'rakasini yon-atrofdagi odamlar, qavmu qarindoshlari, yaqin birodarlarisiz o'tishini tasavvur etsa. Mazkur nuqtayi nazarni isbot etuvchi yana bir jihat, o'zbeklar o'zining butun umri mazmunini farzandlari baxtidan ko'rishlari, surriyodlarining baxti uchun ixtiyoriy va qalban o'zlarini sadqa etishga hamisha shay ekanliklaridir. Jamoaviy xalq esa, o'z san'ati, madaniy taqdiri, maqsadi, milliy g'ururi, yakdil harakat qilishga rag'bati kuchli bo'lishi bilan farqlanishi kerak. Xalqimiz o'zining jamoaviy tabiatli ekanligi, urf odatlari, an'analarini, o'ziga xos fe'l-atvori bilan fransuzlar, ispanlar yoki ruslardan yaqqol ajralib turadi.

Ijodkorlik, yaratuvchanlik va jamoaviy turmush tarzini mustahkamlashdan iborat ijtimoiy-madaniy harakat esa qadim-qadiimdan xalqimiz vakillarini xududiy darajada qishloq, mahalla tuzilmalari muhitida yashashlarini, shahar miqyosida esa muayyan san'at turi, kasb-hunar yoki ilm-fan sohalarida bирgalikda tig'iz, zich, jamoa tarzida kompakt faoliyat yuritishlarini taqozo etib kelgan. Buning yaqqol ko'rinishi sifatida mamlakatimiz qishloqlari nomlanishiga e'tibor qaratish joiz. Do'rmon, Nayman, Qatag'on, Barlos, Nekuz, Saroy, Qang'li va hokazo nomlanishlar xalqimiz vakillarining muayyan urug' doirasida qarindoshlar jamoasi tarzida yashab kelganliklarini, sozchilar, to'pchilar, kulolchilar, qandolatchilar, misgarlar, temirchilar mahallalarida esa kasb-hunar asosida birlashib yashash tendensiyasini ko'rish mumkin. Ilm, tasavvuf va badiiy ijodiyotda sulolaviylik, vorisiylik ham jamoaviylik an'analarining uzviy davomi bo'lib kelgan.

Mohiyat-e'tiboriga va oddiy mantiq talablariga ko'ra, jamoaviy turmush tarzi mustahkam bo'lgan o'zbeklarni mahv etuvchi kuch topilmagani ham ko'p narsadan darak beradi.

Qisqa tarixiy qiyos keltirsak: Angliya tarixida millat xazinasi ikki ming yillik o'tmishi mobaynida bir marta (fransuzlarning 1104 yilda Angliyani bosib olinishi paytida) talonatoroj etilgan bo'lsa, AQSH xazinasi so'nggi 200 yildan ko'p vaqt mobaynida biror marta ham, Yaponiya xazinasi esa umuman hech kim tomonidan egallanmagan. Ammo O'zbekiston hududidagi davlatlar xazinalari esa 3000 yil mobaynida jami 50 martadan ko'proq ichki va tashqi bosqinlar tufayli talonatoroj etilgan. Mamlakatimiz boyliklari, osori atiqalar, kitoblar, muhim tarixiy obidalar olib ketilgan. Madaniyatimiz, tilimiz, hududimiz oyoqosti qilingan.

Tabiiy savol tug'iladi: axir shunchalik jamoaviy, o'zaro munosabatlari yaqin bo'lgan xalq bo'lsagu, nima uchun ichki va tashqi xavflarga qarshi turish darajamiz bu qadar sust bo'lgan? Nima uchun dunyoga Abu Nasr Farobiydek «ikkinchi muallim» bergan, zardushtiylik dini orqali olamga ezzgulik madaniyatini singdirgan, insoniyatga Al-Xorazmiy dahosi orqali yangi usuldagagi zamonaliv sanoq tartibotlarini tuhfa qilgan, Ibn Sino siymosida tib ilmini yangi yuksakliklarga olib chiqqan, islom dini mazmunini to'g'ri va dunyoviy talqin etib, uning insoniy mohiyatini teran ochib bergen, Imam Buxoriy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Abu Mansur-al Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband singari olimlarni dunyoga bergen, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi so'z mulkinining sultonlarini yetishtirib chiqargan ulug' xalq nima sabablarga ko'ra so'nggi to'rt yuz yil mobaynida bu qadar tanazzulga duchor bo'lib ketgan? Natijada, go'yoki madaniyat XIX asrning oxirida rus istilochilar tomonidan keltirilgan, degan sikrlar singdirilgan.

Ana shu savollarga javoblarni insoniy munosabatlar tizimidagi kompromiss va konsensus tushunchalari mohiyatini tahlil etish orqali izlashga harakat qilamiz. Ma'lumki, kompromiss deganda ikki yoki uch tomonning vaqtincha murosa

holati tushuniladi. Kompromiss holatida tomonlar bir-bu
lariga toqat qiladilar, raqiblar bilan keskin ixtiloflardan ongi
ravishda tiyilib turadilar. Shu boisdan ham kompromiss mu
vaqqat, ya’ni vaqtincha kelishuv holati sifatida tushuniladi.
Kompromiss holatida ziddiyatlar tashqari shakldan ichkuri
shaklga o’tadi. Ichki zo’riqish vaziyati muayyan muddatga
cha o’zini oshkor etmay turadi. Ammo biror-bir tomon uchun
qulayroq ijtimoiy-siyosiy muhit yuzaga kelishi bilanoq kom
promiss holati oshkora konfliktga aylanib ketadi. Tabiiyki,
kompromiss holatini milliy mentalitet, axloq-odob, davlat va
jamiyat boshqaruvidagi o’ziga xoslik ma’lum darajada jilov
lab turadi.

Shu narsa e’tiborga molikki, kompromiss holati muayyan
ijtimoiy-siyosiy muhit, davr, ma’naviy-madaniy yondashuvlar
o’zgarishi bilan konsensusga yoxud begonalashuvga aylanishi
mumkin. Shu boisdan ham kompromiss oraliq muhit bo’lib,
tayanish va ishonch bilan hamkorlik qilish uchun mustahkam
bo’Imagan holat hisoblanadi. Ammo jamiyat hayotida mohi
yat-e’tiboriga ko’ra kompromiss holati kerakli hodisadir.
Jaloliddin Rumiy ta’rifiga ko’ra «Murosa bo’lsa kichik ishlar
rivojlanadi. Murosa bo’lmasa, katta ishlar ham zavol topadi».

Murosa holatida har ikki tomon alohida-alohida rivojla
nishga intiladi. Nosog’lom raqobat muhiti amal qiladi. Ammo
murosa, ya’ni, kompromiss holatida kichik ishlar bir muncha
jonlansada, katta ishlar rivoj topmaydi. Shunga qaramay,
komprmiss holati jamiyatda ma’lum muddatga bo’lsa-da,
muayyan turg’unlikni, tinchlikni ta’minlab berishi jihatidan
ijobiy hodisadir. Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) tashqi
tazyiqlarning siquviga ko’ra, Makkadan Madinaga ko’chib,
hijrat qilgan chog’larida «Kofirun» surasi nozil bo’lgan.
Shunga ko’ra Makkadagi kofirlarga ushbu sura o’qib eshit
tirilgan. Unga ko’ra islomga tazyiq kiritish to’xtalishi har bir
qavm o’z ilohi, o’z e’tiqodi, dinida qolishi mumkinligi e’lon
qilinadi. Johillar mazkur sura mazmunidan voqif bo’lishgach,
payg’ambarimiz joniga qasd qilish fikridan to’xtab, Muham
mad (s.a.v)ni ta’qib qilishni bas qiladilar va o’z shahar va
qishloqlariga qaytadilar.

Demak, o‘z vaqtida, aql bilan qo‘llaniluvchi, raqib hushyorligini, zararli ta’sir qilish sur’atini susaytirishga qaratilgan kompromiss muayyan naf berishi shubhasizdir. Ammo kompromiss holatining madaniy taraqqiyotda milliy munosabatlар asosi, turmush tarzining mazmuniga aylanib qolishi og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

XVI asr boshlaridan e’tiboran to mustaqillikgacha bo‘lgan Markaziy Osiyodagi madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotni to’la ma’nodagi kompromiss muhiti amal qilgan davr deb atash mumkin. Negaki, bu davrda ilm-fan, madaniyat va san’at rivoj topmadi. Shu boisdan ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «XVI va XX asr oralig‘i millatimiz tarixida eng og‘ir tanazzul davri sifatida tarixga kiradi»¹.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, kompromiss muhitidan chiqa olmagan madaniyat, san’at, ilm-fanga c’tiborsiz millat hech qachon ro’shnolik ko’rmagan va taraqqiyotga erisha olmagan.

Kompromiss holatidan farq qilib, konsensus holati insonlararo munosabatlarning ma’naviy holatining sifat jihatidan yuqori darajasini ifoda etadi.

Agar kompromiss tushunchasi uchun xarakterli so‘zlar jumlasiga «toqat qilish», «chidash», «bir gapdan qolish», «tiyilish», «o‘z manfaatini o‘ylab ish tutish», «qosh qo‘yaman deb ko‘zdan ayrilmaslikni o‘ylab harakatlanish», «raqibini yoqtirmaslikni yashirish», «vaziyatni aql bilan baholab botish», «raqib tomon harakatlaridan doimiy hushyor, sergak bo‘lib turish», «muayyan chegarani saqlab kelishish» singari so‘z va iboralar xos bo‘lsa, konsensus tushunchasini ifodalash uchun «mehr», «qalban va ruhan yaqinlik», «san’atga oshuftalik», «madaniyatilik», «do’stlik», «o‘zgalar manfaatlarini o‘ylab ish tutish», «saxovat», «muhabbat», «qadrlash», «boshqalarni o‘zidek bilish», «fidoyilik» singari so‘zlar xos-

¹ *Qarang: Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.* –T.: «O‘zbekiston», 1997. 97-bet.

dir. Shu o'rinda Xo'ja Bahouddin Naqshbandning «Kimki o'zi haqida qayg'uribdi, demakki, u o'zini o'ylamabdi, kimki o'zgalar haqida qayg'uribdi, demakki, u o'zini o'ylabdi», de gan purhikmat so'zlari kompromiss va konsensus tushunchalar farqini aynan ochib beradi.

Insoniy munosabatlarda konsensus tushunchasi o'zaro yaqinlikning quyidagi tasnifida, ayniqsa, yorqin namoyon bo'ladi:

Odatda odamlararo yaqinlik o'zaro tanishuv – «tashchilik»dan boshlanib, bir-birini bilish – «bilishchilik»ka bilishchilikdan esa «jo'rachilik»ka, undan keyin aka-ukalar ning yaqinligi darajasidagi «og'aynigarchilik»ka, so'ng esa «do'stlik» darajasiga o'tib, o'zining oliv bosqichiga yuksaladi. Mazkur evolyutsion dinamika mohiyat-e'tiboriga ko'ra iyerarxik, ya'ni pog'onama-pog'ona yuksalish xususiyatiga ega bo'ladi. Turli millatlarda bu jarayon har xil kechadi. Masalan, atoqli yozuvchi, do'stlik tarixi kuychisi Viktor Gyugo fransuzlar do'stligi xususida fikr yuritib, bu xalq vakillarining favqulodda sadoqatliligi va o'z yaqinlarining manfaati yo'lida jonini fido etishga hamisha shay bo'la olishini o'zining mashhur «1783 yil» nomli romanida mahorat bilan tasvirlagan.

Xuddi shuningdek, Jek Londonning «Martin Iden», Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» asarlarida ham do'stlik darajasidagi insoniy yaqinlik lavhalarini ko'plab uchratamiz. Mazkur xalqlardagi do'stlikka sadoqat lavhalari o'zaro teng yoshli, mavqe va martabasi har xil, ammo, maslagi bir odamlar o'rtasida kechadi. Bu xalqlar hayoti bilan badiiy asarlar orqali tanishgan kitobxonlar do'stlikning samimiy qudratiga ishonadilar.

Milliy istiqlol xalqimiz fe'l-atvori, hayotga bo'lgan munosabati, mentalitetini tubdan o'zgartirish, bunyodkorlik, tom ma'nodagi hamjihatlik ruhiga sug'orilgan yaqinlikni ta'minlashga imkon yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarining mazmuni xalqimizni milliy birlik, o'zaro

mehr-oqibatlilik, birodarlik va do'stlikka da'vat etuvchi g'o-yalar majmuidan iboratdir. Istiqlolning o'tgan 25 yili mobaynida amalga oshirilgan ulug'vor buniyodkorlik ishlari ayni vaqtda xalqimiz mentalitetini konsensus sari yo'naltirishga ham munosib tarzda xizmat qilib keldi. O'zbek mentalitetini konsensusga da'vat g'oyasi Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilangan strategik taraqqiyot konsepsiyasining asosi bo'lib, ana shu yo'nalishdagi davlat dasturlarining hayotga joriy etilishi fikrimizning isboti bo'ladi.

Konsensus tushunchasi mushtarak manfaatlar birligini ham taqozo etadi. Manfaatlar mushtarakligi esa korporativ yaqinlikni shakllantirish zaruratinu kun tartibiga chiqaradi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov anglangan korporativ manfaatlar uyg'unligini tarkib toptirish xususida shunday degan edi: «Jamiyat ichidagi alohida shaxslarning uyushqoqlik bilan jipslashishiga ularning qaysi urug'ga, hududga yoki etnik guruhga mansubligi emas, balki umum davlat darajasida korporativ manfaatlarning yaxshi anglangan mushtarakligi asos bo'lishi kerak.

Barcha mintaqalar, barcha etnik va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari o'rtaida muvozanat saqlanishini doimo hisobga olish zarur. Manfaatlarni ifodalash va ro'yobga chiqarishning qonuniy mexanizmi mahalliychilik kayfiyati, urug'-aymoqlar kurashining vujudga kelishi va rivojlanishiga g'ov bo'lmos'i darkor»¹.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat, mohiyat-e'tiboriga ko'ra, yoshlar, o'rta va katta avlod hamda turli millatlarga mansub aholi vakillari o'rtaida konsensus muhitini barqarorlashtirishga yo'naltirilgandir. Konsensus muhitini madaniyat muassasalaridagi har bir to'garak, uyushma, ko'ngilli jamiyatlarda tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir.

¹ Qarang: **Islom Karimov**. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O'zbekiston», 1997. 107–108-betlar.



1. Kompromiss atamasiga ta'rif bering.
2. Konsensus atamasini izohlang.
3. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida kompromiss holati qanday namoyon bo'ladi?
4. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida konsensus holatiga qanday erishiladi?
5. Xalqimiz tarixidagi to'rt asrlik madaniy va siyosiy tanazul davrini izohlang.
6. O'zbekistonda konsensus muhitining qaror topishi qaytarzda kechgan?
7. «Men», «Biz», «Siz» olmoshlarining ijtimoiy-madaniy hujayotda namoyon bo'lishini asoslang.
8. Mavzu bo'yicha bitta keys tayyorlang.
9. O'zaro yakdillikning besh darajasini asoslab bering.



Tayanch so'z va iboralar:

Konsensus, kompromiss, tafakkur, madaniy yakdillik, do'stlik, murosa, kelishuv.

3.18. Havaskorlik ijodiyotining dolzarb masalalari

Mamlakatimizdagи madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan turli yo'nalishdagi havaskorlik ijodiyoti to'garaklari, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi fan va badiiy ijodiyot to'garaklari, mahalla guzarlaridagi turli yo'nalishlar asosidagi klublar va uyushmalarning asosiy maqsadi aholini, avvalo, yoshlarini to'laqonli shaxs sifatida rivojlantirish, o'zini buyuk tarix va madaniyatning munosib vorisi sifatida anglatishdan iboratdir. Agar ta'lim muassasalaridagi to'garak ishtirokchilari aniq bir ijtimoiy qatlam, ya'ni, o'quvchi yoki talabalardan iborat bo'lsa, madaniyat va turli ijtimoiy muassasalardagi to'garaklar turli aholi qatlamlari vakillaridan tashkil topadi. Mamlakatimizda, huquqiy asosi qanday bo'lishidan qat'i nazar, barcha to'garaklar barkamol shaxs tarbiyasiga yo'naltirilganligini e'tiborga olsak,

mazkur to'garaklarga aholini, xususan, yoshlarni jalb etishning o'ziga xosligini tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Fa'kidlash joizki, hozirgi vaqtida to'garaklar holati va ularga aholini jalb etish ishlari davlatimizning to'laqonli shaxsni rivojlantirishdan iborat keng ko'lamli faoliyatida hali talab dorasiga chiqsa olmagan jihatlardan hisoblanib kelmoqda.

Madaniyat va ta'lif muassasalaridagi to'garaklarga qizi-quvchilarining jalb etilishi xaotik holatda bo'lib, muayyan tizimga keltirilmagan. Ularning ishi ilmiy asoslarda tartibga solinmagan. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ishtirokchilar to'garaklarga, asosan, ota-onalarining ta'siri (38 foiz), yaqin tanishlari (do'stlari, dugonalari) da'vatlari (32 foiz), o'z ixtiyori (24 foiz), o'qituvchilar tavsiyasi (4 foiz) va boshqa sabablar asosida (2 foiz) jalb etilganlar. Ma'lumki, odamning muayyan ijodiyot bilan mashg'ulligi kuchli ichki rag'bat, maqsad va qiziqish asosida yuzaga keladi. Agar to'garaklarga o'z ixtiyori bilan ishtirok etuvchilar soni har to'rt kishidan birini tashkil etsa, to'garaklarning tarqalib ketishi ham shunga mos bo'lishi mantiqiy holdir.

To'garaklarning barqaror ishslashini ta'minlaydigan asosiy omillar quyidagilardir:

- to'garak rahbarining odamlarni ijodiyotga jalb eta olish salohiyati va xarizmatik shaxs ekanligi;
- to'garak tashkil etilgan joyning geografik joylashuvi, ya'ni yaqinligi;
- transport jihatdan qulayligi;
- bino va to'garak xonasining shinamligi, xona ob-havosi ning yaxshiligi;
- to'garak ishini izchil olib borish uchun zarur jihozlar, texnik vositalar bilan ta'minlanganligi;
- to'garak a'zolari tarkibida kamida to'rtta referent guruhlar mavjudligi;
- to'garak a'zolari o'z ishlarining pirovard natijasini aniq tasavvur etishlari;
- to'garakda qatnashish boshqa sohalarda obro' olishga imkoniyat yaratayotgani (masalan oilada, ishda, o'qishda, do'stlar davrasida);

- to'garak a'zosi guruhda o'ziga ma'qul bo'lган bir yoki ikkita hamfikr topa olishi;
 - mashg'ulot paytida ishtirokchilar yo'l qo'yilgan kam-chilik, ijrodagi nuqsonlar uchun shaxsiyatga teguvchi tanqid eshitmasligi;
 - mashg'ulotlar tashkil etishda aniqlik, intizom bo'lishi, to'garak a'zolari o'rtasida samimiylilik hamda rostgo'ylik ruhining hukm surishi;
 - odamlarning bir-birlariga yordam berishdan zavqlanish holatining tarkib toptirilgani;
 - madaniyat yoki ta'lim muassasalarida bir xil yo'nali shidagi ikki yoki uchta to'garak bo'lishi va ular o'rtasida sog'lom raqobatning (go'yo o'z-o'zidan) yuzaga keltirilishi;
- Madaniyat va ta'lim muassasasi rahbarining to'garaklar ishiga bevosita qiziqishi, to'garak ishtirokchilari oldida ularning sevimli to'garak rahbarini hurmat qilishini bildirib turishi;
- to'garak ishi natijalarining uzog'i bilan ikki oyda jamoatchilik e'tiboriga havola etilishi (ko'rgazmalar, bahs-munaralar, disputlar, qiyosiy tahlillar, tanlovlар va hokazo shakllarda);
 - to'garak rahbari tomonidan har bir ishtirokchiga uning hali yuzaga chiqmagan, endigma namoyon bo'layotgan fav-qulodda iste'dodi borligini individual suhbatlar orqali anglatish va shunga ishontirish;
 - ikki oydan so'ng to'garak ishtirok etuvchini bilim, malaqa, kasb xususiyatini oluvchilikdan – bilim, kasbiy mahorat elementlarini o'rgatuvchiga, beruvchiga aylantira olishi; Agar shu xususiyatni, ya'ni, to'garak ishtirokchisining bilimi ni iste'mol etuvchidan – bilimni taklif etuvchiga aylantirishga qancha qisqa vaqtida erishilsa, to'garak faoliyati shuncha barqaror bo'ladi. Masalan, 4–6 yoshdagi bolalar o'rtasida shaxmat to'garagini tashkil etgansiz, bir oy o'tgandan so'ng to'garakning bitta a'zosi kam shug'ullangan ikkinchi bu a'zosiga «ruh» yoki «ot»ning qanday yurishini o'rgata boshlasa, bilingki, marra sizniki, siz to'g'ri yo'ldan boryapsiz.

Amaldagi tajribaga ko'ra, muayyan bir madaniyat muassasi, mahalla guzari, kollej yoki maktabda biror yo'nalishdagi to'garak ish boshlasa, u haqda ma'lumot odamlar orasida tez tarqalmaydi. Mazkur holatni yaxshilash uchun mahalliy gazeta, radio, e'lонlar, plakatlar vositasida dastavval keng targ'ib etish zarur. Ikkinchi muhim muammo – bu biror to'garakda ishtirok etgan bolaning shu to'garakni bir amallab tugatib bo'lgach boshqa ijodiyot turiga umuman bormay qo'yishidir. Bunday holatlar kundalik hayotda tez-tez takrorlanib turadi. Buning boisini inson tabiatidagi muhim o'ziga xoslik, ya'ni biror sohada o'zini to'la namoyon eta olmaslik odamning ijtimoiy jihatdan susayishiga olib kelishi qonuniyatidan izlash lozimdir. Agar e'tibor qilinsa, a'lochi o'quvchi fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish asnosida o'zligini to'la namoyon eta olganligi sababli boshqa sohalarda ham, masalan, jamoatchilik ishida ham, badiiy ijodiyotda ham, sportda ham faol ishtirok etadi va birinchilardan bo'lishga intiladi. Shu boisdan ham biror bir to'garak ishiga ilk daf'a rag'bat qilib qatnasha boshlagan shaxsni (u yosh bola bo'ladimi, katta avlod vakilimi – qat'i nazar) alohida e'tiborga olish, qiziqishi asosida o'zlashtira boshlagan ishida muvaffaqiyat qazonishiga ko'maklashish, ya'ni o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi ga imkon berish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur holat sotsiologiya fanida ekstrapolyatsiya hodisasi sifatida izohlanadi. Ekstrapolyatsiya muayyan natijani boshqa makon yoki sohaga ko'chirib qo'llash deb tarjima qilinadi. To'garakda qatnashgan odam ham shug'ullanish mobaynida birinchilar qatoriga ko'tarilib, odamlarning e'tirofiga sazovor bo'lsa, u boshqa sohada ham ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lishga intiladi. Xullas, bir marta birinchi bo'lib e'tirof etilgan shaxs hech qachon ikkinchi bo'lib yurishni o'ziga ma'qul ko'rmaydigan bo'lib qoladi.

Shu boisdan ham Birinchi Prezidentimiz tomonidan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da asoslاب berilgan milliy ta'lim modelining beshta elementi qatorida shaxs omili birinchi o'ringa qo'yilgani bejiz emasdир. Demak, ta'lim omili insonning hayotda o'zini qanday ijtimoiy maqomda his etishi,

o'zini o'zi baholash darajasini belgilashda favqulodda muhim rol o'ynaydi. To'garaklar ishini tashkil etishda ham barkamol insonni shakllantirish, shaxsni tarbiyalashdek muhim ijti moiy vazifa bajarilayotganini chuqur anglash zarurdir.

To'garak ishini tashkil etishda qanday toifadagi odamlar bilan ish boshlanayotganiga alohida e'tibor berish zarur. To'garak ishining muvaffaqiyati mashg'ulotlarning o'tkazilish vaqt, joyning qulayligi, muloqot madaniyatiga ham bog'liqdir. Aksariyat odamlar, ba'zi to'garaklar, klub va ko'ngilli uyushmalarga boshqa joyda bo'lмаган imkoniyatlarga egaligi uchun ham boradilar. O'tkazilgan tad-qiqot natijalariga ko'ra, har uchtadan bir o'quvchi o'zi sevgan to'garakdagi mashg'ulotning yaqin do'stlari davrasida o'tkazilishini, 25 foiz ishtirokchilar esa rahbar va to'garak a'zolarining samimiyligi va xushmuomalaligini, 16 foiz respondentlar esa bilim olish jarayoni faqat rag'batlantirish orqali kechishini, 15 foiz bolalar to'garak mashg'ulotlarida o'zlarini erkin his etishlarini, 13 foiz so'rovda ishtirok etg'anlar esa turli sohadagi ma'lumotlarni tez va qulay olish imkoniyatlari borligini qayd etishgan.


To'garaklar faoliyatining samarali kechishida to'garak a'zolarining soni ham muhim rol o'ynaydi. Agar to'garak a'zolari soni 15 kishidan oshmasa bu to'garakda ko'pi bilan oltita bir-birini yaxshi biladigan referent guruhlar shakllanib, jamoada sog'lom raqobat va sohani o'zlashtirish jarayoni samarali kechadi. To'garak a'zolarining soni 20–25 kishi bo'lsa, qatnashchilarning referent guruhlarda uyushuvlari amorf tarzda bo'lib, sog'lom raqobatni barcha kichik guruhlarda barobar olib borish qiyin kechadi, natijada, muayyan kasb, bilimlar yoki sohani o'zlashtirish samaradorligi pasayadi. To'garaklarda ishtirok etuvchilarning yosh senzlarini hisobga olishda ularning quyidagi o'ziga xosliklarni puxta o'ylash zarurdir. O'quv-uslubiy qo'llanmalarda qayd etilishicha:

– 11 yoshgacha bo'lgan bolalarda mustaqil harakat qilishga intilish, faoliyatga to'liq berilish kuchli bo'ladi. Ayni vaqtida ular o'z ishlari natijalariga tanqidiy yondashishni xohlaydilar.

– 12–13 yoshli bolalar esa o‘z ishlariga tanqidiy yonda-shishga moyil bo‘ladilar. Ammo, ish natijalarini obyektiv tahlil qila olmaydilar. Shu boisdan boshqalardan namuna olishga, taqlid qilishga moyil bo‘ladilar.

– 13 yoshdan yuqori bo‘lgan bolalarda esa abstrakt tafakkur qilish, o‘z dunyoqarashini namoyish etish, milliy o‘ziga xoslikni ro‘yobga chiqarish xohishi kuchli bo‘ladi. Ayni shu yoshda yoshlikka xos bo‘lgan maksimalizm yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi. Bunday yoshdagagi to‘garak a‘zolari fikr-qarashlarini keskin tanqid qilish, mustaqil mulohaza yuritish xohishlarini bo‘g‘ib qo‘yish ularning to‘garak ishidan bezib qolishiga olib keladi.

Havaskorlik to‘garaklarida qiziqishning ehtiyojga aylanish omillari





1. Havaskorlik ijodiyotiga umumiy ta’rif bering.
2. To’garaklarga aholini jalb etish tamoyillarini izohlang.
3. To’garaklarning barqaror ishlashi mezonlarini ko’rsating.
4. To’garak rahbarining kasbiy xususiyatlari qanday bo’lishi kerak?
5. To’garaklarni reklama qilish tartibi qanday bo’ladi?
6. Ekstrapolyatsiya tushunchasini ta’riflab bering.
7. Turli yoshdagi odamlarning to’garaklarga qiziqishini qanday rivojlantirish mumkin?
8. Qiziqishni ehtiyoja aylantirish xususiyatini izohlang.
9. To’garaklarda ideal shaxs va ibrat omilining rolini izohlang.
10. Mavzu bo‘yicha beshta keys tayyorlang.

3.19. Vorisiylik va ma’naviyat uyg‘unligi

Vorisiylik ma’naviyatning o’q ildizi, asosiy tayanchi, ajdodlarimizning bebaho merosidir. Biz – ziyolilarning asosiy vazifasi ana shu purma’no tushunchalar mazmun-mohiyatini yosh avlod ongiga singdirish hamda ularning hayotiy dasturulamaliga aylantirishdan iboratdir.

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining vorisiylik masalasiga madaniy taraqqiyotning ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi ustuvor omil hamda komil inson ma’naviyatini belgilovchi bosh mezon sifatida urg‘u bergani, jamoatchilik e’tiborini mazkur masalaga muntazam qaratib kelayotgani bejiz emas.

Darhaqiqat, «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida aytilganidek, ma’naviyat komil shaxs intellektual va ruhiy olamining harakatlantiruvchi kuchi bo’lsa, tarixiy xotiraga egalik, ajdodlar merosini o’zlashtirganlik, ya’ni, bir so’z bilan aytganda, vorisiylik ma’naviyatning mustahkam poydevoridir. Demak, komillikning asosi ma’naviyat bo’lsa, ma’naviyat oziq oladigan, tayanadigan bosh manba vorisiylik hisoblanadi. «Ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning

pirovard maqsadi, – deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz, – imon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komilinsonni tarbiyalashdan iborat».

Shunday ekan, vorisiylik xalq madaniyati, milliy merosi va ma'naviyatining qalbi, harakatlantiruvchi kuchi, ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi ko'priki, kecha va bugun o'rtasidagi dialektik uyg'unlikdir. Dunyo xalqlari ming yillar mobaynida o'z an'ana va urf-odatlari, marosim va bayramlariga sodiq qolish, uni har qanday ta'sir va tazyiqlardan himoyalash orqali turli davrlar, ajdodlar o'rtasidagi ma'naviy yakdillikni ta'milaganlar hamda milliy o'zlikni, mentalitetni saqlab kelganlar.

Vorisiylik tushunchasi o'z tarkibiga muayyan millatlarga xos bo'lgan tarixiy shakllanish bosqichlari – til, madaniyat, san'at, urf-odatlari, buyuk shaxslar merosi, milliy mentalitet, temperament, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish hamda turmush tarzidagi o'ziga xoslikni saqlash, o'zlashtirish, o'sib kelayotgan avlodga singdirish va targ'ib etish elementlarini qamrab oladi.

Vorisiylik an'anlarini yoshlarning hayot tarziga aylantirish, ongi va tafakkuriga singdirishda katta avlodning o'rni va roli beqiyosdir.

Ko'pincha katta yoshli odamlar orasida tarbiyaviy ishlarni yanada jlonlantirish, yoshlarga hayot tajribalarini o'rgatib borish zarurligi xususidagi fikrlar o'rtaga tashlanadi. Katta avlod va yoshlar o'rtasida dunyonи anglash, hayotga bo'lgan munosabat masalasida ikki xil yondashuv shakllanib qolayotganligi muammosi babs qilinadi. Bu masala ayniqsa G'arb dunyosida juda dolzarb bo'lib, yoshlar va kattalar bir-biridan ma'naviy jihatdan begonalashib qolayotganligi, bir xalq turmush tarzida ikki xil yondashuv, ikki xil talqin, bir-birini inkor etuvchi, mohiyatan qarama-qarshi ikki madaniy ehtiyojlar asosida yashash odatiy holga aylanayotgani jiddiy muammodir. Buning tub ildizlarida ikki katta ijtimoiy asos, ya'ni, bir tomonidan, ommaga ko'rsatilayotgan ommaviy-

mafkuraviy ta'sirning davlat va jamoatchilik nazoratidan tamoman chetda ekani, ommaviy axborot vositalari, televi-denije, reklama va ayniqsa Internet orqali axloqiy buzuqlik, kosmopolitizm, gedonizm, ma'naviy tubanlik ijtimoiy maqbul hayotiy pozitsiya sifatida keng targ'ib etilayotgan bo'lsa, ikkinchi jihat esa ko'pgina rivojlangan davlatlarda kattalar va yoshlar ma'naviyati o'rtaida ming yillik vorisilik an'analarining barham topib borayotganidir.

Buning natijasida, kattalarning yoshlarga, o'z farzandlariiga aytadigan gaplari, nasihat va o'gitlari besamar bo'lib, hech qanday tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lmay qolmoqda. Eng yomoni – Internet va televidenije orqali ko'rsatilayotgan mafkuraviy ta'sir natijasida yoshlar nafaqat jamiyatning an'ana va odatlaridan, balki, qonunlar asosida yashashdan ham chetlanib, ulardan hayiqmaslik, qoidalarni buzish, kattalar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy turmush tarziga begona ko'z bilan qarash, vayron etishga moyililik xususiyatiga ega bo'lib qolmoqdalar. Bunday ijtimoiy zararli holatlar o'z mohiyatiga ko'ra, vayronkor tabiatga ega bo'lib, bir qarashda sokin va barqaror turmush tarziga ega bo'lgan an'anaviy jamiyatlarni ham, yuksak rivojlangan yirik va qudratli davlatlar osoyishtaligini ham buzib yuborishga qodir kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Misol uchun Misr, Liviya, Jazoir, Tunis, Suriya va boshqa arab davlatlarida bir qarashda kutilmaganda yuz bergen fuqarolik, qavmlararo urushlar va yalpi ijtimoiy noroziliklar, Angliya, Fransiyadu yuz berayotgan yoshlar to'polonlari ocharchilik yoki siyosiy qarama-qarshiliklar sababli emas, balki, aynan bir millat, bir madaniyat, bir turmush tarzi ichidagi ijtimoiy bo'linish, hayotga bo'lgan ikki xil yondashuv shakllanib qolganligi, didlar, saviyalar, ijtimoiy mo'ljallarning har xil bo'lib qolganligidandir. Asosiy muammo bir millat ichidagi vorisilik an'analarining uzilganligi, yoshlar kattalarni tushunishni mutlaqo istamayotgani, yoshlarni esa kattalar tushunolmay qolganida deyishga haqlimiz.

Vorisilik an'analarini buzilsa, har qanday jamiyat ham ichdan nuray boshlaydi. Kattalar va yoshlar dunyoqarashi

o'rtaida ijtimoiy bog'liqlik darjasini yuqori bo'lsa, ya'ni kon-sensus holatida bo'lsa, jamiyatdagi hayot tarzi tinch, osuda va maromiy kechadi. Agar kattalar va yoshlarning siyosi, madaniy, axloqiy va moddiy qarashlari o'rtaida farq katta bo'lib, odamlararo ijtimoiy bog'liqlik zaif bo'lsa, ya'ni kom-promiss holati shakllangan bo'lsa, jamiyat o'zaro qarama-qarshiliklar, konfliktlar arafasida bo'ladi. Agar jamiyatdagi ana shu zaif bog'liqlik, ya'ni kompromiss holati ham buzilsa, jamiyatda ijtimoiy zo'riqishlar kuchayadi, konfliktlar yuz bera boshlaydi. Shu boisdan ham hozirgi paytda dunyoning ko'pgina davlatlarida yuz berayotgan janjal-to'polonlar sabab-larini aholining turli tabaqalari, kattalar va yoshlar o'rtaida vorisiylikning buzilganligi, bir millat vakillari ichida o'zaro tushunish holatining barham topayotgani, dunyoqarashlar, didlar, saviyalarning turlicha bo'lib shakllanib qolganidan izaflash joizdir.

Sho'rolar davrida milliy o'zlik bardavomligini to'xtatish uchun vorisiylik an'analariga qarshi keng ko'lamli hamda tizimli tarzda kurash olib borildi. Dastavval, millatni o'z madaniy tarixi, milliy merosidan ajratish uchun ikki marta alifbo o'zgartirildi. Keyin, an'anaviy maktab ta'limi zamona-viy ta'limga o'zgartirilib, xotirani mustahkamlash, yodlash orqali o'zlashtirishdan tushuntirish, bahs-munozara uyush-tirish orqali o'zlashtirish tizimiga o'tkazildi. Ming yillar mobaynida yaratilgan ilmiy, badiiy, ijtimoiy manbalar, kitob-lar, qo'lyozmalar o'z davrini o'tab bo'lib eskirgan, ijtimoiy qimmati yo'qotilgan manbalar sifatida targ'ib etildi va bu zararli qarash odamlar ongiga singdirildi.

Sho'rolar davridagi madaniy jarayonlarda ta'limda eng avvalo jarayon, keyin natija degan tamoyil – formula asosidagi o'ziga xos mashg'ulotlar mexanizmi ishlay boshladи. To'garaklarda yoshlarning mashg'ulotlarga qatnashishlari qattiq nazorat etilar, dars o'tish tartibotiga rioxan qilinar, soat-lar hajmi reja bo'yicha bajarilar, ammo mashg'ulotning nati-jasi, ya'ni qatnashchilar tomonidan kasb-hunarni o'zlashtiri-lish holati qoniqarsiz bo'lib qolaverar edi. Bir so'z bilan ayt-

ganda, ish sifati hech kimni qiziqtirmas edi. Qatnashchi larning e'tibori bilim olishga emas, ko'proq to'garak ishiga mashg'ulligining tashqi jihatiga qaratib kelindi, ya'ni to'garak qatnashchisining hunarni chuqur o'zlashtirishi emas, balki uning mashg'ulot jarayonlarida ishtirot etishiga ko'proq urg'u berildi. O'sha paytlarda to'garak a'zosiga «to'garakni keldimi?», «kech qolmadimi?», «qo'l ko'tardimi?», «tinch o'tirdimi?» degan savollarga javob orqali baho berilar edi.

To'garak qatnashchisidan ota-onalari ham «bugun nim o'r ganib kelding?», «qanday bilimlarni o'zlashtirding?», «ni malarga qiziqishing kuchaydi?» degan savollarni emas, balki, «to'garakda to'polon qilmadingmi?», «mashg'ulotga kechik may boardingmi?», «qorning och qolmadimi?» qabilidagi savollar berishni odat qilishgan edi.

To'garaklar qatnashchisining ajdodlar merosini bilishi, mustaqil ishlay olish qobiliyati, fan nazariyalarini o'zlash tirganligi, bilgan narsalarini amaliyotda qo'llay olish olmas ligi, hayot bilan bilim uyg'unligi, kashfiyotlar qilish qobiliyati, yangiliklar yaratish imkoniyati umuman hech kimni qiziqtirmas edi. Bu esa madaniyat muassasalarini yuqori idoralar ol dida hisobot berishga moslashgan ishlab chiqarish idorasiga aylantirib qo'yan edi. Bunday yondashuv o'z-o'zidan madaniyat muassasalaridagi to'garak ishlari sifatining susayib ket shiga olib keldi. Misol uchun, o'n yillar mobaynida chet tilini o'r ganish uchun yoshlarga muntazam tarzda mashg'ulotlar o'tib kelingan bo'lishiga qaramay, chet til to'garaklarida shug'ullanganlar so'zlarni qo'shib jumлага aylantira olmay kel ganlar. Sho'rolarning «hamma narsaga ishonmay qara, shubhalar» degan yondashuvi yoshlarda ajdodlar tomonidan yaratil gan ma'naviy merosga ham ishonmay qarash odatlarini tarkib toptirdi. Natijada, ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik rishtalari uzila boshladi. Millatning ma'naviy o'zligini asrovchi vorisiylik ko'prigi buzildi.

Binobarin, an'ana va urf-odatlar, turmush tarzi millat o'zligining minoralari va binolari bo'lsa, vorisiylik millatning bor bisoti, ma'naviyatini qo'riqlovchi asosiy qo'rg'onidir.

Hozirgi paytda dunyo xalqlarining aksariyatida milliy xarakter o'zgarishi, mentalitet transformatsiyasi yuz bermoqda. Ayniqsa, millat o'zligining asosiy o'q ildizi, «sterjen»i bo'lgan vatanparvarlik, siyosiy e'tiqod fazilatlari jiddiy talafot ko'rmoqda. Xususan, hozirgi paytda Rossiya maktablarida maqsadli shakllantirilayotgan 12 ta ijtimoiy fazilatlar qatorida vatanparvarlik fazilati jamiyatdagi juda past, ya'ni ahamiyatiga ko'ra 10-o'ringa tushib ketganligi xususida ommaviy axborot vositalarida yozilmoqda. Xuddi shunday holat AQSH, Fransiya, Belgiya, Italiya va boshqa davlatlarda ham yuz berayotganligi xorijiy siyosatshunos va sotsiolog olimlar tomonidan qayd etilmoqda. Eng tashvishlanarlisi – vijdon, oriyat, to'g'rilik singari insoniy jihatlar shaxsning jamiyatda adaptatsiya bo'lishi, ya'ni, muvaffaqiyatli moslashib, hayotga kirishib ketishi uchun yordam beruvchi fazilatlar sifatida emas, balki halal beruvchi xislatlar sifatida baholanmoqda.

Jamiyatda jamoaviy va insoniy fazilatlar o'rniga egoistik xislatlarning mustahkam o'rin olishi, tabiiyki, shu mamlakatlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit o'zgarishlariga olib keladi. Jamiyatdagi yomonlashgan ijtimoiy-madaniy muhitning davlat siyosati va amaldagi qonunlarga rioxha etish tartiblariga zid kelishi shu mamlakatda ommaviy noroziliklar yuzaga keli shiga yo'l ochadi. Bunday holatdan, tabiiyki, davlatni egalash payida bo'lgan norozi kuchlar foydalanib qolishga urina boshlaydilar.

Hozirgi paytda dunyoning turli joylarida yuz berayotgan ijtimoiy tartibsizliklar, hokimiyat uchun talashish va konfliktlarning tub ildizlari aynan ana shunday vayronkor g'oyalardan kuch olmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ma'naviy omillarning nafaqat jamiyatni barqarorlashtirish va yuksaltirish, balki unga yetarli e'tibor bermaslik jamiyatni tanazzulga yetaklashi, davlat tartibotlarining ichdan nurab ketishiga ham sabab bo'lishi xususida takror-takror aytilgani bejiz emas.

«...Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, – deydi Birinchi Prezidentimiz, – dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni quolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'l mish milliy qadriyatları, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi»¹.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston yoshłari orasida vorisilik hodisasiga munosabatda oila, mahalla, jamoatchilik va davlat muassasalarining pozitiv ta'siri ustuvor mavqega ega dir. Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish – «Ijtimoiy fikr» markazi tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra, hayotiy pozitsiyani belgilovchi, inson ma'naviyatiga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan omillar qatoriga yoshlar, dastavval, oila, ta'lim muassasalari, televideniyeni qayd etganliklari e'tiborga loyiqidir. «Oila muhitida kimning fikri qaror chiqarish uchun asos bo'ladi?» degan sa volga 76 foizdan ko'proq yoshlar ota-onalari, bobo-buvilar, undan keyin opa va akalarning fikrlari, deb javob berishgan. Shu o'rinda qayd etish joizki, voyaga yetmagan o'smir yoshlar biror bir voqeа yuzasidan shaxsiy xulosaga kelishlari va muayyan xatti-harakatlarni sodir etishga turki berishi mumkin bo'lgan omillar qatoriga o'z tengdoshlarini, televideniye, maktabdagи do'stlari davrasini, maktab va kollejdagi jamoatchilik fikrini ham qayd etgan. Bunday javoblar vorislik an'analarining mustahkam, barqaror va bardavom bo'lishini ta'minlash uchun o'smir yoshlar ongiga Internet va xorij televideniyesi kuchli ta'sir etayotganligini e'tibordan soqit etmaslik, tarbiyaviy ishlarda ogohlik va hushyorlikni qo'ldan bermaslikka chaqiradi.

Vorisiylikning quvvati ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan noyob ma'naviy merosni nechog'li o'zlashtirganliklariga bevosita bog'liqdir. Yurtboshimiz talim va tarbiya sohalari uchun mutasaddi tashkilotlar va har bir vatandoshimiz

¹ **Islam Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2015, 11-bet.

e'tiborini mazkur masalaga maxsus qaratib shunday degan edi: «Ulug' ajdodlarimizning jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga qo'shgan buyuk hissasini yoshlarimiz biladimi? Albatta, biladi. Ammo, afsuski, aksariyat hollarda umumiyligi yuzaki tarzda biladi». Darhaqiqat, vorisiylik hodisasining barqarorligi ajdodlarimiz ma'naviy merosiga to'liq egalik bilan bevosita bog'liqligini e'tiborga oладigan bo'lsak, masalaning nechog'li dolzarbliyi yanada oydinlashadi.

Vorisiylik an'analarini yoshlar ongiga samarali singdirish uchun quyidagilarni tizimli tarzda amalga oshirish zarurdir:

- xalqimizning asriy an'analarini ijobiy mohiyatga egaligini dastavval oila muhitida tarkib toptirish, buning uchun esa ota-onalar, bobo-buvilarning farzandlar bilan bo'ladigan kundalik muloqot vaqtlanini ko'paytirishga e'tibor qaratish;

- madaniyat muassasalaridagi to'garak mashg'ulotlari paytida bilim va tarbiya uyg'unligiga erishish, pedagoglar va jamoatchilik tomonidan yoshlarning Internet tizimidagi muloqotlari mazmunini jiddiy nazoratga olish, ularni vayronkor g'oyalarni targ'ib etuvchi xorijiy saytlar ta'siridan nazorat qilish;

- madaniyat va aholi dam olish markazlarida turli yosh vakillari ishtirokida adabiyot, san'at, fan va madaniyat sohalarida madaniy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazib borish;

- ajdodlar merosini e'zozlash, xalqimiz ma'naviy merosini to'liq o'zlashtirish maqsadida turli xil tanlovlardan, viktorinalardan, sog'lom raqobat asosidagi musobaqalarni tizimli tarzda tashkil etish;

- vorisiylik va ma'naviyat uyg'unligi mavzuida olimlar, yozuvchi va shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlarni doimiy va rejali tartibda o'tkazish hamda bu uchrashuvlarni ommaviy shakldan ko'ra guruhi tarzida tashkil etib borish;

- madaniyat va aholi dam olish markazlarida ulug' ajdodlar merosini samarali o'zlashtirish uchun yoshlar tomonidan o'zlashtirishlari zarur bo'lgan badiiy, ilmiy va ma'rifiy-tarbi-

¹ **Islam Karimov.** Asarlar, 17-tom. – T.: 140-bet.

yavyi adabiyotlar minimumini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

G'arb yoshlaringin dunyoqarashi ularning ota-onalarini ko'rmagan, bilmagan dunyo muhitida shakllanmoqda. Ularning aksariyati o'z ajdodlari yaratgan ma'naviy muhit, madaniy meros, an'analar doirasida emas, balki yoshlarning o'zlari tomonidan yaratilayotgan madaniyat va san'atning yengil va sayoz namunalari asosida tarbiyalanmoqda. Hozirgi zamon Yevropa yoshlaringin ijtimoiy-estetik, siyosiy va iqtisodiy mo'ljallari bugungi kun ehtiyojlarini qondirish, hozirda yashab qolish, hayotdan imkon darajasida ko'proq lazzat olishga qaratilgan. Bunday yondashuv o'z navbatida ajdodlar merosi, an'analariga sodiqlik, Vatanga muhabbat, ma'naviyat va ma'rifatga intilish harakatini chetga surib qo'ymoqda.

Shukurlar bo'lsinki, mamlakatimizda ma'naviyat omiliga ustuvor ahamiyat berib kelinganligi milliy o'zligimizni tiklash, o'zlikni tom ma'noda qaytadan kashf etish imkonini berdi.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, vorisiylik tamoyili orqali ma'naviyatning hayotbaxsh kuchi bilan qurollantirilgan bugungi avlod hech kimdan kam bo'lмаган millatga aylangani, rivojlangan davlatlar qatoriga kirib, buyuk kelajakka yuzlanadigan millat sifatida murakkab sinovlardan zafar bilan o'tmoqda.

Tabiiyki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish jarayonida odamlar ongida, jamiyat mafkurasida tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Biroq ba'zi birovlarining hadiksirab, erkin bozor sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning qimmati tushib ketadi, madaniyat ikkinchi darajali narsaga aylanib qoladi, degan xavotirlari o'rinsiz ekani O'zbekistondagi bugungi o'zgarishlar misolida yana bir bor yaqqol ayon bo'lmoqda¹.

O'zbekistonda istiqlolning ilk yillaridan boshlab, davlat va jamiyat manfaatlari birligi, moddiy va ma'naviy omil-

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2015, 109-bet.

lar uyg'unligini ta'minlash, kattalar va yoshlар dunyoqarashi o'rtasida mustahkam bog'liqlikni tarkib toptirish, tom ma'noda vorisiylikka erishish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirildi. Natijada, xalqimiz bugungi kun osudaligi, omonligidan xotirjam, ertangi kunga ishonch ruhi bilan umrini bezashga, yaratuvchanlik, buniyodkorlik rejalarini amalga oshirish zavqidan masrur kayfiyatda dorilomon hayat makanini va zamonida yashash baxtiga muyassar bo'ldi.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Vorisiylik hodisasining mazmun-mohiyatini ochib bering.
2. Ma'naviyatga vorisiylik qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. G'arb dunyosida vorisiylikning holati qanday?
4. Madaniy jarayonlarda vorisiylikning o'rni va roli qanday namoyon bo'ladi?
5. Katta avlod vakillarining vorisiylikni ta'minlashdagi roli qanday?
6. Oilada vorisiylik qanday tashkil etiladi?
7. Mavzu bo'yicha ikkita keys tayyorlang.



Tayanch so'z va iboralar:

Vorisiylik, katta avlod, ajdodlar merosi, ma'naviy meros, bisot.

3.20. Oila va ijtimoiy-madaniy faoliyat

Dunyoda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar, xoh u iqtisodiyotda, xoh ma'naviy-siyosiy sohalarda bo'lmasin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi. So'nggi yillarda iqtisodiyotda globallashuv jarayonlarining faollashuvi, ma'naviyat va axloqiy tarbiyada G'arb ma'naviyatiga xos bo'lgan individualizmning kuchayishi hayotimizning barcha jahbalariga va ayniqsa oila muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, oila barcha islohotlar, o'zgarishlar, tanazzul va taraqqiyotlarning ibtidosi va intihosi hisoblanadi.

Shu boisdan ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo

ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'lllab-quvvatlash bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqdar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor»¹, deya alohida qayd etgani beziz emas.

Oila omilining mustahkamlanishi, bir tomondan, oilaga davlat va jamiyat e'tiborining kuchayishiga bog'liq bo'lshikkinchi jihatdan, oilaning subyektiv, ya'ni, ichki imkoniyatlarni to'laroq yuzaga chiqarish bilan bog'liqdir. Oilaning ichki imkoniyatlari deganda oila tarkibi, oila a'zolarining ijtimoiy mo'ljallari, o'z oldilariga qo'yayotgan maqsadlari, farzandlar tarbiyasi, ta'lim, shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy tarbiya, mehr, sadoqat, sabr, muhabbat omillarining oila muhitida amal qilishi tushuniladi.

Mamlakatimizning ertangi porloq istiqbolini ta'minlashda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oila omiliga ham katta e'tibor qaratilayotgani barcha sohalarda amalgamoshirilayotgan islohotlarning sifat va samaradorlik bosqichiga kirganligi bilan izohlanadi. Shunday ekan, oila muhitida mamlakatimizning umumiy rivojlanishiga munosib hissa qo'sha olishga qobil va tayyor shaxslarni shakllantirish uchun birinchi galda nimalar qilishimiz lozim, qaysi jihatlarni rivojlantirishimiz va qaysi jihatlarni takomillashtirish uchun jiddiy e'tiborda tutishimiz zarur?

Dastavval, o'sib kelayotgan yosh avlod ongi, shuuri, manaviyatida Vatan tuyg'usini mustahkam qaror toptirish ishi xalqimiz uchun taqdiriy vazifa sanaladi. Zero, oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik Vatan tuyg'usining debochalaridir. Oilaga samimiyy sadoqat, ota-onal hurmati yo'q joyda esa, na qarindoshlarga, na mahallaga va na Vatanga muhabbat tarkib topadi. Shu boisdan ham, bu masalaning huquqiy asoslari mamlakatimiz Konstitusiyasining 66-moddasida «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar», deb maxsus qayd etiladi.

¹ 1998-yil – Oila yili. – T.: «O'zbekiston», 10-bet.

Shu o'rinda aytish joizki, dunyo konstitusiyalarining bিortasida ham bunday mazmundagi huquqiy norma alohida ajratib ko'rsatilmagan bo'lib, masalaning bu tarzda qo'yilishi O'zbekistonda ota-on va farzand munosabatlari umum davlat darajasidagi favqulodda muhim masala ekanidan dalolatdir.

Oila mustaqil ijtimoiy institut bo'lib shakllanganidan boshlab, to istiqlol davrimizgacha ko'p qirrali va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Har bir tarixiy davrda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari xilma-xil mazmun bilan boyib bordi hamda oila davrning chigalli sinovlaridan omon o'tib, jamiyatning negizi sifatidagi xususiyatini saqlab qoldi. Oilaning suqarolik jamiyatidagi muhim ijtimoiy institut sifatidagi o'rni xususida mutafakkirlarimiz ibratli nuqtayi nazarlar bayon etishgan.

Xususan bu borada, ya'ni oila va oilaviy tarbiyaga oid sikrlar Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Mineralogiya», «Geodeziya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Abu Ali ibn Sinoning «Axloq fani», «Oila xo'jaligi», Alisher Navoiyning «Hayrat-ul abror» va «Mahbub-ul qulub» asarlarida o'z ifodasini topgan.

Ayniqsa, XX asr boshlaridagi milliy ozodlik kurashchilari bo'lgan jadidlar oila instituti orqali jamiyatni isloh qilish uchun astoydil kirishganlar. Xususan, jadidlar harakatining yirik nazariyotchisi professor Abdurauf Fitrat o'zi yashagan davr hayotning barcha sohalari chuqur inqirozga yuz tutgani, xonliklarning ayanchli ahvoli, ularning umumjahon jarayonlaridan ancha orqada qolgani, ma'naviy qashshoqlanish yuz bergani haqida kuyinib yozadi.

Fitrat «Oila» asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. «Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham

¹ **Abdurauf Fitrat.** Oila. –T.: «Ma'naviyat», 1998, 8-bet.

shuncha kuchli va tartibli bo'ladi»¹, deb yozadi u mazkur asarda.

Fitrat o'z fikrini davom ettirib, «Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shundu bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi»¹, deydi bashorat qiladi.

Muallif oilaviy hayot o'z qonun va qoidalariga ega ekani ni, bu qonunlarga rioya qilish orqaligina odamlarni jaholat-dan qutqarish mumkinligini bayon etadi.

Darhaqiqat, oila institutining barqarorligi jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. G'arb olimlari tad-qiqotlarida oilaning inqirozi xususidagi nuqtayi nazarlar keng bayon etilmoqda. Xususan, 1959-yilda «Boston Kuarterli Revyu» jurnali shunday deb yozgan edi: «Eski ma'nodagi oila hayotimizdan yo'qolmoqda va bu nafaqat institutlari-mizning erkin xarakterini xavf ostida qoldiradi». Bunday fikrlar ko'pgina G'arb mamlakatlari bo'ylab aks-sado berib o'tdi. 1980-yilda Britaniyada konservatorlar partiyasi oila tushunchasini siyosiy jihatdan muhokama qildi. 1986-yilda Angliyada bosh vazir lavozimida ishlagan Margaret Tetcher konservatorlar partiyasi Konferensiyasida: «Bizning siyosatimiz oiladan, uning erkinligidan va uning xotirjamligidan boshlanadi»² deydi. Boshqa tomondan, oilaning tanqidchilar oila institutining tushkunligini va hatto bora-bora yo'qolib ketishini bashorat qiladilar. Oilaning yo'qolishi to'g'risida hali asoslanmagan holda shunchalik ko'p gapirildiki, bunday umumiy mulohazalarga tanqidiy yondashish lozim.

Tabiiyki, oila instituti bugungi kunda fundamental o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ammo G'arb dunyosida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'z holicha Sharq olamiga, xususan, O'zbekiston turmush tarziga aynan ko'chirib talqin etish to'g'ri emasdir.

¹ **Abdurauf Fitrat.** Oila. –T.: «Ma'naviyat», 1998, 8-bet.

² **Qarang: Entoni Giddens.** Sotsiologiya: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma, Ilmiy muharrirlar: A. Begmatov va M. Bekmurodov. – T.: «Sharq», 2002, 459-bet.

Bil'aks, istiqlol sharofati bilan ma'naviy tiklanish jaryonlari dadil kechayotgan mamlakatimizda oila instituti ijtimoiy hayotda tobora mustahkamroq o'r'in egallab bormoqda. Bu borada Yurtboshimiz Islom Karimov asoslab bergen oila omilini mustahkamlash konsepsiysi e'tiborga sazovordir.

«Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir»¹.

Ayni chog'da ta'kidlash joizki, oila millat sharafini yuqori martabaga ko'taradigan madaniyat o'chog'i ham hisoblanadi. Mohiyat-e'tiboriga ko'ra esa, oila ikki jinsga mansub insonlarning, ya'ni, erkak va ayolning o'zaro hamjihatlikda yashay boshlashi, muhabbat, bir-birlarini anglagan holda turmush kechirishi va ko'payish istagining, jamiyatni to'ldirish, avlodlarni muntazam yangilab turish, eng muhimi, «uni ham iqtisodiy, ham ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammallashtirish yo'lida birgalikda qiladigan harakatining hosilasidir»².

Oilaning mustahkamligi jamiyat va davlat barqarorligi bilan mantiqiyl uyg'un hodisa sanaladi. Xalqimizning murakkab tarixiy-madaniy tajribasi mobaynida yuz bergen voqeа-hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo'g'ini bo'lgan oiladan izlash tendensiyasini ko'plab mutafakkirlarimizning asarlarida uchratamiz. Millatimiz boshiga tushgan ko'pgina achchiq qismatlar dastavval oila tarbiyasidagi kamchiliklar oqibati ekanini ma'rifat ahillari yaxshi anglashgan. Bundan xalos bo'lishda oila tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, deb umid qilishgan. Fitratning «Oila yoki oilani boshqarish tartiblari» asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi.

«Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq, – deb yozadi u.

¹ **Islom Karimov.** Oila farovonligi – millat farobonligi // «Ma'rifat», 1997, 10-dekabr soni.

² **O. Safarova, M. Mahmudov.** Oila ma'naviyati. –T.: «Ma'naviyat», 1998, 20–21-betlar.

– Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomi-ga tayanadi. Qayerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi». Bu muddao amalida, tabiiyki, oila boshlig'ining ibrati alohida o'r'in tutadi. Oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat omillari sog'lom muhitni yaratadi, zero, sog'lom tarbiya oila a'zolari o'rtasida yakdillik, maqsadlar birligini yuzaga keltiradi. Aks holda ichdan yemirish, ma'naviy inqiroz holatlari yuz beradi, bu esa har qanday tashqi ziyonlardan ko'ra talafotliroqdir.

Fitrat oilaning millat manfaatiga xizmat qiluvchi, shu ruhni tarbiyalovchi beshik ekanini alohida ta'kidlaydi. Oila-dagi ijtimoiy foydali tarbiya jamiyatni mustahkamlovchi omil bo'lib, uning uyg'oqligi, harakatchanligi, ma'rifiy komilligiga taqalishini ta'kidlaydi. «Qaysi millatning umumiyy sa'y-harakati va amali ko'p bo'lsa, kuch-qudrat va izzati ham shuncha salmoqli va buyuk bo'ladi», deydi u va yurdoshlarini shunga da'vat etadi. Tabiiyki o'sha davrda hamma ham buni anglab yetmagan, bu yo'lda jonbozlik ko'rsatadigan fidoyilarga yo'l berilmagan, istibdod siyosati esa milliy yakdillikning barcha ko'rinishlari rivojiga monelik qilgan. Shu boisdan ham Fitrat vatanu millatni dildan sevuvchi, uning sha'ni-sharafini himoya qiluvchi fidoyi farzandlarni ko'plab tarbiyalab voyaga yetkazish lozim, degan fikrni asoslab beradi.

Fitrat jamiyat a'zolarining fidoiyligi va ongliligi milliy taraqqiyotga, el-yurt obodligiga olib kelishiga ishongan. Fitrat XX-asr boshlarida Turkistonda amal qilgan tarqoqlik, xurofot va aqidalarni, mutelik va parokandalikni inkor etuvchi, jamiyatni sog'lomlantiruvchi kuch sifatida odamlarni oilaga yangicha bir ko'z bilan qarashga undaydi. Ota-onaning birlamchi vazifasi – farzandini jamiyatga nafi tegadigan qilib hayotga tayyorlash, uni ongli va hushyor shaxs qilib jamiyatga qo'shishdan iborat. «Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xo'rlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan

qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi – bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyaga bog'liq», deb biladi u'!

Mamlakatimizda 1998-yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi, oila manfaatlarini ta'minlash borasida yillar davomida amalgalash oshirilgan tadbirlar, davlat dasturlarining qabul qilinishi va amaliyatga tadbirkor etilishi, respublikamizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, oila masalalarini ilmiy-amaliy o'r ganishda milliy va diniy qadriyatlarimizning ahamiyatiga katta e'tibor berilishi bu borada keng imkoniyatlar yaratdi. Bu imkoniyat oila a'zolari ma'naviyatini yuksaltirishga, oila a'zolarining huquqiy va tibbiy ongini shakllantirishga, oilada sog'lom turmush tarzini yaratishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yoshlarimizda oilaviy hayotga bo'lgan hurmat oshmoqda.

Bugungi kun turmush tarzi, hayot mantig'i va mazmunda davr ruhiga mos bo'lgan tamoyillar, ya'ni, farzandlarga ta'lim-tarbiya berishni tubdan yaxshilash, ularga yondashuv uslublarini o'zgartirish zarurligini kun tartibiga qo'yemoqda. Bu borada bugungi holat manzarasi o'zbek oilalarida turli daraja va ko'rinishlarda bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

1. Farzandlarini aniq maqsadlarni ko'zlab, turli vositalar ko'magida hayotga faol tayyorlovchilar toifasi. Bu toifaga mansub oilalarda ona barcha o'zgarishlarning uyg'unlashtiruvchisi va yo'naltiruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Farzandlar o'z vaqtida, aniq belgilangan reja va rejim asosida mакtabda o'qiydilar yoki universitetlarda tanlagan ixtisosliklarini puxta o'zlashtirish ishlari bilan band bo'ladilar. Rejaviy ta'lim qo'shimcha bilim olishlar usuli (repetitsiya, to'garaklar, uyushmalar) bilan muntazam ravishda uyg'unlashtiriladi. Ta'lim olish holati va mutaxassislikni egallash muammolari oila muhitida muhokama etib boriladi, uyda dars tayyor-

¹ Sog'lom avlod bizning kelajagimiz: to'plam/ Tahrir hay'ati: M. Muhammad Do'st, O. Musurmonova, N. Rizqiyev va boshq. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2000, 272-bet.

lash qat'iy tarzda muntazam amalga oshiriladi. Urf-odat va an'analarga me'yor doirasida ratsional amal qilinadi.

2. Oila muhitida tarbiya, odob-axloq masalalariga ta'lim ishlaridan ko'ra ustunroq ahamiyat beruvchilar toifasi. Bunday toifa vakillari oilaviy muhitda tinchlik, osoyishtalik, o'zaro hurmat saqlanishi, mahalla-yurtda mavqe-e'tiborda bo'lish, an'ana va urf-odatlarga qat'iy amal qilish, uydagi gap ko'chaga chiqmasligiga jiddiy ahamiyat qaratib yashaydilar. Bunday oilalar farzandlarning ertangi kuni, ularni faol va buniyodkor shaxs sifatida hayotga tayyorlashning aniq rejalari ega bo'lmasalar-da, o'z bolalarini jamiyatga bezarar qilib o'sishidan ogoh bo'lib yashaydilar.

3. Oilada ota-onada va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda masofa mavjud bo'lgan toifa. Mazkur toifaga mansub oilalarda ota-onada farzandlarining tarbiyasi va ta'lim olish saviyasi uchun maktablar mas'ul va majbur, deb hisoblaydilar. Maktablar va boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilmaydilar, ota-onalar majlisiga kelmaydilar. Farzandlarning axloqiy va ma'rifiy holatlarini nazorat qilmaydilar. Bunday oilalarda har kim asosan o'zi uchun yashaydi.

Respublikamizdagi huquq-tartibot idoralari ma'lumotlariga ko'ra, voyaga yetmagan yoshlar o'rtasidagi tartibbzurilik, jinoyatchilik ko'chasiga kirib qolish holatlarining o'ndan to'qqiz qismi ayni shunday toifadagi oilalar muhitida yuzaga kelmoqda. Mazkur tasnifga ko'ra, birinchi toifaga mansub oilalar miqdorining bugungi kun talablari darajasida faol ortib borishini ta'minlash o'ta muhimdir.

Oila muhitida ota-onalarning farzandlar taqdiri uchun favqulodda mas'ulligi masalasi rivojlangan barcha mamlakatlarda doimiy ravishda kun tartibida turadi. Xususan, Yaponiyada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'zaro tanish ayollarning bir birlari bilan uchrashib, o'tkazadigan suhabat, muloqotlari majmuida 30 foizgacha vaqt o'z farzandlarining o'qish va ishlaridagi ahvoli, 20 foiz vaqt shaxsiy takomillashuv, ya'ni, o'zlashtirgan yangi kasb-korlari, o'qigan kitoblari, ko'rgan filmlari haqida va faqat 20 foizgacha vaqt

tanish-bilishlarning maishiy holati, kayfiyatları, sog'lig'i, turmush o'rtog'ining muammolari masalalari band etar ekan.

Taqqoslash uchun O'zbekiston ayollari o'rtasida o'tka-zilgan tadqiqotga ko'ra esa, ziyoli ayollar orasida 10 foiz, tijoratchilar o'rtasida 5–7 foiz, qishloq ayollari orasida 3–5 foizgina vaqt farzandlarning ta'lif borasidagi o'zlashtirishlari ahvoliga ajratilar ekan. Ayni chog'da, ayollarimiz suhbatlari majmuida 40–50 foizgacha vaqt maishiy hayot tashvishlari, qo'shnilar muammolari, dugona va tanish-bilishlar taqdiri singari masalalar tahliliga bag'ishlanishi aniqlandi.

Bir qarashda ijtimoiy jihatdan uncha ahamiyatli tuyulmaydigan mazkur qiyosiy tahlil onalarning o'z farzandlari tarbiyasi, ularni katta hayotga maqsadli tayyorlab borish ishlaridagi o'rnnini, pirovard natijada esa, mamlakatning umumiy taraqqiyoti holatiga bo'lgan bevosita hamda bilvosita ta'sirini belgilab beradi.

Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda oila institutiga katta ijtimoiy ahamiyat berib kelinmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimizda oilalarni ijtimoiy himoyalash tizimi yanada takomillashib, inson sha'ni va g'ururiga muvofiqlashdirildi, o'sib kelayotgan avlod ma'naviyati hamda ma'rifiy-intellektual kamolotini ta'minlashning huquqiy, tashkiliy-pedagogik hamda ijtimoiy jihatlari mustahkamlandi.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Oila muhitida ma'naviyat tarbiyasi qanday olib boriladi?
2. Oilaga davlat va jamiyat e'tiborining kuchayishi qanday namoyon bo'ladi?
3. Oila a'zolarining ijtimoiy mo'ljallarini Siz qanday tushunasiz?
4. Mamlakatimizda qaysi yil «Oila yili» deb e'lon qilingan edi?
5. «Vatan tuyg'usi oilaviy mehrdan boshlanadi» degan so'zlarini izohlab bering.



Tayanch so‘z va iboralar:

Oila, ijtimoiy tarbiya, mehr tarbiyasi, oila barqarorligi



III-BO‘LIM UCHUN USLUBIY KO‘RSATMALAR

O‘zingiz borib turadigan madaniyat muassasasi binoi, sport inshooti, siz o‘tadigan ko‘cha va yo‘llarni alohida e’tibor bilan kuzatib, ularning nogiron bola yoki keksa ki shilar foydalanishi uchun nechog‘lik moslashtirilganini aniqlang.

Ijtimoiy-madaniy muhitdan to‘laqonli foydalanish imkonni yo‘qligi jismoniy imkoniyati cheklangan kishilarning intellektual rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlang. Mazkur muhitning nogironlar uchun ham foydalanishga qulay bo‘lishini ta’minlash uchun nimalar qilish kerakligi haqida o‘ylang. Bu ahvolni tubdan yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar strategiyasini ishlab chiqing. Olib borilgan amaliy tadqiqot natijalarini seminar darsida bayon qilib bering.

A N K E T A

Hurmatli respondent!

Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan mazkur anketa aholining madaniy dam olish maskanlari ish samaradorligini atroficha o'rganish maqsadida o'tkazilmoqda. Savollarga xolis va to'liq javob berishingizni so'raymiz. O'zingizga ma'qul bo'lgan javob variantlarini anglab olishingiz kerak.

Anketa viloyatdagagi turli aholi qatlami vakillari orasida o'tkaziladi. So'rovga har bir viloyatdan 300 kishi qamrab olinadi. Bu tarkib quyidagicha taqsimlanadi: o'qituvchilar, tibbiy xodimlar – 50, talaba-yoshlar – 50, fermer va tadbirkorlar – 50, mahalla faollari – 50, xotin-qizlar – 50, bank, tijorat sohasidan – 50 kishi.

So'rov o'tkazilib bo'lgandan so'ng olingan anketalar mufassal o'rganiladi. Har bir savolga olingan javoblar miqdoriy hisoblanib bir betda umumlashtiriladi. So'rovlar 1–3-mart kunlari o'tkazilib, hisobotlar 5-mart kuni Respublika Ma'naviyat targ'ibot markaziga yuboriladi.

1. Siz mamlakatimizdagi madaniyat va aholi dam olish markazlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat, deb o'ylaysiz? (4 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

- 1) odamlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;
- 2) yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish;
- 3) aholining badiiy-estetik saviyasini yuksaltirish;
- 4) milliy qadriyatlarga hurmatni tarbiyalash;
- 5) turli to'garaklar tashkil etish;
- 6) yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish;
- 7) xotin-qizlar orasida badiiy va amaliy ijodni rivojlantirish;
- 8) turli yot g'oyaviy illatlarga qarshi ma'rifiy kurashni amalga oshirish;
- 9) sog'lom avlodni tarbiyalashda ishtirok etish;

10) yoshlarni tarixiy xotiraga ega qilish;

Yana nimalar?

2. Aholi turli tabaqalari vakillari o'zlarining bo'sh vaqtlanini asosan nimalarga bag'ishlaydilar? (3 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

1) jismoniy charchoqdan xalos bo'lishga;

2) madaniy hordiq chiqarishga;

3) badiiy ijodiyot bilan shug'ullanishga;

4) maishiy, oilaviy tadbirlarni o'tkazishga;

5) kitob o'qishga;

6) seriallar ko'rishga;

7) Internetda shug'ullanishga;

8) o'z yaqinlari bilan muloqot qilishga;

9) sayohat qilishga;

Yana nimalar?

3. Siz bo'sh vaqtingizni qayerda va qanday o'tkazasiz? (2 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

1) oila davrasida o'tkazaman;

2) kutubxonada shug'ullanaman;

3) madaniyat uylarida tashkil etilgan havaskorlik to'garaklarida qatnashaman;

4) muzeylarga boraman;

5) madaniyat va istirohat bog'lariiga boraman;

6) bozorga boraman;

7) gap-gashtaklarga boraman;

8) sayohat qilaman;

9) tabiat qo'ynda o'tkazaman;

10) sport bilan shug'illanaman;

11) Internet kafelarga boraman;

12) kitob o'qiymen;

13) do'st-o'rtoqlarim bilan yuzma-yuz yoki telefonda muloqot qilaman;

14) qarindoshlarimnikiga boraman;

15) sevgan insonim bilan o'tkazaman;

16. Yana nimalar?

4. Siz madaniyat uylari va klublarga borganmisiz?

- 1) Ha;
- 2) Yo‘q;
- 3) Ba’zi-ba’zida borib turaman;

5. Siz bo‘sh vaqtingizda biror-bir ijodiyot turi bilan shug‘ullanasisizmi? (2 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

- 1) Musiqa to‘garaklarida shug‘ullanaman;
 - 2) Ashula to‘garaklarida qatnashaman;
 - 3) Raqs to‘garaklarida shug‘ullanaman;
 - 4) Texnik ijodiyot bilan shug‘ullanaman;
 - 5) Ijtimoiy-siyosiy ijodiyot bilan shug‘ullanaman;
 - 6) Hech qanday to‘g‘araklarda qatnashmayman;
Yana nimalar bilan shug‘ullanasiz?
-

6. Siz madaniy hordiq maskanlari sifatida nimalarni tasavvur etasiz? (2 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

- 1) Madaniyat uylarini;
 - 2) Restoranlarni;
 - 3) Choyxonalarni;
 - 4) Istirohat bog‘larini;
 - 7) Muzeylarni;
 - 8) Kinoteatrlnarni;
 - 9) Teatrlnarni;
 - 10) Ko‘rgazma zallarini;
 - 11) Sanatoriylarni;
 - 12) Internet-kafelarni;
 - 13) Bouling zallarini;
 - 14) Billiard zallarini;
 - 15) Sport zallarini;
 - 16) Suzish havzalarini (basseynlar);
Yana nimalar?
-

7. Siz bo‘sh vaqtingizda mutolaa qilishni yoqtirasizmi?

- 1) Badiiy asarlar o‘qiymen;
- 2) Siyosiy mavzudagi adabiyotlar o‘qiymen;
- 3) Ijtimoiy-maishiy mavzudagi adabiyotlar o‘qiymen;

4) Maishiy yo'nalishdagi nashrlar («Darakchi», «Sado», «Hotiq» va boshqalar);

5) Ilmiy yo'nalishdagi adabiyotlarni;

6) Fantastik yo'nalishdagi adabiyotlarni;

7) Krassvordlar yechishni;

8) Mutolaa qilishni yoqtirmayman;

Yana nimalar qilishni yoqtirasiz? _____

8. Siz hayotingiz mobaynida qancha badiiy kitob o'qigansiz?

1) 100 dan ziyod;

2) 20 dan ko'p;

3) 10 dan oshiq;

4) 5 ta;

5) 1 ta;

6) Birorta ham badiiy asar (roman, qissa) o'qimaganman;

9. Sizningcha, ba'zilarning badiiy asarlar o'qimasligiga ni-malar halaqt beradi? (2 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

1) Kitob o'qish urf (moda)dan chiqib ketganligi;

2) Yetarli targ'ibot yo'qligi;

3) Roman o'qish o'rniغا asar asosida kino ko'rishga o'tilgani;

4) Maktabda kitob mutolaasi sust targ'ib etilgani;

5) Oilada kitob o'qish madaniyati shakllantirilmasligi;

6) Kitobxonlik tanlovlari yo'qligi;

7) Odamlar nimani o'qishni bilmasliklari;

8) Televide niye hamma bo'sh vaqtini egallab qo'yayotgani;

9) Bo'sh vaqtini Internet olib qo'yayotgani;

10) Tezkor zamон sur'ati bamaylixotir usuldagи kitob mutolasiga yo'l bermasligi;

11) Yoshlar o'rtasida kitob o'qishning obro' sanalmay qolganligi;

Yana nimalar? _____

10. Siz madaniy hordiq chiqarish uchun bir kunda qancha vaqt sarflaysiz?

1) 3 soatgacha;

2) 2 soatgacha;

- 3) I soatgacha;
4) Madaniy hordiq chiqarish uchun vaqtim yo‘q;
Yana nimalar? _____
-

11. Siz bugungi kunda aholi madaniy hordig‘ini tashkil etuvchi muassasalar holatini qoniqarli deb hisoblaysizmi?

- 1) Ha;
2) Yo‘q;
3) Bilmayman.

12. Aholi madaniy hordig‘ini tashkil etuvchi maskanlar faoliyatini yanada yaxshilash uchun nimalar qilish kerak deb hisoblaysiz? (2 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

- 1) Madaniy hordiq olishni yangi bilim va kasblarni egallash bilan bog‘lash;
- 2) Madaniy hordiqni ko‘ngilga mos muloqot, uchrashuvlar bilan ko‘proq uyg‘unlashtirish;
- 3) Madaniy hordiqni estetik zavqlanish, ma’naviy lazzatlanish bilan bog‘liq qilish;
- 4) Madaniy hordiqni milliy ma’naviy tarbiya olish bilan bog‘liq qilish;
- 5) Madaniy hordiqni san’at va ijodiyot bilan ko‘proq bog‘liq qilish;
- 6) Zamonaviy, madaniy-texnik jihatdan mukammal jihozlangan, estetik jihatdan o‘ziga jalb etuvchi muassasaga ega bo‘lish zarurligi;
- Yana nimalar? _____
-

13. Siz aholining madaniy dam olishini yanada yaxshilash uchun nimalarni taklif etgan bo‘lardingiz? (2 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

- 1) Madaniyat va istirohat bog‘larini ko‘paytirish;
- 2) Mahalla guzarlarida madaniy dam olish shakllarini tarkib toptirish;
- 3) Katta yoshli aholining madaniy dam olishini tashkil qilish;
- 4) Qadimiy shaharlarimizga sayohatlar uyushtirish;
- 5) Teatr va muzeylarga tizimli tashrif etishni yo‘lga qo‘yish;

- 6) Mutolaa madaniyatini rivojlantirish;
7) Yoshlar uchun maxsus madaniy markazlar tashkil etish;
8) Xotin-qizlar uchun muloqot kulublari tashkil etish
9) Ijodiyot bilan shug‘ullanishni har bir insonning zaruriy
mashg‘ulotiga aylantirish
Yana nimalar?
-

14. *Sizning yoshingiz?*

- 1) 16–20;
- 2) 21–26;
- 3) 27–35;
- 4) 36–45;
- 5) 46–60;
- 6) 60 va undan yuqori.

15. *Siz qaysi sohada faoliyat yuritasiz?*

- 1) Xizmat ko‘rsatish sohasida;
- 2) Qishloq xo‘jaligida;
- 3) Sanoat ishlab chiqarishida;
- 4) Tadbirkorlik;
- 5) Ishlamayman;
- 6) Madaniyat va san‘at sohasida;
- 7) Huquq-targ‘ibot sohasida.

GLOSSARY

ADABIYOT (arab. – *adab* so‘zining ko‘pligi) – 1) fan va amaliyotning biror sohasidagi yutuqlarni umumlashtiruvchi asarlar majmui (texnikaviy A., qishloq xo‘jaligi A.i, siyosiy A. va b.); 2) san’atning bir turi (badiiy A. deb ham ataladi); voqelikni so‘z yordamida obrazlar orqali aks ettiradi.

ADABIY-MADANIY MEROS – o‘tmish moddiy-madaniy boyliklari. Ajodlardan avlodlarga qolgan xalq og‘zaki ijodi, yozma adabiyot, san’at, me’morlik va h.k. namunalari. Ad.-m.m. uni yaratgan xalq tarixi bilan izchil va mustahkam bog‘langan bo‘ladi; shu xalqning qadimiy davrlardan boshlab hozirgacha yaratgan va saqlanib kelgan adabiy-ma’naviy yodnomalari, moddiy-madaniy obidalarini o‘z ichiga oladi.

AYOLLAR (AN’ANAVIY) ANSAMBLLARI – xotin-qizlardan tashkil topgan ashula-raqs yoki ashula-cholg‘u ansambllari; qadimdan o‘zbek milliy musiqa ijrochiligi rivoji jarayonida yuzaga kelgan. Odatda 3–4 ayol xonanda, sozanda va raqqosalarni birlashtiradi.

AYYOM (arab. *kun* so‘zining ko‘pligi) – bayram oldi va bayram kunlari. Qutlug‘ va tabarruk kunlar ma’nosida ulug‘ ayyom (ulug‘ kunlar) deb qo‘llanilgan.

AKTYORLIK SAN’ATI – aktyor ijrochiligi, teatr, kino, televizeniye va radioda badiiy obraz yaratish san’ati. Aktyor ma’lum rol da o‘ynar ekan, o‘z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe’l-atvorini, ichki dunyosi va intilishlarini ifodalaydi. Bunda u pyesa, libretto yoki ssenariydagi mazmunni o‘z ijodi, hayotiy tajribasi bilan boyitadi, jonlantiradi. Obraz yaratishda aktyorning nutqi, gavdasi, yuz va ko‘z imo-ishoralari, tuyg‘ulari, idroki asosiy vositalardir.

AMALIY SAN’AT – amaliy bezak san’ati – bezak san’ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan

badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqin choqlar, o'yinchoqlar va b.)ni badiiy ishslash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi.

AN'ANALAR – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi. Dunyoda an'analar va urf-odatlarga ega bo'limgan millat yoki elat yo'q. Shu ma'nodit, an'analar butun insoniyatga xos tushunchadir.

ANSAMBL (fr. ensemble, andare – *birgalikda*) – vokal yoki cholg'u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. Bir guruh artistlarning bir butun badiiy jamoa holida chiqishi. Uncha katta bo'limgan ashulachi (vokal) yoki cholg'uchi (sozanda)lar jamoasi uchun yaratilgan musiqa asari. Ijrochilar soniga qarab, bu ansambllar turlicha ataladi.

ARTIST (frans. artiste – *bilimdon*; lot. ars, artis – *kash, hunar, san'at*) – dramatik spektakl, kinoda rollar, opera va balet partiyalari, estrada konserti va sirk nomerlari ijrochisi. Teatr va kinoda aktyor, aktrisa deb ham yuritiladi. Keng ma'noda san'atning muayyan sohasidagi ijodkor (sozchi, ashulachi).

AFISHA – spektakllar, konsertlar va boshqa adabiy tadbirlar, tomoshalar to'g'risida xabar beruvchi, ko'zga ko'rinarli joylarga yopishtirilgan maxsus e'lon.

AFSONA – 1) xalq og'zaki ijodi (folklor) janri. U xayolot, uydirma va to'qimadan iborat bo'lsa-da, so'zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo'lib o'tgan davri, makon ham ko'rsatiladi. A.lar og'izdan-og'izga, eldan-elga o'tib kelgan, ifoda usuli bayon tarzida. A. og'zaki hikoyat bo'lib, u xayoliy obraz yoki tasavvur asosiga quriladi, hikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir shunday bo'lgandek qabul qilinadi. Rivoyatdan farqli o'laroq A. zaminida albatta mo'jiza, sehr-jodu bo'ladi; 2) ko'chma ma'noda – uydirma, yolg'on, aqlga to'g'ri kelmaydigan gap.

ASHULA – yakka xonanda yoki xonandalar guruhibiga mo'l-jallangan va mumtoz o'zbek musiqa merosida markaziy o'rinnegal-lagan ashula yo'li. Asosan lirik ruhdagi g'azal va she'rlar zaminida yuzaga keladi. A.lar soz (doira, dutor, tanbur), ansambl jo'rligida

yoki jo'rsiz ijro etiladi. A. o'zbek musiqa folklorida katta o'rinnegallagan qo'shiq janridan kuy diapazonining kengligi, shaklanrivojlanganligi, mavzu va mazmuni teranligi bilan farqlanadi.

ASHULA VA RAQS ANSAMBLI – turli tarkibda tashkil topgan sozanda, xonanda va raqqoslar guruhi.

BADIY BUYUMLAR – chirolyi shakllarda bezatib ishlangan, turli maqsadlarda foydalilanidigan nafis buyum va zebziynatlar. Uy-ro'zg'or anjomlari, kiyim-kechak, mehnat qurollari, badiiy gazlama, gilam, palos, so'zana, qurol-asлаha, mebel kabi moddiy madaniyat asarlari, tasviriy san'at, amaliy san'at, bezak san'ati mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Ba'zi mamlakatlar o'z B.b. bilan mashhur (xitoy chinnisi, eron gilami, hind fil suyagi mahsulotlari, chex shishasi, o'zbek atlasi va b.). Jamiyat taraqqiyoti B. b. tayyorlash usuli (haykaltaroshlik, kulollik, zargarlik, miskarlik, degezlik, naqqoshlik, o'ymakorlik, koshinkorlik va b.)ni ham takomillashtirdi, badiiy hunarmandlikning yangi sohalari (kashtado'zlik, do'ppido'zlik, zardo'zlik, shishasozlik va b.)ni yuzaga keltirdi. O'zbekiston hududida B. b. ishlab chiqarish 20-a.ning 20-y.laridan keng yo'lga qo'yila boshlandi. 60-y.lardan mazmunan boyidi, turlari ko'paydi; an'anaviy B. b. qardosh xalqlar yaratayotgan mahsulotlar hisobiga ham boyimoqda.

BADIY KO'RGAZMALAR – san'at asarlarini ommaviy namoyish etish shakli. Ko'rgazma maxsus qurilgan yoki moslashtilgan binolar (mas., muzey, madaniyat saroylari zallarida, teatr, kinoteatr, jamoat binolari foyelarida va sh.k. joylar)da uyushtiriladi.

BADIY MUZEYLAR – tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda me'moriy yodgorliklarni yig'ish, saqlash, ta'mirlash, sararesh, ko'rgazmalarda namoyish etish, o'rganish, targ'ib etish bilan shug'ullanadigan, san'atshunoslik yo'nalishidagi ilmiy- ma'rifiy va tadqiqotlar olib boriladigan muassasalar.

BADIY SO'Z USTASI – adabiy asar (she'r, nasr, shuningdek publisistika) yoki dramatik parchani teleko'rsatuv va radio orqali, estrada, sirk va filarmoniya sahnasida ifodalgi o'qib, ular mazmuni tinglovchilarga badiiy ta'sirli qilib yetkazuvchi ijrochi, estrada va filarmoniya artisti.

BADIY O'QISH – estrada san'atining bir turi: adabiy asar (she'riy nasr, shuningdek publisistika) yoki dramatik parchani

omma oldida ijro etib, tinglovchilarga asar mohiyatini badiiy ta'sirchan qilib yetkazish. O'tmishda B. o'xalq baxshilar, ertak chilar, qiziqchilar ijodining asosi hisoblangan.

BADIY HAVASKORLIK – asosiy ishdan ajralmagan holda jamoa (to'garak, studiya, xalq teatrлari) yoki yakka holda (xonada, badiiy so'z ustasi, sozanda, raqqosa, akrobat va b.) ijod qilish, xalq ijodi shakllaridan.

BAYRAM (turkiycha – *katta yig'in, to'y*) – keng nishonlanadigan tantanali kun. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida kelib chiqishi, mazmuni, ijtimoiy hayotda qaror topishiga ko'ra an'anaviy, diniy, milliy va b. B.lar vujudga keldi.

BAYRAM KUNLARI – muhim voqealarga bag'ishlangan, an'ana sifatida nishonlanadigan, ish kuni hisoblanmaydigan kunlar. O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi kunlar bayram (dam olish) kunlari deb belgilangan: 1 yanvar – Yangi yil; 8-mart – Xotin-qizlar kuni; 21 mart – Navro'z bayrami; 9 may – Xotira va qadrlash kuni; 1 sentabr – Mustaqillik kuni; 1 oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni; 8 dekabr – Konstitusiya kuni; Ro'za hayiti (Iyd al-Fitr)ning birinchi kuni; Qurbon hayiti (Iyd al-Adha)ning birinchi kuni.

BALET (lot. ballo – *raqsga tushaman*) – asar mazmuni musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalananadigan sahna san'ati turi. O'zida san'atning dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, tasviriy san'at kabi turlarini uyg'unlashtiradi, bu san'at turlarining hammasi alohida-alohida mavjud bo'lmay, B.ning sintez markazi bo'lgan xoreografiyaga bo'ysunadi. B. librettochi, kompozitor, baletmeyster va rassom hamkorligida yaratiladi. B.ning dramaturgik asosi libretto (ssenariy)dan boshlanib, unda asarning asosiy mazmuni, g'oya, ziddiyat va xarakterlari aniq belgilanadi.

BALETMEYSTER (nem. ballettmeister – *balet ustasi*) – balet spektakllari, xoreografik chiqishlar, opera, operetta, dramatik spektakllardagi raqs sahnalarining muallifi va sahnalashtiruvchisi.

BALLADA (frans. ballade, so'nggi lot. ballo – *raqsga tushaman*) – 1) 14–15-a.lar fransuz adabiyotidan qat'iy o'rin olgan lirik janr; 2) ingliz xalq poeziyasida liro-epik janr va romantizm poeziyasidagi ayni shunday janr.

BASTAKOR (fors – *bog'lash, bog'lov, mashg'ulot, ish*) – an'anaviy, mumtoz musiqa asarlari muallifi.

BASTAKORLIK – Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida an'anaviy, mumtoz musiqa uslubi zaminida yuzaga kelgan badiiy an'ana, ijodiy kasb turi, musiqa ijodchiligi. Quyidagi ijod shoxobchalarini o'z ichiga oladi: 1) xalq orasida tanilgan muayyan kuy yoki ashula yo'lining o'zgacha mustaqil ko'rinishi (qayta ohangga va usulga solib, mualliflashtirilgan namunasi)ni yaratish; 2) ma'lum cholg'u kuylarning – ashula, ashula yo'llarining – cholg'u variantlarini yaratish; 3) bir necha kuy, qo'shiq yoki ashulalarni umumlashtirib bir asar yaratish; 4) mustaqil asarlar (o'tmishda asosan kuy, qo'shiq va ashula yo'llari, hozirgi davrda boshqa janrlarda ham) ijod etish.

BAXSHI (*mo'g'ulcha* va *buryatcha* *baxsha*, *bag'sha* – *ustod*, *ma'rifatchi*; *sanskritch* *bhikshu* – *qalandar*, *darvesh*) – xalq dostonchisi. Qo'shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san'atkor. B. so'zi ba'zan shaman ma'nosida ham qo'llanadi. Dostonchilarни esa yuzboshi, soqi, san-novchi, jirov deb ataydilar. B.lar, asosan, ikki toifaga – ijrochi va ijodkor B.larga bo'linadi. Ijrochi B.lar, asosan, ustozidan o'rgangan dostonlarni juz'iy o'zgarishlar bilan aynan kuylasalar, ijodkor B.lar og'zaki epik an'ana asosida dostonning o'z variantlari, hatto ular asosida yangi dostonlar ham yaratadilar. Bunday B.lar shoir deb ham yuritiladi. Masalan, Ergash shoir, Fozil shoir, Po'lkan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoir va b. B. doston va qo'shiqlarni qo'biz, do'mbira, dutor kabi sozlar jo'rligida kuylaydi. Xorazm B.lari dostonlarni asosan, dutor, qisman tor bilan ijro etadilar, ularga g'ijjak va bo'lamonda sozhilar jo'r bo'ladilar. Doston kuylash, shogird yetishtirishda qatiy tartib, qonun-qoidalarga rioxqa qilingan.

BESHIK TO'YI – Yaqin va O'rta Sharq, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbeklar oilasida to'ng'ich farzand tug'ilishi sharafiga o'tkaziladigan tantanali marosim.

BESHQARSAK, qarsak – erkaklar davra o'yin-qo'shig'i. O'zbek va tojik xalqlari orasida keng tarqalgan. Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida ayniqsa mashhur. B.da qarsak hamda qiyqiriq ovozlar yordamida o'yin usuli hosil qilinadi.

BOLALAR MUSIQASI – bolalarning tinglashi va ijro etishi uchun mo'ljallangan musiqa asarlari. B. m. namunalari sodda shakli, yorqin ifodasi, jonli badiiy mazmuni bilan ajralib turadi.

Bolalar hayoti, xalq ertaklari, tabiat manzaralari, hayvonot dunyosi B. m.da o'z ifodasini topadi.

BOLALAR TEATRI – 1) bolalar tomonidan ijro etiladigan spektakllar. G'arbiy Yevropa o'quv yurtlarida 15-a. dan ma'lum; 2) bolalar va o'smirlar uchun xizmat qiladigan professional teatr. Yosh avlodni badiiy, estetik va goyaviy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Repertuari ertak va bolalar adabiyoti namunalari asosida yozilgan inssenirovkalaridan, mumtoz dramaturgiyaning mактабда о'tiladigan namunalaridan, bolalarbop pesalardan iborat. Dramatik (yosh tomoshabinlar teatri) va qo'g'irchoq teatri kabi turlari bor.

BOLALAR FOLKLORI – og'zaki ijod namunalari. Odatda bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. Folklor janrining tarkibiy qismi. O'zbek B.f. alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, erkalamaga, masxaralama va boshqalarni o'z ichiga oladi. B.f. bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi.

GALEREYA (frans. galerie) – 1) peshayvon, bostirma; binolarda yon devorlaridan biri o'rнiga ustunlar o'rnatilgan usti yopiq, uzun, ensiz ayvonli qurilma; uzun balkon; 2) yon devorlarining biri oynavand qilib qurilgan uzun zal; 3) o'rta asrlarda saroy va uylarning rasm va haykallar bilan bezatilgan yo'laklari; 4) tomosha zalining yuqorigi yarusi (o'rindiqlari); 5) ko'pgina badiiy muzeylarning nomi.

GARMONIYA (yun. harmonia – *bog'lanish, mutanosiblik*) – 1) ko'p ovozli musiqaning asosiy ifoda vositalaridan biri. Bunda asar mazmuni kuy rivoji orqaligina emas, balki unga hamohang bo'lgan turliakkordlarning almashinuvi yordamida ifodalananadi.

GASTROL (nem. gast – *mehmon*, rolle – *rol*) – artist (yoki artistlar jamoasi)ning doimiy ish joyidan tashqari (boshqa tuman, shahar, mamlakat) da tomosha ko'rsatishi, konsert berishi.

GRAFIKA (yun. graphike, grapho – *yozaman, chizaman*) – tasviriy san'at turi. Rasm va rasm san'atiga asoslangan, lekin o'z tasvir va ifoda vositalariga ega bo'lgan bosma badiiy asarlar.

GO'ZALLIK – estetika tushunchasi. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq, erkinlik tuyg'ulari hosil qilishga qodir bo'lgan xususiyatlarini ifodalaydi. Xunuklikning aksi.

DAVLAT MADHIYASI – davlat gerbi va davlat bayrog'i bilan bir qatorda davlat rasmiy ramzi hisoblanadigan she'riy-musiqiy tantanavor asar, gimn.

DEKORATSIYA – sahnada ko'rsatilayotgan voqeal o'rnnini aks ettirishga, spcktaklning g'oyaviy ma'nosini ochishga xizmat qiluvchi sun'iy manzara, badiiy jihoz. Dekoratsiya rang-tasvir, grafika, arxitektura, sahna texnikasi, kinoprojeksiya va shu kabilarning tasviri vositalari yordamida yaratiladi.

DID – hayot va san'atning barcha sohalarida insonning estetik hodisalarini farqlash, tushunish va baholash qobiliyati. D. uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, mehnatning turli sohalaridagi tajribalar natijasida vujudga keladi. D.da shaxs, guruh va xalqning olamga estetik munosabati tajribasi in'ikos etilib, uni har bir kishi turli yo'llar bilan o'zlashtiradi, o'z individual estetik faoliyati bilan boyitadi.

DIRIJJYOR (frans. diriger – *yo'naltirish, boshqarish, rahbarlik qilish*) – musiqa asarini ijro etuvchi jamoalar (solistlar, xor, orkestr va b)ga rahbarlik qiluvchi san'atkori. D. musiqa asarini ommaviy ijrosiga qadar ijrochi jamoa bilan bo'lgan hamma tayyoragarlik (repetitsiya)ni olib boradi. Asosiy ijro vaqtida esa (konsert yoki spektaklda) asarning ijro tezligi, dinamik tuslari, ayrim to'da yoki yakka ijrochilarini to'xtash yoki ijro qilish vaqtlarini ko'rsatib turadi; jamoani birlashtiradi, ruhlantiradi va asarning badiiy ijrosi uchun harakat qiladi.

DORBOZLIK, DOR O'YIN – baland dor ustida tomosha ko'rsatish san'ati, sirk san'ati janri. Dor ustida har qanday noturg'un holatda ham gavda muvozanatini saqlash mahorati namoyish etiladi. D. taxm. 2,5 ming yil muqaddam Sharqda paydo bo'lgan, so'ng butun dunyoga tarqalgan. D. dastlab past qurilgan, mashqlari ham sodda bo'lgan. Davr o'tishi bilan dor tobora balandroq qurilib, o'yinlari murakkablasha borgan. D. o'yinlari avval ochiq maydonlarda, 18-a. oxiridan esa sirk sahnasida namoyish etiladigan bo'ldi va sirk san'atining ajralmas qismiga aylandi.

DRAMA – 1) muallif nutqisiz, ya'ni diolog shaklida yozilgan va sahnada ijro etish uchun mo'ljallangan badiiy adabiyotning lirika va epos qatoridagi bir turi. 2) tor ma'noda – dramatik adabiyotning bir qismi, tragediyadan hayot hodisalarining o'rtacharoq o'tkirlikda tasvirlash bilan, komediyadan esa hayot hodisalarini kulgi orqali emas, balki jiddiy tasvirlash bilan farq qiladi.

DRAMATURGIYA (yun. dramaturgia) – 1) muayyan san'atkor, davr va xalqqa mansub dramatik asarlar majmui. Mas., Hamza, Fitrat D.si, antik davr D.si, Uyg'onish davri D.si, ingliz D.si, o'zbek D.si va b.; 2) kino va spektaklning obrazli talqini konsepsiysi. Teatr D.si badiiy drama asosida yuzaga kelgan, lekin hozirgi teatrda u rejissyor ssenariysi yordamida amalga oshiriladi. Kino san'ati D.si ssenariy shaklida bo'ladi.

YOZUV – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'tasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. YO.– kishilik jamiyatni madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiyalaridan biri. YO. tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400–500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, YO.ning paydo bo'lganiga esa 4–5 ming yillar bo'lgan).

YOR-YOR – nikoh to'yi marosimlari jarayonida aytildigan xalq qo'shig'i. Qadim zamonlardan o'zbek, tojik, uyg'ur va turkman xalqlari orasida keng tarqalgan. Ikkilik yoki to'rtlik shaklidagi termalardan iborat bo'lib, har bandning oxiri, ba'zan o'rtasida «Yor-yor, aylanaman» kabi so'zlar qo'shib aytildi.

JANR (fr. genre – *tur, uslub*) – musiqa asarlarining turlari. Asarning tuzilishi, ijrochilarning tarkibi, xarakteri va boshqa hollatlar bilan J. bir-biridan ajraladi va turlicha bo'ladi.

JO'RNAVOZLIK – o'zbek ijrochiligidagi bir soz (lar) bilan boshqa soz (lar)ga jo'r bo'lish; Xorazmda maqomlarning chertim yo'llarini tanbur, g'ijjak, bulamon va doirada ijro qilishi.

ZARGARLIK – badiiy hunarmandlik sohasi; oltin, kumush, mis, qalay kabi rangli metallardan zeb-ziynat buyumlari (taqinchoqlar), bezak buyumlari yasash kasbi. Zargarlar bezak buyumlari tayyorlashda quyish, bolg'alab (zarb berib) yasash, hallash (oltin va kumush suvi yuritish), o'yib yoki bo'rttirib naqsh yasash, bosma, zig'irak, sovotkori, qolipaki, shabaka kabi usullardan keng foydalanadi.

IBTIDOIY SAN'AT – ibridoiy jamoa tuzumi davri san'ati. Ilk namunalari hozirgi tipdagisi odam paydo bo'lgan so'nggi paleolit davri (taxminan mil. av. 30-ming yilliklar) ga mansub. I. s. ibridoiy jamoa kishisiga dunyonи o'zlashtirishda orttirgan tajribalarini avloddan avlodga uzatuvchi kuch, dunyo to'g'risidagi tushunchasi va bilimlarini aks ettiruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan.

KARNAVAL (lot. *carrus navalis – ajoyib arava, bayram marosimlari kemasi*) – asosan, ochiq havoda o'tkaziladigan teatrlash-tirilgan o'yinlar, ko'cha namoyishlaridan iborat ommaviy sayil-ning bir turi. Yil fasllarining almashuvi, bahorgi dehqonchilik va boshqa bayramlar bilan bog'liq majusiylarning marosimlaridan boshlangan.

KATTA ASHULA, PATNUSAKI (PATNIS) ASHULA – Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan o'zbek an'anaviy ashula yo'li. Odatta, 2–5 hamnafas ashulachi (hofiz) tomonidan cholg'u jo'rligisiz (qo'llariga patnis yoki likobcha ushlagan holda) aytildi.

KASHTADO'ZLIK, KASHTACHILIK – kashta tikish kasbi, amaliy san'atning qadimgi sohalaridan biri. Arxeologik topilmalar K.ning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning ta'sirida rivoj topganini ko'rsatadi.

KINO SAN'ATI – kinematografiyaning texnik vositalar asosida shakllangan badiiy ijod turi; ekran san'atining muhim tarkibiy qismi; real borliqni aynan yoki badiiy-hujjatli obrazlar, multiplikatsiya vositalari yordamida suratga olish; kinofilmlarning omma orasida keng tarqalishi uchun xizmat qiladigan televideniye, video-kasseta va videodisklarni ham o'z ichiga oladi.

KINOKOMEDIYA (kino... va komediya) – kino san'ati turi. Filmda xarakter, konflikt, vaziyatni tasvirlashda tomoshabinda kulgi qo'zg'atish K.ning asosiy xususiyatidir. Yumoristik va hajviy jihatlari bir-biriga bog'liq holda ko'rsatiladi. Kinovodevil, ekssentrik «komik», lirik, maishiy, hajviy, tragikomik, fantastik K. janrlari keng tarqalgan.

KINOFESTIVAL (kino... va frans. festival – *bayram*) – kino san'ati asarlarining turli shaklda o'tkaziladigan ko'rigi. Kinematografiysi rivojlangan ko'pgina davlatlar milliy kino san'atining eng yaxshi yutuqlarini namoyish etish, keyingi rivojlanish yo'nalishini belgilab olish, xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi, san'at rivojiga o'z hissalarini qo'shish maqsadida K. lar uyshtiradi. K.ning an'anaviy turi – xalqaro kinofestivallardir.

KITOBAT SAN'ATI (arab, kataba – *yozish, yozmoq* so'zidan) – qo'lyozma kitoblarni yaratish va ziynatlash. Markaziy Osiyoda (jumladan, O'rta Osiyoda) qo'lyozma kitoblarni bezash juda qadimdan mahalliy madaniyat taraqqiyoti bosqichlari bilan

bog'liq holda shakllangan. Eng qadimgi kitoblardan «Avesto» qo'lyozmalar; so'g'd tilida yaratilgan «Vessantaraka jataka» asari (uning varaqlari turli mamlakatlar – Rossiya, Fransiya, Angliyada saqlanadi); sopol yuzasidagi bitiklar, charm o'ramlari, metall bu-yumlardagi yozuvlar, qog'oz varaq taxlamalari (taxtachalar orasiga olib tizimchalar bilan bog'langan turi) va b. O'rta asrlarda umum muslimon yoki arab tilidagi qo'lyozma an'analariga asoslangan.

KONSERVATORIYA (ital. conservatorio – *boshpana*) – maxsus musiqa o'quv yurti. Turli yo'nalishlardagi musiqa ijrochiligi, kompozitorlik va musiqashunoslik sohalari bo'yicha muayyan tizimda ta'llim beradi. Dastavval Italiyada yetim va qarovsiz bolalarga mo'ljallangan boshpana – K. (birinchisi Neapol, 1537) deb atalib, unda turli hunarlar qatori musiqa (asosan, qo'shiqchilik) ham o'qitilgan.

KONSERT (lot. concerto – *musobaqalashaman*) – 1) oldindan e'lon qilingan dastur asosida san'atkorlarning maxsus joy (zal, sahna)da chiqishi; musiqa, adabiy, estrada asarlarini ommaviy ijro etish. K. dastlab mumtoz (simfonik, kamer, yakkaxon vokal hamda yakkanavoz cholg'u va b.) musiqa asarlarini ijro etilishi hamda tinglanishi uchun tashkil etilgan jamoa tadbiri sifatida namoyon bo'lgan; 2) Yevropa mumtoz cholg'u musiqasi janri, bir yoki bir necha yakkanavoz sozlar va orkestr uchun yozilgan musiqa asari. 17-a. oxiri – 18-a. I-yarmida Yevropa san'atida vujudga kelgan. Yakkavanovoz cholg'u bilan orkestr (yoki cholg'u guruhlari) o'rtasida ijodiy musobaqa, munozara K.ning o'ziga xos xususiyatidir.

KULOLLIK, KULOLCHILIK – hunarmandlikning loy (gil)-dan turli buyumlar (terrakota, sopol idish, qurilish materiallari va b.) tayyorlaydigan turi. K.da asosiy xomashyo – tuproq. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo'lgan tuproqlardan turli xil K. mahsulotlari tayyorlanadi. Loy qancha ko'p pishitsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi.

KUTUBXONA – bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasa; muntazam ravishda bosma asarlar toplash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot-bibliografiya ishlari bilan shug'ullanadi, ommaning madaniy saviyasini oshirishda faoliylik ko'rsatadi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish K.ning asosiy faoliyati bo'lib, qolgan barcha faoliyatlar (kitob fondini but-

lash va uni tashkil etish, fond mazmunini yoritish, uni kitobxon-larga yetkazish kabilar) asosiy faoliyat uchun xizmat qiladi.

KO'RGAZMA – insonning moddiy va ma'naviy faoliyati sohalaridagi yutuqlarni ommaviy namoyish etish. Hozirgi zamон K.lari maqsadlariga ko'ra, savdo K.lari (asosan, tijorat maqsadida uyushtiriladi), ma'rifiy-targ'ibiy (informatsion) K.lar (badiiy, ilmiy-texnika, sanoat, transport va b. sohalardagi yutuqlarni targ'ib qilish); davriyligiga ko'ra, muntazam o'tkaziluvchi (har yili, bir, ikki, uch yilda bir marta va h.k.), nomuntazam o'tkaziluvchi (yubileylar, kongresslar, qurultoylar yoki biror boshqa munosabat bilan). doimiy ishlaydigan K.lar; namoyish etiladigan eksponatlar mazmuniga ko'ra, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, fan, texnika va madaniyat sohalaridagi yutuqlar va mahsulotlar namoyish qilinadigan universal K., sanoat, qishloq xo'jaligi, san'at va b.ning bir yoki bir necha yondosh tarmoqlarini qamrab oluvchi ixtisoslashgan K.lar; qatnashchilari tarkibiga ko'ra, jahon, xalqaro, milliy, mintaqaviy va b.ga bo'linadi.

LAZGI – Xorazm xalq kuyi va raqsi. Kuy kichik muqaddima va 3 qismdan iborat. 6/8 o'lchovli gul ufori usulida ijro etiladi. Raqs sekin va oddiy harakatlar bilan boshlanadi – oldin barmoqlar, bilaklar, yelka va keyin butun tana jonlana boshlaydi. So'ngra birdaniga qo'l, oyoq, tana ishtirok etadigan murakkab harakatlar ulanib ketadi. Kuyning bir qismi takrorlangan holda raqs harakatlari almashib boradi. Kuy xarakteri o'zgarishi va sur'at tezlashishi bilan raqs tobora qizg'inlasha borib, keskin holda tamom bo'landi. Erkaklar (jangovar va qahramonlik ruhida) va ayollar (lirik, hazilomuz) raqlari farqlanadi.

LAPAR – bir yoki bir necha ijrochi tomonidan navbat bilan aytildigan bandli ashula shakli. L. ko'proq hajviy-tanqidiy, turmushdagi ayrim kamchiliklarni ifodalovchi mazmunda bo'ladi va raqs bilan ijro etiladi.

LIRIKA (lira) – badiiy adabiyotdagi 3 asosiy adabiy tur (epos, drama, lirika)ning biri. L.da mavjud obyektiv voqelikdan ko'ra ijodkor shaxsining his-tuyg'ulari, qalb kechinmalari, lirik qahramonning ichki dunyosi birinchi o'rinda turadi.

MAVSUM-MAROSIM QO'SHIQLARI – xalq og'zaki ijodining yil fasllarini belgilovchi, turli marosim hamda an'anaviy bayramlar jarayonida ijro etilgan qadimiy qo'shiq turlaridan.

MADANIY-MA'RIFIY ISH – keng ommani madaniy va ma'rifiy tarbiyalash, ularning umumiy madaniy saviyasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazishga ko'mak beruvchi tadbirlar tizimi. M.-m.i. mazmuni vazifasi, maqsadi har bir davrning ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy xususiyatlariga bog'liq holda shakllanib rivojlanadi. M.-m.i. keng ma'noda o'quv muassasalaridan tashqarida insonning madaniy va ma'naviy o'sishiga ko'maklashuvchi barcha ishlar (klub tashkilotlari, ommaviy kutubxonalar, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati)ni qamrab oladi, muzey, kinoteatr, teatr va b. muassasalar ishlari, shuningdek, radio va televide niye muhim o'rinni tutadi.

MADANIY MEROS – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmui.

MADANIYAT – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyat-lari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. «M.» tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik M.), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek M.i), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (mas., mehnat M.i, badiiy M., turmush M.i)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda «M.» atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI – aholi madaniy hordiq chiqaradigan, turli bezakli daraxt va gulzorlar bilan jihozlangan, ko'kalamzorlashtirilgan maskan. M. va i.b. bog' tuzish san'atining o'ziga xos uslublari asosida barpo etiladi.

MADANIYAT SAROYLARI VA UYLARI – yirik klub muassasalari. Aholining madaniy dam olishini uyushtirish maqsida quriladi. M.s. va u.da ko'p o'rinali tomosha va ma'ruza zallari, doimiy kinoqurilmalar, kutubxonalar, to'garak mashg'ulotlari, tasviriy san'at va b. uchun alohida xonalar bo'ladi. M.s. va u.da ko'rgazmalar tashkil qilinadi, ma'ruza, mavzuli kechalar, atoqli kishilar bilan uchrashuvlar, bayram kechalari va b. marosimlar o'tkaziladi. Turli badiiy to'garaklar ishlaydi. M.s. va u. faoliyati xalq ijodi va badiiy havaskorlikning barcha turlari rivojlanishiga

yordam beradi. Ularda xalq teatrlari, orkestr, xor, opera va xoreografiya jamoalari, ashula va raqs ansamblari ijod qiladi.

MAROSIM – 1) diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan ma'raka, yig'in: diniy marosimlar, to'y marosimlari, dafn marosimi va b; 2) tantanalar bilan o'tkaziladigan rasmiy yig'in: yubileylar, mukofot berish marosimi, haykalning ochilish marosimlari va b.

MA'NAVİYAT (arab. «ma'naviyat» – *ma'nolar majmui*) – kishilarning falsafiy, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. M. mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadi. Odamzod paydo bo'lib, ko'p ming yillik taraqqiyot jarayonida o'zini o'rab olgan tabiatni, turli hodisalar, voqealar, hayotiy jarayonlarni kuzatgan, ularning sabablari va qonuniyatları to'g'risida mushohada qilgan, turli tasavvur va tushunchalar hosil qilib kelgan.

MA'RIFAT (arabcha «arafa» – *bilmoq* so'zidan) – ta'limgartarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat. «M.» tushunchasi «ma'naviyat» va «madaniyat» tushunchalari bilan chambarchas bog'langandir; M. tarixi jamiyat tariхining ajralmas qismidir. M. haqida ko'plab fikrlar bildirilgan. So'fiylar nazarida tariqatning davomi va hosilasi M.dir. U fikrdan o'zib ketadigan va shubhaga zarracha asos qoldirmaydigan ilmdir.

MILLIY MADANIYAT – ma'lum bir elat, millat, xalq tomonidan uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan, ularning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini ifoda etgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmui. M.m.ga til, turmush tarzi, mentalitet, urf-odatlar, din, xalq ijodi, arxitektura, adabiyot, musiqa, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar va hokazolar kiradi.

MAQOM (arab. – *joy, makon, o'rin*) – musulmon Sharqi musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Dastlab muayyan balandlikdagi tovushni hosil etish uchun torli cholq'uning dastasida barmoq bilan bosiladigan joy, parda ma'nosida ishlatalgan. Keyinchalik Sharq musiqa nazariyasi rivojlanishi jarayonida M.ning mazmun doirasi tobora kengayib, bir-biriga nisbatan bog'liq boshqa ma'nolarni ham anglata boshladи: lad tuzilmasi, lad tizimi; muayyan pardalar zaminida vujudga kelgan kuy-ohanglar; shakl, janr; bir qismli yoki turkumli cholq'u va ashula yo'llari; musiqiy uslub va b.

MILLIY QADRIYATLAR – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlar, xususiyatlar, moddiy va ma’naviy boyliklar. M.q.i bo’lmagan millat yoki elat yo’q. Millat – M.q.ning sohibi; millatning tanazzuli – M.q.ning tanazzulidir. M.q.millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma’naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog’liq holda namoyon bo’ladi.

MONUMENT (lot. monumentum – *yodgorlik*) – yirik tarixiy voqeа, buyuk jamoat arbobi va b. sharafiga bunyod etilgan yirik hajmdagi yodgorlik, haykal. Odatda M. me’moriy ansamblida g’oyaviy va hajmli kenglikning asosini hosil qiladi yoki haykallি me’moriy majmuaning tarkibiga kiradi.

MUZEY (yun. musion – *muzalarga bag’ishlangan joy*) – tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni toplash, saqlash, o’rganish va targ’ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma’rifiy muassasa. M. xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy buyumlar, shuningdek, san’at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo’lgan tarixiy qimmatga ega qo’lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi. Zamonaviy ilmiy tasnidda M. tur va sohalar bo'yicha farqlanadi. Ijtimoiy vazifasiga ko’ra ilmiy tadqiqot-ma’rifat (M.ning asosiy qismini tashkil etadi, ba’zan ular xalq M., ommaviy M. deb ham ataladi), tadqiqot (ilmiy tadqiqot institutlari qoshida o’ziga xos laboratoriya vazifasini o’tovchi) va o’quv M.iga bo’linadi. Sohalar bo'yicha tarix, qishloq xo’jalik, tabiatshunoslik, san’atshunoslik, adabiyot, texnikaga oid va boshqa M.ga bo’linadi. Shuningdek, M.ning memorial muzeylar, majmua o’lkashunoslik kabi turlari bor. M.lar katta ilmiy tadqiqiy va tarbiyaviy ishlarni olib boradi: to’plamlarni butlaydi va o’rganadi: ilmiy hujjatlarni tayyorlaydi, muzey ashyolarini saqlash va ta’mirlash tartibini yaratadi, monografiya, katalog, yo’l-ko’rsatkichlar nashr etadi; zamonaviy muzeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tashviqotlar olib boradi.

MUZEY-QO’RIQXONA – tabiiy, tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni saqlovchi ilmiy-tadqiqiy va madaniy-ma’rifiy muassasa; tarkibiga ekspozitsiyadan tashqari qo’riqxona hududida joylashgan me’moriy, tarixiy va b. yodgorliklar ham kiramidan muzeylar. M.-q.ning tarixiy-badiiy, tarixiy-me’morlik, tarixiy-madaniy, harbiy-tarixiy, shuningdek kompleks (majmua) turlari bor.

MUMTOZ ADABIYOT – milliy va jahon badiiy madaniyati xazinasini tashkil etgan, ko'pchilik tomonidan tan olingen mashhur asarlar silsilasi.

«MUNOJOT» (arab. – *yalinish, yolvorish*) – yirik shakldagi o'zbek mumtoz cholg'u kuylar turkumi. 3 asosiy qismdan tashkil topgan: «M.», «Savti M.» va «Ufari M.». Turkumli ijroda ba'zan «Savti M.»dan keyin «Oromijon» nomli kuy ulanib, so'ngra «Ufari M.» yangraydi. Umumi parda tuzilishi hamda bosh kuy mavzui bo'yicha ular Dugoh va Chorgoh maqom yo'llariga mos keladi. «M.» turkumining tarkibiy qismlari bir-biridan asosan usul negizi bilan farqlanadi (saraxbor, kashqarcha, ufar). Shu bilan birga o'zbek musiqa merosida «Mo'g'ulchai M.», «Muxayyari M.», «Qashqarchai M.» nomli cholg'u kuylar ham mavjud.

MUSIQA (yun. *mousiche* – *muzalar san'ati*) – inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. M. insonning turli kayfiyatları (mas., ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadlik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va b.)ni o'zida mujassamlashtiradi.

MUSIQA MAKTABLARI, bolalar musiqa maktablari – boshlang'ich musiqa ta'limini beruvchi maxsus o'quv yurtlari. M.m.ga asosan umumta'lim maktablarida o'qiydigan iste'dodli bolalar va o'smirlar qabul qilinadi. M.m.da musiqa cholg'u asboblari (fortepiano, skripka, violonchel, truba, klarnet, akkordeon va b., o'zbek xalq cholg'ularidan – doira, qashqar rubobi, dutor, g'ijjak, chang, nay va b.)da chalish o'rgatiladi; musiqa savodi va elementar musiqa nazariyasi, solfejio, musiqa adabiyoti, xor qo'shiqchiligi bo'yicha ta'lim beriladi. O'qish muddati 5 (xalq, urma va puflama cholg'ulari bo'limlarida) va 7 (Yevropa cholg'u asboblari bo'limida) yil.

MUSIQA TANLOVLARI VA FESTIVALLARI – xonanda, sozanda, kompozitor, bastakor, musiqa jamoalari va b.ning ijodiy musobaqalari va konsert tadbirlari. Odatda, oldindan e'lon qilin-gan shartlar asosida o'tkaziladi. Sharq, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari madaniyatida M.t. va f. qadimdan rivojlanib, hozirgacha o'zining an'anaviy shaklida saqlanib kelgan: mas., qozoq oqinlari, o'zbek baxshilar, qoraqalpoq jirovlari, qirg'iz manaschilarining aytis (aytishuv)lari va b.

NAVO (fors. – *kuy, ohang*) – O'n ikki maqom tizimi hamda Shashmaqom tarkibidagi uchinchi maqom. Shashmaqomdag'i N.ning cholg'u qismlari Tasnifi N., Tarjei N., Garduni N., Nag'mai Orazi N., Muxammasi N., Muxammasi Bayot, Muxammasi Husayniy, Saqili N. deb ataladi. Ular muayyan kuy mavzulari va doira usullari negizida yaratilgan. N.ning ashula bo'limi 2 guruh sho'balarga bo'linadi. Birinchi – Saraxbori N. (2 taronasi bilan), Talqini Bayot (taronasi bilan), Nasri Bayot (2 taronasi bilan), Orazi N. (3 taronasi bilan), Husayniy N. deb nomlanuvchi sho'balar hamda Ufari Bayot (Suporishi bilan) qismlaridan tashkil topadi. Ular navbatma-navbat turkum tarzida turli doira usullarida aytildi. Ikinchi guruh sho'balar – Savti N., Mo'g'ulchai N. va Mustazodi N. deb yuritiladi. Ularning har biri Talqincha, Qashqarcha, Soqiyonna va Ufar kabi shoxobchalardan tuzilgan. N. sho'balar shakli ancha murakkab bo'lib, daromad, miyonxat, dunasr, avj va tushirim tuzilmalaridan tashkil topadi. N.ning sho'balarida, asosan, Oraz va Bayot namudlaridan avj sifatida foydalanilgan.

NAQQOSHLIK, naqshkorlik – amaliy san'atning qadimiy sohasi; naqsh yaratish kasbi. Naqqosh usta qog'ozga yoki matoga naqsh mujassamotini yoki naqsh taqsimini chizib oladi (ayniqsa, girih va islamiy kabi murakkab naqshlarda), axta, andoza tayyorlaydi.

NOTA (lot. nota) – 1) musiqa asarlarini yozib olish uchun qo'llanadigan yozuv belgisi; 2) musiqa asari yozilgan varaq, daftar, kitob va b.

OBIDA (arab.) – moddiy madaniyat yodgorliklari (q. Yodgorlik).

PARK (lot. parricus – oxoto qilingan joy) – kishilarning dam olishi uchun barpo etilgan bog‘.

PREMERA (frans. premure – birinchi) – spektakl, estrada, sirk tomoshalari, yangi kinofilm (telefilm) ning birinchi bor ommaviy namoyish qilinishi.

PRODYUSER, prodyuser (ing. producer, produce – yaratish) – rivojlangan mamlakatlarda film ishlashda g'oyaviy-badiiy va tashkiliy-moliyaviy jihatdan nazorat qilishni amalga oshiruvchi kinokompaniyaning ishongan kishisi. Rejissyor, aktyor, ssenariychilar ham P. bo'lishi mumkin.

RASM, qalamtasvir – tekis yuzaga qo'lda chiziq va nursoya (oq-qora bo'yoq dog'lari) yordamida ishlangan tasvir; rassomlik

san'ati (rangtasvir va grafika)ning ifoda vositasi. R.da asosiy ifoda vositasi chiziq bo'lib, qo'lda grafika vositalari qalam, pero va b. yordamida chegara chiziq (kontur chiziq) yoki qisqa va yuliq chiziq (shtrix)lar hamda bo'yoq dog'larida bir xil (axromatik) rangda bajariladi.

RASSOM (arab.) – tasviriy san'at sohasidagi ijodkor. Qog'oz, karton, mato va b. materiallarga, shuningdek, binolarning devor va shiftlariga turli usullarni qo'llagan holda badiiy asar yaratuvchi san'atkor. R. inson faoliyati, hayoti uchun zarur bo'lgan narsalar ning shaklini, hajmini yaratishga, ularni did bilan bezatishga ham hissa qo'shamdi (yana q. Rassomlik san'ati).

RASSOMLIK SAN'ATI – asarlari biror yuza (qog'oz, mato, taxta, devor va b.)ga bo'yoq (akovarel, moybo'yoq, tempera, guash, yelimbo'yoq), qalam, rangli tosh, shisha va h.k.da ishlanadigan tasviriy san'at turi.

RAQS – san'at turi. Bunda raqqos(a)ning garmonik tana harakati va holatlari, plastik ifodaviyligi va yuz imo-ishoralari, ritm, temp, kompozitsiya orqali obraz yaratish R.ning asosiy vositasidir. Insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan emotsiyonal taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik mustaqil san'at turiga aylangan. R. asrlar davomida takomillashib, barqaror shakkarga ega bo'la borgan. Ijrochining libosi R. obrazlariga aniqlik beradi.

REJISSYOR (lot. – *boshqaraman*) – spektakl, film, teleko'r-satuv va radio- eshittirishlarini, estrada va sirk dasturlarini sahnalashuvchi shaxs. O'z ijodiy o'ylari, maqsadi asosida tomoshaning barcha ishtirokchilari – aktyor, rassom, kompozitor, kinoda operator ishini birlashtirib, yangi tomoshaviy voqelik yaratadi (yana q. Rejissyorlik san'ati).

REJISSYORLIK SAN'ATI, rejissura – garmonik bir butun va muayyan yaxlitlikka ega bo'lgan tomosha, ko'rinish yaratish san'ati (teatr, kino, telefilm, sirk va estradada). Rej. sahna asari yoki kinofilm yaratish jarayonida ijodiy xodimlar – aktyor, yakkaxon, rassom, kompozitor (kino va televideniyeda operatorlarga ham) va yordamchi xodimlarga rahbarlik qiladi. R.s. drama teatrida pyesa tanlash, uning g'oyasi, janr va badiiy xususiyatlari, tasvirlanayotgan davr, muallifning ijodiy uslubini o'rganishdan boshlanadi.

REPERTUAR (frans. repertoire, lot. repertorium – *ro'yxat, izohlash*) – drama teatri, musiqali teatr, estrada konserti yoki

ayrim artist tomonidan ijro etiladigan asarlar majmui. R. uslubi va janriga ko'ra ham farqlanadi (romantik R., komediya R.i), «zamnaviy R.», «mumtoz R.» tushunchalari bo'ladi.

REPETITSIYA (lot. *repetitio – qaytarish*) – 1) teatr, estrada, sirk tomoshalari, konsert dasturlari, ayrim chiqishlar, sahnalarini (rej. rahbarligida) ko'p marta (butunlay yoki qisman) takrorlash orqali tayyorlashning asosiy shakli; 2) klavishli va b. musiqa asboblarida bir tovushning tez takrorlanishi; 3) fortepiano mexanizmi xususiyati, u bir tovushning o'zini tez takrorlash imkoniyatiga ega; oddiy (sekundiga 6-8) va murakkab (sekundiga 12) zarbli R. qilish mumkin bo'lgan fortepianolar mavjud.

RIVOYAT (arab. – *hikoya qilmoq*) – voqeа va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya; folklor janri. Hajmi qisqa. 2 yoki 3 epizod-dan tashkil topadi, an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Odatta, oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdan-og'izga o'tish jarayonida erkin talqin qilinadi.

ROL (frans.) – 1) sahnada, ekranda aktyor tomonidan ijro etilgan badiiy obraz. Hajviy (komedik), fojiaviy (tragik), dramatik, tragikomedik, shuningdek, birinchi (asosiy) va ikkinchi darajali (epizodik) R. bo'ladi; 2) aktyorning spektakl davomidagi nutqi; 3) ko'chma ma'noda vazifa, ahamiyat, mavqe, hissa va h.k.

SAYIL – yilning ma'lum fasllarida o'tkaziladigan sayillar, sayr-tomoshalar. S.lar odatta Navro'z va diniy bayramlar (Ro'za va Qurbon hayitlari)da va yilning qulay paytlarida tashabbuskor kishilar tomonidan tashkil etilgan. S. shaharlarda, registon maydonlarida, chorusu va rastalarda, shahar tashqarisidagi sayilgohlarda, shuningdek, qadamjolarda o'tkazilib, bir ikki hafta davom etgan. Sayilgohlarda oshxona, choyxona, nonvoxonalar qurilgan, meva-cheva, attorlik, baqqollik do'konlari ochilgan. Poyga, uloq, ko'pkari, kurash, chavgon musobaqalari, darvoz, hofiz, sozanda, raqqos, masxaraboz, qiziqchilarning chiqishlari, ayiq, ilon o'yinlari, tuya, qo'chqor, xo'roz, it urishtirish, mushakbozlik tomoshalari ko'rsatilgan.

SAN'AT – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. S. qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. Ibtidoiy S.ning dastlabki izlari so'nggi paleolit davriga, taxminan

mil. av. 40–20-ming yillikka borib taqaladi. U davrda hali S.inson faoliyatining mustaqil shakli sifatida ajralib chiqmagan edi. Chunki ma’naviyat moddiy ishlab chiqarish bilan qorishiq holatda edi. Keyinchalik madaniyatning o’sishi natijasida S. alohida soha sifatida asta-sekin ajrala bordi.

SAHNA – 1) teatr binosining tomoshabinga yaxshi ko’rinadigan, aktyorlar uchun qulay bo’lgan tomosha ko’rsatiladigan qismi; 2) pyesa va spektakllardan bir ko’rinish.

SIMFONIYA (yun. symfonia – ohangdoshlik) – simfonik musiqaning yetakchi janri, kompozitorlik yo’nalishidagi cholg’u musiqaning oliy shakli. Simfonik orkestr ijrosiga mo’ljallangan; ba’zi S.larda xor va yakkaxon xonandalar ham jalb etiladi. Bundan tashqari, torli orkestr, puflama sozlar orkestri va b. orkestrlarga mo’ljallangan S.lar ham uchraydi. S.ning mumtoz shakli umumiy g’oya va yaxlit dramaturgiyaga asoslangan 4 qismli turkumni tashkil etadi: 1-qismi – mavzularning qarama-qarshiligi hamda jadal rivoji bilan bog’liq bo’ladi; 2-qismi – lirik chekinish vazifasini bajaradi; 3-qismi – menuet yoki skerso xarakterida yoziladi; 4-qismi – ko’pincha tantanavor, jo’shqin xotimadir.

SPEKTAKL (lot. spectaculum – *tomosha*) – teatr san’ati asari. Postanovkachi-rejissyor boshchiligidagi teatr jamoasi (aktyorlar, rassom, kompozitor, baletmeyster va h.k.) tomonidan yaratiladi. S. asosida pyesa (opera va balet kompozitor partiturasi, libretto, szenariy) mazmuni bilan belgilanuvchi g’oyaviy niyat yotadi. Tanlangan pyesaning talqin rejalar, dekoratsiya va liboslarning eskizlari, rollar taqsimoti teatr badiiy kengashida muhokama qilinadi. Rejissyor pyesa va obrazlarning talqin vositalarini muayyan g’oya va badiiy shaklga bo’ysundiradi, S.ning ko’rinishlari, yechimi va ramziy ishoralarini rassom bilan hamkorlikda hal qiladi. Aktyorlar bilan ishlash, mizan-sahnalarni belgilash, sahnaviy obrazlar va ular o’rtasidagi munosabatlarni shakllantirish S. yaratish jarayonining hal qiluvchi shartlaridan biridir. S. sintetik asar bo’lgani uchun undagi bezak, jihoz, libos, pardoz, musiqa va raqs vositalari, chiroqlar va turli effektlar uni yanada boyitadi.

STUDIYA (ital. studio – *o’qish, o’rganish*) – 1) rassom yoki haykaltarosh ustaxonasi; 2) rassom yoki aktyorlar tayyorlaydigan maktab; 3) ijodiy faoliyat bilan bir qatorda sahna (yoki tasviriyl) san’ati asoslarini o’rganadigan, asosan, yoshlardan tashkil topgan teatr (yoki rassomlar) jamoasi. S.ning professional va havaskorlik

turlari bor; 4) badiiy va b. filmlar yaratuvchi ijodiy va texnik kino xodimlari jamoasi; 5) radioeshittirish va teleko'rsatuvlar olib bo'rildigan maxsus bino (radiostudiya, telestudiya); 6) ovoz yozish xonasi. Musiqiy asarlar ijrolarini elektr (magnitofon kabi) va elektron (sintezator va b.) vositalar yordamida yozib olib fonogramma tayyorlaydigan maxsus joy (mas., «Tarona rekord» S.si va b.).

SSENARIY (ital. scenario) – 1) pyesa mazmunining qisqa bu-yoni, improvizatsiya teatri, tomoshasi, balet spektakllari, ommaviy tomosha va b. o'yinlar yaratiladigan syujet tuzilishi; 2) kino san'ati va televideniye vositalari yordamida gavdalantirib ko'rsatishga mo'ljallangan adabiy asar.

SYUJET (frans. – *predmet, mazmun, narsa*) – badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda kechadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar tizimi. Barcha epik, dramatik va liro-epik turdag'i badiiy asarlardu S. mavjud bo'ladi.

«TANAVOR», «Tanovar» (fors. – *jasur, qudratli, kuchli*) – 1) o'zbek xalq lirik kuyi; Farg'ona vodiysida keng tarqalgan. O'n beshdan ortiq ashula va cholg'u yo'llari ma'lum. Ashula yo'llaridan ommaviylashgan «T.-1» xalq she'ri («Qora sochim») bilan, «T.-2» Muqimiyl she'ri («Endi sendek...») bilan aytildi.

TASVIRIY SAN'AT – rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakkarda ko'rgazmali obraslarda aks ettiradi. T.s. turlari o'z xususiyatlariga qarab real borliqni obyektiv mavjud si-fatlari – hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nur-havo muhiti, harakat va o'zgarishlari hissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretlilikidan illyuzionizmga o'tish mumkin.

TEATR (yun. theatron – *tomoshagoh*) – 1) san'at turi; uning o'ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. T. san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi.

TEATRLASHTIRILGAN OMMAVIY TOMOSHALAR – no-an'anaviy sahnalarda o'tkaziladigan, biror mavzu yoki sanaga bag'ishlangan, teatr elementlari bilan boyitilgan, ko'pchilik ishtirok etadigan tadbir.

TEATRSHUNOSLIK – teatr tarixi va nazariyasini o'rganuvchi fan. Mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida teatr san'atining umumiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda 20-a.da shakllangan. T. dastlab, asosan drama teatrлari faoliyati bilan bog'langan bo'lsa, keyinchalik opera va balet, operetta, musiqali drama, bolalar teatri, qo'g'irchoq teatri, teatr ta'limi, sahna nutqi, dekoratsiya san'ati, teatr libosi va pardozi, sahna harakati, havaskorlik teatri sohalari va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

TELEFILM – televide niye uchun mo'ljallab ishlangan film, ekran san'atining bir turi. Asosan, televide niye bazasida yaratiladi. Hujjatli, badiiy, musiqiy, ilmiy-ommabop, manzarali, tarixiy bo'ladi. To'liq va qisqametrajli filmlar ishlanadi. Katta kinodan ko'p qisqli televizion film va teleseriallar yaratishi bilan farqlanadi.

TRAGEDIYA (yun. *tragos* – *echki*, *ode* – *qo'shiq*; *tragodia* – *echki qo'shig'i*) – dramatik tur janrlaridan biri. T. qahramonlar o'rta sidagi kuchli ziddiyatlar asosiga quriladi; undagi qahramonlar taqdiri fojia bilan yakun topadi. T.da voqelik ancha jiddiy, ichki qarama-qarshiliklar o'tkir tarzda tasvirlanadi; konflikt shiddatli va keskin tus oladi. T. badiiy g'oyani ifodalovchi qahramonlar xarakterining yorqinligi, ichki harakatning yuksakligi hamda personajlararo konfliktning kuchliligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

FANTAZIYA (musiqada) – badiha uslubidagi janr; muayyan kompozitsion qoliplarga bog'lanmagan (ko'pincha cholg'u) musiqa asarlaridan iborat. XVI–XVII-a.larda improvizatsiya namunalari asosida yuzaga kelgan. XVIII-a.da klavir va organ uchun (ayniqsa, turkumli asarlarda muqaddima ko'rinishida) F.lar keng rivoj topdi (I.S. va K.F.E. Baxlar, V. A. Motsart va b.).

FANTASTIKA (yun. *phantastike* – *xayolan tasvirlash san'ati*) – badiiy san'at turi. F. realizm va naturalizm yo'nalishidagi san'at, adabiyotlarning aksi. Ayrim o'rinda F. realizm bilan ham qo'shilib ketadi. F.ning shakli mifologik tushunchalarni, ertaklarni tasvirlashda ko'rindi.

FILM (ing. *film* – *plyonka*), kinofilm – birin-ketin plyonkaga tushirilgan foto tasvirlar majmui, ular bir syujet asosida suratga olinib, ekran orqali ko'rsatishga mo'ljallanadi; kino san'ati asari.

XALQ IJODI – xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati; an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi (musiqa folklori),

xalq teatri (tomosha san'ati), xalq o'yinlari (raqs), qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari (xalq sirk), xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari.

XALQ KUYLARINI QAYTA ISHLASH – professional musiqa – bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti sohasi, muayyan janr. Ko'p ovozli musiqa zaminida aranjirovka, garmoniyalashga qisman yaqin, lekin usluban birmuncha murakkab. Kompozitorlik maktablari shakllanishida X.k.q.i. muhim ahamiyatga ega bo'lib, dastlabki bosqich vazifasini bajaradi, zero milliy musiqa uslublarini o'zlashtirishda ijodiy laboratoriya vazifasini o'taydi.

XALQ MUSIQA CHOLG'ULARI – xalqlar o'rtasida keng tarqalgan musiqa cholg'ulari. Har bir xalqning o'ziga xos X.m.ch. – torli, puflama va urma turlari bor; ruslarda – domra, balalayka, gusli, jaleyka, bayanlar; ukrainlarda – bandura, kavkazliklarda – tar, soz; italyanlarda – mondalina; ispanlarda – gitara. O'zbek cholg'ulari ham nihoyatda rang-barang bo'lib, ular qatoriga nay, do'mbira, dutor, tanbur, sato, g'ijjak, chang, qo'shnay, karnay, sur-nay, nog'ora, doira va b. kiradi.

XARAKTER – adabiyot va san'at asarlarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o'zida fe'l-atvor (xatti-harakat, kechima, fikriy va nutqiy faoliyat)ning tarixan aniq tipini mujassamlantirgan, shuningdek, muallifning ma'naviy-estetik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi.

XATTOTLIK (arab. – husnixat yozuvchi), kalligrafiya – yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalarini yaratish kasbi. Yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi.

XOREOGRAFIYA (yun. choreia – *raqs* va ... *grafiya*) – 1) shartli belgililar asosida yoki so'zlar bilan bayon etish orqali raqsni yozish. XV-a. oxiridan raqsni yozish bo'yicha urinishlar bo'lgan bo'lsa-da, asosan, XVII-a. oxiri – XVIII-a. boshlaridagina bal va sahna raqsi nazariyasini ishlab chiqilgani tufayli bir guruh fransuz baletmeysterlari va raqs o'qituvchilari raqsni yozib olish tizimini ishlab chiqdilar.

SIVILIZATSIYA (lot. cuvilis) – fuqarolikka, davlatga taalluqli), tamaddun – 1) keng ma'noda – ongli mavjudotlar mavjudligining har qanday shakli; 2) madaniyat so'zining sinonimi. Bu termin ko'pincha moddiy madaniyat ma'nosida ham qo'llaniladi;

3) madaniyatning zamon va makonda chegaralangan tarixiy tipi (Misr S.si, Mesopotamiya S.si va b.); 4) yovvoyilik va vahshiylik-dan keyingi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi.

SIRK (lot. *circus* – *doira, aylana*) – san’at turi. Akrobatika, gimnastika, ekvilibristika, klounada, jonglyorlik, polvonlik, illyuzionizm, ot o‘yinlari, dorbozlik, hayvon o‘rgatish kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Sirk artisti aql bovar qilmaydigan o‘yinlar ko‘rsatib, insonning cheksiz imkoniyatlarini namoyish etadi, uning aqli, epchilligi, jasurligi, kuch-qudratini ulug‘laydi va S.ning o‘ziga xos badiiy ifoda vositalari orqali ruhan va jismonan barkamol insonning umumlashgan badiiy obrazini yaratadi.

CHOLG‘ULASHTIRISH – musiqiy ijod turi; musiqa asarini muayyan cholg‘ u ansambl yoki orkestr (orkestrlash) tarkibi va ijrosiga mo‘ljallab moslashtirish. CH. jarayonida kompozitor cholg‘ular xususiyati va ifodaviy imkoniyatlari, shuningdek, asarning badiiy mazmunidan kelib chiqqan holda ovoz yo’llarining qaysi sozda ijro etilishini belgilaydi. CH. yangi asarni ijod etish paytida hamda mavjud asarni boshqa musiqa jamoasi ijrosiga moslashtirish (aranjirovka) jarayonida namoyon bo‘ladi. CH. maxsus musiqa o‘quv yurtlarida ixtisoslashgan fan sifatida o‘qitiladi.

SHASHMAQOM (fors. – *olti va maqom*) – o‘zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida markaziy o‘rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o‘zaro uzviy bog‘langan mumtoz kuy va ashulalar majmui. U muayyan shart-sharoitlarda musiqiy folklor hamda kasbiy musiqa yo‘nalishlarida orttirilgan ko‘p asrlik ilmiy-ijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. SH. milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqa an‘analarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodni san’atining qomusiy mahsulidir.

SHE‘R (arab, shuur – *sezgi*) – fikrning his-tuyg‘uga qorishiq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she‘riy nutq bilan ifoda etilgan, ma’lum ichki ohangga ega badiiy asar. «SH.» atamasi o‘rniga ba’zan «nazm» so‘zi ham qo‘llanadi.

SHE‘RIYAT, poeziya – she‘riy asarlar majmui. Dastlab SH. deyilganda, umuman badiiy adabiyot tushunilgan. SH. badiiyatga daxldor sanalgan. Insoniyat tarixida faqat she‘r shaklida yozilgan bitiklargina so‘z san’atiga tegishli hisoblab kelingan.

EKSPOZITSIYA (lot. *Expositio* – *ko‘rsatish, bayon etish*) – badiiy asar, moddiy madaniy yodgorliklar, tarixiy hujjat va b.ning

ko'rgazma va muzey zallarida yoki ochiq joylarda ma'lum tizimda joylashtirilishi. Doimiy va davriy E.ning maqsadi barcha eksponatlarni ularning badiiy va ilmiy qiymati, tarixiy badiiy jarayondagi o'rni, materiallarning ahamiyatini mukammal yoritib berishdir. E.erkin yoki tomoshabinlarning tanishish yo'nalişlarini hisobga olgan holda tuziladi. Zamonaviy sharoitda E. eksponatlarni saqlash qoidalariga javob beradigan maxsus uskunalar, eksponatning qisqacha xarakteristikasi hamda E. xususiyatlari, asarlari bayon qilingan ixcham matnlari bilan ta'minlanadi.

EKSPONAT (lot. expono – *ko'rgazmaga qo'yilgan*) – muzey va ko'rgazmalarga qo'yiladigan va namoyish qilinadigan narsa (badiiy asar, tarixiy hujjat va h.k.).

EPOS (yun. epos – *so'z, hikoya*) – 1) badiiy adabiyot turi (lirika va drama bilan bir qatorda); 2) xalqning qahramonona o'tmishini aks ettiruvchi asar. E. adabiyotning uch turidan biri sifatida tafsilot tasviriga tayangan badiiy asarlar jamiini anglatadi. Unda muayyan makon va zamonda kechadigan voqeа-hodisalar tafsiloti, albatta, mavjud bo'ladi. E.da so'z yordamida o'quvchi ko'z o'ngida real hayot manzaralariga muvofiq keladigan badiiy voqelik yaratiladi.

ERTAK – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli-sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M. Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi.

ESTRADA (ispancha estrado – *taxtasupa*), estrada san'ati – 1) keng ma'noda – ko'ngilochar, ommabop badiiy (abadiy, musiqi, raqs, tomoshaviy va b.) janr va shakllarning umumiy ifodasi; 2) tor ma'noda – sahnaviy professional san'at turi. Rossiya va b. ba'zi mamlakatlarda E., Angliyada myuzik-xoll, Fransiyada varete, kafe-shantan, kabare, AQShda shou, revyu kabi atamalar bilan yuritiladi. E.ning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lsa-da, u muayyan (tijorat-ommabop) san'at turi sifatida XIX-a.da Yevropa yirik shaharlarining demokratik ijtimoiy-madaniy muhitida yuzaga kelgan.

ETYUD (frans. etude – *aynan mashq, o'rganish*) – 1) tasviriy san'atda borliq (natura)dan uni o'rganish maqsadida yaratilgan asar. Ijodkor badiiy asar (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) yaratish jarayonida E.dan yordamchi manba sifatida foydalanadi.

YUMOR (lot. humor – *xilt*) – kulgi bilan xayrixohlikni o'zida mujassam etgan komiklik turi. Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi ba'zi kamchilik-nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi.

YALLA – o'zbek xalq ijodida keng tarqalgan, raqs bilan ijo etiladigan qo'shiq turi. Xalq so'zi, mumtoz va zamonaviy shoirlar she'rlariga aytildi. Y. yakka, ko'pincha 2 va undan ortiq ijrochi tomonidan (doira va cholg'u ansambli jo'rligida) ijo etiladi. Ak-sariyat Y.lar ishq-muhabbat mavzuida bo'lib, jozibali, o'ynoqi xarakterga ega.

O'YIN – tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. O'. insoniyatning butun tarixi mobaynida diniy marosim, sport, harbiy va b. mashqlar, shuningdek, san'at, ayniqsa uning ijo shakllari bilan qo'shilib kelgan. Ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin, o'qish, mehnat, dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi.

O'YMAKORLIK – amaliy san'atning qadimiyligi va keng tarqalgan turi; yog'och, ganch, metall, tosh, suyak, terrakota va b.ni o'yish, yo'nish, kesish yo'li bilan badiiy shakl yasash san'ati. Buyumlar, turli asboblarni nafislashtirishda, binolarni bezashda, kichik shaklli haykaltaroshlik kompozitsiyalari yaratishda keng qo'llanadi.

O'LKASHUNOSLIK MUZEYLARI – ilmiy tadqiqot va madaniy-ma'rifiy muassasa. Ma'lum geografik yoki ma'muriy hududning tarixiy yodgorliklari, tabiiy, ilmiy va badiiy to'plamlari, xalq san'ati asarlarini yig'adi, saqlaydi, ilmiy o'rganadi, ko'rgazmalar uyuştiradi va targ'ib qiladi.

QADRIYATLAR – borliq, jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Q. bilan bog'liq masalalar hayotning eng asosiy mavzulari bo'lib hisoblanadi.

QO'G'IRCHOQ TEATRI – teatr san'ati turi. Chodir ichida yoki parda ortida yashiringan aktyor-qo'g'irchoqbozlar tomonidan harakatga keltirib ko'rsatiladigan qo'g'irchoqlar tomoshasi. Qo'g'irchoqlarning turi (to'la, yassi, shartli yoki natural), boshqarish tizimi (ip bilan boshqariladigan, qo'lga kiyiladigan, soyasi tu-shiriladigan, simli va mexanik) va katta-kichikligi (bir necha santiyedan tortib odam bo'yidan ham yuqori qo'g'irchoqlar) bilan bog'liq holda xilma-xil shakllari yuzaga kelgan.

HAVASKORLIK TEATRI – teatr san'ati bilan asosiy mashg'ulotlaridan tashqari shug'ullanadiganlar teatri.

HAJVIYA – badiiy adabiyot turlaridan: satira va yumor. Hajviy asarlar tanqidiy ruhda bo'ladi. O'tmishda Sharq xalqlari, shu jumladan, o'zbek adabiyotida, asosan, she'riyat va folklorda mustaqil janr sifatida rivojlangan. Ularda jamiyat hayotining, shuningdek, ayrim guruh yoki shaxslarning aksariyat yomon tomonlari tasvirlanadi.

HOFIZ (arab. – *yoddan biluvchi, saqllovchi*) – VII-a.dan arab-larda Qur'on suralarini yoddan qiroat bilan o'quvchi kishi, qori. XI-a.dan musulmon Sharq mamlakatlari (jumladan, O'rta Osiyo va Xuroson)da mumtoz g'azal va dostonlarni yoddan aytgan kishilar, shuningdek, o'zi ham ijodkorlik qobiliyatiga ega, kuyohanglarni esda saqlash quvva (hofiza)si o'tkir bo'lgan, yuqori malakali ashulachi, xonanda (mas., To'ychi hofiz, Levicha hofiz, Madumar hofiz va b.).

HUJJATLI FILM – kino san'ati turi. Unda haqiqiy voqealar kinosurati material bo'lib xizmat qiladi. 1-hujjatli kinosuratnlarni aka-uka Lyumerlar 1895 y. (Fransiyada) olishgan. O'zbekistonda 1-H.f.ni Xudoybergan Devonov suratga olgan. Ovozsiz kino davriga mansub H.f.larda asosan tasvir hal etuvchi rol o'ynagan, voqealar mazmuni titr (yozuv)larda izohlangan, g'oyaviy yo'nalishda voqe obrazi hukmronlik qilgan. Ovozli kinoga o'tilgach, film voqealarini diktorlar tomonidan sharhlangan.

HUNARMANDCHILIK, hunarmandlik – milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi; shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi.

USLUBIY KO'RSATMA VA TOPSHIRIQLAR

• XVII – XIX asrlarda Qo'qon, Xiva va Buxoroda madaniyat va san'atning holati haqida tasavvurlaringizni alohida referat tarzida tayyorlab keling.

• Chor Rossiyasining istilosiga oqibatlari va markaziy Osiyoga yevropacha madaniyatning kirib kelishi haqida gapirib bering.

• Ma'rifatparvarlik va «jadidchilik» harakatlarining vujudga kelishi haqida gapirib bering.

• Jadidlarning «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Buxoroi Sharif», «Turon», «Kengash», «Hurriyat», «Ulug' Turkiston» ro'znomalari, «Oyina» jurnali haqida ma'lumotlar to'plab, ularning xalqimiz madaniy-siyosiy ongi o'sishiga qo'shgan hissasiga ko'ra tartiblab chiqing.

• «Evolyutsion» atamasiga ta'rif bering.

• Ijtimoiy-madaniy faoliyatning shakllanish bosqichlarini asoslab bering.

• Ijtimoiy-madaniy faoliyatning sobiq sho'rolar davridagi hohlatini izohlang.

• Qiziqliklarni tarbiyalash metodikasini asoslang.

• Badiiy havaskorlik ijodiyotiga bo'lgan ehtiyojar tasnifini shakllantiring.

• Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi faoliyat yurituvchi sohalar qaysilar?

• Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining kasb malaka darajalarini aniqlovchi mezonlarni izohlang.

• Ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy vazifalarini aytib bering.

• Ijtimoiy-madaniy faoliyat tadbirlarining o'ziga xos xususiyatlarini aytинг.

- Ijtimoiy-madaniy faoliyatning g'oyaviy-emotsional vositaliga kamida o'nta misol topib yozing.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarbiyaviy, ma'rifiy, ijodiy va dam olish ishlarining o'ziga xos birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shunday ekan, ijtimoiy-madaniy faoliyat usullarini mazkur yo'tnalishlar bo'yicha tasniflab bering.
- Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish usulida ommani faollashtirish yo'llarini ko'rsating.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyat usullarining o'zaro bir-biri bilan bog'liqligini izohlab bering.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyatning axloqiy andozalarini sanab bering.
 - Ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi ijtimoiy-madaniy faoliyat doirasida badiiy ijodiyot bilan shug'ullanuvchilarga o'z xatti harakatlari uchun mas'uliyatli bo'lishda ko'maklashish yo'llarini izohlang.
 - Jamiyatdagi an'ana, marosim, bayram, urf-odatlarning o'tkazilishini ma'lum tartib asosida muvofiqlashtirib borish bo'yicha turmushdan olingan misollarni keltiring.
 - Tarbiya va ta'lif uyg'unlighining mohiyatini izohlang.
 - Global axborot asrida tarbiyaviy jarayonga ko'rsatiladigan tashqi va ichki ta'sirlar majmuuni shakllantiring.
 - Tarbiyaviy jarayonda ota-onalar rolini ochib bering.
 - Tarbiyaviy jarayon samaradorligini ta'minlashda ijodkorlik omilining rolini izohlab bering.
 - «Inson kapitali» tushunchasiga ta'rif bering.
 - Ijtimoiy-madaniy faoliyat orqali inson salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslang.
 - Bilimlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va rolini izohlang.
 - Iste'dodlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va rolini izohlang.
 - Mehnat omilining inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va rolini izohlang.
 - Nodavlat madaniyat va san'at muassasalarini aytib bering.
 - Ijtimoiy-madaniy faoliyatda inson omilini faollashtirish imkoniyatlarini izohlang.
 - Madaniyatning falsafiy talqinini ta'riflang.
 - Madaniyatga faoliyat nuqtayi nazaridan yondashing.

- Madaniyatga texnologik nuqtayi nazaridan yondashing.
- Madaniyatga gumanistik nuqtayi nazaridan yondashing.
- Madaniyatni «kultura» termini orqali izohlang.
- Madaniy pragnozlarni izohlang.
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarida mafkuraviy ta'sirlardan odamlarni ma'naviy himoyalash yo'llari haqida so'zlab bering.
- Zombi tushunchasining mazmunini izohlang.
- Qadriyatlar qatoridagi mantiqni izohlab bering.
- Zombi qilish bosqichlarini tushuntiring.
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarida yoshlar mafkuraviy immunitetini tarbiyalash yo'llarini tushuntiring.
- Ma'naviyat va shaxs ijtimoiy faolligi bog'liqlikni izohlang.
- Madaniyat va muhabbat hodisalari o'rtaсидаги uyg'unlikni izohlab bering.
- O'zbek mentalitetining evolyutsion o'zgarishlari bosqichlarini yoritib bering.
- Insoniylik omilining kommunikativ omilni rivojlantirishdagi o'rnnini izohlab bering.
- Ijtimoiy mo'ljal hodisasining mohiyatini izohlang.
- Yoshlarning o'zini o'zi baholash xususiyatlarini tushuntirib bering.
- Yoshlardagi bo'sh vaqt taqsimotini tahlil eting.
- Shaxsning prognostik mo'ljallarini tahlil qiling.
- Tarbiya va ta'lim uyg'unligining mohiyatini izohlang.
- Global axborot asrida tarbiyaviy jarayonga ko'rsatiladigan tashqi va ichki ta'sirlar majmuini shakllantiring.
- Tarbiyaviy jarayonda ota-onalar rolini ochib bering.
- Tarbiyaviy jarayon samaradorligini ta'minlashda ijodkorlik omilining rolini izohlab bering.
- «Inson kapitali» tushunchasiga ta'rif bering.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyat orqali inson salohiyatlari rivojlantirish imkoniyatlarini asoslang.
- Bilimlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va rolini izohlang.
- Iste'dodlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va rolini izohlang.
- Mehnat omilining inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va rolini izohlang.

- Milliy yakdillikka rahna soluvchi illatlarni sanang.
- Mahalliychilikdan iborat jaholatga qarshi ma'rifiy kurash usullarini tasniflang va asoslab bering.
- Mustaqillik davrida madaniyat va san'atning rivojlanishiga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, qabul qilingan qarorlar to'g'risida yozma referat topshiring.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyat va xalqning badiiy madaniyati o'rtaсидаги aloqadorlikni izohlab bering.
- Tashkilot madaniyati ta'rifini bering.
- Tashkilot madaniyati turlarini ayting.
- Jamoaviylik va tashkilotchilik madaniyati tushunchalar o'rtaсидаги umumiy va farqli jihatlarni aniqlang.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyat tadbirlari tasnifini bering.
- Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning maqsadini izohlang.
- Madaniy-ma'rifiy tadbirlar auditoriyasini tavsiflang.
- Davra suhbatlarining ma'rifiy ahamiyatini ochib bering.
- Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ijtimoiy fikrni o'rganib borishning ahamiyatini izohlang.
- Madaniy tadbirlarda ssenariyning rolini izohlang.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyatda vertikal yondashuv mohiyatini izohlang.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyatda gorizontal yondashuv mohiyatini izohlang.
- Pozitiv asosdagagi ijodiyot mohiyatini izohlang.
- Abu Nasr Farobiyning vertikal va gorizontal yondashuv haqidagi qarashlarini izohlang.
- O'smir yoshlarning turli hayotiy vaziyatlarga bo'ladigan yondashuvlari mohiyatini ochib bering.
- Maqsad va faoliyat o'rtaсидаги uyg'unlikni ochib bering.
- To'garaklar faoliyatini tashkil etishda vertikal munosabatlar o'rnini ochib bering.
- To'garaklar faoliyatini tashkil etishda gorizontal munosabatlar o'rnini ochib bering.
- Gorizontal yondashuvda «siz» olmoshining o'rni va rolini ochib bering.
- Ijtimoiy-madaniy faoliyatda mehr omilining rolini ochib bering.
- Insonning ma'naviy salomatligi tushunchasini izohlang.
- Umr qadriyatini targ'ib etish o'ziga xosligini ochib bering.

- Ekzistensial yondashuvning mohiyatini ochib bering.
- Akmeologiya hodisasiga ta'rif bering.
- Madaniyat va ma'rifat muassasalari faoliyatining uyg'unligi qanday namoyon bo'ladi.
 - Kompromiss va konsensus atamasiga ta'rif bering.
 - Xalqimiz tarixidagi to'rt asrlik madaniy va siyosiy tanazzul davrini izohlang.
 - «Men», «Biz», «Siz» olmoshlarining ijtimoiy-madaniy hayotda namoyon bo'lishini asoslang.
 - O'zaro yakdillikning besh darajasini asoslab bering.
 - Havaskorlik ijodiyotiga umumiyligi ta'rif bering.
 - To'garaklarga aholini jalb etish tamoyillarini izohlang.
 - To'garaklarning barqaror ishlashi mezonlarini ko'rsating.
 - Ekstraopolyatsiya tushunchasini ta'riflab bering.
 - Qiziqishni ehtiyojga aylantirish xususiyatini izohlang.
 - To'garaklarda ideal shaxs va ibrat omilining rolini izohlang.
 - Vorisiylik hodisasining mazmun-mohiyatini ochib bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2015.
2. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: 1998.
3. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: 2000.
4. M. Abdullayev. Madaniyatshunoslik asoslari. –Farg'ona: 1998.
5. T. Abdurahimov. O'zbek xalq o'yinlari va tomoshalari. –T.: 1997.
6. Б. Абдурахимова. Культура – как объект инвестирования. –Т.: 1998.
7. S. Abduholiqov. Madaniyat tarixi va uning masalasi. –T.: 1992.
8. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1-jild. –T.: 1998.
9. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. –T.: 1992.
10. Avesto. Tarixiy – adabiy yodgorliklar (Asqar Mahkam tarjimasi). –T.: 2001.
11. Ajodolar o'giti. –T.: 1993.
12. Античное наследия в культуре Возрождения. –М.: 1994.
13. A. Asqarov. O'zbekiston tarixi. –T.: 1994.
14. A. Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –T.: 2007.
15. S. Atamuradov, S. Xusanov, J. Rametov. Ma'naviyat asoslari. Ma'ruza matnlari. –T.: 2000.
16. A. Ashirov. «Avesto»dan meros marosimlar. –T.: 2001.
17. A. Ashirov. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. –T.: 2007.

18. A. Ashirov, Sh. Ahmadjonov. Etnologiya. –Т.: 2007.
19. Е. Ахунджанов. Писменная культура Средней Азии. –Т.: 2000.
20. B. Axmedov. O'zbek ulusi. –Т.: 1992.
21. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 13-jild. –Т.: 1966.
22. Е. Ахмедова, Р. Габидулин. Культурология. –Т.: 2001.
23. A. Erkayev. Ma'naviyat – millat nishoni. –Т.: 1997.
24. С. Богусловская. Механизм культурной приемственности. –М.: 1989.
25. F. Boynazarov. Antik dunyo. –Т.: 1983.
26. O. Bo'riyev. An'anaviy uy qurish bilan bog'liq rasm-rusmlar (o'zbek xalqi boqiy qadriyatlar). –Qarshi: 2005.
27. O. Bo'riyev, D. Xoliqov. Turkona an'ana va udumlar -- millat ko'rki. –Т.: 1998.
28. M. Bekmurodov, M. Rashidova. Muzeysenoslik. –Т.: 2005.
29. M. Bekmurodov. O'zbek mentaliteti. –Т.: 2006.
30. G. Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. –Т.: 1990.
31. Vatan madaniyati tarixi. –Т.: 1995.
32. Восток и Запад. –М.: 1988.
33. Sh. Galiyev. O'zbek bolalar o'yin folklori. –Т.: 1998.
34. E. Gulmetov. T. Qobiljonova, Sh. Ernazarov, A. Mavrufov. Madaniyatshunoslik. Ma'ruzaalar matni. –Т.: 2000.
35. A. Гелдиев. Национальная культура и личность. –Т.: 1993.
36. И. Джабборов, Г. Древянская. Духи, святыни, боги Средней Азии. –Т.: 1993.
37. Древний Восток и мировая культура. –М.: 1981.
38. B. Ерасов. Культура, религия и цивилизация на Востоке. –М.: 1990.
39. I. Jabborov. O'zbek xalq etnografiyasi. –Т.: 1994.
40. I. Jabborov. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. –Т.: 1999.
41. I. Jabborov. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. –Т.: 2003.
42. A. Jalolov. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti. –Т.: 1991.
43. R. Jumaniyozov. Xalq ijodiyoti – haq ijod. –Т.: 1992.

44. M. Jo'rayev. Ipak yo'li afsonalari. –Т.: 1993.
45. B. Захидов. Три Титана. –Т.: 1973.
46. A. Ziyoyev. O'zbek davlatchiligi tarixi. –Т.: 2000.
47. С. Иконникова. Диалоги о культуре. –Л.: 1987.
48. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (adab durdonalari). –Т.: 1990.
49. M. Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. –Т.: 1998.
50. Искусства стран народов мира. Энциклопедия. –М.: 1956–1978.
51. О. Кавутович. Вечный Египет. –М.: 1989.
52. М. Каган. Искусства и система культуры. –М.: 1979.
53. B. Karimov. Millat, inson va til: taraqqiyot muammolari. –Qarshi: «Nasaf», 2003.
54. Б. Кармышева. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М.: 1976.
55. O'. Karomatov. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. –Т.: 2008.
56. Д. Касамби. Культура цивилизации древней Индии. –М.: 1986.
57. M. Kosven. Ibtidoiy madaniyat tarixidan. –Т.: 1960.
58. Л. Куббел. Страна золотого века, культура. –М.: 1990.
59. Культура Древнего Египта. –М.: 1986.
60. Культура эпохи Возрождения. –М.: 1986.
61. К. Куманецкий. История культуры древней Греции и Рима. –М.: 1990.
62. Н. Лукошин. Пол жизни в Туркестане. –Т.: 1916.
63. A. Mavrusov. Ma'naviyatni sog'lomlashtirish davri. –Т.: 1996.
64. Madaniyat va jamiyat. –Т.: 1993.
65. Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni. –Т.: 2000.
66. N. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. –Т.: 1976.
67. Е. Маркарян. Теория культуры и современная наука. –М.: 1989.
68. B. Массон. Средняя Азия и Древний Восток. –М.: 1964.
69. T. Mahmudov. «Avesto» haqida. –Т.: 2000.
70. I. Mahkamov. Axloq-odob saboqlari. –Т.: 1994.
71. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. –Т.: 1963.

72. R. Mahmudov. *Huquq va madaniyat*. –Т.: 1964.
73. S. Mahmudov. *O'zbek udumlari*. –Т.: 2007.
74. Ma'naviyat asoslari. –Т.: 2000.
75. Ma'naviyat yulduzlari. –Т.: 1999.
76. Milliy urf-odat, marosim va an'analarning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni. –Т.: 1999.
77. Moziydan taralgan ziyo. –Т.: 1998.
78. Mustaqil O'zbekiston tarixi. 3-kitob. –Т.: 2001.
79. Мусулманские праздники. –М.: 1990.
80. M. Murodov, U. Qoraboyev, R. Rustamova. Etnomadaniyat. –Т.: 2003.
81. Mustaqillik, ilmiy-ommabop lug'at. –Т.: 1998.
82. A. Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi. –Т.: 1994.
83. Muxtasar. –Т.: 1992.
84. I. Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. –Т.: 1994.
85. Г. Пугаченкова. Из художественной сокровищницы Среднего Востока. –Т.: 1987.
86. G. Pugachenkova. Temurning me'moriy merosi. –Т.: 1991.
87. Г. Пугаченкова, Л. Ремпел. Очерки истории искусства Средней Азии. –М.: 1982.
88. Г. Пугаченкова. Миниатуры Средней Азии. –М.: 1974.
89. Г. Пугаченкова. Шедевры Средней Азии. –М.: 1986.
90. A. Ro'zmetov. Madaniyatda menejment va iqtisodiyot asoslari. –Т.: 1998.
91. Н. Разумович. Политическая и правовая культура. –М.: 1989.
92. Rahmatulloh Turkistoniy. Ilm va Iymon. –М.: 1993.
93. M. Rahmonov. O'zbek teatri. 1-jild. –Т.: 1975.
94. A. Sagdullayeva. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarida. –Т.: 1996.
95. B. Sarimsoqov. O'zbek marosim folklori. –Т.: 1986.
96. F. Sulaymonova. Sharq va G'arb. –Т.: 1997.
97. N. Sodiqova. XIX–XX asrlarda o'zbek milliy kiyimlari. –Т.: 2001.
98. G. Soatov. Madaniyatshunoslik. –Qarshi: 2000.
99. Е. Тайлор. Первобытная культура. –М.: 1989.
100. В. Тимошинов. Культурология. –Алмати: 1997.
101. С. Толстов. Древняя культура Узбекистана. –Т.: 1943.

102. C. Tolstov. Древний Хорезм. –М.: МГУ, 1948.
103. Temur tuzuklari. –Т.: 1991.
104. Теория и история культуры. –Т.: 1992.
105. Turon Usmon. Turkiy xalqlar mafkurası. –Т.: 1995.
106. O'zbekiston tarixi va madaniyati. –Т.: 1992.
107. O'zbekiston san'ati. –Т.: 2001.
108. O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. –Т.: 2006.
109. A. Umarov. Yuksak san'at yo'lida. –Т.: 1990.
110. A. Umarov. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. –Т.: 2004.
111. O. Usmon. Bahouddin Naqshband va uning tariqati haqida. –Т.: 1993.
112. Forobi. Fozil odamlar shahri. –Т.: 1993.
113. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. –Т.: 1985.
114. Firdavsiy. Shohnoma. –Т.: 1986.
115. M. Xayrullayev. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. –Т.: 1994.
116. O. Hakimova. Mantiq va nutq madaniyati. –Т.: 2002.
117. Xiva – ming gumbaz shahri. –Т.: 1997.
118. M. Xolmatova. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. –Т.: 2000.
119. Sharofuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. –Т.: 1997.
120. S. Shermuhamedov, A. Ochildiyev. Madaniyat va sivilizatsiya. –Farg'ona: 2000.
121. K. Shoniyozirov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. –Т.: 2001.
122. E. Yusupov. Ma'naviyat va jamiyat taraqqiyoti. –Xo'jand: 1996.
123. У. Карабаев. Этнокультюра. –Т.: 2005.
124. U. Qoraboyev. O'zbek xalqi bayramlari. –Т.: 2002.
125. U. Qoraboyev. Madaniy tadbirilar. –Т.: 2004.
126. Qur'oni Karim. –Т.: 2001.
127. N. G'oyibov. Amir Temur davri ma'naviyati. –Т.: 2001.

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
------------------------	----------

I. IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATNING TARIXIY BOSQICHLARI

1.1. Tosh davridagi qadimgi madaniyat izlari (miloddan avvalgi 100–3-mingyilliklar)	6
1.2. Bronza davrida ilk madaniyat namunalari (miloddan avvalgi III–II-mingyillik boshlari)	8
1.3. Qadimgi Baqtriya madaniyati (miloddan avvalgi I-mingyillik boshlari – miloddan avvalgi IV-asr)	10
1.4. Baqtrianing makedoniyalik Iskandar va ellistik davlatlar davri madaniyati (miloddan avv. 329-yil – mil. avv. II-asr o‘rtalari)	12
1.5. O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlardagi davlatlari madaniyati	14
1.6. Amir Temur va temuriylar davrida madaniy taraqqiyot.....	31
1.7. Uch xonlik davrida ijtimoiy-madaniy rivojlanishning orqaga ketishi, sabab va oqibatlari	37
1.8. Chor Rossiyasi va sho‘rolar mustamlakasi davrida yevropacha madaniyatning kirib kelishi va ruslash-tirish siyosatining oqibatlari	44

II. IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Ijtimoiy-madaniy faoliyat evolyutsiyasi	49
2.2. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy tamoyillari, vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlari	58
2.3. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning pedagogik asoslari	62
2.4. Davlat, jamoat va boshqa tashkilotlar ijtimoiy-madaniy faoliyat subyekti sifatida	66
2.5. Ijtimoiy-madaniy faoliyat vositalari	78

2.6. Ijtimoiy-madaniy faoliyat usullari.....	85
2.7. Ijtimoiy-madaniy soha xodimining faoliyat bilan bog'liq fazilatlari	90
2.8. Ijtimoiy- madaniy faoliyat xodimining maqomi va kasb axloqi.....	95

III. IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH SOHALARI

3.1. Xalq badiiy madaniyati va ijodiyoti	101
3.2. Madaniy xordiq faoliyati	120
3.3. Ijtimoiy-madaniy faoliyat va jamoatchilik nazorati	128
3.4. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda muzeylarning roli.....	137
3.5. Mutolaa – ijtimoiy-madaniy faoliyatning harakat- lantiruvchi kuchi sifatida	144
3.6. Ijtimoiy-madaniy faoliyat va inson kapitali.....	160
3.7. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida milliy g'oya va ma'naviyat targ'iboti samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyanoma	166
3.8. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda inson omili	172
3.9. Madaniy antropologiya va milliy mentalitet	176
3.10. Ijtimoiy-madaniy faoliyat orqali mafkuraviy zombi qilishga qarshi kurash	199
3.11. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda ma'naviyat va milliy mentalitet omilidan foydalanish.....	209
3.12. Ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar- ning hayotiy mo'ljallari va ta'lim qadriyatları	219
3.13. Tashkilot va tashkilotchilik madaniyati.....	221
3.14. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ularning turlari va ahamiyati	227
3.15. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda gorizontal va vertikal yondashuv nisbati.....	240
3.16. Ijtimoiy-madaniy faoliyat va sog'lom turmush tarzi targ'iboti.....	253

3.17. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda kompromiss va konsensus nisbati.....	259
3.18. Havaskorlik ijodiyotining dolzarb masalalari.....	266
3.19. Vorisiylik va ma'naviyat uyg'unligi	272
3.20. Oila va ijtimoiy-madaniy faoliyat.....	281
Anketa.....	291
Glossariy	297
Uslubiy ko'rsatma va topshiriqlar	323
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	328

M. BEKMURODOV, A. UMAROV,
U. QORABOYEV, Z. HAYDAROV

**IJTIMOY-MADANIY FAOLIYAT TARIXI,
NAZARIYASI VA USLUBIYATI**

Toshkent «Ma’naviyat» 2016

Muharrir R. *Qo’chqorov*
Rassom *Sh. Sohibov*
Musahhih *S. Toshqulova*
Kompyuterda tayyorlovchi *G. Xo’jamova*

Litsenziya AI №189, 10.05.2011-yilda berilgan.
Bosishga 10.01.2017-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.
Tayms garniturasi. Ofset bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 17,64.
Nashr tabo'i 18,04. 1000 nusxa. Buyurtma № 17-04.
Narxi shartnoma asosida.

«Ma’naviyat» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
100047. Toshkent, Taraqqiyot 2-berko‘cha, 2-uy. Sharhnomalar № 29-16.

IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT TARIXI,
NAZARIYASI VA USLUBIYATI

Manaviyat

ISBN 978-9943-04-301-5



9 789943 043015